

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI**  
**MALAKA OSHIRISH INSTITUTI**



**ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINI**  
**BOSHLANG‘ICH VA MAXSUS KASBIY**  
**TAYYORLASH**

**DARSLIK**  
**I-qism**

**TOSHKENT-2026**

***O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti  
Kengashida ma’qullangan***

***Mas’ul muharrir:***

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti boshlig‘i,  
t.f.n., professor, polkovnik

**O.T. Axmedov**

***Taqrizchilar:***

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Yuridik fanlar kafedrası  
professori, yu.f.n., professor, podpolkovnik

**J.S.Muxtorov;**

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Maxsus-kasbiy fanlar  
kafedrası professori, yu.f.b.f.d (PhD), dotsent, podpolkovnik

**M.T.Ummatov;**

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Fuqaroviy-huquqiy fanlar kafedrası  
boshlig‘i yu.f.b.f.d (PhD), dotsent, podpolkovnik

**X.M.Qlichev**

**Mualliflar jamoasi:**

**N.B.Shoimov** yu.f.n., dotsent, **A.S.Vaxidov** dotsent – I- va II-boblar;

**O‘.M.Otayev** dotsent, **A.M.Abjalov** s.f.b.f.d. (PhD), professor – III-bob;

**B.B.Turgunboyev, Z.B.Xasanov** – IV-bob;

**B.A.Ulugbekov** yu.f.b.f.d (PhD), dotsent, **N.L.Melikulov** – V-bob;

**F.S.Axmedov, Z.N.Xojibekov, U.M.Otayev** – VI-bob;

**K.S.Beysenov** dotsent, **N.Z.Tasimov** dotsent, **J.M.Boboyorov** – VII-bob;

**A.S.Vaxidov** dotsent, **F.B.Matyakubova, Sh.K.Raximov** – VIII- va IX-boblar;

**I.M.Xakimova** – X-bob;

**To‘rayev I.E.** t.f.b.f.d (PhD), **Z.B.Bairov** – XI-bob.

**I-84 Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang‘ich va maxsus kasbiy tayyorlash:**  
darslik I-qism / – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti,  
2026-y. – 258 b.

Ushbu darslik Ichki ishlar organlarida xizmat faoliyatini olib borayotgan xodimlar, IIV ta‘lim muassasalari tinglovchi (kursant)lari uchun mo‘ljallangan. Darslikda ichki ishlar organlarining tashkiliy tuzilishi, asosiy vazifalari, faoliyat yo‘nalishlari va prinsiplari, huquq va majburiyatlari, qonunda belgilangan ayrim hollarda jismoniy kuch ishlatish, majburlov choralari hamda maxsus vositalar, o‘qotar qurolni qo‘llash asoslari va tartibi, ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining faoliyati, shuningdek ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat o‘tash tartibi, ularni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish asoslari yoritilgan.

**UO‘K 352.74:378.6(075.8)**

**BBK 67.401.213**

**© O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti, 2026.**

## SO‘Z BOSHI

Bugungi davr globallashtirish jarayonida yurt tinchligi va osoyishtaligi, inson huquq va erkinligi, qonuniy manfaatlariga tajovuz va tahdidlar kuchayib borayotgan sharoitda jamoat tartibi hamda xavfsizligini, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashni ta'minlash kundan-kunga murakkablashib, yanada dolzarb vazifaga aylanmoqda. Ushbu vazifalarni talab darajasida bajarish, avvalambor, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, xususan ichki ishlar organlari xodimlari zimmasiga mas'uliyatli vazifalarni bajarishni yuklamoqda.

Mazkur vazifalardan kelib chiqib, IIO xodimlari yuritimizda jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va aholining muammolarini hal etishga yo'naltirilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishidagi ishlarni "Xalq manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro maqsadli hamkorligi yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas'ul davlat tuzilmalariga o'z faoliyatini "Barcha sa'y-harakatlar inson qadri uchun" degan ustuvor g'oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda."<sup>1</sup> Xususan, 2024-yilda respublikada har 100 ming aholiga 199 ta jinoyat to'g'ri kelgan (2023-yilda bu ko'rsatkich 100 ming aholi soniga 289 tani tashkil qilgan)<sup>2</sup> o'tgan yilning shu davriga nisbatan 31 foizga kamayishiga erishilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son, 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son farmonlari va ular ijrosi doirasida qabul qilingan qonun hujjatlari asosida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash tizimida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, ya'ni 2024-yilda huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlarining tashabbusi bilan 27 953 ta jinoyat

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoni.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yalpi majlisiga 2023-yil yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati to'g'risidagi axboroti. <https://gov.uz/uz/iiv/pages/ichki-ishlar-vazirligi-faoliyatiga-oid-hisobotlar>.

aniqlangan bo‘lib, mazkur amaliyot 23,4 foizga (2023-yil 12 oyida – 22 661 ta) yaxshilangan. Bundan tashqari, 2024-yilda respublikada sodir etilgan jami jinoyatlarning 92,4 foizi fosh etildi (2023-yilda jami jinoyatlarning 87,2 foizi fosh etilgan), 2024-yilda jami mahallalarning 30,6 foizida jinoyat sodir etilishiga yo‘l qo‘yilmagan (bu ko‘rstkich, 2023-yilda jami mahallalarning 31,5 foizini tashkil qilgan)<sup>3</sup>.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida bunday yutuqlarga erishishda ichki ishlar organlari, uning asosiy vazifalarini bajarish bo‘yicha faoliyat olib boruvchi sohaviy xizmatlarning o‘rni nihoyatda katta. “Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang‘ich va maxsus kasbiy tayyorlash” darsligi O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti va kasbiy tayyorlash fakulteti tinglovchilariga o‘qitiladigan shu nomdagi o‘quv kurslarining o‘quv dasturlari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, u birinchi va ikkinchi qismlardan iborat.

Darslikning birinchi bo‘limida o‘quv blok-modulining predmeti, maqsadi, vazifalari, tuzilishi, ichki ishlar organlarining faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tasnifi, ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari, faoliyat yo‘nalishlari va prinsiplari, tizimi, tuzilishi va xizmatni o‘tash, shuningdek, ayrim majburlov choralari qo‘llash tartibi, jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni va o‘qotar qurolni qo‘llash tartibi va shartlari, tibbiy tayyorgarlik va ish yuritish faoliyatlari yoritilgan. Ikkinchi qismida esa ichki ishlar organlarining asosiy, xususan: jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash, ma’muriy nazorat, maxsus muassasalar va konvoy, nazorat-litsenziya, migratsiya va personallashtirish jarayonini tartibga solish, yo‘l harakati, turizm va transportda xavfsizlikni ta’minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi, jazoni ijro etish kabi faoliyat yo‘nalishlarining tashkiliy va huquqiy asoslarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Ichki ishlar organlarining transportda, shuningdek favqulodda vaziyatlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash faoliyati, ular tomonidan jismoniy kuch ishlatish, ayrim majburlov choralari, maxsus vositalar va o‘qotar qurolni qo‘llash asoslari va tartibi amaldagi qonun hujjatlari asosida yoritib berilgan.

Bundan tashqari, ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat o‘tash tartibi va shartlari, ularni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish asoslari alohida boblarda keng yoritilgan. Mualliflar har bir mavzuni bugungi kunda ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar jarayonini, ularni amalga oshirishga oid, shuningdek sohaviy xizmatlarning faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlar hamda bu yo‘nalishdagi amaliyotni tahlil qilgan holda yoritib berishga harakat qilishgan.

Darslik, IIV Malaka oshirish institutida tashkil etiladigan o‘quv kurslari xususan, ichki ishlar organlari faoliyatini amalga oshirish uchun boshlang‘ich va maxsus kasbiy tayyorlashga qabul qilingan tinglovchilarga zarur kasbiy bilimlarni o‘rganish va ularni amaliyotda samarali qo‘llash uchun mo‘ljallangan.

---

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining huquqbuzarliklarni oldini olish va ularning profilaktikasi bo‘yicha 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar holati to‘g‘risidagi axboroti. <https://gov.uz/uz/iiv/pages/ichki-ishlar-vazirligi-faoliyatiga-oid-hisobotlar>.

## I-QISM

## I BOB

**“ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINI BOSHLANG‘ICH VA MAXSUS KASBIY TAYYORLASH” BLOK-MODULINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI**

**1-§. “Ichki ishlar organlari faoliyatida boshlang‘ich va maxsus kasbiy tayyorgarlik” blok-modulining predmeti va tuzilishi**

*Agar davlat tayanadigan asosiy ustun qonun bo‘lsa, uning kuchini amalda namoyon etadigan eng samarali tizim - bu ichki ishlar sohasi, desak, ayni haqiqat bo‘ladi.*

*Shavkat Mirziyoyev*

“Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang‘ich va maxsus kasbiy tayyorlash” O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish institutida o‘rganiladigan kasbiy modullardan biridir. Ushbu modulda ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari, faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, prinsiplari hamda ularning mazmun-mohiyati, tarkibiy tuzilma va sohaviy xizmatlarining tashkiliy-huquqiy asoslari hamda ushbu faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar o‘rganiladi.

Modulning predmeti (mazmuni) Malaka oshirish instituti Maxsus fanlar sikli tomonidan ham o‘rganilishini inobatga olgan holda belgilangan. Ushbu modulning nazariy qoidalari “Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang‘ich va maxsus kasbiy tayyorlash” moduli uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, modulning mazmunini belgilashda ichki ishlar organlari, uning sohaviy xizmatlari va tarkibiy tuzilmalarining tashkil qilinishi hamda faoliyatiga doir ayrim masalalar boshqa kasbiy va yuridik fanlar doirasida o‘rganilishi ham hisobga olingan.

**Modulning tizimi (tuzilishi)**

Har bir o‘quv blok-moduli o‘z mazmuniga mos keluvchi asosiy masalalar (mavzular)ning ichki uyg‘un, mantiqiy izchil majmuini o‘zida aks ettirgan tuzilishiga ega. “Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang‘ich va maxsus kasbiy tayyorlash faoliyati” blok-modulining tuzilishi ichki ishlar organlari tizimi, ularning majburiyatlari va huquqlari, uning asosiy faoliyatini amalga oshiruvchi sohaviy xizmatlari, ular faoliyatida ayrim majburlov choralari qo‘llanilishi, jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni va o‘qotar qurolni qo‘llash asoslari va tartibi, ichki ishlar organlarida xizmatni o‘tash tartibi va shartlari, xodimlarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish shakl va usullarini o‘rganuvchi maxsus fan sifatidagi predmeti (mavzular mazmuni) bilan bog‘liq.

Blok-modul tizimi ichki ishlar organlari faoliyati yo‘nalishlarida yuzaga keladigan munosabatlarning real tizimiga asoslanadi. Ushbu munosabatlar ikki guruhga bo‘linadi: ichki ishlar organlari faoliyatning barcha yo‘nalishlariga xos munosabatlar hamda uning asosiy sohaviy xizmatlari faoliyatiga oid munosabatlar.

Ichki ishlar organlari faoliyatiga oid qonun hujjatlari, xususan O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunining, shuningdek tizimda tub islohotlarni o'tkazilishini belgilab bergan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari talablaridan kelib chiqqan holda mazkur blok-modul ikki qism, yigirma ikki bobdan iborat.

**I bob** "Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang'ich va maxsus kasbiy tayyorlash" blok-modulning predmeti, maqsadi va vazifalari" deb nomlanib, unda mazkur blok-modulning predmeti, tuzilishi, maqsadi, funksiyasi va vazifalarining mazmun-mohiyati yoritilgan.

**II bob** "Ichki ishlar organlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar"ga bag'ishlangan bo'lib, unda Ichki ishlar organlari faoliyatini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining qonunlarini mazmun-mohiyati, Ichki ishlar organlari faoliyatini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlarini, Vazirlar Mahkamasining qarorlarini mazmuni va mohiyati hamda Ichki ishlar organlari faoliyatini belgilovchi O'zbekiston Respublikasi IIVning me'yoriy huquqiy hujjatlarining mazmuni va mohiyatiga oid asosiy qoidalarni o'rganish nazarda tutilgan.

**III bob** "Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari, faoliyat yo'nalishlari va prinsiplari"ga tegishli bo'lgan masalalarni o'z ichiga olgan, ya'ni ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari, ichki ishlar organlarining asosiy faoliyat yo'nalishlari hamda ichki ishlar organlarining asosiy prinsiplari haqidagi asosiy qoidalar o'rganiladi.

**IV bob** "Ichki ishlar organlarining tizimi va tashkiliy tuzilishi"ga oid bo'lgan ichki ishlar organlarining tizimi, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining huquqiy maqomi, hududiy ichki ishlar organlarining huquqiy maqomi, shahar (tuman) ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmalarining huquqiy maqomi, shuningdek, ichki ishlar bo'limlarining huquqiy maqomi haqidagi masalalarni o'rganishga bag'ishlangan.

**V bob** "Ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash tartibi va shartlari" deb nomlangan bo'lib, unda ichki ishlar organlarida xizmatga qabul qilish, ichki ishlar organlari xodimi va ularning maxsus unvonlari, xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda attestatsiya o'tkazishni tashkil etish tartibi, ichki ishlar organlari xodimlariga ta'tillar va malaka toifasini berish tartibi va ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat kiyimini kiyish madaniyati hamda ichki ishlar organlaridagi xizmat va undan bo'shatish masalalari yoritilgan.

**VI bob** "Ichki ishlar organlari tomonidan ayrim majburlov choralarini qo'llash tartibi va shartlari"ga oid mavzu doirasida ichki ishlar organlari tomonidan shaxslarni ushlab turish asoslari va tartibi, hududdagi uchastkalarni, turar joylarni, inshootlarni va boshqa ob'ektlarni o'rab olish (to'sib qo'yish), shuningdek, tashkilotlar va fuqarolarning transport vositalaridan foydalanish tartibi va shartlari o'rganiladi.

**VII bob** "Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni va o'qotar qurolni qo'llash tartibi va shartlari" deb nomlangan bo'lib, unda ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan jismoniy kuch ishlatish, o'qotar qurollarni va maxsus vositalarni, xususan rezina tayoqlar,

ko‘zdan yosh oqizuvchi moddalar, gazli, shikastlantiruvchi qurol, qo‘l kishanlar yoki boshqa bog‘lash, maxsus bo‘yovchi va markirovka qiluvchi vositalar, elektroshok qurilmalari, xizmat hayvonlari, chalg‘itma ta‘sir ko‘rsatuvchi nur-tovush moslamalari, transport vositalarini majburiy to‘xtatish vositalari, suv bilan zarba beruvchi mashinalar, zirxli mashinalar, muhofaza qilinadigan ob‘ektlarni (hududlarni) himoya qilish, g‘ayriqonuniy harakatlar sodir etayotgan fuqarolar guruhlarining harakatlanishini to‘shish vositalari, to‘siq-g‘ovlarni bartaraf etuvchi vositalarni, shuningdek o‘qotar qurolni qo‘llashning asoslari, tartibi hamda shartlari yoritilgan.

**VIII bob** “Ichki ishlar organlarining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash faoliyati”ga tegishli bo‘lib, bu bobda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari tushunchasi va mohiyati, ichki ishlar organlarida jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslar vakillarini qabul qilish va ichki ishlar organlarida jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko‘rib chiqish va hal etish kabi masalalar o‘z aksini topgan.

**IX bob** “Ichki ishlar organlarining ish yuritish faoliyati”ga oid bo‘lgan masalalarni, xususan ichki ishlar organlarida ish yuritishning ahamiyati, ichki ishlar organlarining ish yuritish sohasidagi vazifalari va funksiyalari, shuningdek xizmat hujjatlarini rasmiylashtirishda belgilangan umumiy talablar va rasmiylashtirish tartibi o‘rganiladi.

**X bob** “Kasbiy psixologiya”ga taalluqli bo‘lib, xususan professional imij va muloqot etiketi, konfliktologiya: nizoli holatlar prevensiyasi, deeskalatsiya san‘ati: tajovuzkorlik va qarshilikni so‘ndirish, stress-menejment va affektiv holatlarni boshqarish, olomon psixologiyasi va ommaviy jarayonlarni boshqarish o‘rganiladi.

**XI bob** “Ichki ishlar organlarida birinchi tibbiy tayyorgarlik”ka bag‘ishlangan bo‘lib, unda shaxsiy gigiyena, birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish, qon ketishi va qon ketganda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish, ekstremal holatlar (klinik o‘lim)da birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish, kuyishlarda ko‘rsatiladigan birinchi tibbiy yordam, sovuq olishi va muzlashda ko‘rsatiladigan birinchi tibbiy yordam, suyaklar singanda va shikastlanganda birinchi tibbiy yordam, jarohatlarni bog‘lash qoidalari, jarohatlanganlar immobilizatsiyasi va ularni shifoxonagacha tashish (transportirovka qilish)ni tashkil etish kabi masalalarni o‘rganish nazarda tutilgan.

## **II-QISM**

**XII bob** “Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta‘minlash faoliyati”ga oid va unda ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta‘minlash faoliyatining mohiyati va ahamiyati, ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta‘minlash sohalari bo‘yicha asosiy vazifalari va funksiyalari hamda ichki ishlar organlari tomonidan jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta‘minlashning kuch va vositalari haqidagi masalalarni o‘rganishga bag‘ishlangan.

**XIII bob** “Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta‘minlash” deb ataladi va unda ommaviy tadbirlar tushunchasi va turlari, ichki ishlar organlarining ommaviy tadbirlarni o‘tkazish

tartibi va shartlari, ichki ishlar organlarining ommaviy tadbirlarni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish vaqtida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha asosiy vazifalari kabi masalalar yoritilgan.

**XIV bob** "Ichki ishlar organlarining favqulodda vaziyatlar sharoitidagi faoliyati"ga bag'ishlangan bo'lib, unda tabiiy, texnogen va ijtimoiy krimenogen xususiyatga ega bo'lgan favqulodda vaziyatlar tushunchasi va turlari, ular vujudga kelgan sharoitda ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari, aholini favqulodda vaziyatlardan himoya qilish tizimi va ichki ishlar organlarining favqulodda vaziyatlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash faoliyatini tashkil etish ichki ishlar organlarining bu sohadagi vazifalari, shuningdek mazkur vazifalarni amalga oshirishning huquqiy asoslari, tartibi va shartlarini o'rganish nazarda tutilgan.

**XV bob** "Ichki ishlar organlari maxsus muassasalari, konvoy va nazorat-litsenziya xizmatlarining faoliyati" deb nomlanadi va unda ichki ishlar organlari maxsus muassasalarining huquqiy maqomi va faoliyatining asosiy yo'nalishlari, ichki ishlar organlari konvoy xizmatlarining faoliyati va asosiy vazifalari, shuningdek ichki ishlar organlari nazorat-litsenziya faoliyatining mohiyati va ahamiyati masalalarini o'rganish ko'zda tutilgan.

**XVI bob** "Ichki ishlar organlarining yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash faoliyati" deb nomlanib, ushbu bob ichki ishlar organlarining yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash faoliyatining huquqiy asoslari va mazmun-mohiyati, ichki ishlar organlarining yo'l harakati xavfsizligi xizmatlari tizimi, shuningdek, ichki ishlar organlari yo'l harakati xavfsizligi xizmatlarining asosiy vazifalari kabi masalalarni o'rganishga bag'ishlangan.

**XVII bob** "Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati" deb nomlanib, ushbu bobda ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatining huquqiy asoslari, tizimi tushunchasi, ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatini vazifalari hamda ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatini majburiyatlari masalalarini o'rganishga bag'ishlangan.

**XVIII bob** "Ichki ishlar organlarining ma'muriy nazorat faoliyati" deb ataladi va unda ichki ishlar organlarining ma'muriy nazorat faoliyatining mohiyati, ahamiyati va turlari hamda ichki ishlar organlari faoliyatida maxsus ma'muriy nazoratni o'rnatish va ta'minlash tartibi kabi masalalar qayd etilgan.

**XIX bob** "Ichki ishlar organlari jazoni ijro etish faoliyati" masalasiga oid bo'lib, unda jazoni ijro etuvchi muassasalarining huquqiy maqomi va faoliyatining asosiy yo'nalishlari, jazoni ijro etuvchi muassasalar tizimi hamda ularning vazifalari, jazoni ijro etuvchi muassasalarining majburiyatlari va jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib-qoidalari kabi masalalar o'z aksini topgan.

**XX bob** "Ichki ishlar organlarining migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmatlari faoliyati"ga bag'ishlangan va mazkur bobda pasport tizimi tushunchasi, mohiyati va vazifalari, ichki ishlar organlarining pasport tizimi qoidalariga rioya etishni ta'minlash bo'yicha vazifalari hamda ichki ishlar organlarining fuqarolikni rasmiylashtirish bo'yicha vazifalari kabi masalalar o'rganiladi.

**XXI bob** “Ichki ishlar organlarining transport va turizm ob’ektlarida xavfsizlikni ta’minlash faoliyati” deb nomlanadi va unda ichki ishlar organlarining transportda xavfsizlikni ta’minlash faoliyatining ahamiyati, ichki ishlar organlarining transportda xavfsizlikni ta’minlash xizmatlarining tizimi, faoliyatining asosiy yo’nalishlari va vazifalari, ichki ishlar organlarining turizm ob’ektlarida xavfsizlikni ta’minlash faoliyati, shuningdek, ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘linmalari tomonidan shartnoma asosida pullik xizmatlar ko‘rsatish tartibi kabi masalalar o‘rganiladi.

**XXII bob** “Ichki ishlar organlari qo‘riqlash faoliyati” deb nomlanadi va unda qo‘riqlash xizmatining huquqiy maqomi va faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, qo‘riqlash xizmati tizimi hamda ularning vazifalari, qo‘riqlash xizmatining huquqlari va majburiyatlari, qo‘riqlanadigan ob’ektlarda xavfsizlikni ta’minlash faoliyati, ichki ishlar organlarining qo‘riqlash bo‘linmalari tomonidan shartnoma asosida pullik xizmatlar ko‘rsatish tartibi kabi masalalar o‘rganiladi.



### Savol va topshiriqlar:

1. Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang‘ich va maxsus kasbiy tayyorlash blok-modulning predmetiga nimalar kiradi va ularni izohlab bering.
2. Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang‘ich va maxsus kasbiy tayyorlash blok-moduli qanday umumta’lim, umumkasbiy va boshqa maxsus fanlar bilan aloqador va ularning bog‘liqligini tushuntirib bering?
3. Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang‘ich va maxsus kasbiy tayyorlash blok-modulining tuzilishi deganda nima tushuniladi?
4. Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang‘ich va maxsus kasbiy tayyorlash blok-modulining bo‘limlari va ularning mavzularida nimalar o‘rganiladi?

## 2-§. “Ichki ishlar organlari faoliyatida boshlang‘ich va maxsus kasbiy tayyorgarlik” blok-modulining maqsad, funksiyasi va vazifalari

“Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang‘ich va maxsus kasbiy tayyorlash” modulining **asosiy maqsadi** - ichki ishlar organlari, uning sohaviy xizmatlari tomonidan fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasini ta’minlash bo‘yicha faoliyatni samarali amalga oshirish borasida zarur nazariy bilimlarni ishlab chiqish hamda amaliyotda qo‘llash uchun yetkazib berishdan iborat.

“Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang‘ich va maxsus kasbiy tayyorlash” modulining asosiy vazifasi ichki ishlar organlari, uning sohaviy xizmatlari, ular tarkibiy tuzilmalarining mamlakatda, uning ma’muriy-hududiy birliklarida amaldagi qonun hujjatlari bilan belgilangan vakolatlar doirasida faoliyat yo‘nalishlarini amalga oshirish bilan bog‘liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni va bu sohadagi muammolarni ilmiy tadqiq qilish natijalari asosida nazariy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Har bir fan va moduldagi, xususan, “Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang'ich va maxsus kasbiy tayyorlash” modulidagi nazariya asosan quyidagi funksiyalarni bajaradi: tavsiflash, izohlash, prognozlash va tartibga solish.

**Tavsiflash funksiyasi** orqali “Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang'ich va maxsus kasbiy tayyorlash” moduli ichki ishlar organlari, uning jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlovchi sohaviy xizmatlari, ular tarkibiy tuzilmalarining faoliyatini tashkil etib, muvofiqlashtiradi, shuningdek ularning natijalarini tahlil etadi hamda ularga baho beradi.

**Izohlash funksiyasi** orqali “Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang'ich va maxsus kasbiy tayyorlash” moduli, ichki ishlar organlari faoliyatining qonuniyatlarini, ularga ta'sir qiluvchi omillarni, sohaviy xizmatlarining faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish va boshqarish usullari, shakllari va mexanizmlarini izohlab beradi.

**Prognozlash funksiyasi** orqali “Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang'ich va maxsus kasbiy tayyorlash” moduli, ichki ishlar organlari faoliyati qonuniyatlarini, ularga ta'sir qiluvchi omillarni, ular bilan bog'liq bo'lgan muammolarning kelgusida ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish sohasida keltirib chiqaradigan oqibatlarini oldindan belgilaydi, ichki ishlar organlari, xususan sohaviy xizmatlari faoliyatini samarali tashkil etish uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish kerakligini ko'rsatib beradi.

**Tartibga solish funksiyasi** orqali “Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang'ich va maxsus kasbiy tayyorlash” moduli, ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari faoliyatining barcha yo'nalish va turlarining ilmiy asoslarini ishlab chiqadi. Albatta, bunda “Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang'ich va maxsus kasbiy tayyorlash” moduli ijtimoiy-gumanitar, yuridik, kasbiy va mutaxassislik fanlarining ichki ishlar organlari kuch va vositalari faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish va boshqarish haqidagi nazariy bilimlarga asoslanadi.

“Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang'ich va maxsus kasbiy tayyorlash” moduli uning predmetiga kiruvchi masalalarni o'rganishda ilmiy tadqiqot ishlarini birinchidan, ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining faoliyati sub'ektlari va ob'ektlarining bugungi holatini, ijtimoiy hayotdagi voqea, hodisa va jarayonlarning ularga ta'sirini tahlil etish, ikkinchidan, ichki ishlar organlari faoliyatini amalga oshiruvchi tarkibiy tuzilmalarining va ular bilan hamkorlik qiluvchi sub'ektlar faoliyatini tashkil etishning yo'nalish, shakl hamda usullarini tadqiq etish orqali olib boradi. Ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining faoliyati bo'yicha aniq chora-tadbirlarning amalga oshirilishida har bir holatning avvalgi, hozirgi va kelgusi natijalarini e'tiborga oladi. Bunda ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari faoliyatining bugungi holatini tadqiq qilish orqali ushbu modul asosan tavsiflovchi, tushuntiruvchi vazifalarni bajarsa, keyingi o'rinlarda ularning kelajakdagi faoliyatini takomillashtirishga xizmat qilishni avvaldan ko'ra bilish yoki bashorat qilish, shuningdek tartibga soluvchi kabi funksiyalarni amalga oshirishni ko'zda tutishi lozim.

Ko‘rinib turibdiki, “Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang‘ich va maxsus kasbiy tayyorlash” modulining yuqorida keltirilgan har bir funksiyasi hamda ularning doirasida amalga oshiriladigan vazifalar bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Shuning uchun ham ular umumlashgan tarzda ichki ishlar organlari faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish uchun zarur ilmiy-nazariy bilimlarni shakllantirish vazifasini bajaradi. Aynan shu ilmiy-nazariy bilimlar ushbu sohadagi barcha tadqiqot ishlarida muhim o‘rin tutishini e‘tiborga olish lozim.

“Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang‘ich va maxsus kasbiy tayyorlash” moduli:

- ichki ishlar organlari faoliyatiga oid ta‘limotlar va uning bugungi holatini;
- ichki ishlar organlari faoliyati va uni amalga oshirishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni hamda ularni amaliyotda qo‘llash bilan bog‘liq muammolarni;

- ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari, asosiy faoliyat yo‘nalishlari hamda asosiy prinsiplari va umuman, ichki ishlar organlari faoliyatining tashkiliy-taktik asoslari hamda unga ta‘sir qiluvchi omillarni;

- ichki ishlar organlari faoliyati sub‘ektlari tizimi va ularning huquqiy maqomini;

- ichki ishlar organlari faoliyati ob‘ektlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini;

- ichki ishlar organlari faoliyatida amalga oshirilayotgan islohotlarni;

- ichki ishlar organlari faoliyatini axborot bilan ta‘minlash va muvofiqlashtirishni;

- ichki ishlar organlaridagi xizmatga qabul qilish, ichki ishlar organlari xodimi va ularning maxsus unvonlari, xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda attestatsiya o‘tkazishni tashkil etish tartibi, ichki ishlar organlari xodimlariga ta‘tillar va malaka toifasini berish tartibi va ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat kiyimini kiyish madaniyati hamda ichki ishlar organlaridagi xizmat va undan bo‘shatish masalalarini;

- ichki ishlar organlari tomonidan shaxslarni ushlab turish asoslari va tartibi, hududdagi uchastkalarini, turar joylarni, inshootlarni va boshqa ob‘ektlarni o‘rab olish (to‘sib qo‘yish), shuningdek tashkilotlar va fuqarolarning transport vositalaridan foydalanish tartibi va shartlarini;

- ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan jismoniy kuch ishlatish, o‘qotar qurollarni va maxsus vositalarni, xususan rezina tayoqlar, ko‘zdan yosh oqizuvchi moddalar, gazli, shikastlantiruvchi qurol, qo‘l kishanlar yoki boshqa bog‘lash, maxsus bo‘yovchi va markirovka qiluvchi vositalari, elektrohok qurilmalari, xizmat hayvonlari, chalg‘itma ta‘sir ko‘rsatuvchi nur-tovush moslamalari, transport vositalarini majburiy to‘xtatish vositalari, suv bilan zarba beruvchi mashinalar, zirxli mashinalar, muhofaza qilinadigan ob‘ektlarni (hududlarni) himoya qilish, g‘ayriqonuniy harakatlar sodir etayotgan fuqarolar guruhlarining harakatlanishini to‘shish vositalari, to‘siq-g‘ovlarni bartaraf etuvchi vositalarni, shuningdek o‘qotar qurolni qo‘llashning asoslari, tartibi hamda shartlarini;

- birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, to'satdan yurak to'xtashida birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, jarohatlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, termik kuyishda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, cho'kayotgan va cho'kkan shaxsga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, muzlash va sovuq urishida birinchi tibbiy yordam ko'rsatish va ko'karishlar, yaralar va sinishlar uchun bintlarni qo'llash usullari hamda suyaklarning shikastlanishi va sinishi uchun immobilizatsiya qiluvchi shinalar va bintlarni qo'llash texnikasi kabi masalalarni;

- ichki ishlar organlarida ish yuritishning ahamiyati, ichki ishlar organlarining ish yuritish sohasidagi vazifalari va funksiyalari, shuningdek xizmat hujjatlarni rasmiylashtirishda belgilangan umumiy talablar va rasmiylashtirish tartibini;

- ichki ishlar organlarida jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslar vakillarini qabul qilish va ichki ishlar organlarida jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko'rib chiqish va hal etish kabi masalalarni;

- patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash, davlat yo'l harakati xavfsizligi, migratsiya va personallashtirish xizmatlarining, konvoy xizmatlarining, jazoni ijro etuvchi muassasalarning, shuningdek transport va turizm ob'ektlarida xavfsizlikni ta'minlash bo'linmalari faoliyatini;

- ichki ishlar organlarining ommaviy tadbirlarni o'tkazish vaqtida, shuningdek alohida sharoitlarda jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyatini;

- ichki ishlar organlarining ommaviy tartibsizliklar vaqtida jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyatiga oid bo'lgan masalalarni tadqiq etish vazifalarini ham amalga oshiradi.

Jamiyat ijtimoiy hayotining barcha sohalarini demokratlashtirish, shu jumladan davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatini ochiqqligi hamda shaffofligini ta'minlash, sud-huquq, xususan, ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish borasida, faoliyatni tanqidiy tahlil va qattiq tartib intizom asosida olib borish bo'yicha qo'yilayotgan vazifalar hamda barcha ijtimoiy-gumanitar va yuridik fanlar qatorida "Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang'ich va maxsus kasbiy tayyorlash" moduli tomonidan o'z ob'ekti va predmetlari doirasida tadqiq etilishini talab qiladi.

Bugungi kunda "Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang'ich va maxsus kasbiy tayyorlash" modulining asosiy vazifalaridan biri ichki ishlar organlarining faoliyatida qonun ustuvorligini ta'minlash hamda qonuniylikni mustahkamlash, ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni samarali bajarishga to'sqinlik qilayotgan omillarni bartaraf etishga qaratilgan ilg'or nazariy bilimlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishni ta'minlashdan iborat. Bu sohada ichki ishlar organlari faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari, idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni tadqiq qilish, mavjud huquqiy bo'shliq va ziddiyatlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga xizmat qiladigan huquq normalarini ishlab chiqish hamda ularning ijrosini ta'minlashning samarali mexanizmlarini amaliyotga joriy etish bugungi kunda ushbu modulning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Modul oldida turgan vazifalardan yana biri mamlakatda, uning ma'muriy-hududiy birliklarida ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari, ularning tarkibiy tuzilmalarining barcha yo'nalishdagi faoliyatida inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan yangi ilg'or pedagogik hamda axborot texnologiyalariga asoslangan bilimlarni ishlab chiqish, takomillashtirish va boyitishdir. Ushbu modul, avvalo, o'zbek xalqining avlodan-avlodga o'tib kelayotgan yuksak ma'naviyatiga, milliy qadriyatlariga oid ta'limotlarni shuningdek, rivojlangan davlatlardagi ilg'or tajribalarni tadqiq qilgan holda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash borasida zamon talablariga javob beradigan nazariy bilimlarni ishlab chiqishi kerak.

Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasida nazariy bilimlarni yanada takomillashtirish ham "Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang'ich va maxsus kasbiy tayyorlash" moduli oldida turgan navbatdagi vazifadir. Chunki jamiyatning demokratiya yo'lidagi jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasiga bog'liqdir.

Yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizimning yetuklik ko'rsatkichidir.

Hammamiz shuni tan olishimiz kerak, jamiyatda qonuniylik, qonun ustuvorligini to'liq ta'minlashning eng muhim shartlaridan biri bu odamlarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash, ularni shu ruhda kamol toptirish, fuqarolarning qonunni puxta bilishi, yuksak huquqiy ong va madaniyatga ega bo'lishidan iborat. Buni esimizdan chiqarmasligimiz zarur<sup>4</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, qonun ustuvorligini ta'minlashda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu nuqtai nazardan qaraganda, yigirma yil avval bu borada qabul qilingan Milliy dasturni yangidan ishlab chiqishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Parlamentimiz jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha yangi Milliy dasturni yaratishda bosh-qosh bo'lishi maqsadga muvofiq<sup>5</sup>.

"Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang'ich va maxsus kasbiy tayyorlash" modulining dolzarb vazifalaridan yana biri respublikamizda demokratik huquqiy davlat hamda adolatli fuqarolik jamiyati barpo etilayotgan bugungi kunda barcha davlat organlari qatorida ichki ishlar organlari faoliyatini demokratlashtirish, ochiqligi va shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladigan nazariy bilimlarni shakllantirishdir. Bu borada ham ushbu modul birinchi navbatda amaldagi qonun hujjatlari, qolaversa, o'zbek xalqining qadriyatlari, mentaliteti, shuningdek rivojlangan davlatlarning bu sohadagi ilg'or tajribasini tadqiq qilgan holda ichki ishlar organlari faoliyatiga bosqichma-bosqich demokratik, ochiqlik

<sup>4</sup> Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko'tarishdan iborat // Xalq so'zi. – 2015-y. – 7 dek.

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. – 2016-y. – 7 dek.

va shaffoflik prinsiplarini joriy etib borishni ta'minlaydigan nazariy bilimlarni shakllantirish hamda amaliyotga joriy etilishini ta'minlashi zarur. "Huquqni muhofaza qilish faoliyatida ochiqlik va oshkoralikni ta'minlash uchun biz, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va aholi bilan samarali hamkorlikni keng yo'lga qo'yamiz. Ayniqsa, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o'zlari tomonidan qonunni buzish bilan bog'liq har qanday holatga prinsipial baho beriladi va qat'iy chora ko'riladi. Bunga hech kimda shubha bo'lmasligi kerak"<sup>6</sup>.

Jamiyatda huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida davlat organlari, xususan ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari o'rtasida, shuningdek ularning boshqa huquqni muhofaza qiluvchi va davlat organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorligini tashkil etishga xizmat qiladigan nazariy bilimlarni yanada boyitish ham ushbu modul oldida turgan dolzarb vazifalardandir.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, "O'zbekistonda tinchlik-osoyishtalik va xavfsizlikni, fuqarolar va millatlararo ahillik, hamjihatlikni ko'z qorachig'idek saqlash hamda mustahkamlash bundan buyon ham eng muhim, hal qiluvchi vazifamiz bo'lib qolishi darkor.

Albatta, bu masala bo'yicha mas'ul bo'lgan tegishli idoralar bor, kuch-qudratimiz ham yetarli. Lekin qachon yurt tinch va obod bo'ladi? Qachonki har qaysi uyda, har qaysi mahallada yashayotgan odam tinchlik va osudalikning qadriga yetib, uni mustahkamlashni, himoyalashni o'zining burchi, deb bilsa, tinchlik uchun kurashsagina bu maqsadga erishish mumkin".

Biz "Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish oliy burchimiz" degan konseptual g'oya asosida jamiyatimizda qonunga hurmat, huquqbuzarlik holatlariga murosasizlik hissini kuchaytirishga qaratilgan ishlarimizni jadal davom ettiramiz. Bu borada huquqbuzarlik holatlarining oldini olishga alohida e'tibor qaratiladi. Buning uchun, avvalo, mahalla imkoniyatlaridan keng foydalanish, profilaktika inspektorlarining ish samarasi va mas'uliyatini oshirish, ular uchun munosib xizmat va turmush sharoitini yaratib berish choralarini ko'rishimiz darkor.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, mahalla oqsoqollari, diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilarning mamlakatda, uning barcha ma'muriy-hududiy birliklarida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashda, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashda, aholi turar-joylarida tinchlik va osoyishtalik, o'zaro hurmat va hamjihatlik, hushyorlik va ogohlik muhitini mustahkamlashdagi mas'uliyati yanada ortadi.

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish institutida "Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang'ich va maxsus kasbiy tayyorlash" modulini o'qitishdan maqsad tinglovchilarni ichki ishlar organlarining faoliyati bilan tanishtirish, mazkur faoliyatni amalga oshirishga tayyorlash, shuningdek ularga

<sup>6</sup> O'sha joyda.

kelgusida amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan talablar darajasida faoliyatni olib borish uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlarni berish, kasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdir.

Mazkur maqsadga erishish uchun "Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang'ich va maxsus kasbiy tayyorlash" modulini o'qitishda quyidagi asosiy vazifalar amalga oshiriladi:

tinglovchilarga davlatning ichki ishlar sohasini boshqarish, jumladan fuqarolarning huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasini ta'minlashning mohiyati va ahamiyatini tushuntirish hamda zarur bilimlarni berish;

tinglovchilarning ichki ishlar organlarining faoliyatini tartibga soluvchi amaldagi qonun hujjatlari haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishiga erishish;

tinglovchilarda jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlashda ishtirok etishga doir masalalarni qonun hujjatlariga muvofiq to'g'ri hal qilish bo'yicha tasavvurni shakllantirish;

tinglovchilarni ichki ishlar organlarining tuzilishi, asosiy sohaviy xizmatlari va ularning faoliyat yo'nalishlari, shakl va usullari hamda ushbu faoliyatda qonuniylikni ta'minlash bilan tanishtirish;

tinglovchilarni ichki ishlar organlari faoliyati yo'nalishlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, huquqbuzarliklarga qarshi ma'muriy-huquqiy usullar bilan kurashish, shuningdek odatdagi va maxsus sharoitlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashni tashkil qilish va ularning taktikasi bilan tanishtirish va hokazo.

"Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang'ich va maxsus kasbiy tayyorlash" modulini o'rganish, har qanday boshqa fan va modullarda bo'lgani kabi, uni o'rganish jarayonida foydalaniladigan usullar orqali amalga oshiriladi.

"Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang'ich va maxsus kasbiy tayyorlash" modulini o'zlashtirish davlat boshqaruvi va mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish bo'yicha fan va modullarni, ilmiy asarlarni, davlat organlari, jumladan ichki ishlar organlarining faoliyatini takomillashtirish, huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash masalalariga doir amaliyotni o'rganishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasining qonunchilik (vakillik) va ijroiya hokimiyat organlari qabul qilgan qonun hujjatlari ushbu fanni o'rganish uchun katta ahamiyatga ega.

Ushbu modulning muvaffaqiyatli o'zlashtirishda jamoat tartibi va xavfsizligini, huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlashda ishtirok etuvchi ichki ishlar organlari va jamoat tuzilmalarining hamkorlikdagi amaliy tajribasini o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi.



### Savol va topshiriqlar:

1. Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang'ich va maxsus kasbiy tayyorlash blok-modulining maqsadini aytib bering?
2. Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang'ich va maxsus kasbiy tayyorlash blok-modulining asosiy vazifalarini aytib bering?
3. Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang'ich va maxsus kasbiy tayyorlash blok-modulining tavsiflash, izohlash, prognozlash va tartibga solish funksiyalari qanday?
4. “Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish oliy burchimiz” degan konseptual g'oyani tushuntirib bering?
5. Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang'ich va maxsus kasbiy tayyorlash blok-modulini o'rganish usullari aytib bering?

**II BOB****ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATINI TARTIBGA  
SOLUVCHI NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR****1-§. Ichki ishlar organlari faoliyatini tartibga soluvchi  
O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining mazmun-mohiyati**

Ichki ishlar organlari faoliyatining huquqiy asoslari deganda, ularning vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlarini belgilovchi va ularni amalga oshirish bo‘yicha faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tushuniladi.

Ichki ishlar organlari faoliyatining huquqiy asoslarini tahlil qilishni biz O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-682-sonli qonuniga<sup>7</sup> asosan ko‘rib chiqsak, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur qonunning 6-moddasida normativ-huquqiy hujjatlarning turlari qayd etilgan va ular quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- O‘zbekiston Respublikasining qonunlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- vazirliklar va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;
- mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Shuni ta’kidlash kerakki, ichki ishlar organlari faoliyatining huquqiy asoslarini tahlil qiladigan bo‘lsak, bunda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatimizning muhim siyosiy-huquqiy hujjati sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Ichki ishlar organlari faoliyatining huquqiy asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ichki ishlar organlariga ham tegishli bo‘lgan sud-huquq islohotlari amalga oshirildi va uning bir qator bo‘lim, bob va moddalarida o‘z aksini topdi. Xususan, ikkinchi bo‘limi “Inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari”ga bag‘ishlangan bo‘lib, uning 19-moddasida qayd etilgan “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar”, degan normaning ijrosini ta’minlaydi.

Shuningdek, Konstitutsiyamizning 25-moddasida “Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir, deb belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi taqiqlanadi”, deb e’tirof etilgan. 26-moddasida “Insonning sha’ni va qadr-qimmatini daxlsiz”dir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emas, deb qayd etilgan.

<sup>7</sup> Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021-y., 03/21/682/0354-son.

Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'rvonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoki jazoga duchor etilishi mumkin emas.

Hech kimda uning roziligisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas. 27-moddasida belgilanganidek, "Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega".

Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas.

Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko'ra yo'l qo'yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas.

"Shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart", Konstitutsiyamizning 28-moddasida belgilanganidek "Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta'minlanadi.

Aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin. Hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas.

Agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas.

Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o'ziga nisbatan insoniy muomalada bo'linishi hamda inson shaxsiga xos bo'lgan sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishi huquqiga ega.

"Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emas", 29-moddasiga ko'ra "Har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko'rsatiladi.

Har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e'tiboran o'z tanloviga ko'ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi ayblovning mohiyati va asoslari to'g'risida xabardor qilinishi, unga qarshi yoki uning foydasiga guvohlik berayotgan shaxslarning so'roq qilinishini talab etish va tarjimon yordamidan foydalanish huquqiga ega.

Qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog'ida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Jinoyat uchun hukm qilingan har kim qonunda belgilangan tartibda hukmning yuqori turuvchi sud tomonidan qayta ko'rib chiqilishi huquqiga, shuningdek afv etish yoki jazoni yengillashtirish to'g'risida iltimos qilish huquqiga ega.

Huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning huquqlari qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jabrlanganlarga himoyalaniшни va odil sudlovdan foydalanishni ta'minlaydi, ularga yetkazilgan zararining o'rni qoplanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi" 30-moddasidagi "Hech kim rasmiy e'lon qilinmagan qonun asosida hukm qilinishi, jazoga tortilishi, mol-mulkidan yoki biron-bir huquqidan mahrum etilishi mumkin emas.

"Hech kim ayni bir jinoyat uchun takroran hukm qilinishi mumkin emas"ligi 31-moddada qayd etilganidek, "Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega".

Har kim yozishmalari, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlarini sir saqlanishi huquqiga ega. Ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi.

Har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek, noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega.

Har kim uy-joy daxlsizligi huquqiga ega.

Hech kim uy-joyga unda yashovchi shaxslarning xohishiga qarshi kirishi mumkin emas. Uy-joyga kirishga, shuningdek unda olib qo'yishni va ko'zdan kechirishni o'tkazishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda yo'l qo'yiladi. Uy-joyda tintuv o'tkazishga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi" 32-moddasidagi "Qonuniy asoslarda O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lib turgan har kim mamlakat bo'ylab erkin harakatlanish, turar va yashash joyini tanlash huquqiga ega, bundan qonunda belgilangan cheklovlar mustasno.

"Har kim O'zbekistondan tashqariga erkin chiqish huquqiga ega, bundan qonunda belgilangan cheklovlar mustasno. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekistonga to'sqinliksiz qaytish huquqiga ega", degan normalarning ijrosini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, Konstitutsiyamizning X bobi "Inson hamda fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlari"– deb nomlangan bo'lib, uning 54-moddasida "Insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadidir".

"Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi" – degan normalarni huquqni muhofaza qilish organlari, xususan ichki ishlar organlari bu huquqni ta'minlovchi organlardan biri sifatida faoliyat yuritadi.

Xullas, Konstitutsiyamiz dunyo siyosiy xaritasida yangi suveren demokratik davlat - O'zbekiston Respublikasi qaror topganligini qonuniylashtirdi. O'tgan yillar ichida asosiy qonunimizga tayanib respublikamizda ichki ishlar organlari

tizimida bir qator islohotlar amalga oshirildi<sup>8</sup>.

Konstitutsiya ichki ishlar organlari faoliyatini tartibga solishning amaldagi huquqiy asosi ekanligi uning yuqorida qayd etilgan moddalarida yaqqol ko‘rinib turadi.

Ichki ishlar organlari faoliyatining huquqiy asoslari sifatida, ya‘ni ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang‘ich va maxsus kasbiy tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasining qonunlari alohida ahamiyatga ega.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli qonunining<sup>9</sup> 5-moddasida ta‘lim olish huquqi qayd etilgan bo‘lib, unga asosan “Jinsi, irqi, millati, tili, dini, e‘tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat‘i nazar, har kimga ta‘lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi. Ta‘lim olish huquqi:

- ta‘lim tashkilotlarini rivojlantirish;
- ta‘lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va o‘quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda amalga oshirish;
- ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy) ta‘lim olishni tashkil etish;
- kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta‘limni va boshlang‘ich professional ta‘limni bepul olish;

- oilada yoki mustaqil o‘qish orqali ta‘lim olgan fuqarolarga, shuningdek umumiy o‘rta ta‘lim olmagan shaxslarga akkreditatsiyadan o‘tgan davlat ta‘lim muassasalarida eksternat (o‘quv yurtida o‘quv dasturini mustaqil o‘zlashtirish) tartibida attestatsiyadan o‘tish huquqini berish orqali ta‘minlanadi”-deb mustahkamlab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrda qabul qilingan “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-407-sonli qonunida<sup>10</sup> ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalari qonunning 31-moddasida aks ettirilgan bo‘lib, unga asosan “Ichki ishlar organlaridagi xizmatga qabul qilinadigan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari majburiy tartibda maxsus kasbiy tayyorgarlikdan yoki qayta tayyorgarlikdan o‘tadi.

Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, xodimlarning malakasini oshirish, qoida tariqasida, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ta‘lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi, bundan ushbu muassasalarda o‘qitilmaydigan ixtisosliklar mustasno.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ta‘lim muassasalarining tinglovchilari va kursantlari ichki ishlar organlarida xizmatda deb hisoblanadi, chet el fuqarolari bundan mustasno” deb belgilab berilgan.

Umuman, ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang‘ich va maxsus kasbiy

<sup>8</sup> Soatov M.Z. O‘zbekiston Konstitutsiyasi – ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asosi. “Konstitutsiya – davlat va jamiyat qurilishi islohotlarining huquqiy asosi”. Ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. 2-to‘plam. – T.: TDYuI nashriyoti, 2006-y. B. 252-256.

<sup>9</sup> Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.

<sup>10</sup> O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016-y., 38-son.

tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrda qabul qilingan “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-407-sonli qonuni alohida o‘ringa ega. Shuning uchun ham bu qonunni alohida modul sifatida o‘rganish yo‘lga qo‘yilgan.



### **Savol va topshiriqlar:**

1. Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang‘ich va maxsus kasbiy tayyorlash blok-modulining huquqiy asoslarini aytib bering?
2. Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang‘ich va maxsus kasbiy tayyorlash blok-modulining huquqiy asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining ahamiyatini tushuntirib bering?
3. Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang‘ich va maxsus kasbiy tayyorlash blok-modulining huquqiy asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasining qonunlarining ahamiyati tushuntirib bering?

## **2-§. Ichki ishlar organlari faoliyatini tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlarining mazmuni va mohiyati**

Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang‘ich va maxsus kasbiy tayyorlashning huquqiy asoslari sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, ya‘ni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta‘minlashda ularning mas‘uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5005-sonli, 2021-yil 26-martdagi “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196-sonli va 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-sonli Farmonlari hamda 2017-yil 16-avgustdagi “Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3216-sonli, 2017-yil 29-noyabrdagi “Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3413-sonli, 2018-yil 23-avgustdagi “Ichki ishlar organlari boshqaruv, nazorat va shaxsiy tarkib bilan ishlashning samarali tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3919-sonli, 2021-yil 2-apreldagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5050-sonli, 2021-yil 15-apreldagi “Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5076-sonli, 2021-yil 30-noyabrdagi “Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining yuridik yo‘nalishdagi bilimlarini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar

to'g'risida"gi PQ-23-sonli va 2023-yil 20-yanvardagi "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-10-sonli qarorlari hamda shu kabi qator farmon va qarorlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularda ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash hamda malakasini oshirishning sifatini oshirish, zamonaviy ta'lim usullarini joriy etish kabi masalalar yoritilgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi PF-5005-sonli "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida<sup>11</sup> keyingi yillarda ichki ishlar organlari faoliyatida to'planib qolgan jiddiy kamchilik va muammolar haqida gap borib, ushbu kamchiliklardan biri, ya'ni sakkizinchi kamchilik aynan ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi hozirgi talablarga javob bermasligi, poraxo'rlik va xizmat mavqeini suiiste'mol qilish holatlari hamon uchrab turganligi qayd etilib, ushbu kamchiliklar ichki ishlar organlari oldiga qo'yilgan vazifalarni samarali bajarishda to'siq bo'layotganligi qayd etiladi.

Shuningdek, ushbu kamchiliklarni bartaraf etish, ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ishonchli himoya qilinishini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari tizimini isloh qilishning eng muhim yo'nalishlari belgilab beriladi. Shu yo'nalishlardan biri ham, ya'ni sakkizinchi yo'nalish, ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish hamda yanada takomillashtirish, ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishiga olib kelayotgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etishga bag'ishlangan.

Farmonda bu kabi muammo va kamchiliklarni hal etish uchun ichki ishlar organlari tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi. Xususan, ichki ishlar organlarini aholiga o'z vaqtida va sifatli yordam ko'rsatadigan ijtimoiy yo'naltirilgan professional xizmatga aylantirish zarurligi, "xalq manfaatlariga xizmat qilish" har bir xodimning asosiy xizmat burchi ekani qayd etildi.

Farmonning oltinchi bandiga asosan, quyidagi ustuvor yo'nalishlar nazarda tutilgan Ichki ishlar organlari tizimini tubdan isloh qilish kompleks chora-tadbirlar Dasturi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlandi:

- ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish, vazifa va funksiyalarini maqbullashtirish bo'yicha institutsional o'zgarishlar;
- ichki ishlar organlarining faoliyatini ochiq va oshkora, shuningdek fuqarolarning ularga ishonchi oshishini ta'minlaydigan tarzda tashkil etish;
- kadrlarni tayyorlash, tanlash va joy-joyiga qo'yishning ilg'or mexanizmlarini joriy etish, ularning malakasi, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 15-son, 243-modda, 37-son, 982-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.06.2018-y.

oshirish orqali kadrlar salohiyatini mustahkamlash;

- ichki ishlar organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

- ichki ishlar organlarining moddiy-texnika bazasi, xodimlarni ijtimoiy himoya qilish va uy-joy-maishiy sharoitlarini yanada yaxshilash.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi “Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3216-son qarorida<sup>12</sup> kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning ta‘lim muassasalarining eng muhim vazifasi etib belgilandi:

**birinchidan** — xodimlarni, shu jumladan ularni xizmat faoliyatidan ajratmagan holda o‘qitish va maxsus kasbiy tayyorlash, majburiy qayta tayyorlash va doimiy malakasini oshirib borishning ichki ishlar organlari kadrlar salohiyatini oshirishga imkon beradigan sifat jihatdan yangi tizimini tashkil etish;

**ikkinchidan** — yoshlarda ichki ishlar organlari xodimlari uchun zarur bo‘lgan dastlabki kasbiy bilim, yuksak vatanparvarlik va ma‘naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishni nazarda tutadigan idoraviy oliy ta‘lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maqsadli tayyorlash bo‘yicha samarali tartibni joriy etish;

**uchinchidan** — asosiy qismi sohaviy fanlarni o‘qitishdan tarkib topgan, shuningdek hududiy ichki ishlar organlariga bevosita chiqishni va tergov-tezkor tadbirlarni o‘tkazishda ishtirok etishni nazarda tutgan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishni o‘z ichiga olgan yangilangan ta‘lim standartlar va o‘quv dasturlarni ishlab chiqish va kiritish;

**to‘rtinchidan** — ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilar tarkibini malakali ilmiy-pedagogik, birinchi navbatda sohaviy fanlarni o‘qitishga ixtisoslashgan kadrlar bilan jamlash, nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarida katta amaliy tajribaga ega bo‘lgan mutaxassislarni o‘quv jarayoniga keng jalb etish;

**beshinchidan** — o‘qitishning zamonaviy shakl va usullarini, eng yangi pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni, shu jumladan situatsion mashg‘ulotlarni, masofadan o‘qitish tizimini keng joriy etish, ta‘lim oluvchilar va o‘qituvchilarni global axborot-huquqiy va ta‘lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini ta‘minlash;

**oltinchidan** — idoraviy ta‘lim muassasalarida o‘qitish yo‘nalishlari va mutaxassisliklarini amaliyot ehtiyojini hamda ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi faoliyatini takomillashtirish istiqbollarini inobatga olgan holda tizimli ravishda maqbullashtirish;

**yettinchidan** — ichki ishlar organlari faoliyatida, birinchi navbatda huquqbuzarliklar profilaktikasi, tezkor-qidiruv faoliyati va jinoyatlarni tergov

<sup>12</sup> O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 22.08.2023-y., 07/23/282/0631-son.

qilish sohasida mavjud bo'lgan muammolar bo'yicha fundamental va amaliyotga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar o'tkazilishi samaradorligini oshirish;

**sakkizinchidan** — yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari bilan kadrlar tayyorlash bo'yicha tajriba almashish, hamkorlikdagi ta'lim dasturlarini joriy etish, professor-o'qituvchilar tarkibini, xorijiy tillarni o'qitishni nazarda tutgan holda, malakasini oshirish va stajirovkadan o'tkazish orqali xalqaro hamkorlikni rivojlantirish muhim vazifa etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi "Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3413-sonli qarori<sup>13</sup> bilan tasdiqlangan Ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizomning 5-bobi aynan xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalasiga bag'ishlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-avgustdagi "Ichki ishlar organlari boshqaruv, nazorat va shaxsiy tarkib bilan ishlashning samarali tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3919-sonli qarori<sup>14</sup> asosida O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Malaka oshirish fakulteti, akademik litseylar bilan ishlash bo'limi, modellashtirish va simulyatsiya markazi hamda pedagogik kadrlar tayyorlash kursi negizida O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti tashkil etildi.

Mazkur qaror bilan IIV Malaka oshirish institutining samarali faoliyatini tashkil etishda quyidagilar uning asosiy vazifalari etib belgilandi:

**birinchidan**, ichki ishlar organlari tizimida malaka oshirishning yagona siyosatini belgilash va amalga oshirish;

**ikkinchidan**, Ichki ishlar vazirligining o'quv markazlari faoliyatini uslubiy muvofiqlashtirishni tashkil etish;

**uchinchidan**, ichki ishlar organlari tizimida malaka oshirishning uzluksiz jarayonini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashishda o'tkazilayotgan islohotlarning mohiyatini xodimlarga o'z vaqtida yetkazish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5050-sonli qarori<sup>15</sup> asosida IIV Akademiyasida kursant va tinglovchilarni Vatan va xalq manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yadigan, qonunlarga qat'iy bo'ysunuvchi, kasbiga sadoqatli xodimlar sifatida tayyorlash maqsadida "Ichki ishlar organlari xodimining muomala odobi va estetikasi", "Vatanparvarlik tarbiyasi" va "Kasbiy madaniyat" kabi fanlarni o'qitish, Malaka oshirish instituti tinglovchilarida mafkuraviy immunitetni mustahkamlash maqsadida "Geosiyosiy manfaatlar to'qnashuvi va mafkuraviy kurash" va "Korrupsiya — ichki ma'naviy tahdid" maxsus kurslarini o'qitish yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi "Ichki ishlar

<sup>13</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.05.2025-y., 07/25/155/0412-son.

<sup>14</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.12.2021-y., 06/21/27/1116-son.

<sup>15</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.01.2025-y., 07/25/01/0059-son.

organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5076-sonli qarori<sup>16</sup> ichki ishlar organlari uchun mutaxassislar tayyorlashning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, xodimlarning malakasiga qarab xizmat bo'yicha o'sishini ta'minlash, shuningdek, kuch va vositalarni samarali boshqarishda rahbar kadrlarning intellektual va professional salohiyatini yanada oshirish maqsadida qabul qilingan bo'lib, unda IIV Akademiyasi va Malaka oshirish institutiga bir qator vazifalar yuklatildi. Jumladan, 2021/2022 o'quv yilidan boshlab, IIV Akademiyasida kadrlarni tayyorlash jarayoniga bakalavriyat va magistraturani o'z ichiga oluvchi ikki bosqichli oliy ta'lim tizimi joriy etildi.

Shuningdek quyidagilar belgilandi:

Akademiyadagi ta'lim tizimi kadrlarni maqsadli kasbiy tayyorlashga qaratildi hamda birinchi kursdan boshlab mutaxassislik va yuridik fanlarni o'qitish, jangovar va jismoniy jihatdan tayyorlash chuqurlashtirilgan holda amalga oshirilishi;

Akademiyaning bakalavriyat dasturi bo'yicha o'qitish kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida tashkil etildi, shuningdek, ularga o'qishga qabul qilish ichki ishlar vazirining o'rinbosari raisligida tashkil etiladigan maxsus kasbiy tanlov va ochiqlik mezonlari asosida yakka tartibdagi suhbat orqali amalga oshirilishi;

Akademiyaning magistratura dasturi bo'yicha o'qitish ichki ishlar organlari uchun rahbar va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashga qaratildi hamda ikkinchi darajadagi "tashkiliy-taktik boshqaruv", birinchi darajadagi "tashkiliy-strategik boshqaruv" va "ilmiy-pedagogik faoliyat" mutaxassisliklarida tashkil etilishi;

magistratura dasturining har bir yo'nalishi bo'yicha o'qish muddati bir yilni ("ilmiy-pedagogik faoliyat" mutaxassisligi uchun — ikki yilni) tashkil etib, o'qishga kirgan xodimlar egallab turgan lavozimlaridan ozod etilishi va magistraturaning tinglovchilar safiga qabul qilinib, ularga oxirgi egallab turgan lavozimi uchun belgilangan pul ta'minoti saqlanishi va muvaffaqiyatli bitirganda oliy ta'limning ikkinchi bosqichini tamomlaganligini tasdiqlovchi diplom berilishi;

ichki ishlar vazirining o'rinbosarlari, sohaviy xizmatlar rahbarlariga bir oyda kamida bir marotaba Akademiya magistraturasida auditoriya o'quv mashg'ulotlarini bevosita o'tkazish vazifasi yuklandi;

birinchi darajali magistraturaning ta'lim oluvchilari Ichki ishlar vazirligi departament boshliqlari, hududiy ichki ishlar organlari rahbarlarining bevosita murabbiyligida majburiy tartibda amaliyot (stajirovka) o'tashi, shuningdek, magistratura tinglovchilari xorijiy huquq-tartibot idoralari ta'lim muassasalarining malaka oshirish kurslariga yuborilishi;

Ichki ishlar vazirligi oliy ta'lim muassasalarining muqaddam faoliyat ko'rsatgan magistraturasi, oliy akademik kurslari va rahbar kadrlarni tayyorlash fakulteti (oliy kurslari)ni tamomlaganlik xizmatni o'tash masalalarida mazkur qaror bilan joriy etilayotgan ikkinchi darajadagi magistraturaga tenglashtirilishi.

Shuningdek, qarorning uchinchi bandiga asosan, IIV Malaka oshirish institutiga yuridik shaxs maqomi berildi va quyidagilar uning faoliyati asosiy

<sup>16</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2025-y., 07/25/17/0073-son.

yo‘nalishlari etib belgilandi:

- ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha serjantlar tarkibi xodimlarini jamoat xavfsizligini ta‘minlash faoliyatini tashkil etish sohasida maxsus kasbiy tayyorlash;

- ichki ishlar organlarining safdor va ofitserlar tarkibidagi lavozimlariga birinchi marta tayinlangan xodimlarni boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlik bo‘yicha o‘quv dasturlari asosida o‘qitish;

- ichki ishlar organlarining barcha toifadagi xodimlarini innovatsion axborot va pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda, shu jumladan turdosh yo‘nalishdagi respublika oliy ta‘lim muassasalari bazasida qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-preldagi PQ-5076-son Qarorining beshinchi bandiga asosan, O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi va Malaka oshirish institutining kasbiy tayyorgarlik fakultetidagi ta‘lim yo‘nalishlari (mutaxassisliklari) ro‘yxatlari 1 va 2-ilovalarga muvofiq quyidagicha tasdiqlandi:

1. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasidagi ta‘lim yo‘nalishlari (mutaxassisliklari) ro‘yxati:

T/r	Ta‘lim yo‘nalishlari (mutaxassisliklari)	Beriladigan malaka	Ta‘lim shakli	Ta‘lim muddati
<b>I. Bakalavriat*</b>				
1.	Yurisprudensiya (faoliyat turi bo‘yicha): “Tezkor-qidiruv faoliyati”; “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va probatsiya faoliyati”; “Ekspert-kriminalistika faoliyati”; “Jazoni ijro etish faoliyati”; “Tashkiliy-shtab faoliyati”; “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta‘minlash”.	yurist	kunduzgi	3 yil
2.	Yurisprudensiya (faoliyat turi bo‘yicha): “Raqamli texnologiyalar sohasida jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyati”	yurist	kunduzgi	4 yil
3.	Yurisprudensiya (faoliyat turi bo‘yicha): “Huquqbuzarliklarning oldini olish va fosh etish faoliyati”	yurist	sirtqi	4 yil / 3 yil
<b>II. Magistratura</b>				
4.	Tashkiliy-taktik boshqaruv	II darajali magistr-yurist	kunduzgi	1 yil
5.	Tashkiliy-strategik boshqaruv	I darajali magistr-yurist	kunduzgi	1 yil
6.	Ilmiy-pedagogik faoliyat	magistr-yurist	kunduzgi	2 yil

2. O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish institutining kasbiy tayyorgarlik fakultetidagi ta’lim mutaxassisliklari ro‘yxati:

T/r	Mutaxassislik nomi	Beriladigan malaka	Ta’lim shakli	Ta’lim muddati
1.	Yo‘l-patrul faoliyati	mutaxassis	kunduzgi	5 oy
2.	Pasport tizimini ta’minlash	mutaxassis	kunduzgi	5 oy
3.	Jamoat tartibini saqlash faoliyati	mutaxassis	kunduzgi	5 oy
4.	Jazoni ijro etish faoliyati	mutaxassis	kunduzgi	5 oy
5.	Tarbiyaviy faoliyat	mutaxassis	kunduzgi	5 oy
6.	Maxsus operatsiyalarni amalga oshirish faoliyati	mutaxassis	kunduzgi	5 oy
7.	Ma’muriy-xo‘jalik ta’minoti	mutaxassis	kunduzgi	5 oy
8.	Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati	mutaxassis	kunduzgi	3 oy
9.	Qo‘riqlash faoliyati	mutaxassis	kunduzgi	3 oy

Bulardan tashqari ushbu qaror bilan ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha bir qator boshqa chora-tadbirlar ham joriy etildi.

Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang‘ich va maxsus kasbiy tayyorlash mustahkam huquqiy asoslarga ega. Bu sohadagi qonunlar, farmonlar va qarorlar kadrlar sifatini oshirish, huquqiy madaniyat va kasbga sadoqatni shakllantirishni maqsad qiladi. Bu esa ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini ta’minlaydi.



### Savol va topshiriqlar:

1. Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang‘ich va maxsus kasbiy tayyorlash blok-modulining huquqiy asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining mohiyatini tushuntirib bering?
2. Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang‘ich va maxsus kasbiy tayyorlash blok-modulining huquqiy asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarining ahamiyatini aytib bering?

### 3-§. Ichki ishlar organlari faoliyatini belgilovchi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi IIVning me’yoriy huquqiy hujjatlarining mazmuni va mohiyati

Ma’lumki, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta’minlashda, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasida ichki ishlar organlari xodimlari muhim o‘rin tutadi.

Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: “Hayotimizning barcha jabhalari qatori ichki ishlar organlari faoliyatini liberallashtirish, sohada ochiqlik va oshkoralik muhitini kuchaytirish, insonparvar va xalqchil tizimga aylantirish maqsadida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda”<sup>17</sup> deya ta’kidlaganidek, soha xodimlarining tayyorgarligi yuqori darajada, zamonaviy talablarga mos bo‘lishi shart. Bu borada, ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning huquqiy asoslari alohida ahamiyat kasb etadi va soha xodimlari oldiga qo‘yilgan vazifalarning bajarilishini ta’minlaydi.

Ta’kidlash kerakki, ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang‘ich va maxsus kasbiy tayyorlashning huquqiy asoslari sifatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari alohida ahamiyatga ega. Ushbu qarorlar, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 2-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Akademiyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 447-sonli, 2017-yil 26-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademik litseylarining faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 767-sonli, 2018-yil 27-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1052-sonli, 2018-yil 19-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ixtisoslashtirilgan maktab-internati faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 459-sonli, 2019-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ixtisoslashtirilgan maktab-internati faoliyatini tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 107-sonli, 2021-yil 28-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 466-sonli va boshqa shu kabi qarorlari alohida ahamiyat kasb etib, ushbu qarorlarda Ichki ishlar vazirligi tizimidagi ta’lim muassasalarini tashkil etish, ular faoliyatini tartibga solish to‘g‘risidagi va ta’lim standartlari, o‘quv rejalari, malaka oshirish kurslari tartibi va talablari belgilangan.

Shulardan biri, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 2-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Akademiyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 447-sonli qarori bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlari va bo‘linmalari uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashning kompleks tizimini tashkil etish maqsadida birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Oliy va o‘rta maxsus militsiya maktablari negizida ichki ishlar organlari mutaxassislarini tayyorlash va boshliqlar tarkibi xodimlarining malakasini oshirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Akademiyasi tashkil etildi va Akademiyaning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- ichki ishlar organlarining oliy boshliqlar tarkibini tayyorlash;
- tanlov asosida ikki bosqichda ichki ishlar organlarining oliy va o‘rta yuridik ma’lumotli boshliqlar tarkibini tayyorlash;

---

<sup>17</sup> Prezident Shavkat Mirziyoyevning ichki ishlar organlari xodimlari va faxriylariga bayram tabrigi // <http://m.xabar.uz/mahalliy/shavkat-mirziyoyev-ichki-ishlar-organlari-xodimlari-tabrikلامي>.

- huquq-tartibotni muhofaza qilish muammolarini tadqiq etish;
- ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash.

Navbatdagi huquqiy asos, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 26-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademik litseylarining faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 767-sonli qarori<sup>18</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek ichki ishlar organlari uchun nomzodlarni maqsadli tayyorlash tizimini samarali tashkil etish maqsadida ishlab chiqilib, qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari to'g'risidagi nizom tasdiqlandi.

Keyingisi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 27-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1052-sonli qarorida<sup>19</sup> O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining malaka oshirish fakulteti, akademik litseylar bilan ishlash bo'limi, modellashtirish va simulyatsiya markazi hamda pedagogik kadrlar tayyorlash kursi negizida O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti tashkil etilgani ma'lumot uchun qabul qilinib, Malaka oshirish instituti ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyati uchun serjantlar tarkibi xodimlarini maxsus kasbiy tayyorlash, safdor va ofitserlar tarkibidagi lavozimlarga birinchi marta tayinlangan xodimlarni boshlang'ich kasbiy tayyorlash, shuningdek, "O'quv-karyera jarayoni" tizimi asosida xodimlarni uzluksiz qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan bog'liq faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan ta'lim muassasasi hisoblanishi qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ixtisoslashtirilgan maktab-internati faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 459-sonli qarori<sup>20</sup> bilan esa, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Harbiylashtirilgan maxsus maktab-internat negizida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ixtisoslashtirilgan maktab-internati tashkil etildi va quyidagilar ixtisoslashtirilgan maktab-internatning asosiy vazifalari etib belgilandi:

- ichki ishlar organlarining, birinchi navbatda xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida halok bo'lgan, shuningdek, xizmatni o'tash davomida olgan yaradorligi, kontuziyasi, kasalligi va jarohatlanganligi oqibatida nogironlikka uchragan yoki vafot etgan harbiy xizmatchi va xodimlarining farzandlariga ta'lim va tarbiya berish hamda ularning ijtimoiy-huquqiy himoya qilinishini ta'minlash;

- o'quvchilarni umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq sifatli o'qitishni tashkil etish, ularning O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari va harbiy akademik litseylarda o'qishni davom

<sup>18</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.05.2024-y., 09/24/272/0337-son.

<sup>19</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.11.2021-y., 09/21/682/1050-son.

<sup>20</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son.

ettirishlari uchun zarur va yetarli bo'lgan chuqurlashtirilgan nazariy va kasbiy tayyorgarligini ta'minlash;

- ta'lim jarayoniga milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar, tarixda ajdodlarimiz ko'rsatgan jasorat va bugungi kundagi O'zbekiston Qurolli Kuchlarining qahramonlik an'analari asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 466-sonli qarorida<sup>21</sup> esa, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining akademik litseylarida o'quv jarayonini yuridik fanlar va jismoniy tayyorgarlik bo'yicha chuqurlashtirilgan ta'limni nazarda tutgan holda takomillashtirish belgilandi.

Huquqiy asoslardan yana biri, bu IIVning buyruqlari hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2026-yil 14-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Ustavini tasdiqlash to'g'risida"gi 83-sonli buyrug'i, unda Institut ichki ishlar organlarining xodimlarini boshlang'ich, kasbiy va qayta tayyorlaydigan hamda ularning malakasini oshiradigan davlat ta'lim muassasasi ekanligi va Institut va uning filiallarida tinglovchilar kunduzgi, masofaviy va mobil sayyor o'qitish shakllarida hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda o'qitilishi, Institutda o'quv jarayonlari O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari xodimlarini malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo'yiladigan davlat ta'lim talablari, malaka talablari, o'quv dasturlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida amalga oshirilishi kabi qator talablar aks ettirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2026-yil 14-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish institutining Nukus filiali to'g'risidagi ustavini tasdiqlash haqida"gi 84-sonli buyrug'iga binoan, O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish institutining kasbiy tayyorgarlik fakulteti tashkil etilib, u to'g'risidagi nizom tasdiqlandi va fakultet faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- ichki ishlar organlari xizmatiga birinchi marta qabul qilingan xodimlarni boshlang'ich tayyorgarlikdan o'tkazilishini ta'minlash;

- ichki ishlar organlarining safdor va serjantlar tarkibidagi xodimlarni ofitserlik lavozimlariga tayinlash uchun qayta tayyorlash kurslarida o'qitishda ishtirok etish;

- ichki ishlar organlarining serjant tarkibidagi lavozimlariga nomzodlarni maxsus kasbiy tayyorlash;

- ichki ishlar organlarining xodimlarini serjantlar tarkibining maxsus unvonlari berilishi uchun malaka oshirish kurslarida o'qitish.

O'zbekiston Respublikasi IIVning 2021-yil 27-avgustdagi "Ichki ishlar organlarida uzluksiz o'quv-karyera jarayoni tizimini tashkil etish to'g'risida"gi 310-sonli buyrug'i (*mazkur buyruqqa IIVning 2023-yil 29-sentabrdagi 533-son*

<sup>21</sup> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.04.2023-y., 09/23/143/0199-son.

buyrug'i bilan o'zgartirishlar kiritildi) asosida o'qitishni yangicha tizimi shakllantirildi.

Ichki ishlar organlarida uzluksiz o'quv-karyera jarayoni tizimi asosida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlandi.

Quyidagilar uzluksiz o'quv-karyera jarayoni tizimini tashkil etishda Ichki ishlar vazirligi va uning bo'linmalarining eng muhim vazifasi etib belgilandi:

- xodimlarning malakasiga qarab xizmat bo'yicha o'sishini ta'minlash, shuningdek, kuch va vositalarni samarali boshqarishda rahbar kadrlarning intellektual va professional salohiyatini yanada oshirish;

- barcha toifadagi ichki ishlar organlari xodimlarining samarali xizmat o'tashi va ularning xizmat martabasi oshishi uchun xizmatning butun muddati davomida uzluksiz ravishda tahsil olish va malaka oshirib borishiga erishish;

- doimiy ravishda ichki ishlar organlari xodimlarining xizmatdan ajralmagan holda bevosita joylarda malakasini oshirishni ta'minlash maqsadida masofaviy va mobil sayyor kurslarini o'tkazib borish;

- an'anaviy malaka oshirish bilan bir qatorda kasbiy o'qitishning uyg'unlashgan, ish jarayoni bilan birgalikda olib boriladigan shakllarini, shuningdek, kadrlar malakasini oshirishning belgilangan davriyligiga rioya qilingan holda ta'lim dasturlarini, bilim va ko'nikmalarni doimiy takomillashtirishdan iborat kredit-modul mexanizmini joriy qilish.

Xulosa o'rinda aytish joizki, ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang'ich va maxsus kasbiy tayyorlash mustahkam huquqiy asoslarga ega bo'lib, bu jarayonda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va Ichki ishlar vazirligining buyruqlari ichki ishlar organlari xodimlari faoliyati sifatini oshirish va kasbiga sadoqatini takomillashtirishni maqsad qiladi.



### Savol va topshiriqlar:

1. Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang'ich va maxsus kasbiy tayyorlash blok-modulining huquqiy asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari mohiyatini tushuntirib bering?

2. Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang'ich va maxsus kasbiy tayyorlash blok-modulining huquqiy asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi IIV buyruqlarining mohiyatini tushuntirib bering?

### III BOB

## ICHKI ISHLAR ORGANLARINING ASOSIY VAZIFALARI, FAOLIYAT YO'NALISHLARI VA PRINSIPLARI

### 1-§ Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari

Tarixiy manbalar qadimda Vatanimiz hududida vujudga kelgan davlatlarda harbiy jangchilardan tashqari “soqchi”, “qorovul”, “chokar”, “shixna”, “yasovul”, “ko'kaldosh”, “muhtasib”, “posbonboshi”, “sarboz”, “mirshabboshi” va “mirshab”lar hukmdor qarorgohi, qal'alar va boshqa inshootlarni qo'riqlash, qishloq va shaharlardagi osoyishtalik va jamoat tartibini saqlash, aholi xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish, aybdorlarni aniqlash, topish va jazolash kabi vazifalarini bajarganligi, shu kabi tuzilmalar negizida bugungi ichki ishlar organlari shakllanganligi, bu esa o'z navbatida, ichki ishlar organlari o'zbek davlatchiligi tarixi bilan chambarchas bog'langan tarixiy ildizlariga ega ekanligidan dalolat beradi.

Tarixga nazar tashlasak, turli davrlardagi siyosiy sharoit taqozosiga ko'ra, bu tuzilmalarning nomi, vazifalari va ish uslublari o'zgarib borganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, XIX asr oxirida Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylangan Turkistonda joriy etilgan polisiya-mirshablik tizimi asosan mustamlakachi imperiya manfaatlariga xizmat qilib, aholining tinchligini ta'minlash, jamoat xavfsizligi hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish bilan birga, mahalliy aholining harakatini nazorat qilish, xalq ozodlik harakatlari vujudga kelishining oldini olish va unga qarshi kurashishda harbiy bo'linmalarga ko'maklashish vazifalarini bajarish faoliyati bilan shug'ullangan. Xuddi shunday sobiq Sovet Ittifoqi davrida ham ichki ishlar organlari (dastlab “ishchi-dehqon milisiyasi” deb yuritilgan)ning faoliyati jamoat xavfsizligi hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish bilan bir qatorda, hududda sovet tuzumini o'rnatish va uning g'oyalarini yanada mustahkamlashga qaratilgan vazifalarni amalga oshirgan. Markazdan kelgan bu boradagi topshiriqlarni o'z vaqtida va bekamu-ko'st bajarishga intilgan.<sup>22</sup>

Aynan istiqloq sharofati bilan ichki ishlar organlari xalqimizning himoyachisi va ko'makchisiga, mamlakatimizdagi tinchlik va osoyishtalikni, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini himoya qilishning ishonchli garoviga aylandi. Ayniqsa, so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar ushbu tizimni tubdan takomillashtirish, ichki ishlar organlarini aholiga o'z vaqtida va sifatli yordam ko'rsatadigan, har bir xodim tomonidan “xalq manfaatlariga xizmat qilish”ni o'z xizmat burchi deb biladigan ijtimoiy yo'naltirilgan professional tuzilmaga aylantirishga imkon bermoqda. Istiqloq yillari yurtimizda oliy qadriyat deb tan olingan inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari ta'minlanishini yanada mustahkam kafolatlash maqsadida:

**birinchidan,** mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini, barqaror taraqqiyotni;

<sup>22</sup> <https://gov.uz/uz/iiv/pages/vazirlik-tarixi>

**ikkinchidan**, ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari, faoliyatining yo‘nalishlari va prinsiplari hamda huquqiy maqomini aniq belgilashni;

**uchinchidan**, ularning faoliyatini yanada demokratlashtirish, ochiqligi va shaffofligini;

**to‘rtinchidan**, tizimga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni va sohada boshqaruvni yanada modernizasiyalashni;

**beshinchidan**, ularning davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorligini ta‘minlash nazarda tutildi.

Ushbu islohotlarning mantiqiy davomi sifatida 2016-yilda mustaqil O‘zbekistonning 25 yillik tarixida ilk bor “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, unda ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari, faoliyatining yo‘nalish va tamoyillari belgilab berildi.<sup>23</sup> Mazkur qonunning qabul qilinishi ichki ishlar organlarining o‘ta mas‘uliyatli, juda ham serqirra va rang-barang bo‘lgan faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy maydondagi bo‘shliq, noaniqlik va ziddiyatlarni bartaraf etish, shuningdek ularni yagona qonun doirasida ichki ishlar organlariga oid asosiy qoidalarni tizimga solishni ta‘minlash orqali ichki ishlar organlari tizimidagi islohotlarning mazmunan yangi bosqichini boshlab berdi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi 407-son qonuni 8 ta bob 49 ta moddadan iborat bo‘lib, ushbu qonunning maqsadi O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarining faoliyatini tartibga solishdan iborat.

Mazkur qonunning 2-moddasida ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari keltirilgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari
1. Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
2. Jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini himoya qilish;
3. Konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish;
4. Qonun ustuvorligini ta‘minlash;
5. Shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta‘minlash;
6. Huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iborat.

**Vazifa** - bu bajarilishi kerak bo‘lgan topshiriqni bildiradi.<sup>24</sup>

**Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish.** Ma‘lumki, mamlakatimizda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, bu borada konstitutsiyaviy-huquqiy, qonunchilik, institutsional va amaliy kafolatlarni mustahkamlashga qaratilgan. Ayniqsa, oilalar mustahkamligini, ularda ijtimoiy-ma‘naviy muhit barqarorligini ta‘minlash, jamiyat farovonligini yuksaltirishga qaratilgan tizimli ishlar amalga

<sup>23</sup> Ichki ishlar organlari faoliyati: IIV akademik litseylari uchun darslik / M. Z. Ziyodullayev, J.S Muxtorov, J.X.Yuldashev. T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020-yil 17- bet.

<sup>24</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki>.

oshirilayotganligini alohida ta'kidlash lozim. Konstitutsiyamizda belgilangan huquq va erkinliklar faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan doirada cheklanishi mumkinligi nazarda tutilgan<sup>25</sup>. Ichki ishlar organlari mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklarini, eng avvalo, jinoiy tajovuzlardan himoya qilishning ishonchli kafolatlarini ta'minlashga, shuningdek, ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitilishiga, qonuniy manfaatlarini cheklanishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan keng ko'lamli ishlarni amalga oshiradi.

**Jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini himoya qilish.** Ichki ishlar organlari jismoniy va yuridik shaxslarning xususiy mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqini bevosita yoki bilvosita amalga oshirishini ta'minlash, mulkiy huquqlarning ishonchli himoyasini yaratish, ushbu huquqlarni cheklayotgan omillarni bartaraf etish bo'yicha vazifalar ijrosini ta'minlaydi. Mulk huquqining buzilishi uni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, shuningdek zarur hollarda huquqbuzarga nisbatan tegishli sanksiyalarni qo'llagan holda buzilgan huquqlarni tiklash zaruratini anglatadi. Mulkdorning buzilgan huquqlarini jinoiy-huquqiy vositalar yordamida tiklash aybdor shaxsning sodir etgan qilmishi uchun javobgarlik belgilovchi qonunlarini to'g'ri aniqlash, aybdor shaxsni javobgarlikka tortish, shuningdek yetkazilgan zararni undirish orqali amalga oshiriladi. Aytish mumkinki, moddiy ne'matlarni taqsimlash sohasini tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiluvchi xavfliroq jinoyatlarni o'zgarlar mulkini talon-toroj qilish jinoyatlari tashkil qiladi. O'zgarlar mulkini talon-toroj qilish deganda, huquqqa xilof ravishda o'rnini qoplamasdan, g'arazgo'ylik niyatida mulkdorga zarar yetkazib, o'zganing mulkini aybdorning o'zi yoki boshqa shaxslar foydasiga egallab olish yoki o'tkazish tushuniladi. Mazkur turdagi jinoyatlarning predmetini o'zganing mulki tashkil qiladi.

O'zganing mulki deganda esa, boshqaga tegishli bo'lgan ashyolar, pullar, mulkka egalik huquqini beruvchi – qo'lga kiritilishi, mulkni qo'lga kiritish bilan teng bo'lgan hujjatlar tushuniladi. Shu sababli jinoyat qonunchiligida ushbu turdagi jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikning o'rnatilishi mulkdor va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar huquqlarini jinoiy tajovuzlardan himoya qilishning muhim omillardan biri hisoblanadi.

**Konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish.** Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 7-moddasi uchinchi bandida: "Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirish, hokimiyat organlari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi", deb belgilangan. Bu normalar Yangi O'zbekiston demokratik huquqiy davlat hisoblanib, mamlakatda hokimiyat almashishi faqat Konstitutsiya va qonunlar asosida ta'minlanadi, degan tamoyil hayotga tatbiq etilishining kafolatidir. Davlatning huquqiy siyosati insonparvarlik, demokratiya, ijtimoiy

<sup>25</sup> <https://senat.uz/oz/post/post-1363>.

adolat va siyosiy xilma-xillik prinsiplariga asoslanadi. Ushbu normalar mamlakatimizda xalq hokimiyatchiligining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini mustahkamlash bilan bir qatorda xalqimiz xohish-irodasi va insonlarning qonuniy manfaatlarini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

***Qonun ustuvorligini ta'minlash.*** Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik yangilanishlar va islohotlarning eng muhim yo'nalishlaridan biri bu – qonun ustuvorligini ta'minlash va uni mustahkamlashga qaratilgan. Shunday ekan, jamiyatning rivojlanish tendensiyasi ijtimoiy munosabatlarda qonuniylik tizimining mustahkamligi bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Bu islohotlarning asosiy maqsadi, Respublikamizda qonun ustuvorligini ta'minlash orqali inson sha'ni va qadr-qimmatini mustahkamlashga qaratilganligini Prezidentimizning huquq tartibot sohasi mas'ullariga qarata: "Hech kimning unutishga haqqi yo'q – qonun talablari va inson huquqlari - biz uchun oliy qadriyat"<sup>26</sup> - degan fikrlaridan ham bilish mumkin. Qonun ustuvorligi, fuqarolarning qonun oldida tengligi, insonparvarlik, adolatlilik va aybsizlik prezumpsiyasi kabi konstitutsiyaviy prinsiplarni so'zsiz va og'ishmay ta'minlash, sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya qilish, qonun hujjatlari talablariga og'ishmay va qat'iy rioya etishga, ichki ishlar organlarining birinchi darajali e'tibori qaratilishi, unga muvofiq qonun normalarini aniq ijro etish va ularga rioya qilishdan har qanday chekinish, qanday sabablarga ko'ra kelib chiqqanidan qat'i nazar, qonuniylikni buzish hisoblanadi hamda qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

***Shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlash.*** Davlatimiz mustaqilligini, uning xavfsizligini har qanday ichki va tashqi tajovuzlardan himoya qilish, fuqarolarning tinch va osoyishta hayot kechirishini, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish ichki ishlar organlari tarkibiga kiruvchi barcha tuzilmalarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Sodir bo'layotgan geosiyosiy jarayonlar, qit'a va mintaqada tashqi siyosiy vaziyatning o'zgarishi shubhasiz, milliy xavfsizlikning konseptual asoslarini ishlab chiqish, davlat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirishni talab qiladi. Milliy xavfsizlikning ob'ekti inson - uning huquq va erkinliklari, jamiyat - uning ma'naviy va moddiy boyliklari, davlat - uning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti va hududiy yaxlitligidir. Ichki ishlar organlari bu borada vazifalarni bajarish, xavfsizlikka tahdidlar va barcha o'zgarishlarga o'z vaqtida javob qaytara olishga tayyor turishi lozim.

***Huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi.*** Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi sohasida, huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik

---

<sup>26</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2022-yil 20-dekabr.

profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimini amalga oshiradi.

Ushbu normalarda ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari, aniq belgilangan va bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda berilgan, ular juda ham keng ma'no va mazmunga ega. Vazifalarni amalga oshirish turli yo'nalishlarda, zarur holatlarda kuchaytirilgan va sutkalik rejimda xizmat faoliyatni olib borish orqali ta'minlanadi. Xodimlarga har qanday holatda ham o'z xizmat vazifasini bajarish mas'uliyatining yuklatilganligi, kasbiy faoliyatini amalga oshirishida murakkab va nostandart vaziyatlarning vujudga kelishi yuqoriligi, bunday xavfli vaziyatlarda sog'lig'i va hayotini xavf ostida qoldirmasligi uchun, o'ta mas'uliyat va javobgarlikni his etishni, shuningdek, maxsus vakolatlarga ega bo'lishni talab qiladi. Shuni alohida qayd etish joizki, ichki ishlar organlari yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni bajarish jarayonida har qanday ko'rinisdagi huquqbuzarliklarning oldini olish, shuningdek amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan vakolat doirasida tegishli organ, tashkilot, muassasalar bilan hamkorlikda va keng jamoatchilikni jalb etgan holda g'ayriijtimoiy xulq-atvorning, huquqbuzarliklarning kelib chiqish sababi va sharoitlarining profilaktikasi bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirib borishini ta'minlaydi. Ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni samarali ta'minlash uning jamiyatdagi, davlat organlari tizimidagi o'rnini belgilovchi huquqiy maqomi hamda uni amaliy faoliyatida ta'minlanishi bilan bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlarida, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida, ichki ishlar organlari faoliyatiga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini tahlili bevosita ushbu tizimning yo'nalishlari bo'yicha asosiy vazifalarini amalga oshirishning o'ziga xos jihatlari yanada aniqroq va to'liq ochib berish imkonini beradi. Jumladan, Ichki ishlar vazirligi zimmasiga yuklatilgan vazifalar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-apreldagi "Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2883-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi to'g'risidagi nizom"ga muvofiq, ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari zimmasiga yuklatilgan vazifalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-sonli Farmoni 4-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan.

Shuningdek, Ichki ishlar vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan Vazirlikning markaziy va hududiy bo'linmalari faoliyati to'g'risidagi namunaviy nizomlarda ularning yo'nalishlaridan kelib chiqib asosiy vazifa va funksiyalari belgilangan.

## 2-§ Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari

Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, uning sohaviy xizmatlari va tarkibiy tuzilmalari tomonidan o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiriladi. Ularning vakolatlari O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni, shuningdek, ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish sohasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunining 4-moddasiga asosan Ichki ishlar organlari o‘z faoliyatini vakolatlari doirasida quyidagi **asosiy yo‘nalishlar** bo‘yicha amalga oshiradi:

**Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish.** Ushbu yo‘nalishda, ichki ishlar organlari inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi, ularning buzilish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlaydi hamda o‘z vaqtida bartaraf etadi. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqadi, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish bo‘yicha ishni samarali tashkil etadi, murojaatlarda ko‘tarilayotgan muammolarga yuzaki munosabatda bo‘lishga yo‘l qo‘ymaydi. Fuqarolarni tashvishga solayotgan muammolarni hal etish bo‘yicha aholi bilan manzilli muloqotni yo‘lga qo‘yadi. Bu borada respublika va idoraviy dasturlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi, ushbu yo‘nalishdagi faoliyatni tizimli va kompleks tahlil qilib boradi.

**Jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta‘minlash.** Ushbu yo‘nalishda, Ichki ishlar organlari shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta‘minlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi, mamlakat suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qiladi, jamiyatda fuqarolar totuvligi va ahilligini saqlashda ishtirok etadi. Ko‘chalar va boshqa jamoat joylarida sodir bo‘ladigan voqea-hodisalar, huquqbuzarliklarni oldini oladi, jamoat tartibini saqlaydi va jamoat xavfsizligini ta‘minlaydi, ushbu soha samaradorligini kompleks va tizimli tahlil qiladi. Ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazishda, shuningdek aholi gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini himoya qilishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirilishini nazorat qilish, vazirlik va idoralarning bu boradagi faoliyatiga tashkiliy-uslubiy rahbarlik qilish hamda muvofiqlashtirishni amalga oshiradi.

**Tergovga qadar tekshiruvni, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish, jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruv hamda dastlabki tergovni o‘tkazish.** Ushbu yo‘nalishda, ichki ishlar organlari jinoyatlar, uyushgan jinoiy guruhlar va hamjamiyatlar faoliyatining oldini olish, aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan tezkor-qidiruv tadbirlarini tashkil etadi. Qonunchilikka muvofiq, ichki ishlar organlari tergovga tegishli bo‘lgan jinoyatlarni o‘z vaqtida va to‘liq fosh etish hamda har tomonlama tergov qilishni ta‘minlaydi. Ichki ishlar organlarida tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshirish jarayonida qonuniylik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya etadi.

***Jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashish, shu jumladan terrorchilik harakatlariga chek qo'yishda hamda garovga olinganlarni ozod qilishda ishtirok etish yo'li bilan kurashish, shuningdek odam savdosiga qarshi kurashish.*** Ushbu yo'nalishda, ichki ishlar organlari terrorizm, diniy ekstremizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan, "ommaviy madaniyat"ning buzg'unchi ta'siridan, shuningdek boshqa axborot va mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishni tashkil etadi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi, jinoyatchilik, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish, kriminogen vaziyatni prognoz qilish amaliyotiga doir faoliyatining samaradorligini tahlil qiladi. Ularni sodir etish sabablari va buning uchun imkon yaratadigan shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlarni rejalashtiradi va amalga oshiradi. Jinoyatlarni oldini olish, aniqlash, bartaraf etish va fosh qilish borasida faoliyatni tashkil etadi va muvofiqlashtiradi, terrorizm, ekstremizm va noqonuniy migratsiyaga va odam savdosiga qarshi kurashadi. Davlat, jamoat va boshqa tashkilotlar rahbarlariga huquqbuzarliklarni sodir etish sabablari va buning uchun imkon yaratadigan shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir taqdimnomalar, shuningdek huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar kiritadi.

***Huquqbuzarliklar profilaktikasi, ularning sabablarini va sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, huquqbuzarliklarni sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash.*** Bu sohada, ichki ishlar organlari qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotida huquqbuzarliklarni sodir etish sabablari va shart-sharoitlari bo'lgan omillarni aniqlashni ta'minlash, shuningdek ularning tizimli tahlilini amalga oshiradi. Qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish, huquqbuzarliklarni sodir etish sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etishga doir takliflar ishlab chiqish hamda amalga oshirish, shuningdek ularni davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga belgilangan tartibda kiritishni, ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish, ular zimmasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishni amalga oshiradi. Huquqbuzarliklardan jabrlangan shaxslar, g'ayriijtimoiy xulqli, huquqbuzarliklarni sodir etishga moyil va sodir etgan shaxslarning ijtimoiy reabilitatsiya hamda ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlarini amalga oshiradi.

***Ehtiyot choralarini, jinoiy jazoni va jinoiy-huquqiy ta'sir ko'rsatishning boshqa choralarini ijro etish, shuningdek shaxslarni qidirish bo'yicha ishlarni tashkil etish.*** Ichki ishlar organlari bu sohada belgilangan tartibda jinoiy jazolar va boshqa jinoiy-huquqiy ta'sir choralarini ijrosini, shuningdek mahkumlarni tuzatish va qayta tarbiyalash ishlarini tashkil etadi, jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsonalarida huquqbuzarliklar profilaktikasi va ularning oldini olish, jinoyatlarni bartaraf etish va fosh etish, huquq-tartibot hamda qonuniylikni ta'minlashga doir tadbirlarni amalga oshiradi, jazoni ijro etish muassasalarining ishlab chiqarish, moddiy-texnik bazasini rivojlantirish va takomillashtirish, mahkumlar bandligini ta'minlash uchun yangi ish o'rinlari yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Surishtiruv, tergov organlaridan va suddan yashirinib, jinoiy jazodan qochib yurgan shaxslarni, bedarak yo'qolgan va qonunchilikda nazarda tutilgan holatlarda boshqa shaxslarni qidirishni,

shuningdek shaxsi aniqlanmagan murdalar shaxsini aniqlashni tashkil etadi. Xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan belgilangan tartibda shaxslarni xalqaro qidirish, hibsga olinganlarni olib kelishni ta'minlashda hamkorlikni muvofiqlashtiradi va amalga oshiradi.

***Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish, ma'muriy jazolarni qo'llash to'g'risidagi qarorlarni ijro etish.*** Ichki ishlar organlari bu yo'nalishda, ma'muriy huquqbuzarliklarga oid ishlarni yuritish, qonunda nazarda tutilgan hollarda ma'muriy jazoni qo'llash to'g'risidagi qarorlar bajarilishini tashkil etadi.

***Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash.*** Ichki ishlar organlari bu yo'nalishda, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash samaradorligini kompleks hamda tizimli tahlil qiladi, yo'l harakati xavfsizligini, shu jumladan yo'l-transport hodisalari va yo'l harakati qoidalari buzilishi profilaktikasi, shuningdek ularga qarshi kurashishni ta'minlaydi, huquqbuzarliklarni sodir etishga daxldor bo'lganlarni va ularning shaxsini aniqlaydi. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, joylardagi davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, tashkilotlar va fuqarolarga aniqlangan huquqbuzarliklarni bartaraf etish to'g'risida ko'rsatmalar kiritadi.

***Pasport tizimi talablarining bajarilishini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasidan chiqish va unga kirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni, doimiy va vaqtincha yashash uchun ruxsatnomalarni berishga hamda rasmiylashtirishga doir ishlarni, pasport tizimiga va O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lish qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat qilishni amalga oshirish.*** Ushbu yo'nalishda, Ichki ishlar organlari migratsiyani nazorat qilish va pasport tizimi talablariga rioya etilishi samaradorligini kompleks hamda tizimli tahlil qiladi, pasport tizimi qoidalari va O'zbekiston Respublikasida bo'lish tartibiga rioya etilishi ustidan nazoratni, O'zbekiston Respublikasiga kirish va chiqish uchun zarur hujjatlar, doimiy va vaqtinchalik yashash uchun ruxsatnomalarni berish va rasmiylashtirish ishlarini amalga oshiradi, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalasi bo'yicha murojaatlari ko'rib chiqilishini tashkil etadi.

***Fuqaroviy va xizmat qurolining hamda uning o'q-dorilarining, sanoat uchun mo'ljallangan portlovchi materiallarning, shuningdek pirotexnika buyumlarining, giyohvandlik vositalarining, ular analoglarining, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi sohasini nazorat qilish.*** Ichki ishlar organlari bu sohada fuqarolarga tegishli va xizmat qurollari hamda ularning o'q-dorilari, sanoat uchun mo'ljallangan portlovchi materiallar, shuningdek pirotexnika buyumlari, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ular prekursorlarining muomalada bo'lishi sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini oladi, aniqlaydi hamda bartaraf etadi. Davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda aholi bilan jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha o'zaro hamkorlikni tashkil etadi.

***Ekspert-kriminalistika faoliyatini amalga oshirish.*** Ushbu yo'nalishda, Ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv tadbirlari va tergov harakatlarini

texnik-kriminilastik ta'minlash, axborot-ma'lumotnoma va kriminalistika hisobi, kartoteka hamda kolleksiyalar yuritilishini tashkil etadi.

**Davlat ob'ektlarini, o'ta muhim, toifalangan ob'ektlarni va boshqa ob'ektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo'riqlash.** Ushbu yo'nalishda, ichki ishlar organlari shartnomaviy-huquqiy asosda jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash xizmatlarini ko'rsatishni amalga oshiradi. O'ta muhim va toifalangan ob'ektlarni, shuningdek ichki ishlar organlari tomonidan qo'riqlanishi kerak bo'lgan o'zga ob'ektlarni qo'riqlashni amalga oshiradi.


**Litsenziyalash va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish, shuningdek litsenziya va ruxsat etishga oid talablarga hamda shartlarga rioya etilishini nazorat qilish.** Ushbu yo'nalishda, ichki ishlar organlari vakolatiga kiritilgan masalalar yuzasidan o'rnatilgan tartibda litsenziyalash va ruxsatnoma turidagi hujjatlarni beradi, shuningdek litsenziya hamda ruxsat berish talablari va shartlariga rioya etilishini nazorat qiladi.

**Harbiy-safarbarlik ishlarini va fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirish.** Ushbu yo'nalishda, ichki ishlar organlarining jangovar va safarbarlik tayyorgarligini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etilgan hollarda uning huquqiy rejimini ta'minlashda ishtirok etadi

**Qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir ishlarda ishtirok etish.** Ichki ishlar organlari bu sohada jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarda qonun buzilishiga murossasizlik munosabatini shakllantirish, ularga qonunga itoatkorlik xulq-atvorini hamda inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish hissini singdirish maqsadida aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot va ma'rifat bo'yicha ichki ishlar organlarining muvofiqlashtirilgan ishini tashkil etadi. Davlat organlari va tashkilotlari, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, "Nuroni" jamg'armasi va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini ichki ishlar organlarining aholi o'rtasidagi huquqiy targ'ibot va ma'rifat ishlariga jalb qiladi, aholi o'rtasida huquqiy bilimni targ'ib qilish va qonunchilik normalari mazmun-mohiyatini, shuningdek mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsad va vazifalarini tushuntirishda ishtirok etadi, jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillarini qabul qilishni amalga oshirish va tashkil etish, ularning murojaatlarini qonunchilikda belgilangan tartibda ko'rib chiqish va hal etishni ta'minlash, aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot va ma'rifat bo'yicha axborot, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirilishini ta'minlash, aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot va ma'rifat ishlarini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil qiladi.

Ichki ishlar organlari tomonidan fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuqorida ko'rsatilgan barcha yo'nalishlar bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va vakolatlar doirasida amalga oshiriladi. Ichki ishlar organlarining asosiy faoliyat yo'nalishlari alohida olingan qonun hujjatlari bilan tartibga solinsa-da, lekin amaliyotda ularni amalga oshirish

bir-biri bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi. Masalan, bir tomonidan huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali amalga oshirish jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi, javobgarlikning muqarrarligini ta’minlashda kuch va vositalardan tejamli va unumli foydalanish imkonini bersa, ikkinchi tomondan jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini, javobgarlikning muqarrarligini samarali ta’minlash huquqbuzarliklar profilaktikasi uchun xizmat qiladi. Mazkur bog‘liqlikni quyidagicha tasvirlash mumkin.<sup>27</sup>



### 3-§ Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy prinsiplari

O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunining 5-moddasida Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy prinsiplari belgilangan. Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy prinsiplari va ularning ta’minlashi bir-biri bilan uzviy bog‘liq ekanligini quyidagicha tasvirlashimiz mumkin.

Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy prinsiplari
1. Qonuniylik;
2. Yagonalik;
3. Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni hurmat qilish;
4. Ochiqlik va shaffoflik.

<sup>27</sup> Ichki ishlar organlari faoliyati: Darslik / M.Z. Ziyodullayev, A.A. Matchanov, D.X. Yuldoshev va boshq. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023-yil./ 15-bet.

**Qonuniylik prinsipi** - Ichki ishlar organlari xodimlari o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga aniq rioya etishi hamda ularni bajarishi shartligini anglatadi. Agar xodimlar tomonidan qonunlarni aniq bajarishdan va ularga rioya qilishdan har qanday chekinish sodir qilinsa, bunday chekinish qanday sabablarga ko'ra yuz berganidan qat'i nazar, qonuniylikni buzish hisoblanadi va xodimni belgilangan tartibda javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi.

Ichki ishlar organlari xodimlari xizmat majburiyatlarini bajarish chog'idagi o'zining qonunga xilof xatti-harakatlarini (harakatsizligini) oqlash uchun quyidagilarni ro'kach qilishi mumkin emas:

- xizmat manfaatlarini,
- iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqlikni,
- yuqori turuvchi mansabdor shaxslarning qonunga xilof talablari, buyruqlari va farmoyishlarini,
- qonunga muvofiq bo'lmagan boshqa biror-bir holatni ro'kach qilishi mumkin emas.

Ichki ishlar organlari xodimlariga quyidagilar taqiqlanadi yani, kimnidir g'ayriqonuniy harakatlarni sodir etishga bevosita yoki bilvosita qiziqtirish yoki ko'ndirish yoki undash.

**Yagonalik prinsipi** - Ichki ishlar organlari huquqni muhofaza qiluvchi organi hisoblanishini va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri rahbarlik qiladigan yagona tizimni tashkil etishini anglatadi.

**Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni hurmat qilish prinsipi** - Ichki ishlar organlari o'z faoliyatini fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni hurmat qilish asosida amalga oshiradi. Ichki ishlar organlari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ularning jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, himoya qilinishini ta'minlaydi. Ichki ishlar organlarining fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini cheklovchi faoliyati, agar qonuniy maqsadga erishilgan bo'lsa yoki ushbu maqsadga fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini cheklash orqali erishib bo'lmاسligi yoki erishilmasligi kerakligi aniqlansa, darhol to'xtatiladi.

Ichki ishlar organi xodimi fuqaroga qasddan og'riq, jismoniy yoki ma'naviy azob yetkaziladigan xatti-harakatlarga chek qo'yishi shart.

Ichki ishlar organi xodimiga fuqarolarga nisbatan:

- qiynoqlarga solish;
- zo'ravonlik qilish;
- boshqa shafqatsiz muomalada bo'lish;
- inson qadr-qimmatini kamsitadigan tarzda muomalada bo'lish **taqiqlanadi**.

Agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ichki ishlar organlari fuqaroning sha'ni, qadr-qimmatiga yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazadigan, uning shaxsiy hayotiga taalluqli bo'lgan ma'lumotlarni oshkor

qilishga haqli emas. Shuningdek, qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ichki ishlar organlari har bir fuqaroga o'zlarida mavjud bo'lgan, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga bevosita daxldor bo'lgan hujjatlar hamda materiallar bilan tanishish imkoniyatini ta'minlashi shart.

***Ichki ishlar organi xodimi fuqaroga murojaat etganida quyidagilarni amalga oshirishi shart:***

- o'z lavozimini, unvonini, familiyasini, ismini, otasining ismini aytishi;
- fuqaroning talabiga ko'ra xizmat guvohnomasini ko'rsatishi;
- murojaat qilishining sababi va maqsadini ma'lum qilishi;
- fuqaroga nisbatan uning huquq va erkinliklarini cheklovchi choralar qo'llanilgan taqdirda, bunday choralar qo'llanilishining sababini hamda asoslarini tushuntirishi;

- fuqaroning shu munosabat bilan yuzaga keladigan huquqlari va majburiyatlarini unga tushuntirishi shart.

***Ichki ishlar organi xodimi o'ziga fuqaro murojaat etgan taqdirda quyidagilarni amalga oshirishi shart:***

- o'z lavozimini, unvonini, familiyasini, ismini, otasining ismini aytishi;
- fuqaroni diqqat bilan eshitishi;
- o'z vakolatlari doirasida tegishli choralar ko'rishi yoki qo'yilgan masalani hal etish kimning vakolatiga kirishini tushuntirishi shart.

***Ochiqlik va shaffoflik prinsipi*** - Ichki ishlar organlari o'z faoliyatini ochiq va shaffof tarzda quyidagilar bilan hamkorlikda amalga oshiradi:

- davlat organlari;
- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari;
- boshqa tashkilotlar;
- fuqarolar;
- ommaviy axborot vositalari.

Jismoniy va yuridik shaxslar foydalanilishi qonun bilan cheklangan axborot va ma'lumotlardan tashqari qonunchilikda belgilangan tartibda ichki ishlar organlarining faoliyati haqida, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga bevosita daxldor bo'lgan haqqoniy axborotni olish huquqiga ega.

Ichki ishlar organlari "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan tartibda o'z faoliyati to'g'risidagi axborotdan foydalanishini ta'minlaydi. Ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatning serqirraligi, davlat va xizmat sirlarini saqlash, shuningdek fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi, jinoyatchilikka qarshi kurash, huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash kabi murakkab vazifalarni bajarish bilan chambarchas bog'liqligi hamda jamiyatda hamma vaqt ham ular faoliyatiga qarshi bo'lgan g'araz niyatli buzg'unchi kuchlar mavjudligi ichki ishlar organlari ayrim faoliyat jarayonlari va bosqichlarining ochiqligini ta'minlashning juda ham murakkab va o'ta mas'uliyatli ekanligini belgilaydi.

Ichki ishlar organlari faoliyatining oshkoraligi va shaffofligi, ya'ni sohaviy

xizmat va ularning tarkibiy tuzilmalari o'z faoliyatlarini ochiq-oydin, tevarak-atrofidagilarning ko'z oldida hamda ulardan yashirmagan holda amalga oshirishlari shart. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga asosan, jismoniy va yuridik shaxslar axborotni moneliksiz izlash, olish, tekshirish, tarqatish, undan foydalanish va uni saqlash huquqiga ega. Ushbu qoidalar ichki ishlar organlari faoliyatiga oid axborotlarga ham taalluqlidir. Ichki ishlar organlarining fuqarolarning huquq va erkinliklari, ularni ro'yobga chiqarish tartibi to'g'risidagi, shuningdek sohaviy xizmatlar va ularning tarkibiy tuzilmalari huquqiy maqomini belgilovchi qonun hujjatlari hamda axborot tizimlarining ochiq fondlari maxfiy ma'lumotlarga kirmaydi. Ichki ishlar organlari jamiyat manfaatlariga taalluqli voqealar, faktlar, hodisalar va jarayonlar to'g'risida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalariga xabar berishlari shart.

Ichki ishlar organlari faoliyatiga oid axborotlardan barcha yuridik va jismoniy shaxslarning erkin foydalanishi va ularning haqqoniyligi hamda ishonchiligi ta'minlangan bo'lishi kerak. Ichki ishlar organlari faoliyatiga oid har qanday axborotni buzib talqin etish va soxtalashtirish taqiqlanadi hamda javobgarlikni keltirib chiqaradi. Ichki ishlar organlari faoliyatiga oid axborotlarni tarqatayotganlar axborotning haqqoniyligi uchun ushbu axborotni taqdim etgan shaxs va uni e'lon qilgan muallif bilan birgalikda qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar. Ichki ishlar organlari faoliyati to'g'risida axborot taqdim etishda fuqarolarning o'z sha'ni va qadr-qimmatini tajovuzlardan, o'z shaxsiy hayotiga aralashuvlardan himoya qilishga bo'lgan huquqlari va qonuniy manfaatlariga, shuningdek fuqarolar va yuridik shaxslarning o'z ishchanlik obro'sini himoya qilishga bo'lgan huquqlariga rioya etish talab qilinadi.

Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari, prinsiplari va faoliyat yo'nalishlarining bog'liqligi, ularning ijrosini ta'minlashining o'ziga xos jihatlarini bevosita O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonunining tuzilishi va normalarining izchilligi hamda uzviyligida o'z aksini topgan.



### Savol va topshiriqlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunning maqsadi nimadan iborat?
2. Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari qanday?
3. Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlarini aytib bering.
4. Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy prinsiplarini va ularning mazmunini aytib bering.

### 1-§ Ichki ishlar organlarining tizimi

**Ichki ishlar organlarining tizimi** - O‘zbekiston Respublikasining milliy davlat tuzilishi va ma‘muriy-hududiy bo‘linishiga mos holda iqtisodiy, geografik, tashkiliy-texnik, aholining demografik holati va huquqiy omillarini inobatga olgan holda tuzilgan. O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunining 13-moddasi bilan ichki ishlar organlarining tizimi hamda uning sub’ektlari aniq belgilab berilgan.

**Ichki ishlar organlarining tizimi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;
2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari;
3. Tumanlar va shaharlar ichki ishlar boshqarmalari (bo‘limlari);
4. Transportda xavfsizlikni ta‘minlash boshqarmalari (bo‘limlari);
5. Jazoni ijro etish muassasalari;
6. Ichki ishlar organlarining o‘ta muhim va toifalangan ob’ektlardagi bo‘linmalari;
7. Shaharcha ichki ishlar bo‘linmalari;
8. IIVning ta‘lim muassasalari;
9. IIVning tibbiyot muassasalari;
10. IIVning qorovul qo‘shinlari;
11. IIVning xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha qo‘shinlari;
12. Mahalla huquq-tartibot maskanlari hamda ichki ishlar organlarining tayanch punktlari.

Ichki ishlar organlarining tashkiliy-shtat tuzilishi va shtat sonining eng yuqori chegarasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni to‘liq va samarali bajarilishini ta‘minlash, shuningdek, ichki ishlar organlari faoliyatiga tanqidiy tahlil asosida berilgan bahodan kelib chiqib, tizimda mavjud bo‘lgan jiddiy kamchilik va muammolarni bartaraf etish maqsadida, ichki ishlar organlari tizimida tub islohotlar amalga oshirildi.

Hozirgi paytda O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari uchta tizimga bo‘linadi:

- markaziy ichki ishlar organlari;
- hududiy ichki ishlar organlari;
- quyi ichki ishlar organlari.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi markaziy ichki ishlar organi bo‘lib, ichki ishlar sohasida markazlashgan boshqaruvni tashkillashtiruvchi va olib boruvchi huquqni muhofaza qiluvchi organi hisoblanib, O‘zbekiston Respublikasi

Ichki ishlar vaziri rahbarlik qiladigan va yagona tizimni tashkil etadigan davlat boshqaruv organidir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar va Toshkent viloyati IIBB, viloyatlar IIBlari hududiy ichki ishlar organlari hisoblanadi va respublikaning ma‘muriy hududlari (respublika, viloyat va viloyatga tenglashtirilgan shahar)da ichki ishlar tizimida hududiy boshqaruvni tashkillashtiruvchi va olib boruvchi davlat apparatlaridir. Ma‘muriy hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash faoliyati davlat hokimiyatining boshqa organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat tuzilmalari va fuqarolar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Tuman (shahar) ichki ishlar organlari tuman (shahar) ichki ishlar boshqarmalari (bo‘limlari) bo‘lib, ular jamoat xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishni bevosita amalga oshiruvchi tarkibiy tuzilmalar hisoblanadi.

Transport ob‘ektlarida jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta‘minlash O‘zbekiston Respublikasi IIVning Transport va turizm ob‘ektlarida xavfsizlikni ta‘minlash departamentining tarkibiy va hududiy bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Jazoni ijro etish muassasalarida, Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarning jazoni ijro etish, qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo‘llanilgan gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarni saqlash, ularni qo‘riqlash va boshqa yerga ko‘chirish bo‘yicha faoliyatni muvofiqlashtirish va tashkil etishni ta‘minlaydi.

Qorovul qo‘shinlari hamda xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha qo‘shinlar, ichki ishlar organlari tizimida, o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari uchun qonunchilikda belgilangan tartibda huquqlar va imtiyozlardan foydalanadi.

IIVning ta‘lim va tibbiyot muassasalarining faoliyatini nazorati, Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar va kadrlar bilan ta‘minlash departamenti tomonidan amalga oshiriladi.

Ichki ishlar organlarining tayanch punktlari tumanlar va shaharlar ichki ishlar boshqarmalarining (bo‘limlarining) ichki ishlar organlarining jamoatchilik bilan hamkorligini ta‘minlash maqsadida tashkil etiladigan hamda qishloqlarda, ovullarda va mahallalarda jamoat tartibi saqlanishini, fuqarolar xavfsizligini, huquqbuzarliklar profilaktikasini, jinoyatchilikka qarshi kurashishni bevosita ta‘minlaydigan asosiy quyi bo‘g‘inidir.

Mahalla huquq-tartibot maskani mahalla va qishloqlarda jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini bevosita amalga oshiradigan, shuningdek, fuqarolarning xavfsizligi va osoyishtaligini ta‘minlash borasida ichki ishlar organlari, boshqa huquq-tartibot organlari va jamoat tuzilmalarining mahallalar kesimida birgalikda ishlashini tashkil etadigan ichki ishlar organlarining eng quyi bo‘g‘inidagi tarkibiy tuzilmasi hisoblanadi.

Ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifalarning amalga oshirilishi davlatning ichki ishlar sohasidagi funksiyalarini ta‘minlashda muhim

ahamiyatga ega. Asosiy vazifalar ijrosini ta'minlanishi ichki ishlar organlari tizimining barcha bo'g'inlari va tarkibiy tuzilmalari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan vakolat doirasida va tegishli yo'nalishlarda amalga oshiriladi.

Bunday sharoitda ichki ishlar organlari zamonaviy xavf-xatar va tahdidlarni, bajarilayotgan ishlar muhimligi va ko'lamini e'tiborga olgan holda tizimning barcha darajadagi bo'linmalarining vazifa va funksiyalarini aniq belgilash hamda taqsimlash, tashkiliy-shtat tuzilmasini maqbullashtirish, kuch va vositalardan oqilona foydalanish tizimni isloh qilishning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilab olindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-apreldagi "Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2883-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar vazirligining Nizomi" shuningdek, Ichki ishlar vazirligining "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining hududiy bo'linmalari to'g'risidagi namunaviy nizomlarni tasdiqlash haqida"gi normativ hujjati bilan ichki ishlar organlari tizimining barcha bo'g'inlarida vazifa va funksiyalarning taqsimlanishi aniq belgilandi.

## **2-§ O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining huquqiy maqomi**

**O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi** (keyingi o'rinlarda Vazirlik) — ichki ishlar organlari tizimi faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladigan va muvofiqlashtiradigan respublika davlat boshqaruv organi hisoblanadi. Vazirlik yuridik shaxs hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'zining nomi yozilgan muhrga ega bo'ladi, shuningdek Vazirlik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan va belgilangan tartibda tasdiqlanadigan o'z ramziga ega bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining huquqiy maqomi deganda, uning vazifasi, funksiyasi, huquq va majburiyatlari doirasi, tizimi, tarkibiy-tuzilishi, shuningdek uning davlat organlari orasida tutgan o'rni tushuniladi. Ichki ishlar vazirligining huquqiy maqomi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilab qo'yiladi.

Vazirlik bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga, qonunda ko'zda tutilgan ayrim masalalar bo'yicha esa Vazirlar Mahkamasiga bo'ysunadi.

Vazirlik o'zining tarkibiy tuzilishiga ega. Vazirlik tarkibida departament, xizmat, boshqarma, mustaqil bo'lim va xizmatlar, ta'lim, tibbiy muassasalari mavjud bo'lib, ular faoliyati Vazirlik rahbariyati va markaziy apparat tomonidan boshqariladi va muvofiqlashtiriladi.

Vazirlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, Oliy Majlis palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Ichki ishlar vazirining buyruqlari va farmoyishlariga amal qiladi. Vazirlik o'z faoliyatini bevosita hamda ichki ishlar organlari orqali, shu jumladan davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, boshqa tashkilotlar va fuqarolar, shuningdek ommaviy axborot vositalari bilan

hamkorlikda amalga oshiradi. Vazirlikning faoliyati ochiq va oshkora hisoblanadi, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Vazirlik davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va aholini mamlakatdagi kriminogen vaziyat, huquq-tartibotni muhofaza qilish va jamoat xavfsizligini ta'minlash holati, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek Vazirlik va ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan boshqa vazifalarning amalga oshirilishi to'g'risida tizimli ravishda xabardor qilib boradi.

**Vazirlikning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:**

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulki, konstitutsiyaviy tuzum himoya qilinishini, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash;

xalq bilan tizimli manzilli muloqotni, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan yaqin hamkorlikni o'rnatish, aholining eng muhim muammolarini hal etishga har tomonlama ko'maklashish;

voyaga yetmaganlar va yoshlarni Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, o'sib kelayotgan avlodni terrorizm, diniy ekstremizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilishga qaratilgan samarali ishlarni tashkil etish;

barcha darajadagi ichki ishlar organlari bo'linmalarining zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi bo'yicha, avvalambor, huquqbuzarliklar profilaktikasi va ularning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, tezkor-qidiruv va ekspert-kriminalistika faoliyati, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshirish sohasidagi faoliyatini nazorat qilish, muvofiqlashtirish va samaradorligini ta'minlash;

jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini himoya qilishni ta'minlash, muomalada bo'lishi taqiqlangan yoki qonun bilan cheklangan predmetlar va moddalarni sotib olish, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini nazorat qilishni tashkil etish;

yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, aholi migratsiyasi va pasport tizimi sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni tashkil etish;

jinoiy jazolar va boshqa jinoiy-huquqiy ta'sir choralari ijrosini, mahkumlarni tuzatish va qayta tarbiyalash, shuningdek shaxslarni qidirish ishlarini tashkil etish;

huquqbuzarliklar sodir etilishining sabablari va bunga imkon yaratadigan shart-sharoitlarni tizimli tahlil qilish, ularni, shu jumladan qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqish orqali bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarda qonun buzilishiga murossasizlik munosabatini shakllantirish, ularga qonunga itoatkorlik xulq-atvorini hamda inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish hissini singdirish;

ichki ishlar organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlash va joy-joyiga qo'yish, shuningdek xodimlarini huquqiy hamda ijtimoiy himoya qilishning samarali tizimini tashkil etish;

xavfsiz turizmni ta'minlash.

Zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun Vazirlik bir qancha funksiyalarni ham amalga oshiradi.

**Vazirlik zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi va boshqa davlat organlariga ko'rib chiqish uchun qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish masalalari bo'yicha o'rnatilgan tartibda takliflar kiritish;

fuqarolarni ularning roziligi bilan hamkorlikka jalb etish, shuningdek ichki ishlar organlariga yordam bergan va jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishda o'rnatilgan ko'rsatgan fuqarolarni rag'batlantirish;

davlat organlari, boshqa tashkilotlar yoki manfaatdor shaxslarga huquqbuzarliklarni, shuningdek ularning sodir etilishiga imkon yaratgan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida bajarilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalarni kiritish;

boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari bilan hamkorlikda qarorlar va boshqa hujjatlar chiqarish;

jinoyatlar tafsilotlari, ularni sodir etgan shaxslarni aniqlash hamda shaxslarni qidirish uchun davlat organlari tomonidan ta'sis etilgan ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan bepul foydalanish;

tashkilotlar va fuqarolardan ichki ishlar organlari faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotni bepul olish, qonunda boshqacha tartib o'rnatilgan hollar bundan mustasno;

jinoyatlar, boshqa huquqbuzarliklarni oldini olish va fosh etish maqsadida texnika va maxsus vositalardan foydalangan holda axborot tizimlari hamda ma'lumotlar bazasini yaratish;

ichki ishlar organlari faoliyatini yoritish, normativ-huquqiy hujjatlar, rasmiy e'lonlarni chop etish, ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalar bo'yicha boshqa materiallarni joylashtirish uchun qonunga muvofiq bosma va elektron ommaviy axborot vositalarini ta'sis etish;

ikki tomonlama va ko'p tomonlama kelishuvlar asosida xorijiy mamlakatlarning huquqni muhofaza qilish organlari, jamoat birlashmalari va xalqaro tashkilotlar bilan xalqaro hamkorlikni amalga oshirish;

huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bilan bog'liq tadbirlarni o'tkazish uchun vazirlik va idoralarning mutaxassislarini jalb etish;

jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini takomillashtirish uchun davlat unitar korxonalari tashkil etish to'g'risida takliflar kiritish;

ichki ishlar organlari bo'linmalarining ramzlarini, shu jumladan farqlovchi ko'krak nishonlarini ta'sis etish.

**Vazirlik faoliyatini tashkil etish:**

Vazirlikka O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri taqdimnomasiga binoan tasdiqlanadigan

va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimidan ozod etiladigan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri boshchilik qiladi. Ichki ishlar vaziri o'z maqomiga ko'ra Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiradi.

**O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri:**

ichki ishlar organlari tizimiga umumiy rahbarlikni ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ko'rib chiqishi uchun tashkiliy-shtatlar, moliyaviy-iqtisodiy, moddiy-texnik va ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan boshqa masalalar yuzasidan takliflarni o'rnatilgan tartibda kiritadi;

bir yilda ikki marotaba O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati to'g'risida axborot beradi;

Vazirlik va uning bo'linmalari tuzilmasiga ularning jami cheklangan shtatlar soni doirasida belgilangan tartibda o'zgartirishlar kiritadi;

jamoat xavfsizligini ta'minlash va qonunda nazarda tutilgan boshqa faoliyat yo'nalishlari bo'yicha xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnomalar asosida tushadigan mablag'lar hisobidan Moliya vazirligi bilan kelishgan holda Vazirlikning tegishli bo'linmalari xodimlarining qo'shimcha shtat birliklarini kiritadi;

o'z vakolati doirasida Vazirlik bo'linmalarining tashkiliy tuzilmalarini tasdiqlaydi;

o'z vakolati doirasida Vazirlik bo'linmalari to'g'risidagi nizomlarni, shuningdek hududiy ichki ishlar organlari to'g'risidagi namunaviy nizomlarni tasdiqlaydi;

davlat organlari, tashkilotlari va aholi, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarda Vazirlik nomidan ish ko'radi;

Vazirlikka berilgan vakolatlar doirasida buyruqlar, farmoyishlar va boshqa hujjatlar chiqaradi, ularning bajarilishi nazoratini tashkil etadi;

o'zining o'rinbosarlari vakolatlarini belgilaydi, ular o'rtasida majburiyatlarni taqsimlaydi, Vazirlik tizimining boshqa mansabdor shaxslari vakolatlarini, Vazirlikning ayrim uchastkalari faoliyati va ichki ishlar organlari ishiga rahbarlik qilish uchun o'z o'rinbosarlari hamda boshqa mansabdor shaxslarning javobgarlik darajalarini belgilaydi;

hududiy ichki ishlar organlari boshliqlarining qonunchilik talablarini buzgan holda qabul qilgan qarorlarini (yozma ko'rsatmalarini) bekor qiladi;

ichki ishlar organlari xodimlariga o'rnatilgan tartibda maxsus unvonlar beradi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga ichki ishlar organlari generallari tarkibiga unvonlar berish haqida taqdimnoma kiritadi;

Vazirlik stipendiyasini ta'sis etadi, Vazirlikning oliy ta'lim muassasalari tinglovchilari va kursantlariga bunday stipendiya miqdorini va to'lash shartlarini belgilaydi;

ichki ishlar organlari xodimlari, Vazirlikning oliy ta'lim muassasalari tinglovchilari va kursantlarini rag'batlantirish hamda ularga nisbatan intizomiy jazolar qo'llash masalalarini hal etadi, O'zbekiston Respublikasining faxriy unvonlari va davlat mukofotlariga taqdim etadi;

Vazirlik zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Ichki ishlar vaziri O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va ozod etiladigan sakkiz nafar o'rinbosar, shu jumladan bir nafar birinchi o'rinbosarga ega. Vazir bo'lmagan hollarda uning vazifasini birinchi o'rinbosar bajaradi. Majburiyatlar taqsimotiga muvofiq vazir o'rinbosarlari Vazirlik faoliyatining aniq yo'nalishlariga rahbarlik qiladi. Vazirning topshirig'i bo'yicha uning o'rinbosarlari o'z vakolatlari doirasida farmoyishlar va ko'rsatmalar chiqaradi. Vazir mehnatga haq to'lash, tibbiy va transport ta'minoti bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining o'rinbosariga tenglashtirilgan maslahatchiga ega. Vazir maslahatchisi belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

### **O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazir maslahatchisi:**

- ichki ishlar organlari faxriylarini munosib ijtimoiy himoya qilish;
- ichki ishlar organlari tizimida hurmat va obro'-e'tiborga ega bo'lgan xodimlarning ijobiy xizmat tajribasi, amaliy ko'nikmasi va malakasini yosh xodimlarga yetkazish orqali ularda yuksak axloqiy va kasbiy mahoratni shakllantirish;

- ichki ishlar organlarining yosh xodimlarida Vatanga hamda xizmat vazifalariga nisbatan sadoqat hissini shakllantirish uchun mas'uldir;

Vazirlikda vazir (hay'at raisi), uning o'rinbosarlari (lavozimi bo'yicha), shuningdek Vazirlikning asosiy faoliyat yo'nalishlarini amalga oshiruvchi tarkibiy bo'linmalari rahbarlaridan iborat tarkibda hay'at tashkil etiladi. Hay'at a'zolarining soni va shaxsiy tarkibi Vazirning taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Hay'at asosiy vazifalarni amalga oshirish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqadi. Hay'at majlislariga Vazirlik vakolatiga kiradigan masalalarni ko'rib chiqish uchun boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, joylardagi davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlarning rahbarlari taklif etilishi mumkin. Hay'at uning majlisda tarkibining yarmidan ko'pi qatnashgan taqdirda vakolatli bo'ladi. Ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha qarorlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Vazir va hay'at a'zolari o'rtasida kelishmovchilik paydo bo'lgan taqdirda Vazir mustaqil ravishda qaror qabul qiladi, kelib chiqqan kelishmovchiliklar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga axborot beradi. Hay'atning faoliyati tartibi uning hay'at tasdiqlaydigan reglamentida belgilanadi. Vazirlikda ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish masalalarini kompleks hal etish uchun kengashlar va komissiyalar tuzilishi mumkin. Kengashlar va komissiyalar tarkibi, shuningdek ularning nizomlari Vazir tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlik o'z vakolatlari doirasida yuqori turuvchi normativ-huquqiy hujjatlar asosida va ularni bajarish uchun buyruq, ko'rsatma hamda yo'riqnomalar chiqaradi va tartib-qoidalar o'rnatadi. Uning vakolatiga kiritilgan masalalarga oid chiqargan normativ-huquqiy hujjatlar respublika hududida joylashgan ichki ishlar organlari tomonidan bajarilishi majburiydir.

### 3-§ Hududiy ichki ishlar organlarining huquqiy maqomi

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining hududiy bo‘linmalari (hududiy ichki ishlar organlariga Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar va Toshkent viloyati IIBB hamda viloyatlar IIBlari kiradi) ichki ishlar organlari tizimida o‘rta bo‘g‘in bo‘lib, ichki ishlar organlariga yuklatilgan vazifalarni bevosita qonun hujjatlari va idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vakolatlar doirasida amalga oshiradi.

Hududiy ichki ishlar organlari yuridik shaxs hisoblanadi va o‘z faoliyatini Vazir tomonidan tasdiqlanadigan nizomlarga asosan amalga oshiradi. Hududiy ichki ishlar organlariga Vazir tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan boshliqlar rahbarlik qiladi. (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi tomonidan Vazir bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vaziri bundan mustasno). Hududiy ichki ishlar organlari joylardagi davlat hokimiyati organlaridan mustaqil va bevosita Vazirlikka bo‘ysunadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari hamda viloyatlar ichki ishlar boshqarmalarining boshliqlari har chorakda tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati to‘g‘risida hisobot taqdim etadi. Hududiy ichki ishlar organlari rahbarlarining hisobotlarini eshitishga tegishli hududda joylashgan boshqa davlat organlarining, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, korxonalarining, muassasalarning, tashkilotlarning, nodavlat notijorat tashkilotlarining, siyosiy partiyalarning, ommaviy axborot vositalarining vakillari va boshqa shaxslar taklif etilishi mumkin.

Yuklatilgan vazifalarning bajarilishi yuzasidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar va ishlarning natijalari Ichki ishlar vazirligi hududiy organlari rahbarlarining hisobotlarini eshitish chog‘ida tanqidiy jihatdan muhokama qilinadi, ularning faoliyati samaradorligiga shaxsan baho beriladi, shuningdek egallab turgan lavozimiga muvofiq yoki muvofiq emasligi to‘g‘risida tavsiyalar qabul qilinadi.

Hududiy ichki ishlar organlari normativ hujjatlarda nazarda tutilgan tartibda Ichki ishlar vazirligiga oylik, choraklik, yarim yillik va yillik hisobot hamda hududdagi tezkor va krimenogen vaziyat haqida kunlik axborot berib boradi.

Hududiy ichki ishlar organlarining boshliqlari Vazir tomonidan belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va ozod etiladigan o‘rinbosarlarga, shu jumladan birinchi o‘rinbosarga ega. Hududiy ichki ishlar organlari boshlig‘i bo‘lmagan hollarda uning vazifasining bajarilishi birinchi o‘rinbosar tomonidan amalga oshiriladi. Hududiy ichki ishlar organlari boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari bevosita Jinoyat qidiruv boshqarmasi hamda Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish boshqarmalari faoliyatiga rahbarlik qiladi va ularga yuklatilgan vazifalarni bajarilishi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

Hududiy ichki ishlar organlari boshlig‘ining o‘rinbosarlari tegishlicha quyidagi faoliyat yo‘nalishlariga:

- jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash probatsiya faoliyati;
- tergov, ekspert kriminalistik va axborot markazi faoliyati;
- moliya va moddiy-texnika ta‘minoti faoliyati;
- kadrlar bilan ta‘minlash va ma‘naviy-marifiy ishlar faoliyatiga rahbarlik qiladi va ularga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

Shuningdek, ichki ishlar organlari tizimini tubdan isloh qilish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar davomida hududiy ichki ishlar organlariga transportda xavfsizlikni ta‘minlash bo‘linmalari ham bo‘ysundirildi. Bundan tashqari, ayrim hududiy ichki ishlar organlari boshlig‘i hududdagi jazoni ijro etish muassasalarining joylashuviga qarab o‘zining o‘rinbosariga ega bo‘lishi mumkin.

Hududiy ichki ishlar organlari krimenogen vaziyat, huquq-tartibotni muhofaza qilish va jamoat xavfsizligini ta‘minlash holati, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning ahvolini tahlil qilib, kompleks tadbirlar ishlab chiqadi va ularni ma‘muriy-hududiy birlikda hayotga joriy etadi. Hududiy ichki ishlar organlari quyi turuvchi ichki ishlar organlarning faoliyatini boshqaradi, muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi, ijobiy ish tajribalarini umumlashtiradi, shuningdek hududdagi ichki ishlar organlari tizimiga nisbatan tashkiliy-boshqaruv xususiyatiga ega bo‘lgan boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

Hududiy bo‘limlar faoliyatining asosiy shakllariga shahar, tuman ichki ishlar organlari va unga bo‘ysunuvchi shahar (qo‘rg‘on) ichki ishlar bo‘linmalari, II O‘larining tayanch punktlari hamda mahalla huquq-tartibot maskanlariga tashkiliy-metodik rahbarlik qilish, amaliy yordam ko‘rsatish, tarkibiy-tuzilmalar va faoliyat yo‘nalish (sohaviy xizmat)larning tashkiliy-shtat tuzilishi, kadrlarni qabul qilish, joy-joyiga qo‘yish, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, moddiy-texnik jihatdan ta‘minlash kabi faoliyat yo‘nalishlarini takomillashtirish yuzasidan Ichki ishlar vazirligiga takliflar kiritadi.

Hududiy ichki ishlar organlarining vazifa va funksiyalari Ichki ishlar vazirligining vazifa va funksiyalari bilan bir-biriga o‘xshash hamda ularni amalga oshirish uzviy bog‘liq jarayonlar bo‘lsa-da, lekin mazkur vazifa va funksiyalar mazmunan bir-biridan farq qiladi. Buni mazkur vazifa va funksiyalarni ularning har biri tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlar doirasida hamda hududlar miqyosida amalga oshirilishida ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Hududiy ichki ishlar organlari o‘z faoliyatini davlat organlari, jamoat tashkilotlari va tuzilmalari, korxonalar, muassasa va tashkilotlarning ma‘muriyatlari bilan hamkorlikda amalga oshiradilar, shuningdek aholining eng muhim muammolarini hal etish borasida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlik qiladi.

Bugungi kunda Toshkent viloyati ichki ishlar organlari kuch va vositalarini aholiga bevosita yaqin hududlarda yanada samarali joylashtirish maqsadida, viloyat tuman (shahar)lari ichki ishlar organlarining to‘rtta mintaqaviy boshqarish hududlari tashkil etilgan hamda ularning asosiy vazifalari belgilangan. Viloyat ichki ishlar organlarining mintaqaviy boshqarish hududlari Ichki ishlar

vazirligining quyi bo'g'in tuzilmasi bo'lib, ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni tuman (shahar) ichki ishlar bo'limlari bevosita amalga oshirishini muvofiqlashtiruvchi bo'linmasi amalga oshiradi. Ichki ishlar organlarining mintaqaviy boshqarish hududlari viloyat Ichki ishlar bosh boshqarmasiga bo'ysunadi. Mintaqalar ichki ishlar organlari faoliyatini kundalik nazorat qilish va muvofiqlashtirishni tashkil etish Bosh boshqarma boshlig'ining vakillari (mintaqaviy hududlar rahbarlari) tomonidan amalga oshiriladi.

Shuningdek, mintaqaviy hududlar rahbarlari birlashtirilgan bo'linmalarga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun ularning bevosita rahbariyati bilan baravar shaxsan javobgar hisoblanadi. Mintaqaviy hududlar rahbarlarining faoliyatini ta'minlash uchun shtab sifatida Bosh boshqarmaning tegishli mintaqaviy markazlardagi ichki ishlar organlarining binolarida bevosita joylashadigan mintaqaviy muvofiqlashtirish markazlari tashkil etiladi. Ichki ishlar organlari patrul-post va yo'l-patrul xizmatlarining saf bo'linmalari kundalik xizmatni ularning hududlarida o'tash uchun bevosita mintaqalar bo'yicha taqsimlanadi. Tuman (shahar) ichki ishlar organlarining kinologiya bo'linmalari ularga yuklatilgan vazifalarni bajarishni hududlararo tamoyili bo'yicha tashkil etish uchun mintaqaviy hududlar rahbarlarining bo'ysunuvida bo'ladi.

#### **4-§ Shahar (tuman) ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmalari va ichki ishlar bo'limlarining tizimi**

Shahar (tuman) IIO FMB O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining quyi bo'g'in tuzilmasi bo'lib, ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni ichki ishlar bo'limlari tomonidan bevosita amalga oshirishini muvofiqlashtiruvchi bo'linmasi hisoblanadi.

Bugungi kunda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar hududlari doirasida kuch va vositalarni maqsadli taqsimlagan holda ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar va Toshkent viloyati IIBBlari, viloyatlar IIBlari shahar (tuman) ichki ishlar boshqarma (bo'lim)lari negizida ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmalari (IIO FMB) tashkil etilgan hamda ularning asosiy vazifalari belgilab berilgan.

Shahar (tuman) IIO FMB joylardagi davlat hokimiyati organlaridan mustaqil hamda bevosita Vazirlikka hamda tegishincha o'rta bo'g'in ichki ishlar organlariga bo'ysunadi. Shahar (tuman) IIO FMB o'z faoliyatini bevosita ichki ishlar organlari kuch va vositalari orqali, shu jumladan davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, boshqa tashkilotlar va fuqarolar, shuningdek ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

Shahar (tuman) IIO FMB davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va aholini hududdagi krimenogen vaziyat, huquq-tartibotni muhofaza qilish va jamoat xavfsizligi ta'minlanishi holati, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek o'z zimmasiga yuklatilgan boshqa vazifalarning amalga oshirilishi to'g'risida tizimli ravishda xabardor qilib boradi.

Shahar (tuman) IIO FMB o'z faoliyatini tegishli shahar (tuman)dagi huquqbuzarliklar profilaktikasi, tadbirkorlikni rivojlantirish va muammoli oilalar bilan ishlash ustidan nazorat bo'yicha jamoatchilik kengashlari bilan hamkorlikda tashkil etadi.

Ichki ishlar organlari tizimida bo'lgan so'ngi yillardagi muhim tashkiliy o'zgartirishlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-fevral kunidagi "Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi PQ-3528-son qaroriga muvofiq, Toshkent shahridagi tuman ichki ishlar boshqarmalari (bo'limi) negizida ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmalari tashkil etildi. Bunday tuzilmaviy o'zgartirishlar viloyatlar ichki ishlar organlari tizimida ham amalga oshirildi. Ya'ni, ichki ishlar shahar (tuman) bo'limlari ichki ishlar bo'limlari sifatida qayta tashkil etildi va ular zimmasiga sektorlar hududlarida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishni amalga oshirish uchun javobgarlik yuklatildi.

Ichki ishlar bo'limlari O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining quyi bo'g'in tuzilmasi bo'lib, ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni birlashtirilgan tegishli hududlarda tezkor amalga oshirish maqsadida tashkil etiladi. Ichki ishlar bo'limlari joylardagi davlat hokimiyati organlaridan mustaqil bo'lib, bevosita shahar (tuman) IIO FMBlarining tarkibiy tuzilmalari hisoblanadi va ularning boshliqlariga bo'ysunadi.

Ichki ishlar bo'limlarini tashkil etish, tarkibiy o'zgartirish va faoliyatini tugatish hududdagi krimenogen vaziyat, aholining zichligi, fuqarolarning xavfsizligi hamda jamoat tartibini saqlash bilan bog'liq sharoitlarni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan amalga oshiriladi. Ichki ishlar bo'limlarining asosiy vazifalari shahar (tuman) IIO FMB faoliyatiga muvofiq holda belgilanadi.

Ichki ishlar bo'limlari o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning samarali bajarilishi, shu jumladan sektorlar hududlarida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishni amalga oshirish, shuningdek aholining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini o'rganish hamda vakolati doirasiga kiruvchi muammolarni vakolatli organlar bilan hamkorlikda hal etish uchun javobgardir.



### **Savol va topshiriqlar:**

1. Ichki ishlar organlari tizimini aytib bering?
2. O'zbekiston Respublikasi IIVning huquqiy maqomini tushuntirib bering?
3. Hududiy ichki ishlar organlarining tashkiliy-tuzilishi va huquqiy maqomini aytib bering?
4. Shahar va tuman ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmalarining huquqiy maqomini tushuntirib bering?
5. Ichki ishlar bo'limlarining huquqiy maqomini tushuntirib bering?

## 1-§. Ichki ishlar organlaridagi xizmatga qabul qilish

O'zbekiston Respublikasining ichki ishlar organlaridagi xizmatga fuqarolarni qabul qilish, lavozimga tayinlash, ularning xizmatda lavozim va unvon bo'yicha ko'tarilishi va boshqa lavozimga o'tishi fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy holatidan qat'i nazar amalga oshiriladi. Bu orqali ichki ishlar organlari xodimlarining xizmatni o'tash chog'ida fuqarolar huquqlarining tengligi ta'minlanadi.

**Ichki ishlar organlari xizmatiga qabul qilish** deganda, muayyan tartibda fuqarolarni ichki ishlar organlari tizimiga ishga yoki o'qishga qabul qilishda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tizimi tushuniladi.

Ichki ishlar organlaridagi xizmatga qabul qilish tartibi O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda IIVning buyruqlari bilan tartibga solinadi.

Ichki ishlar organlaridagi xizmatga tanlov asosida, ixtiyoriy tartibda yoshi o'n sakkizdan kichik va o'ttizdan katta bo'lmagan, shu jumladan o'ttiz yoshdagi ham, tegishli ma'lumotga ega, shaxsiy va ishchanlik sifatlari, sog'lig'ining holati va jismoniy tayyorgarligi bo'yicha xodimning xizmat majburiyatlarini bajarishga qodir bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari qabul qilinadi. Ayrim hollarda, Ichki ishlar vaziri tomonidan belgilanadigan ro'yxati bo'yicha ichki ishlar organlarining ayrim bo'linmalari va tashkilotlariga xizmatda bo'lishning eng yuqori yoshiga to'lgan paytida ko'p yillik xizmati uchun pensiya olish huquqiga ega bo'ladigan o'ttiz yoshdan katta bo'lgan fuqarolar ham qabul qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga, qaroriga, farmoyishiga, shuningdek roziligiga, Vazirlar Mahkamasining qaroriga yoki Ichki ishlar vazirining buyrug'iga asosan boshqa davlat organlari va tashkilotlaridan xodimlar ham qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda xizmatga qabul qilinishi mumkin<sup>28</sup>.

Ichki ishlar organlaridagi xizmatga kirishni xohlagan nomzodlar tegishli hujjatlarni doimiy yashash joyi bo'yicha tuman-shahar ichki ishlar organlariga taqdim etadi. Nomzodning hujjatlari mazkur ichki ishlar organlarining kadrlar bilan ishlash xizmatlari tomonidan ko'rib chiqiladi. Nomzoddan ayrim hujjatlarga aniqlik kiritish uchun qo'shimcha ravishda zarur hujjatlar va ma'lumotlar talab qilinishi yoki tegishli tashkilotlardan so'rab olinishi mumkin. Nomzodning hujjatlarini rasmiylashtirishda uning ichki ishlar organlari xizmatiga qabul qilinishiga to'sqinlik qiluvchi salbiy ma'lumotlar aniqlangan (jumladan, ichki

<sup>28</sup> O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonun, 2016-yil 16-sentabr, 26-modda.

ishlar organlari xizmatiga qabul qilishning maxsus talablariga javob bermasligi) taqdirda, hujjatlarni rasmiylashtirish to'xtatilib, uni ichki ishlar organlari xizmatiga qabul qilish maqsadga muvofiq emasligi to'g'risida xizmatga qabul qilish vakolati berilgan rahbar tomonidan qaror qabul qilinadi va bu haqda nomzodga ma'lum qilinadi.

Agar nomzodni ichki ishlar organlari xizmatiga qabul qilish maqsadga muvofiq deb topilgan bo'lsa, sinovlar tanlov asosida olinadi. Tanlovda ishtirok etadigan nomzodlar soni cheklanmaydi. Tanlovlarni tashkil etish va o'tkazish, shuningdek nomzodlarning shaxsiy hujjatlari yig'ma jildlarini rasmiylashtirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan belgilanadi.

Xizmatga qabul qilingan xodim ichki ishlar organi qabul komissiyasining xulosasi asosida, xizmatga qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan boshliqning buyrug'i bilan lavozimga tayinlanadi.

### **Ichki ishlar organlaridagi xizmat lavozimlari quyidagicha jamlanadi:**

• **ofitserlar tarkibi** oliy ma'lumotga ega, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari;

• **serjantlar tarkibi** oliy ma'lumotga ega, O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish institutining kasbiy tayyorgarlik fakultetini yoki Mudofaa vazirligining kichik mutaxassislarni tayyorlash Markazini tamomlagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari;

• **safdorlar tarkibi** O'zbekiston Respublikasi IIV akademik litseylari, harbiy-akademik litseylar bitiruvchilari, profilaktika inspektorlarining yordamchilari, shuningdek, oliy ma'lumotga ega yoki sirtqi ta'lim shaklida tahsil olayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari.

Safdorlar tarkibining tor mutaxassislik sirasiga kiruvchi lavozimlarni o'rta, o'rta maxsus yoki kasb-hunar ma'lumotiga ega, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan jamlashga yo'l qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining zaxirasidagi ofitserlarni ichki ishlar organlarining safdor va serjantlar tarkibi lavozimlariga tayinlashga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri rag'batlantirish tariqasida, ichki ishlar organlarida kamida ikki yil xizmat stajiga ega, oliy ma'lumotli va yuklatilgan vazifalarni bajarishda samarali natijalarga erishgan, O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish institutining kasbiy tayyorgarlik fakultetini yoki Mudofaa vazirligining Kichik mutaxassislarni tayyorlash markazini tamomlamagan safdorlar tarkibidagi xodimlarni ham, istisno tariqasida, serjantlar tarkibidagi lavozimlarga tayinlashga va "kichik serjant" maxsus unvonini berishga ruxsat berishi mumkin.

Ichki ishlar organlarining maxsus bo'linmalarining, shuningdek, tibbiy muassasalarining serjantlar tarkibi lavozimlari o'rta va o'rta-maxsus ma'lumotli shaxslar bilan jamlanishi mumkin.

Ichki ishlar organlaridagi xizmatga qabul qilingan xodimlarning xizmatga moslashishi, shuningdek lavozimga kirishini ta'minlash maqsadida dastlabki sinov muddati belgilanadi va ularga murabbiylar birlashtiriladi. Ichki ishlar organlaridagi

xizmatga qabul qilingan xodimlar uchun dastlabki sinov muddati bir yildan ortiq bo'lmash kerak<sup>29</sup>.

Ichki ishlar organlaridagi xizmatga qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining harbiy xizmatga majbur fuqarolari, shu jumladan IIV oliy ta'lim muassasalarining xizmatga chaqiriluvchi hisoblangan kursantlari, harbiy hisobdan chiqariladi va IIVning maxsus hisobida turadi.

Ichki ishlar organlariga xizmatga va o'qishga qabul qilishning maxsus talablari xizmat siri hisoblanadi va oshkor etilmaydi. Ichki ishlar organlarining tashkiliy-shtat tuzilishi va shtat sonining eng yuqori chegarasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.



### Savol va topshiriqlar:

1. Ichki ishlar organlariga fuqarolarni qabul qilishda nimalar asosiy shartlar sifatida ko'rsatilgan?
2. Ichki ishlar organlariga qabul qilishda fuqarolarni tanlashda qanday yosh chegaralari mavjud?
3. Ichki ishlar organlariga qanday ma'lumotga ega bo'lgan fuqarolar qabul qilinadi?
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, qarori yoki Ichki ishlar vazirining buyrug'i asosida qanday xodimlar xizmatga qabul qilinishi mumkin?
5. Ichki ishlar organlariga qabul qilinayotgan nomzodlar uchun qanday hujjatlar talab qilinadi?
6. Tanlov asosida xizmatga qabul qilishda nomzodlardan qanday sinovlar olinadi?
7. Ichki ishlar organlaridagi lavozimlar tarkibi qanday bo'linadi?
8. Safdorlar tarkibiga qanday mutaxassisliklarga ega bo'lgan fuqarolar tayinlanishi mumkin?
9. Ichki ishlar organlariga xizmatga qabul qilingan xodimlar uchun dastlabki sinov muddati necha oydan oshmasligi kerak?
10. Ichki ishlar organlariga xizmatga qabul qilingan harbiy xizmatga majbur fuqarolar qanday tartibda hisoblanadi?

## 2-§. Ichki ishlar organlari xodimlarining maxsus unvonlari

Ichki ishlar organlaridagi xizmatga birinchi marta qabul qilingan fuqarolar xizmat qasamyodini qabul qiladi. Ichki ishlar organlaridagi xizmatga qabul qilingan xodimlarning qasamyod qabul qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan belgilanadi. IIV oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan tinglovchi kursantlar tomonidan birinchi o'quv yili boshlanishida tantanali qasamyod qabul qilinadi. Buning uchun xodim yuksak ma'naviyatli, qonun ustuvorligini ta'minlaydigan, mard, jasur, el-yurtga sadoqatli, halollik fazilatlariga hamda muomala madaniyati kabi ichki ishlar organlarining qadriyatlariga ega bo'lishi lozim.

<sup>29</sup> O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonuni, 2016-yil 16-sentabr, 26-modda.

**Ichki ishlar organlari xodimi** – ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan, maxsus unvon berilgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi.

Ichki ishlar organlari xodimi ichki ishlar organlarida xizmatni o‘tash tartibi va shartlariga qat’iy rioya etadi hamda belgilangan namunadagi bepul formali kiyim-bosh bilan ta’minlanadi. Ichki ishlar organlari xodimlarining formali kiyim-bosh namunalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

Ichki ishlar organlari xodimlari, harbiy xizmatchilari, ta’lim muassasalari tinglovchi va kursantlari normativ-hujjatlarda belgilangan xizmat kiyimini kiyish qoidalariga (IIVning idoraviy akademik litsey o‘quvchilari uchun alohida) rioya etgan holda kiyib yuradi. Ichki ishlar organi xodimlari tantanali, kundalik, mahkamali va dala xizmat kiyimlariga ega. Xizmat vaqtida fuqarolik kiyimlarini kiyib yurish idoraviy normativ-hujjatlar bilan belgilangan sohaviy xizmat xodimlariga ruxsat etiladi.

Bundan tashqari, ichki ishlar organlaridagi xizmatga qabul qilingan xodimlarga xizmat guvohnomalari va jetonlar beriladi. Xodimning xizmat guvohnomasi uning o‘qotar qurol olib yurish va saqlash, shuningdek xodimga O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq, berilgan boshqa huquq va vakolatlarni tasdiqlaydi<sup>30</sup>.

Ichki ishlar organlari xodimi xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘ida faqat bevosita yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zining boshlig‘iga (komandirga) bo‘ysunadi. Bunda xodim egallab turgan lavozimi, turgan joyi va vaqtdan qat’i nazar fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta’minlash, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi kabi ichki ishlar organlarining asosiy vazifalarini belgilangan vakolatlar doirasida amalga oshiradi.

IIO xodimining xizmat majburiyatlarini bajarishi quyidagilardan iborat:

- lavozim majburiyatlarini bajarish va jangovar harakatlarda ishtirok etish;
- xizmatni (jangovar xizmatni) o‘tash;
- xizmat safarida yoki davolanishda bo‘lish;
- kun tartibida belgilangan xizmat vaqti davomida yoki xizmat zarurati tufayli ichki ishlar organlari (harbiy qism) hududida bo‘lish;
- xizmat, davolanish joyiga borish yoki ulardan qaytish;
- yig‘inlarda (harbiy yig‘inlarda) ishtirok etish;
- asirlikda (o‘z ixtiyori bilan asirga tushish hollari bundan mustasno) bo‘lish, garovga olingan yoki ushlab qurolsizlantirilgan holatda bo‘lish;

<sup>30</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrda PQ-3413-son qaroriga 1-ilova Ichki ishlar organlarida xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi Nizom.

- bedarak ketish xodim qonunda belgilangan tartibda bedarak yo'qolgan deb topilguniga yoki vafot etgan deb e'lon qilinguniga qadar;
- shaxsning hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishga doir harakatlar;
- qonuniylikni va huquq-tartibotni ta'minlashda boshqa shaxslarga yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yordam ko'rsatish;
- sud tomonidan xodimning shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan deb topilgan boshqa harakatlari<sup>31</sup>.

**Maxsus unvon** xodimning xizmat majburiyatlariga munosabati, o'tagan xizmat yillari va egallagan lavozimini inobatga olgan holda yakka tartibda

Ichki ishlar organlarining oddiy xodimlar va boshliqlar tarkibidagi lavozimlariga tayinlangan xodimlariga quyidagi maxsus unvonlar beriladi:

safdorlar tarkibiga safdor;

serjantlar tarkibiga kichik serjant, serjant, katta serjant;

ofitserlar tarkibiga:

1) kichik ofitserlar tarkibi leytenant, katta leytenant, kapitan;

2) katta ofitserlar tarkibi mayor, podpolkovnik, polkovnik;

3) generallar tarkibi general-mayor, general-leytenant, general-polkovnik<sup>32</sup>.

Ushbu maxsus unvonlar xodimga yakka tartibda uning malakasi, ma'lumoti, xizmat majburiyatiga munosabati, kasbiy tayyorgarligi, o'tagan xizmat yillari va egallagan lavozimi, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari zaxirasidagi ofitserga esa, mavjud harbiy unvoni inobatga olingan holda, qonun hujjatlari talablariga asosan beriladi.

Ichki ishlar organlarining oddiy va boshliqlar (ofitserlar) tarkibiga birinchi va navbatdagi maxsus unvonlar, maxsus unvon berish vakolatiga ega bo'lgan markaziy va hududiy (o'rta bo'g'in) ichki ishlar organlari boshlig'ining buyrug'i bilan beriladi. Maxsus va harbiy unvonlar xodimlar va harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatda bir-biriga nisbatan mansabdorlik darajasini hamda ichki ishlar organlarida xizmat o'tagan muddatlarini belgilaydi.

"Safdor" maxsus unvoni ichki ishlar organlari safdorlar tarkibi lavozimiga tayinlangan, O'zbekiston Respublikasi IIV ta'lim muassasalari va chet davlatlar ta'lim muassasalarining (O'zbekiston Respublikasi IIV tomonidan kelishuv asosida yuborilganlar) kursant (tinglovchi)lar safiga qabul qilingan shaxslarga ularni tayinlash (qabul qilish) bilan bir vaqtda beriladi, serjantlar tarkibining maxsus unvoniga ega xodimlar bundan mustasno.

"Safdor" maxsus unvoni xizmatga yoki o'qishga qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan boshliqlar tomonidan beriladi.

<sup>31</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PQ-3413-son qaroriga 1-ilova Ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi Nizom.

<sup>32</sup> O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonuni, 2016-yil 16-sentabr, 29-modda.

“Kichik serjant” maxsus unvoni O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti boshlig‘i tomonidan kasbiy tayyorgarlik fakultetini serjantlar tarkibini tayyorlash dasturi bo‘yicha muvaffaqiyatli tamomlagan tinglovchilarga beriladi. Serjantlar tarkibining navbatdagi maxsus unvonlari lavozimga tayinlash vakolatiga ega boshliqlarning buyruqlari bilan beriladi.

Ichki ishlar organlari ofitserlar tarkibi lavozimlariga qabul qilingan nomzodlarga ularni lavozimga tayinlash bilan bir vaqtda “katta serjant” maxsus unvoni beriladi, bu unvonda ular dastlabki sinov muddati tugab, ofitserlik unvoni berilguniga qadar xizmat olib boradilar.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari zaxirasidagi ofitserlar hisoblanuvchi va ichki ishlar organlari ofitserlar tarkibi lavozimlariga qabul qilingan nomzodlarga mavjud harbiy unvoniga teng darajadagi maxsus unvon beriladi.

Ichki ishlar organlari ofitserlar tarkibining birinchi maxsus unvoni “leytenant” hisoblanadi.

Ayrim hollarda, ilmiy darajasi yoki faoliyatning tor ixtisoslik turlari bo‘yicha ko‘p yillik staji va ish (xizmat) tajribasiga ega bo‘lgan fuqarolarga ichki ishlar organlari ofitserlar tarkibi lavozimlariga tayinlash vaqtida birinchi unvon sifatida “mayor” maxsus unvonigacha bo‘lgan (shu jumladan mayor unvoni ham) unvonlardan biri berilishi mumkin<sup>33</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, qarori, farmoyishi asosida yoki roziligi bilan generallar tarkibi lavozimlariga xizmatga yuborilgan, maxsus, harbiy va boshqa unvoni bo‘lmagan shaxslarga belgilangan tartibda “polkovnik” maxsus unvonigacha bo‘lgan (shu jumladan polkovnik unvoni ham) unvon berilishi mumkin.

Ichki ishlar organlari ofitserlar tarkibining birinchi maxsus unvoni O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining buyrug‘i bilan beriladi.

“Leytenant” maxsus unvoni quyidagilar shaxslarga beriladi:

– ichki ishlar organlari ofitserlar tarkibi lavozimlariga qabul qilinib, sinov muddatini muvaffaqiyatli o‘tagan;

– ichki ishlar organlarining safdor yoki serjantlar tarkibidan ofitserlik lavozimlariga tayinlanganlarga O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish institutining qayta tayyorlash maxsus kurslarini o‘taganlaridan so‘ng;

– IIV oliy ta‘lim muassasalarini kunduzgi ta‘lim, shuningdek xorijiy davlatlar ta‘lim muassasalarining (O‘zbekiston Respublikasi IIV tomonidan kelishuv asosida yuborilgan) bitiruvchilari.

Ichki ishlar organlari ofitserlar tarkibining navbatdagi maxsus unvonlari quyidagilar tomonidan beriladi:

• “mayor” maxsus unvonigacha ofitserlar tarkibi unvonlarini berish vakolatiga ega boshliqlar tomonidan, boshliqlari bunday vakolatga ega bo‘lmagan tarkibiy tuzilmalar xodimlariga esa, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan;

---

<sup>33</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrda PQ-3413-son qaroriga 1-ilova Ichki ishlar organlarida xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi Nizom.

- “podpolkovnik” maxsus unvoni O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan<sup>34</sup>;

- “polkovnik” maxsus unvoni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi bilan kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan;

- generallar tarkibining maxsus unvonlari O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining tavsiyanomasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan<sup>35</sup>.

Ichki ishlar organlarining maxsus unvonda xizmat o‘tash muddatlari quyidagicha belgilanadi:

- ✓ safdor - muddat belgilanmaydi;
- ✓ kichik serjant - ikki yil;
- ✓ serjant - uch yil;
- ✓ katta serjant - muddat belgilanmaydi;
- ✓ leytenant - ikki yil;
- ✓ katta leytenant - uch yil;
- ✓ kapitan - to‘rt yil;
- ✓ mayor - besh yil;
- ✓ podpolkovnik - olti yil;
- ✓ polkovnik va undan yuqori unvonlarda xizmat qilish muddatlari

belgilanmaydi<sup>36</sup>.

Navbatdagi maxsus unvonlar belgilangan xizmat muddatini o‘tagan xodimlarga, ular egallab turgan lavozimining unvon pog‘onasiga muvofiq beriladi.

Navbatdagi “katta serjant”, “kapitan”, “mayor” va “podpolkovnik” maxsus unvonlari O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti yoki Maxsus tayyorgarlik o‘quv markazining maxsus malaka oshirish kurslarini muvaffaqiyatli o‘tagan xodimlarga beriladi. Rag‘batlantirish chorasi tariqasida muddatidan oldin maxsus unvonlar berilishi bundan mustasno<sup>37</sup>.

Navbatdagi **“katta serjant”, “kapitan”, “mayor”** va **“podpolkovnik”** maxsus unvonlari O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti yoki Maxsus tayyorgarlik o‘quv markazining maxsus malaka oshirish kurslarini muvaffaqiyatli o‘tagan xodimlarga beriladi. Rag‘batlantirish chorasi tariqasida muddatidan oldin **maxsus unvonlar** berilishi bundan

Navbatdagi “podpolkovnik” maxsus unvoni yuklatilgan vazifalarni bajarishda samarali natijalarga erishgan O‘zbekiston Respublikasi IIV

<sup>34</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PQ-3413-son qaroriga 1-ilova Ichki ishlar organlarida xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi Nizom.

<sup>35</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PQ-3413-son qaroriga 1-ilova Ichki ishlar organlarida xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi Nizom.

<sup>36</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi PQ-296-son Qarori.

<sup>37</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PQ-3413-son qaroriga 1-ilova Ichki ishlar organlarida xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi Nizom.

Akademiyasining magistraturasini yoki Qurolli Kuchlar Akademiyasining ikki yillik ta'lim dasturini, boshqa oliy ta'lim muassasalarining moliya-iqtisod, texnik yoki tibbiy sohalari yo'nalishlari bo'yicha magistraturasini muvaffaqiyatli tamomlagan yoki ilmiy darajaga ega xodimlarga beriladi.

Yuqorida keltirilgan talablarni inobatga olmagan holda maxsus unvonlarni berishga faqat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

Navbatdagi maxsus unvonni chetlab o'tib, maxsus unvonlar berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi IIV oliy ta'lim muassasalarida o'qish va sport-madaniyat sohasida yuqori natijalarga erishgan, ta'lim dasturini a'lo baholarga tamomlagan bitiruvchilariga O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan ta'lim muassasa boshlig'ining taqdimnomasi asosida ichki ishlar organlari ofitserlar tarkibining birinchi maxsus unvonini chetlab, "katta leytenant" maxsus unvoni berilishi mumkin.

Xodim yuqori darajadagi unvon belgilangan lavozimga o'tkazilganda, mavjud unvonida bo'lish muddati o'tgan bo'lsa, lavozimiga qachon tayinlanganidan qat'i nazar, navbatdagi maxsus unvon berish uchun taqdim etiladi.

Maxsus unvonda xizmat o'tash muddati kalendar hisobda maxsus unvon berish haqida buyruq chiqarilgan kundan e'tiboran hisoblanadi. Faqat quyidagi hollar bundan mustasno:

– nazorat, huquqni muhofaza qiluvchi yoki maxsus unvon va martaba darajasi bo'lishi nazarda tutilgan boshqa organlardan xizmatga o'tkazilgan (yuborilgan) shaxslarning maxsus unvonlari, egallab turgan lavozimidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan beriladi;

– ushbu tartib nazorat, huquqni muhofaza qiluvchi yoki maxsus unvonlar bo'lishi nazarda tutilgan boshqa organlar bo'linmalariga o'tkazilgan (yuborilgan) xodimlarga ham qo'llaniladi.

Harbiy unvonda xizmat qilgan yoki harbiy ta'lim muassasalaridan xizmatni ichki ishlar organlarida davom ettirish uchun kelgan oddiy askar va serjantlar tarkibi harbiy xizmatchilariga (shartnoma asosida xizmat o'tagan) lavozimga tayinlash to'g'risidagi buyruq bilan birga ularning harbiy unvonlariga muvofiq tenglashtirilgan maxsus unvonlar beriladi.

Xodimning maxsus unvoni pasaytirilgan taqdirda uning avvalgi unvonini qayta tiklanguniga qadar o'tagan xizmat davri navbatdagi unvon muddatiga qo'shilmaydi.

Xizmat majburiyatlarini namunali darajada bajarayotgan, jinoyatchilikka qarshi kurashda, ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishgan, xizmat burchini bajarishda qahramonlik, jasorat va fidoyilik ko'rsatgan xodimlarga rag'batlantirish chorasi tariqasida ichki ishlar organlari ofitserlar tarkibining maxsus unvonini muddatidan oldin yoki egallab turgan lavozimi bilan ko'zda tutilgandan bir pog'ona yuqori navbatdagi maxsus unvon berilishi ham mumkin.

Muddatidan oldin navbatdagi maxsus unvonlar quyidagilarga beriladi:

– ichki ishlar organlari generallar tarkibi lavozimlariga tayinlangan (“polkovnik” unvonidan past unvonga ega bo‘lgan) xodimlarga mavjud maxsus unvonda qancha muddat xizmat o‘taganidan qat’i nazar;

– ichki ishlar organlari ofitserlar tarkibidagi lavozimlarda xizmat qilayotgan xodimlarga mavjud maxsus unvonda xizmat qilish uchun belgilangan muddatning kamida uchdan ikki qismi o‘tganidan so‘ng.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, mavjud maxsus unvonda xizmat o‘tash uchun qancha muddat belgilanganidan qat’i nazar, navbatdagi maxsus unvonlarni berish huquqiga ega.

Egallab turgan lavozimi bilan ko‘zda tutilgandan bir pog‘ona yuqori navbatdagi maxsus unvon quyidagilarga beriladi (generallar tarkibi maxsus unvonlari bundan mustasno)<sup>38</sup>:

– ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega ichki ishlar organlari ofitserlar tarkibi xodimlariga mavjud unvonda xizmat o‘tash muddati tugaganidan so‘ng;

– ichki ishlar organlari ofitserlar tarkibi lavozimlaridagi xodimlarga mavjud unvonda xizmat o‘tash muddatining kamida bir yarim baravari o‘tganidan so‘ng<sup>39</sup>.

Ichki ishlar organlari profilaktika, tergov va tezkor bo‘linmalari xodimlariga rag‘batlantirish chorasi tariqasida qonunchilikda nazarda tutilgan talablarga javob berganda egallab turgan lavozimi bilan ko‘zda tutilgan maxsus unvondan qat’i nazar navbatdagi maxsus unvon berilishi mumkin:

• “podpolkovnik” maxsus unvoni tegishliligi bo‘yicha ichki ishlar organlari profilaktika, tergov va tezkor bo‘linmalarida o‘n besh kalendar yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lgan profilaktika inspektori, tergovchisi (surishtiruvchisi), tezkor vakili yoki profilaktika katta inspektori, katta tergovchisi (katta surishtiruvchisi), katta tezkor vakili lavozimidagi xodimlarga “mayor” maxsus unvonida xizmat o‘tash muddati tugaganidan so‘ng;

• “polkovnik” maxsus unvoni tegishliligi bo‘yicha ichki ishlar organlari profilaktika, tergov va tezkor bo‘linmalarida yigirma kalendar yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lgan profilaktika katta inspektori, katta tergovchisi (katta surishtiruvchisi), katta tezkor vakili yoki o‘ta muhim ishlar bo‘yicha tergovchisi, tezkor vakili lavozimidagi xodimlarga “podpolkovnik” maxsus unvonida xizmat o‘tash muddati tugaganidan so‘ng.

Bir vaqtning o‘zida muddatidan oldin hamda egallagan lavozimi bilan ko‘zda tutilgan bir pog‘ona yuqori navbatdagi maxsus unvon berilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Pensiya olish huquqini beradigan xizmat yilini hamda navbatdagi maxsus unvon uchun belgilangan muddatini o‘tagan, egallab turgan lavozimi bilan belgilangan unvon pog‘onasi “kapitan” bo‘lgan, ijobiy tavsiflanadigan ofitserlar tarkibidagi xodimlarga xizmatdan bo‘shatish bilan bir vaqtda “mayor” maxsus unvoni berilishi mumkin.

<sup>38</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PQ-3413-son qaroriga 1-ilova Ichki ishlar organlarida xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi Nizom.

<sup>39</sup> O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2023-yil 20-fevralda “Ichki ishlar organlarida kadrlar bilan ta’minlash faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 75-son buyrug‘i.

Ichki ishlar organlari xodimlarga maxsus unvonlarni berish muddatlari quyidagi hollarda kechiktirilishi mumkin:

- xodim ichki ishlar organlari ixtiyorida bo‘lganda;
- xodimda amaldagi intizomiy jazosi mavjud bo‘lganda;
- xodim attestatsiyadan shartli ravishda o‘tganida;
- xodimga nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atilganda;
- intizomiy jazo tariqasida egallab turgan lavozimidan ozod etilgan va boshqa lavozimga o‘tkazilgan taqdirda lavozimidan ozod etilgan kundan boshlab, bir yil davomida.

Navbatdagi maxsus unvonni asossiz ravishda kechiktirilishiga yo‘l qo‘ygan boshliqlar va xodimlar belgilangan tartibda intizomiy javobgarlikka tortiladi.

Ichki ishlar organlari ofitserlar tarkibi xodimlarining maxsus unvonlarini intizomiy jazo tariqasida bir pog‘ona pasaytirish mumkin. Bunda unvon “leytenant” maxsus unvonigacha pasaytiriladi.

“Podpolkovnik” va undan past maxsus unvonlarni pasaytirish O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan amalga oshiriladi.

“Polkovnik” maxsus unvoni O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi bilan kelishilgan holda pasaytiriladi.

Maxsus unvoni pasaytirilgan xodimning avvalgi unvoni, egallab turgan lavozimidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan unvonini pasaytirishni tavsiya etgan boshliqning (yoki unga tenglashtirilgan boshliqning) yoki yuqori lavozimdagi boshliqning taqdimnomasi bo‘yicha tiklanishi mumkin<sup>40</sup>.

Generallar tarkibi xodimlarning maxsus unvonlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan pasaytiriladi va tiklanadi.

Maxsus unvoni pasaytirilgan va so‘ngra tiklangan xodimning maxsus unvondagi muddati, unvoni pasaytirilguniga qadar o‘tagan xizmati bilan qo‘shib hisoblanadi.

Sudning hukmi asosida maxsus unvonlardan mahrum qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- safdorlar va serjantlar tarkibining maxsus unvonlari ushbu unvonlarni berish vakolatiga ega boshliqlar tomonidan;
- ofitserlar tarkibining maxsus unvonlari O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining buyrug‘i bilan.

Generallar tarkibi maxsus unvoniga ega shaxslar maxsus unvonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan sudning tegishli taqdimnomasi asosida mahrum qilinishi mumkin.

Sud shaxsning maxsus unvonini tiklash haqida qaror qabul qilganida maxsus unvondan mahrum qilgan boshliq yoki bunday vakolatga ega yuqori turuvchi rahbar tomonidan tiklanadi<sup>41</sup>.

<sup>40</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PQ-3413-son qaroriga 1-ilova Ichki ishlar organlarida xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi Nizom.

<sup>41</sup> O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2023-yil 20-fevralda “Ichki ishlar organlarida kadrlar bilan ta’minlash faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 75-son buyrug‘i.



### Savol va topshiriqlar:

1. Ichki ishlar organlarida xizmatga birinchi marta qabul qilingan fuqarolar qanday tartibda qasamyod qabul qiladi?
2. Ichki ishlar organlari xodimlari qanday formal kiyim-bosh bilan ta'minlanadi va bu kiyimlarni kim belgilaydi?
3. Ichki ishlar organlari xodimlari uchun qanday xizmat guvohnomalari beriladi va bu guvohnomalar nima maqsadda ishlatiladi?
4. Ichki ishlar organlari xodimlari xizmatni qanday bajarishlari kerak va bu xizmatning asosiy vazifalari qanday?
5. Ichki ishlar organlaridagi xodimlarga beriladigan maxsus unvonlar qanday tartibda beriladi?
6. Ichki ishlar organlari ofitserlarining birinchi maxsus unvoni qanday shartlar asosida beriladi?
7. "Leytenant" unvoni kimlarga beriladi va qanday holatlarda bu unvon tayinlanadi?
8. Ichki ishlar organlari xodimlariga maxsus unvonlarni muddatidan oldin berish uchun qanday holatlar mavjud?
9. Maxsus unvonlar pasaytirilgan xodimlar qanday tartibda avvalgi unvonlariga qayta tiklanadi?
10. Maxsus unvondan mahrum qilishning tartibi qanday va bu qanday holatlarda amalga oshiriladi?

### 3-§. Xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda attestatsiya o'tkazishni tashkil etish tartibi

Ichki ishlar organlari uchun kadrlar tayyorlash O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi oliy ta'lim muassasalarida hamda boshqa ta'lim muassasalarida, shuningdek xalqaro shartnomalar asosida xorijiy davlatlar ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Xorijiy davlatlar ta'lim muassasalarida o'qish uchun tanlov o'tkazish tartibi va shartlari O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi oliy ta'lim muassasalariga, xorijiy davlatlar oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirgan fuqarolar bilan (to'lov-kontrakt asosida o'qishga kirganlar bundan mustasno) o'qishni tamomlaganidan keyin besh kalendar yili mobaynida ichki ishlar organlarida, shuningdek taqsimot bo'yicha yuborilganda boshqa davlat idoralarida majburiy uzluksiz xizmat o'tashlari haqida belgilangan tartibda shartnoma tuziladi.

Shartnoma shartlari hamda uning bajarilmasligi sababli moddiy javobgarlik haqida nomzod (shuningdek uning ota-onasi) o'qishga kirguniga qadar dastlabki tanlov davrida yozma ravishda ogohlantiriladi.

Shartnoma o'qishga kirgan fuqarolar bilan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi nomidan ta'lim muassasalari tomonidan, xorijiy davlatlarning oliy ta'lim muassasalariga o'qishga yuboriladiganlar bilan esa - O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan tuziladi.

Shartnoma tuzishni rad etgan fuqarolar mazkur ta'lim muassasalariga qabul qilinmaydi.

Agar kursant (xodim) tomonidan shartnoma shartlari bajarilmasa undan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan o'qishiga sarflangan mablag'lar qonunga muvofiq undiriladi.

Quyidagi hollarda ta'limga sarflangan mablag'lar undirilmaydi:

- ichki ishlar organlaridan harbiy-tibbiy komissiya xulosasi asosida yoki tashkiliy-shtat o'zgarishlari sababli bo'shatilganda;

- kursant (xodim)ning ota-onasi, aka-ukalari yoki opa-singillaridan biri nazorat yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimi yoki O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchisi bo'lib, xizmat vazifalarini bajarish chog'ida halok bo'lgan taqdirda;

- kursant (xodim) vafot etganida.

Xizmatga qabul qilingan fuqarolar (kursantlar va maxsus kasbiy tayyorgarlik kurslari tinglovchilari bundan mustasno) majburiy tartibda uch oy muddatli boshlang'ich kasbiy tayyorgarlikdan o'tadi.

Xodim boshqa turdagi kasbiy faoliyat bilan bog'liq lavozimga tayinlanganda yoki uni yangi yo'nalishlar bo'yicha tayyorlash zarur bo'lganida qayta tayyorgarlikdan o'tishi shart.

Xodimlar O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti va Maxsus tayyorgarlik o'quv markazida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan tasdiqlanadigan dasturlar asosida malaka oshiradilar<sup>42</sup>.

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti va Maxsus tayyorgarlik o'quv markazida nazarda tutilmagan mutaxassisliklar bo'yicha xodimlarning malakasini oshirish O'zbekiston Respublikasining boshqa ta'lim muassasalarida yoki xorijiy davlatlar ta'lim muassasalarida tashkil etiladi.

Ichki ishlar organlari uchun rahbar kadrlarni tayyorlash O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi oliy ta'lim muassasalarida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Xodimlarning xizmat, jangovar va jismoniy tayyorgarligini, ma'naviy-axloqiy darajasini oshirish uchun ichki ishlar organlarida tizimli ravishda xizmat, jangovar va jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlari tashkil etiladi.

Xodim maxsus tayyorgarlikdan, shuningdek jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalar va o'qotar qurol qo'llash bilan bog'liq sharoitlarda harakatlanishiga kasbiy yaroqliligi bo'yicha har yilgi tekshiruvdan o'tishi shart. Maxsus tayyorgarlikdan o'tgan xodimga tegishli sertifikat beriladi.

Xodimlarni maxsus kasbiy (boshlang'ich) tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, shuningdek xizmat o'tash vaqtida xizmat, jangovar va jismoniy tayyorgarlikdan o'tishini tashkil qilish tartibi va shartlari O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan belgilanadi<sup>43</sup>.

---

<sup>42</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PQ-3413-son qaroriga 1-ilova Ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi Nizom.

<sup>43</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PQ-3413-son qaroriga 1-ilova Ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi Nizom.

**Qayta tayyorlash** - Ichki ishlar organlari xodimlari boshqa turdagi kasbiy faoliyat bilan bog'liq lavozimga tayinlanganda yoki ularni yangi yo'nalishlar bo'yicha tayyorlash zarur bo'lganida, shuningdek, safdor va serjantlar tarkibidagi xodimlarni ofitserlik lavozimlariga tayinlanishidan oldin qayta tayyorgarlikdan o'tishi shart.

Agar xodim:

- avval shu mutaxassislik bo'yicha ishlagan bo'lsa va boshqa lavozimda xizmatni davom ettirayotganiga uch yil to'lmagan bo'lsa, qayta tayyorlash majburiy emas.

#### **Safdor va serjantlar uchun**

- safdorlar: fuqaroviy oliy ma'lumotga ega bo'lsa, ofitserlik lavozimiga tayinlanish uchun Malaka oshirish instituti (o'quv poligoni) bazasida bir oygacha bo'lgan kunduzgi qayta tayyorlash kurslarida o'qitiladi.

- serjantlar: shu shartlarda Malaka oshirish instituti va Maxsus tayyorgarlik o'quv markazida bir oygacha bo'lgan kurslarda o'qitiladi.

#### **Ofitserlar uchun**

- IIV Akademiyasida o'qitiladigan boshqa mutaxassislik lavozimlariga tayinlanganda Malaka oshirish instituti yoki uning filiallarida uch haftagacha bo'lgan kunduzgi qayta tayyorlash kurslarida xizmatdan ajralgan holda o'qitiladi.

- ixtisoslashgan lavozimlar uchun — turdosh yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari bazasida qayta tayyorlash mumkin.

- qayta tayyorgarlik dasturlari Ichki ishlar vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

- tinglovchilar kurs yakunida yakuniy attestatsiya (bitiruv ishi yoki imtihon) topshiradi.

- attestatsiyadan o'ta olmaganlar — bir oy ichida qayta topshiradi.

- uzrli sabab bilan kursni tugatmaganlar — keyingi kursda qatnashishi mumkin.

- qayta tayyorgarlikni muvaffaqiyatli tugatganlarga sertifikat beriladi, u quyidagilar uchun asos bo'ladi:

ofitserlik lavozimiga tayinlanish;

ofitserlik maxsus unvoni ("leytenant") berish.

sertifikat faqat belgilangan mutaxassislik bo'yicha faoliyat ko'rsatish huquqini beradi.

- boshqa mutaxassislik lavozimlariga tayinlash taqiqlanadi.

IIV ta'lim muassasalari ilmiy-pedagog xodimlarining pedagogik qayta tayyorgarligi qonunchilikda belgilangan boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin.

Qayta tayyorgarlik IIV tizimida xodimlarni yangi lavozim yoki mutaxassislikka moslashtirish uchun amalga oshiriladi. U kurslar, attestatsiya va sertifikat orqali rasmiylashtiriladi. Sertifikat belgilangan mutaxassislik doirasida faoliyat yuritish huquqini beradi.

**Malaka oshirish** – xodimlarning ichki ishlar organlari xizmat faoliyatiga oid kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarini uzluksiz ravishda oshirib borish, shuningdek, xodimlarga maxsus unvonlar berilishining hamda rahbarlik

lavozimlariga tayinlanishining asosiy talablaridan biri sifatida o'quv tayyorgarligini amalga oshirishdan iborat.

Malaka oshirish uzluksiz o'quv-karyera tizimi asosida amalga oshiriladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- rahbarlik lavozimlariga tayinlash uchun o'qitish;
- navbatdagi maxsus unvonlarni berish uchun o'qitish;
- kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni oshirish uchun uzluksiz o'qitish.

### **Rahbarlik lavozimlariga tayinlanish**

Ofitserlar tarkibidagi xodimlar rahbar lavozimlariga tayinlanishidan oldin Malaka oshirish institutida (o'quv poligonida) yoki uning filiallarida uch haftagacha bo'lgan kunduzgi kurslarda xizmatdan ajralgan holda o'qitiladi. Sertifikat — faqat belgilangan lavozimda ishlash huquqini beradi. Sertifikat olmaganlar 1 yildan keyin qayta o'qishga yuboriladi.

### **Navbatdagi maxsus unvonlar uchun malaka oshirish**

a) “katta serjant” unvoni uchun:

uch haftagacha bo'lgan kunduzgi yoki sayyor kurslarda o'qitiladi.

b) “kapitan” unvoni uchun:

o'n kungacha bo'lgan masofaviy yoki sayyor kurslarda, xizmatdan ajralmagan holda.

v) “mayor” va “podpolkovnik” unvonlari uchun:

mos ravishda uch hafta va bir oygacha bo'lgan kurslarda, kunduzgi yoki sayyor shaklda.

Xodimlar unvon berish muddati kelishidan 1 oy oldin malaka kurslariga yuboriladi. Unvon faqat kursni muvaffaqiyatli tugatgan va sertifikat olgan xodimlarga beriladi. Intizomiy jazoga ega yoki sinovlardan qoniqarsiz baholanganlar kursga qabul qilinmaydi. Uzrli sabab bilan kursni tugatmaganlar keyingi kursda qatnashishi mumkin. Sertifikatning amal qilish muddati — 2 yil.

Malaka oshirishning boshqa shakllari:

- maqsadli yo'naltirilgan kurslar;
- respublika va xorijda malaka oshirish;
- stajirovka (tajriba orttirish);
- mustaqil ta'lim orqali malaka oshirish.

### **Kredit-modul tizimi:**

• 144 soatli o'quv yuklamasi asosida tashkil etiladi;

• har bir kurs — alohida modul hisoblanadi;

• xodimlar masofaviy ta'lim platformasida mustaqil o'qish orqali o'zlashtiradi;

- bilim nazorati va videokonferensaloqa orqali baholanadi;
- muvaffaqiyatli o'zlashtirilgan har bir modul uchun soatlar hisoblanadi;
- natijalar elektron portfolio va monitoring tizimida qayd etiladi;
- 144 soatlik yuklama bajarilganidan so'ng sertifikat beriladi.

### **Qo'shimcha talablar**

o'qitish va jismoniy tayyorgarlik sinovlarini muvaffaqiyatli topshirganlar testdan ozod etiladi.

ijobiy natija ko‘rsatgan xodimlar yuqori lavozimga tavsiya etilishi mumkin. xizmat faoliyatida 2 yil va undan ortiq tanaffus bo‘lganlar (masalan, ta‘til yoki qayta tiklanish) malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslaridan o‘tishi shart.

Har bir xodim har 5 yilda bir marta malaka oshirish kurslaridan o‘tishi lozim.

**Malaka oshirish** — ichki ishlar xodimlarining kasbiy salohiyatini doimiy ravishda oshirishga qaratilgan tizim bo‘lib, unda rahbarlikka tayyorlash, unvon berish va mustaqil o‘qish shakllari nazarda tutilgan. Sertifikatlar belgilangan muddatda amal qiladi va lavozim yoki unvon tayinlash uchun asos bo‘ladi.

### **Ichki ishlar organlarida attestatsiyani tashkil qilish va o‘tkazish tartibi**

Attestatsiya ichki ishlar organlarida xodimlarning bilim, kasbiy tayyorgarlik, xizmatga munosabat va lavozimga loyiqqligini xolis baholash maqsadida, ochiqlik, talabchanlik va prinsipiiallik asosida o‘tkaziladi.

Attestatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PQ-3413-son va 2021-yil 15-apreldagi PQ-5076-son<sup>44</sup> qarorlariga muvofiq amalga oshiriladi.

### **Attestatsiya turlari:**

navbatdagi attestatsiya – har 5 yilda bir marotaba.

navbatdan tashqari attestatsiya – xizmat intizomini buzganlar, lavozimga loyiq emasligi haqida shubha tug‘ilganda yoki maxsus unvon berish uchun o‘tkaziladi.

### **Tayyorlov ishlari**

- psixologik test va suhbat;
- jismoniy va jangovar tayyorgarlik bo‘yicha sinov;
- tibbiy ko‘rikdan o‘tganlik haqida ma‘lumot.

### **Komissiya tarkibi**

Kamida 7 a‘zodan iborat bo‘ladi.

Rais, kotib, psixolog, shaxsiy xavfsizlik xizmati xodimi majburiy kiritiladi.

Markaziy attestatsiya komissiyasiga Vazir raislik qiladi.

### **Attestatsiya hujjatlari**

Attestatsiya matni – rahbar tomonidan xodimning xizmat faoliyati, shaxsiy va axloqiy fazilatlarini, tayyorgarligini asosida tayyorlanadi.

Xodim attestatsiyadan kamida 15 kun oldin tanishtiriladi (navbatdan tashqari holatlar bundan mustasno).

Shaxsiy xavfsizlik xizmati 5 kun ichida matnni o‘rganadi.

### **Attestatsiya jarayoni**

Komissiya kotibi tomonidan matn o‘qiladi, xodim hisobot beradi.

Savol-javob asosida baholash amalga oshiriladi.

Ovoz berish yopiq tarzda o‘tkaziladi.

### **Komissiya qarori quyidagicha bo‘ladi:**

- Egallab turgan lavozimiga loyiq;
- Loyiqligi bilan unvon berish/tayinlashga tavsiya;
- Olti oydan keyin qayta attestatsiya;

<sup>44</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi PQ-5076-son qarori.

•Lavozimga noloyiqligi sababli boshqa lavozimga yoki xizmatdan bo'shatish.

### **Shikoyat qilish tartibi**

Xodim qarordan norozi bo'lsa:

- 10 kun ichida yuqori komissiyaga shikoyat qiladi;
- Shikoyat 15 kun ichida ko'rib chiqiladi;
- Nihoyat, Markaziy attestatsiya komissiyasi qarori yakuniy hisoblanadi.
- Hisobot va nazorat
- Attestatsiya bayonnomasi rasmiylashtiriladi;
- Qaror 15 kun ichida ijro etiladi;
- Kadrlar bo'limi har chorakda hisobot tayyorlaydi;
- Ma'naviy-ma'rifiy ishlar departamenti umumlashtiradi va tahlil qiladi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Ichki ishlar organlari xodimlari xorijiy davlatlarning oliy ta'lim muassasalarida o'qishga kirganlar uchun qanday shartnoma tuzadi va uning asosiy talablari nimalardan iborat?

2. Rahbarlik lavozimlariga tayinlanishdan oldin ichki ishlar organlari ofitserlari qanday malaka oshirish kurslaridan o'tadi va bu kurslarning muddati qancha?

3. Navbatdagi maxsus unvonlarni berish uchun qanday malaka oshirish shakllari mavjud va ularning asosiy farqlari nimada?

4. Kredit-modul tizimi asosida malaka oshirish qanday tashkil etiladi va uning asosiy afzalliklari nimalardan iborat?

5. Ichki ishlar organlari xodimlari malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslaridan qachon va qanchalik muddatda o'tishi shart?

6. Attestatsiya sanasi va joyi xodimlarga va komissiya a'zolariga qachon ma'lum qilinadi?

7. Attestatsiya komissiyasi yig'ilishida qatnasha olmaydigan xodim qanday harakat qilishi kerak?

8. Attestatsiya komissiyasi yig'ilishiga uzrsiz sabab bilan kelmagan xodimga qanday choralar ko'riladi?

9. Attestatsiya komissiyasi majlisi nechta a'zolar ishtirokida vakolatli hisoblanadi?

10. Attestatsiyada xodimning qanday fazilatlar va ko'rsatkichlari hisobga olinadi?

## **4-§. Ichki ishlar organlari xodimlariga ta'tillar va malaka toifasini berish tartibi**

### **Ichki ishlar organlari xodimlariga ta'til berish tartibi**

Ichki ishlar organlari xodimlariga ta'tillar O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni, mehnat qonunchiligi va xizmatni o'tash tartibini belgilovchi nizomlarga muvofiq beriladi.

### **Ta'til turlari**

Xodimlarga quyidagi ta'tillar beriladi:

1. Har yilgi asosiy ta'til (30 kalendar kun, 6 oydan kam bo'lmagan xizmatdan so'ng);
2. Homiladorlik va tug'ish, bola parvarishlash ta'tili;
3. Kasallik bo'yicha ta'til (harbiy-tibbiy komissiya xulosasiga asosan);
4. O'quv (kanikulyar) ta'til – kursantlar uchun;
5. Ijodiy ta'til – ilmiy dissertatsiya yakunlash uchun;
6. Qo'shimcha ta'til – turli sabablarga (o'qishga kirish, ijtimoiy holatlar, jangovar harakatlarda ishtirok va boshqalar) ko'ra.

### **Asosiy ta'tilni berish tartibi**

Har yili 30 kalendar kun asosiy ta'til beriladi (3 kunlik yo'lga ketish vaqti bilan).

10 yildan ortiq xizmat qilganlarga **qo'shimcha ta'til** beriladi:

- 10 yil – 5 kun;
- 15 yil – 10 kun;
- 20 yil – 15 kun.

Asosiy ta'til ikki qismga bo'linishi mumkin (kamida biri 15 ish kunidan kam bo'lmasligi kerak).

Ta'til jadvali har yili 20-dekabrga qadar tuziladi.

Ta'til vaqtida yo'l xarajatlari (O'zbekiston hududi doirasida) har yili bir marta to'lab beriladi.

Xodimning ta'tili faqat xizmat zarurati bo'lsa, yozma ruxsat bilan bekor qilinadi.

### **Qo'shimcha holatlar**

Xodim boshqa bo'linmaga o'tkazilganda – foydalanilmagan ta'til yangi joyda davom ettiriladi.

Homiladorlik, tug'ish va bola parvarishlash ta'tili – xodimning xohishiga ko'ra, tug'ishgacha yoki undan keyin to'liq beriladi.

Kasallik bo'yicha ta'til – 4 oygacha, zarur bo'lsa uzaytiriladi. Bu ta'til asosiy ta'til hisobiga kirmaydi.

Ijodiy ta'til – 1 oydan 6 oygacha, Ilmiy kengash qarori asosida beriladi.

O'quv ta'tili – sirtqi o'quvchilarga sessiya uchun, kursantlarga reja asosida.

### **Qo'shimcha toifadagi ta'tillar**

Maxsus bo'linma xodimlariga (operatsion, portlovchi modda bo'yicha, jazoni ijro etish) 15 kunlik qo'shimcha ta'til yoki unga ekvivalent pul kompensatsiyasi beriladi.

Kompensatsiya – bir oylik maoshning 50% miqdorida, xizmat vaqtiga mutanosib tarzda hisoblanadi.

### **Vakolat va tartib**

Har xil lavozimdakilarga ta'til berish vakolati ularning bevosita yoki yuqori turuvchi rahbarlariga tegishli.

Ta'tilga chiqish uchun rasmiy buyruq va ta'til guvohnomasi rasmiylashtiriladi.

Chet elga chiqish – maxsus ruxsat bilan amalga oshiriladi.

## Foydalanilmagan ta'tillar

Foydalanilmagan asosiy va qo'shimcha ta'tillar uchun pul kompensatsiyasi to'lanadi.

Ishdan bo'shatilayotgan xodimga foydalanilmagan ta'tili joriy yilda to'liq yoki qisman beriladi.

### Malaka toifasini berish tartibi

Malaka toifasi xodimlarga o'quv yili yakunidagi nazorat (yakuniy) tekshiruvlar natijalariga ko'ra, jismoniy, jangovar tayyorgarlik, kasbiy madaniyat va AT sohasidagi bilimlar asosida beriladi.

Toifalar ketma-ket beriladi:

“uchinchi”

“ikkinchi”

“birinchi”

“usta”<sup>45</sup>.

70 ball va undan yuqori natija ko'rsatgan hamda xizmat stajiga ega xodimlarga quyidagicha malaka beriladi:

• 3 yil – “uchinchi”,

• 5 yil – “ikkinchi”,

• 10 yil – “birinchi”,

• 20 yil va intizomiy jazosiz – “usta” (yoki fan doktori bo'lsa), Vazir buyrug'i bilan sinovsiz beriladi.

Sinovsiz malaka toifasi beriladi:

• zaxiradagi kadrlarga;

• Vazir o'rinbosari va bo'linma boshliqlariga;

• sport chempionatlari g'oliblariga;

• soha bo'yicha ko'rik-tanlov g'oliblariga;

• “Kasb a'lochisi” nishoni sohiblariga (usta toifasidan tashqari).

Malaka olish uchun xodim:

• sohasini yaxshi bilishi, intizomli bo'lishi;

• semizlikning II–III darajasiga ega bo'lmasligi;

• belgilangan ballni to'plashi kerak.

Malakada xizmat staji hisobga olinadi. Boshqa idora yoki harbiy tuzilmalardan kelganlar uchun oldingi staj inobatga olinadi.

Bo'linmalar orasida o'tganda malaka saqlanadi. Boshqa organlardan kelganlar uchun avvalgi malaka buyruq asosida amal qiladi. “Usta” toifasi bilan kelgan, lekin 20 yillik staji yo'q harbiylarga “birinchi” toifa ustamasi to'lanadi.

Malaka buyruq asosida beriladi:

• markaziy apparat xodimlariga – Departament boshlig'i buyrug'i bilan;

• ta'lim muassasalari va departamentlar xodimlariga – tegishli rahbarlar buyrug'i bilan;

• hududiy xodimlarga – hududiy boshliq buyrug'i bilan. Buyruqlar

**31 dekabrgacha** chiqariladi.

<sup>45</sup> O'zbekiston Respublikasi IIVning 2025-yil 10-oktabrdagi “Ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy va jangovar tayyorgarligini tashkil etish, malaka toifasini berish hamda reyting baholash tizimini tashkil etish tartibi to'g'risida”gi 600-son buyrug'i.

Tavsiya etiladigan xodimlar ro'yxati tekshiruvdan **15 kun oldin** tuziladi. Xizmat staji **1-yanvar holatiga** hisoblanadi.

Xizmatdan bo'shatilib qayta tiklangan xodimlarga avvalgi staji hisobga olinadi. "Usta" toifasi borlar sinovsiz tiklanadi. Sud qarori bilan tiklanganlarga malaka sinovsiz qaytariladi. 2005-yilgacha 20 yil xizmat qilganlar qayta qabul qilinsa, "birinchi" malaka beriladi.

"Usta" malakasi bo'yicha tavsiyanomalar har chorakda yuboriladi va Vazir buyrug'i bilan sinovsiz beriladi.

"Usta" malakasi xizmat oxirigacha saqlanadi, lekin xodim tekshiruvlarda ishtirok etishi shart. Ikki yil ishtirok etmasa, malaka bekor qilinib, "birinchi" toifa beriladi. Bola parvarish ta'tilida ustama to'xtatiladi. Ta'tildan qaytgach, malaka muddati tugamagan bo'lsa, qayta tiklanadi<sup>46</sup>.

Tekshiruvda uzrli sabab bilan qatnashmaganlar uchun alohida sinov o'tkaziladi.

Sababsiz qatnashmaganlarga malaka berilmaydi.

Karantin yoki favqulodda holatlarda malaka Vazir ruxsati bilan sinovsiz berilishi mumkin.

Malaka toifalari xodimning staji, bilim va natijalariga ko'ra bosqichma-bosqich beriladi. Ayrim holatlarda (rahbarlar, g'oliblar, fan doktorlari) malaka sinovsiz beriladi. "Usta" malakasi xizmat oxirigacha amal qiladi, ammo ikki yil tekshiruvga qatnashmagan xodim undan mahrum etiladi.

#### **Malaka toifasini pasaytirish yoki mahrum qilish tartibi**

Malaka faqat **yakuniy tekshiruv natijalariga** ko'ra, komissiya dalolatnomasi asosida rahbar buyrug'i bilan **bir pog'ona pasaytiriladi yoki bekor qilinadi**.

Malakasidan mahrum etilgan yoki pasaytirilgan xodim **1 yildan keyin** qayta sinov asosida oldingi malakasini olishi mumkin.

Quyidagi hollarda malaka pasaytiriladi yoki mahrum qilinadi:

- Nizomning 8-bandi talablariga javob bermasa;
- yakuniy tekshiruvda **70 balldan past natija** ko'rsatsa;
- **semizlikning III darajasi yoki undan yuqori** bo'lsa.

Malaka berilishida staj yoki hisob xatosi bo'lsa, komissiya qaroriga ko'ra to'g'rilanadi, ustama farqi moliya xizmati orqali hisoblanadi.

#### **Yakuniy tekshiruv komissiyasi**

Komissiyalar ikki xil bo'ladi:

• **Oliy komissiya** – IIVda tuziladi, markaziy bo'linmalar va maxsus muassasalar xodimlarini tekshiradi;

• **Tarkibiy va hududiy komissiyalar** – viloyat, shahar, departamentlarda tashkil etiladi, hududiy bo'linmalar xodimlarini tekshiradi.

Oliy komissiya hududiy komissiyalar faoliyatini nazorat qiladi va ular qarorlarini o'zgartirish huquqiga ega. Komissiya tarkibiga tajribali rahbarlar va xizmat ofitserlari kiritiladi.

<sup>46</sup> O'zbekiston Respublikasi IIVning 2025-yil 10-oktabrdagi "Ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy va jangovar tayyorgarligini tashkil etish, malaka toifasini berish hamda reyting baholash tizimini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi 600-son. buyrug'i

### Nazorat (yakuniy) tekshiruvlar tartibi

Tekshiruvlar o'quv yili yakunida barcha xodimlar uchun majburiy. Komissiya 5–7 nafar ofitserdan tashkil etiladi, xolislik va ochiqlik asosida ishlaydi.

Tekshiruvlar **nazariy** va **amaliy** yo'nalishlarda o'tkaziladi:

- nazariy – test orqali bilimlar baholanadi.
- amaliy – jismoniy tayyorgarlik (30 ball), o'q otish (20 ball).
- DSGdagi xodimlar – jismoniy sinovdan ozod, **20 ball** beriladi.
- homilador ayollarga **25 ball** beriladi.

Raqamli ta'lim platformasida “a'lo” baho olganlar testdan ozod etiladi<sup>47</sup>.

Asossiz qatnashmaganlarga yo'l qo'yilmaydi, natijalar bo'yicha bayonnoma va umumiy hisobot tayyorlanadi.

- Har yo'nalishdan kamida **35 ball** olish shart.
- Bir yo'nalishdan past bo'lsa – malaka pasaytiriladi yoki mahrum qilinadi.

Baholash:

- 70–89 ball – “yaxshi”,
- 90–100 ball – “a'lo”.

DSGda qisman ozod etilganlar sog'lig'iga zararsiz sinov topshiradi. Sog'lomlashtirish guruhi ro'yxatlari tekshiruvdan **15 kun oldin** taqdim etiladi. Nazariy sinovdan “qoniqarsiz” baho olganlar faqat **bir marta qayta topshiradi**.

### Hisob yuritish

Malakaga ega xodimlar hisobini jismoniy va jangovar tayyorgarlik bo'linmalari yuritadi. Ma'lumotlar shaxsiy hujjatlarga kiritiladi, hujjatlar **5 yil saqlanadi**.

Xizmat safari yoki kasallik sababli qatnashmagan xodimlarning malakasi **1 yilgacha saqlanadi**.

Malaka toifasiga ega xodimlarga maxsus **ko'krak nishoni** beriladi.

Nizom talablarini buzgan shaxslar **qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladi**.

Malaka toifasi faqat natijaga asoslanib beriladi yoki pasaytiriladi. Tekshiruvlar ikki yo'nalishda — nazariy va amaliy tarzda o'tkaziladi. Xizmat staji, intizom va jismoniy holat muhim mezon hisoblanadi. Hisob va nazorat tizimi ochiq va elektron tarzda amalga oshiriladi.



### Savol va topshiriqlar:

1. Asosiy ta'tilga ta'rif bering?
2. Homiladorlik va tug'ish ta'tillariga ta'rif bering?
3. Kasallik bo'yicha ta'tilga ta'rif bering?
4. O'quv ta'tiliga ta'rif bering?
5. Ijodiy ta'tilga ta'rif bering?
6. Malaka toifalari qaysi ketma-ketlikda beriladi va ularni olish uchun qanday minimal xizmat staji talab etiladi?

<sup>47</sup> O'zbekiston Respublikasi IIVning 2025-yil 10-oktabrdagi “Ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy va jangovar tayyorgarligini tashkil etish, malaka toifasini berish hamda reyting baholash tizimini tashkil etish tartibi to'g'risida”gi 600-son buyrug'i.

7. Qanday holatlarda xodimga malaka toifasi sinovsiz berilishi mumkin? Kamida uchta holatni sanab o'ting.

8. Malaka toifasidan mahrum qilish yoki pasaytirishga sabab bo'ladigan holatlar qaysilar?

9. Yakuniy (nazorat) tekshiruvlarda qaysi yo'nalishlar bo'yicha bilim va malaka baholanadi hamda umumiy ball qanday tarzda shakllanadi?

10. "Usta" malaka toifasiga ega xodim necha yil davomida tekshiruvlarda ishtirok etmasa, undan ushbu malaka bekor qilinadi va qaysi toifa beriladi?

## 5-§. Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat kiyimini kiyish madaniyati

Xodimlarning tashqi ko'rinishi va kiyim-bosh kiyim tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-10-son qarori bilan tasdiqlangan "Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi Kodeksi"da xizmat vazifalarini bajarish vaqtida xodimlarning tashqi ko'rinishi ish sharoiti va xizmat tadbiri xususiyatini inobatga olgan holda, aholida ichki ishlar organlariga nisbatan hurmat uyg'otishi, ular toza va orasta kiyingan bo'lishi zarurligi, xodimlarga xizmat majburiyatlarini bajarish va xizmat vaqtida yoki xizmat kiyimida spirtli ichimliklar iste'mol qilish taqiqlanishi belgilangan<sup>48</sup>.

Xizmat kiyimini kiyish qoidalarini buzgan xodimlarga nisbatan esa tanbeh intizomiy jazo chorasi qo'llanilishi ko'rsatilgan.

Mazkur qaror bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti to'g'risida"gi Nizomga asosan Departament o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarishda ichki ishlar organlarida qonuniylik va xizmat intizomiga rioya etilishi holatini tekshirish, xodimlarning formal kiyim boshini belgilangan tartibda kiyib yurishlari, xizmat avtotransport vositalarini boshqarishda belgilangan me'yorlarga amal qilinishini nazorat qilish maqsadida respublika hududida patrul tekshiruvlarini olib borish huquqlariga ega.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunining 28-moddasida ham ichki ishlar organlari xodimlarining formal kiyim boshi haqida quyidagilar ko'satib o'tilgan:

Ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan, maxsus unvon berilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi ichki ishlar organining xodimidir.

Ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash tartibi hamda formal kiyim-bosh namunalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

Qonunning 44-moddasida (Ichki ishlar organlarining moliyalashtirilishi va moddiy-texnika ta'minoti) Ichki ishlar organlari xodimlari bepul formal

<sup>48</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-10-son qarori.

kiyim-bosh bilan ta'minlanishi, ashyoviy ta'minot normalari, shuningdek formali kiyim-boshni kiyish qoidalari O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan belgilanishi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-iyuldagi PQ-4394-son "Davlat organlari xodimlarining formali kiyim-bosh kiyib yurishi tartibini maqbullashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ichki ishlar organlarida formali kiyim-boshni kiyib yurish tartibini belgilaydi.

Ushbu qarorga asosan, O'zbekiston Respublikasi IIVning 2019-yil 8-avgustdagi "Ichki ishlar organlarida formali kiyim-boshni kiyib yurish" tartibi to'g'risidagi 232-sonli buyrug'i tasdiqlandi.

Ichki ishlar organlari xodimlariga, harbiy xizmatchilariga, ta'lim muassasalarining tinglovchi va kursantlariga faqat Ichki ishlar organlarida formali kiyim-boshni kiyib yurish qoidalari bilan belgilangan tartibda formali kiyim-boshni kiyib yurishga ruxsat etiladi. Ichki ishlar organlarida formali kiyim-boshning quyidagi turlari kiyiladi:

- tantanali formali kiyim-bosh (1-rasm);
- kundalik formali kiyim-bosh (2-rasm);
- dala (kamuflyajli) formali kiyim-bosh (3-rasm);
- maxsus (mahkama) formali kiyim-bosh (4-rasm).

Ushbu formali kiyim-boshlar - erkaklar va ayollarniki, mavsumga qarab qishki va yozgiga bo'linadi. Formali kiyim-boshni mavsumga qarab o'zgartirish tegishli harbiy garnizon boshlig'ining buyrug'i asosida amalga oshiriladi. Formali kiyim-bosh quyidagi hollarda kiyiladi:

tantanali formali kiyim-bosh (1-rasm);

- rasmiy, bayram, tantanali va xalqaro tadbirlarda, sud majlislarida, ommaviy axborot vositalari bilan uchrashuvlar va interv'yularda, o'quv mashg'ulotlarida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Prezident Administratsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasida o'tkaziladigan yig'ilishlarda;

kundalik formali kiyim-bosh (2-rasm);

- kundalik xizmat faoliyatida bevosita aholi bilan ishlashda (tezkor va tergov bo'linmalaridan tashqari), xizmat yig'ilishlarida, o'qituvchilar dars mashg'ulotlarida, shuningdek bo'linmalarning sohasidan qat'iy nazar rahbarlar tarkibiga kiruvchi xodimlar tomonidan;

dala (kamuflyajli) formali kiyim-bosh (3-rasm)<sup>49</sup>;

- o'quv-amaliy mashg'ulotlar davrida, favqulodda vaziyatlarda, harbiy (alohida) holatda va maxsus operatsiyalarni o'tkazish vaqtida, shuningdek, kursantlar ta'lim muassasasi hududida;

maxsus (mahkama) formali kiyim-bosh (4-rasm);

- ushbu turdagi kiyim-boshni kundalik xizmat faoliyatida kiyishi belgilangan soha xodimlari tomonidan vazifalarini bevosita xizmat xonalarida (bino, transport vositasi, harbiy qism) amalga oshirish vaqtida, auditoriya mashg'ulotlarida va xizmat yig'ilishlarida kiyiladi.

---

<sup>49</sup> O'zbekiston Respublikasi IIVning 2019-yil 8-avgustdagi "Ichki ishlar organlarida formali kiyim-boshni kiyib yurish tartibi to'g'risida"gi 232-sonli buyrug'i.



Xodimlarga ommaviy va qishloq xo'jaligi tadbirlariga hamda yo'l patrul xizmati statsionar postlariga xizmatni o'tashga jalb qilingan vaqtda maxsus (mahkama) formali kiyim-boshni kiyib yurishga ruxsat etiladi.

Xodimlar Ichki ishlar organlarida formali kiyim-boshni kiyib yurish qoidalariga muvofiq xizmatni formali kiyim-boshda yoki formali kiyim-bosh sirasiga kirmaydigan kiyimlarda o'taydi.

Ichki ishlar vazirligi Maxsus operatsiyalarni muvofiqlashtirish boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalari xodimlarining maxsus kiyim-boshni kiyib yurish tartibi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan belgilanadi.

Xizmatni formali kiyim-bosh sirasiga kirmaydigan kiyimlarda o'tashi belgilangan xodimlar Ichki ishlar organlarida formali kiyim-boshni kiyib yurish qoidalarida belgilangan talablarga rioya etishlari lozim. Mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan formali kiyim-boshlarni bevosita xizmat vazifalarini bajarish bilan bog'liq bo'lmagan vaqtlarda ko'cha va jamoat joylarida, shu jumladan shaxsiy va jamoat transportida xizmatni o'tash joyiga uyidan kelib-ketishda kiyib yurish ta'qiqlanadi, kundalik xizmat faoliyatida bevosita aholi bilan ishlaydigan, huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo'l harakati xavfsizligi, patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bo'linmalari hamda Transportda xavfsizlikni ta'minlash bosh boshqarmasining saf bo'linmalari xodimlari bundan mustasno.

Yig'ilishlar va boshqa tadbirlarni o'tkazishda kiyiladigan formali kiyim-boshlar ichki ishlar organlari boshliqlari tomonidan, saf ko'rigi vaqtda kiyiladigan formali kiyim-boshlar O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan belgilanadi. Formali kiyim-bosh belgilangan talablarga javob berishi hamda har tomonlama nuqsonsiz holatda kiyib yurilishi lozim. Xodimlarning formali kiyim-boshni ushbu Qoidalarda nazarda tutilmagan, o'zgartirilgan hamda tartibga keltirilmagan, tozalanmagan, shuningdek fuqarolik kiyimi bilan aralash holda kiyib yurishiga yo'l qo'yilmaydi<sup>50</sup>.

### **Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat vaqtidagi kasbiy madaniyat qoidalari**

Ofitser, serjant va safdor (shartnoma asosidagi harbiy xizmatchi)larga formali kiyim-boshni kiyib yurishda quyidagilar ruxsat etiladi:

<sup>50</sup> O'zbekiston Respublikasi IIVning 2019-yil 8-avgustdagi "Ichki ishlar organlarida formali kiyim-boshni kiyib yurish tartibi to'g'risida"gi 232-sonli buyrug'i.

1. Safdan tashqari qishki kundalik formali kiyim-boshni kiyib yurishda quloqchinli telpak o'rniga qishki kepi kiyishga;

2. Kadrlar bo'linmalarining jangovar, xizmat va jismoniy tayyorgarlikni tashkillashtirish bo'linmalari xodimlarining xizmat vazifalaridan kelib chiqib, xizmat o'tash davrida maxsus (mahkama) formali kiyim-boshni yoki sport kiyimlarini kiyib yurishga - ichki ishlar organlari, qorovul qo'shinlari hamda xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qo'shinlar orkestr va ansambllari xodimlari rasmiy, harbiy, tantanali va boshqa madaniy-ma'rifiy marosimlarda, shuningdek televideniye orqali chiqishlarida tantanali formali kiyim-bosh kiyishga ruxsat etiladi.

Bosh kiyimlar to'g'ri holatda kiyiladi. Furajka va kepining soyaboni qosh darajasida, quloqchinli telpakning old qismining pastki qirrasi qoshdan 2 sm. yuqorida bo'ladi. Formali kiyim-boshning bosh kiyimlariga Ichki ishlar organlarida formali kiyim-boshni kiyib yurish qoidalarida belgilangan kokardalar taqiladi. Egallab turgan lavozimining unvon pog'onasi polkovnik bo'lgan xodimlar formali kiyim-bosh bilan furajka (qishki mavsumda kulrang quloqchinli qorako'l telpak) kiyishlari mumkin.

Xodimlar maxsus (mahkama) va dala (kamuflyajli) formali kiyim-boshni xizmat vazifalaridan kelib chiqib, baland qo'njli botinka o'rniga qora rangli tufli bilan kiyishlariga ruxsat etiladi.

Ofitserlar tarkibidagi xodimlarning tantanali va kundalik formali kiyim-boshi ko'ylaklarining pastki qismi rezina chok bilan tikilgan, safdor va serjantlar, shuningdek ta'lim muassasalari tinglovchi hamda kursantlarining tantanali va kundalik formali kiyim-boshi ko'ylaklarining pastki qismi rezina chok bilan tikilmagan bo'ladi.

Xodimlarning barcha turdagi formali kiyim-boshi uchun belgilangan pogonlar hamda ularga o'rnatiladigan farqlovchi belgilar Ichki ishlar organlarida formali kiyim-boshni kiyib yurish qoidalariga muvofiq taqiladi. Generallar tarkibining formali kiyim-boshiga pogonlar quyidagicha taqiladi:

- mundirga - zarhal rangli;
- kundalik palto, kitel va kundalik kuylaklarga - dengiz to'lqini rangli;
- dala (kamuflyajli) formali kiyim-boshga - "soya" (ko'kimtir, qora tusli) rangli;

**Oq ko'ylakka** - zarhal ipdan to'qilgan oq rangli.

Shuningdek, generallar tarkibiga kiyib yurishga ruxsat etiladi:

- qishki xizmat kiyimini kiyishda quloqchinli qorako'l telpak o'rniga furajka.

Kundalik xizmat kiyimini kiyishda kitel o'rniga yarim junli kurtka, kundalik xizmat kiyimini kiyishda mavsumiy palto o'rniga kurtka. Maxsus (mahkama) va dala (kamuflyajli) formali kiyim-boshning pogoniga o'rnatiladigan farqlovchi belgilarning ipdan tikilishiga ruxsat etiladi. Ayollar tarkibining tantanali va kundalik formali kiyim-boshi yubkasining o'lchamlari Ichki ishlar organlarida formali kiyim-boshni kiyib yurish qoidalariga muvofiq bo'lishi lozim<sup>51</sup>. Ularga

<sup>51</sup> O'zbekiston Respublikasi IIVning 2019-yil 8-avgustdagi "Ichki ishlar organlarida formali kiyim-boshni kiyib yurish tartibi to'g'risida"gi 232-sonli buyrug'i.

formali kiyim-bosh ko'ylaklarining pastki qismi rezina chok bilan kiyib yurishga ruxsat etiladi. Galstukni taqishda Ichki ishlar organlarida formali kiyim-boshni kiyib yurish qoidalarida belgilangan qisqich ko'ylakning yuqoridan 3- va 4-tugmalari oralig'iga joylashtiriladi.

Tantanali formali kiyim-boshning furajkalari Ichki ishlar organlarida formali kiyim-boshni kiyib yurish qoidalariga muvofiq belgilangan o'lchamlarga muvofiq bo'lishi talab etiladi.

Formali kiyim-boshning poyabzali qora rangda bo'lishi hamda qora yoki to'q ko'k rangli paypoq bilan kiyilishi lozim. Xodimlar formali kiyim-boshni va formali kiyim-bosh sirasiga kirmaydigan kiyimlarini tashqi ko'rinishi (soch, soqoli) tartibga keltirilgan holda kiyib yurishlari lozim.

Ayollar formali kiyim-bosh va formali kiyim-bosh sirasiga kirmaydigan kiyimlarni xizmatga kelib-ketish va xizmatda kiygan vaqtida sochi bir turmakli, tartibga keltirilgan bo'lishi lozim. Taqinchoqlardan faqat nikohni anglatuvchi uzuk va ortiqcha e'tiborni jalb qilmaydigan ixcham sirg'a taqishga ruxsat etiladi.

Formali kiyim-boshning chap yengiga shevronlar Ichki ishlar organlarida formali kiyim-boshni kiyib yurish qoidalariga muvofiq barcha turdagi formali kiyim-boshning yelka chokidan 12 sm., yengi kalta ko'ylakda esa 7 sm. pastga tikiladi. Kursantlarning o'qish bosqichini anglatuvchi belgilari barcha turdagi formali kiyim-boshning chap yengida tikilgan shevrondan keyin 1 sm. pastga joylashtiriladi.

Tezkor-tergov guruhi tarkibida ichki ishlar organlari tergov bo'linmalarining tergovchi (surishtiruvchi) xodimlari hodisa joyiga chiqilganda Ichki ishlar organlarida formali kiyim-boshni kiyib yurish qoidalariga muvofiq tergovchi (surishtiruvchi)ning nimchasida bo'ladi.

Yetarlicha ko'rish imkoniyati bo'lmagan, kunning qorong'i vaqtida va tunda yo'l harakati xavfsizligi bo'linmalari xodimlari Ichki ishlar organlarida formali kiyim-boshni kiyib yurish qoidalarida ko'rsatilgan yo'l harakati xavfsizligi bo'linmalari xodimining tungi nur qaytaruvchi nimchasida xizmat olib boradi.

### **Orden, medal yoki ularning plankalarini va ko'krak nishonlarni taqib yurish tartibi**

Orden, medal yoki ularning plankalari va ko'krak nishonlarni faqat tantanali formali kiyim-boshga taqib yurishga ruxsat etiladi.

Orden, medal yoki ularning plankalari va ko'krak nishonlar bayram kunlari yoki boshqa tantanali marosimlarda taqiladi. Agar qonun hujjatlarida orden, medal yoki ularning plankalari va ko'krak nishonlarini taqishning boshqacha qoidalari belgilangan bo'lsa, qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

Orden, medal va ko'krak nishonlari bir qatorga sig'masa, ko'krakning chap tomoniga o'ngdan chapga qarab, ikkinchi va keyingi qatorlar bo'yicha taqib chiqiladi. O'zbekiston Respublikasining barcha medallari ko'krakning chap tomoniga ordenlardan keyin taqiladi. Ko'krakning chap tomonida ikki va undan ortiq medal taqib yurilganida, shuningdek medallar ordenlar bilan birga taqilganida ularning qadag'ich (kolodka)lari umumiy plankada bir qator qilib joylashtiriladi. Bunda, medallar ordenlardan keyin o'ngdan chapga qarata bir qator qilib taqiladi.

Xorijiy davlatlarning orden va medallari O'zbekiston Respublikasining orden va medallaridan pastda taqiladi. Lentalariga biriktirilgan orden va medallar ko'krakning chap tomoniga, lentasizlari esa o'ng tomoniga joylashtiriladi.

Orden va medallar yoki ularning plankalari, alohida farqlovchi belgilar (toifali mutaxassislarning, malaka toifalarining hamda oliy ta'lim muassasalarini tamomlaganda beriladigan ko'krak nishonlari) - tantanali formali kiyim-boshda Ichki ishlar organlarida formali kiyim-boshni kiyib yurish qoidalariga muvofiq taqiladi<sup>52</sup>. Ichki ishlar organlari, qorovul qo'shinlari hamda xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qo'shinlar orkestr va ansambllari xodimlarining ko'krak belgilari Ichki ishlar organlarida formali kiyim-boshni kiyib yurish qoidalariga muvofiq ko'krakning chap tomoniga taqiladi.

Xodimlarda ikki va undan ortiq oliy ta'lim muassasasini tamomlaganlik haqidagi ko'krak nishonlari mavjud bo'lsa, ularning yuqori darajalisi taqib yuriladi.

Xizmatni formali kiyim-bosh sirasiga kirmaydigan kiyimda o'tashga ruxsat etilgan ichki ishlar organlari xodimlarining kiyinish tartibi.

**Erkaklar uchun** - xizmat vaqtida quyidagi fuqarolik kiyimlarini kiyib yurishga ruxsat etilmaydi:

- ✓ rang-barang aralash rangli ko'ylak, futbolkalar;
- ✓ djinsi shim (to'q rangli yarim klassik bichimdagi shimlar bundan mustasno), yorqin rangli, e'tiborni tortadigan galstuk;
- ✓ tovonni ochiq poyafzal.

**Ayollar uchun** - xizmat vaqtida quyidagi fuqarolik kiyimlarini kiyib yurishga ruxsat etilmaydi:

- ✓ yorqin rangli, ko'zga tashlanadigan va ortiqcha e'tiborni tortadigan kiyimlar, tor (tanaga yopishib turadigan) bichimli hamda xarir matodan tayyorlangan kiyimlar;
- ✓ tizzadan baland yubkalar;
- ✓ shippak, tovonni ochiq tufli.

Shuningdek, ayollar kosmetikasi o'tkir yorqin ranglarda bo'lmasligi hamda me'yor doirasida qo'llanishi, soch turmaklari tartibli, saranjom-sarishta holda bo'lishi kerak.

Zargarlik buyumlari va qimmatbaho taqinchoqlari ixcham, sodda ko'rinishda bo'lishi, faqat nikoh uzugini taqib yurish talab etiladi. Fuqarolik kiyimida xizmat o'tovchi xodimlar qoida tariqasida, kuz-bahor mavsumida klassik bichimdagi qora yoki to'q ko'k, havorang rangli bir xil tusdagi kostyum va shim kiyib yurishlari lozim.

Fuqarolik kiyimida xizmat o'tovchi xodimlarga xizmat vazifalarini bajarish vaqtida sirtqi qismida ishlab chiqaruvchi korxonaning nomi, savdo belgisi yoki boshqa yozuvlar tushurilgan kostyum, shim, jemper, jilet yoki ko'ylak kiyib yurish taqiqlanadi.

---

<sup>52</sup> O'zbekiston Respublikasi IIVning 2019-yil 8-avgustdagi "Ichki ishlar organlarida formali kiyim-boshni kiyib yurish tartibi to'g'risida"gi 232-sonli buyrug'i.

Ichki ishlar organlarida formali kiyim-boshni kiyib yurish qoidalari funksional vazifalarini bajarishda konspiratsiya talablariga muvofiqlikni ta'minlash zarur bo'lgan hollarda tezkor xizmat xodimlariga nisbatan tatbiq etilmaydi<sup>53</sup>.



### Savol va topshiriqlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-son qaroriga ko'ra, Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat kiyimida qanday talablarga rioya qilinishi kerak?
2. Ichki ishlar organlarining xodimlari xizmat kiyimini qanday holatlarda kiyishlari kerak?
3. Xizmat kiyimini kiyish qoidalari buzgan xodimlarga qanday jazo choralari qo'llanilishi ko'rsatilgan?
4. "Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi Kodeksi"da xizmat vaqtida spirtli ichimliklar iste'mol qilishga qanday taqiq mavjud?
5. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi xodimlari xizmat kiyimining qanday turlari bo'lishi mumkin?
6. Xizmatni formal kiyim-boshda o'tashda, o'zgartirishlar va tartibga keltirishga qaysi shaxslar ruxsat etiladi?
7. Qaysi hollarda Ichki ishlar organlari xodimlari maxsus (mahkama) formali kiyim-boshni kiyishi mumkin?
8. Formali kiyim-boshda soch, soqol va taqinchoqlarga qo'yilgan qanday talablar mavjud?
9. Ayollar uchun xizmat vaqtida ruxsat etilmaydigan kiyimlar va kosmetikaga nisbatan qanday cheklovlar mavjud?
10. Ichki ishlar organlarining xodimlari uchun fuqarolik kiyimida xizmat o'tayotgan paytda qanday kiyimga ruxsat etilmaydi?

## 6-§. Ichki ishlar organlaridagi xizmat o'tash va undan bo'shatish

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlaridagi xizmat davlat xizmatining turi bo'lib, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi bo'yicha vazifalarni amalga oshirishdan iborat.

Shuning uchun ham ichki ishlar organlarini xalqqa o'z vaqtida va sifatli yordam ko'rsatadigan, har bir xodimi tomonidan "Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish oliy burchimiz!" deb biladigan ijtimoiy yo'naltirilgan professional tuzilmaga aylantirish talab qilinadi.

**Ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash** - O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini xizmatga qabul qilish, maxsus unvonlar berish va ulardan mahrum etish, lavozimga tayinlash, lavozimdan ozod etish va rotatsiya (lavozim bo'yicha

<sup>53</sup> O'zbekiston Respublikasi IIVning 2019-yil 8-avgustdagi "Ichki ishlar organlarida formali kiyim-boshni kiyib yurish tartibi to'g'risida"gi 232-sonli buyrug'i.

ko'chirish), xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, xodimning boshqa davlat organlari va tashkilotlariga saylanganida (tayinlanganida, safarbar etilganida) xizmat o'tashi, attestatsiya o'tkazish, ta'tillar berish, huquqiy va ijtimoiy himoya qilish, xizmat o'tash rejimini ta'minlash, xizmat muddatlarini uzaytirish, xizmatdan bo'shatish va xizmatga tiklash tartiblarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari xodimlarining ish vaqti amaldagi mehnat qonunchiligi normalari asosida belgilangan. Unga ko'ra, ichki ishlar organlari xodimlarining ish vaqti davomiyligi haftasiga qirq soatdan oshmasligi ko'rsatilgan. Zarur bo'lgan hollarda esa, ichki ishlar organlari xodimlari xizmatni o'tashga kuchaytirilgan yoki sutkalik rejimda jalb qilinishi mumkin<sup>54</sup>.

Ichki ishlar organlarida xizmatni o'tashning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra kuchaytirilgan tartibda xodimlar uchun kuniga ish vaqtidan tashqari davomiyligi to'rt soatdan oshmaydigan ish belgilanadi. Bundan tashqari, xodimlar uchun sutkalik tartibda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilariga umumqo'shin payogis normalari doirasida belgilanadigan oziq-ovqat ta'minotini kompensatsiya qilish o'rniga ularning xizmatni o'tash joylarida uch mahal bepul ovqatlangan holda xizmat o'tashlari mumkin. Bunday sharoitlardagi tartibni joriy etish hamda bekor qilish, shuningdek ichki ishlar organlari xodimini harbiy harakatlarda ishtirok etishga jalb qilish Ichki ishlar vazirining buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmatni o'tashlarida ularga uch kundan oshmaydigan vaqt qo'shilgan holda davomiyligi o'ttiz kalendar kun bo'lgan haq to'lanadigan har yilgi ta'til beriladi.

Ichki ishlar organlarining xodimlariga quyidagi kalendar hisobdagi xizmat davri uchun haq to'lanadigan qo'shimcha ta'tillar beriladi:

- o'n yillik xizmatdan so'ng davomiyligi besh kun;
- o'n besh yillik xizmatdan so'ng davomiyligi o'n kun;
- yigirma yillik xizmatdan so'ng davomiyligi o'n besh kun.

Ichki ishlar organlarida xizmatda bo'lishning chegara yoshi safdorlar va serjantlar tarkibi xodimlari uchun ellik yosh, ofitserlar tarkibi uchun ellik besh yosh, generallar tarkibi uchun oltmish yosh, ayollarga esa (mavjud unvonidan qat'i nazar) ellik yoshni tashkil etadi.

Ichki ishlar organlaridagi xizmatni o'tashni belgilovchi qonun hujjatlari asosida, safdorlar, serjantlar va ofitserlar tarkibining maxsus unvonlariga ega

---

<sup>54</sup> O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni, 2016-yil 16-sentabr, 30-modda.

bo'lgan belgilangan chegaradagi yoshga to'lgan xodimlar zaxiraga yoki iste'foga chiqariladi<sup>55</sup>.

Ichki ishlar organlarining yuksak kasbiy tayyorgarlikka, egallab turgan lavozimida ish tajribasiga ega bo'lgan va sog'lig'ining holatiga ko'ra xizmatni o'tashga yaroqli xodimlarning xizmat muddati o'zining roziligi bilan Ichki ishlar vaziri tomonidan belgilangan tartibda besh yilgacha, boshliqlar tarkibidagi, IIV ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilik lavozimlarini egallab turgan va ilmiy darajaga ega bo'lgan shaxslarning esa o'n yilgacha bo'lgan muddatga uzaytirilishi mumkin.

O'zining xizmat faoliyatida ijobiy natijalarga erishgan, xizmat majburiyatlarini namunali bajargan, nuqsonsiz xizmat qilgan va ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirishga katta hissa qo'shgan, xizmat burchini bajarish chog'ida mardlik va jasorat ko'rsatgan, shuningdek boshqa alohida xizmat ko'rsatgan ichki ishlar organlari xodimlari O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari, shuningdek IIV tomonidan ta'sis etiladigan farqlovchi idoraviy belgilar bilan taqdirlanadi. Ichki ishlar organlarining belgilangan chegaradagi yoshga to'lgan xodimlari zaxiraga yoki iste'foga chiqariladi.

Ichki ishlar organlaridagi xizmatni to'xtatish deganda, xodimning maxsus turdagi kasbiy faoliyatini amalga oshirishiga chek qo'yish yoki yakunlash tushuniladi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, ichki ishlar organlari xodimlari quyidagi asoslarga ko'ra xizmatdan bo'shatiladi:

- o'z xohishi (pensiya olish huquqini beradigan xizmat muddatini o'tamaganlarga) xodimning bildirgisi asosida;
- xizmatda bo'lishning belgilangan chegara yoshiga to'lganligi;
- pensiya olish huquqini beradigan xizmat muddatini o'taganligi, xodimning bildirgisi asosida;
- tashkiliy-shtat o'zgarishlari<sup>56</sup>;
- kasalligi, harbiy-tibbiy komissiyaning xizmatga yaroqsizligi to'g'risidagi xulosasi asosida;
- sog'lig'ining cheklanganligi holati, harbiy-tibbiy komissiyaning ichki ishlar organlaridagi xizmatga yaroqliligi cheklanganligi to'g'risidagi va xizmat bo'yicha boshqa lavozimga o'tkazish imkoniyati mavjud bo'lmagan taqdirda, egallab turgan lavozimiga muvofiq xizmat majburiyatlarini bajara olmasligi haqidagi xulosasi asosida;
- dastlabki sinov muddati davomida xizmatga yaroqsizligi;
- malakasi yetarli emasligi oqibatida egallab turgan lavozimiga noloyiqligi, attestatsiya natijalari asosida;

<sup>55</sup> O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni, 2016-yil 16-sentabr, 30-modda.

<sup>56</sup> O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni, 2016-yil 16-sentabr, 32-modda.

- xizmat intizomini qo‘pol ravishda buzganligi;
- IIO xodimining sha‘niga putur etkazuvchi xatti-harakatlar sodir etganligi;
- sodir etgan jinoyati uchun sudning hukmi, ajrimi, qarori qonuniy kuchga kirganidan keyin hukm qilinganligi;
- xodimda intizomiy jazo chorasi mavjud bo‘lgan taqdirda, muntazam ravishda xizmat intizomini buzganligi;
- boshqa turdagi davlat xizmatiga o‘tganligi (kadrlarning amaldagi zaxirasiga kiritmasdan);
- O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi tugatilganligi yoki chet davlat fuqaroligini olganligi;
- xodimlarga qonun hujjatlarida belgilangan cheklov va taqiqlarga rioya etmaganligi.

Ichki ishlar organlari xodimning xizmat muddati kalendar hisobda yigirma yilga yetganidan so‘ng, o‘tagan xizmat muddati uchun pensiya olish huquqiga ega bo‘ladi. Bunga O‘zbekiston Respublikasi IIV va xorijiy davlatlar oliy ta‘lim muassasalarida (IIVning xalqaro shartnomalarga muvofiq), O‘zbekiston Respublikasining oliy-harbiy ta‘lim muassasalarida o‘qish, Qurolli Kuchlarda muddatli harbiy xizmat yoki safarbarlik chaqiruv rezervidagi xizmatni o‘tash davrlari kiradi. Ichki ishlar organlaridagi xizmatdan bo‘shatilishning o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, xodim vafot etganligi, bedarak yo‘qolgan deb topilganligi yoki vafot etgan deb e‘lon qilinganligi sababli ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi ro‘yxatidan o‘chiriladi. Bedarak yo‘qolgan yoki vafot etgan deb topish to‘g‘risidagi sudning qarori bekor qilinganda, bedarak yo‘qolgan yoki vafot etgan deb topilishi oqibatida shaxsiy tarkib ro‘yxatidan o‘chirilgan shaxsni xodim sifatida qayta shaxsiy tarkib ro‘yxatiga kiritish O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining qarori asosida amalga oshiriladi.

Sodir etgan jinoyati uchun sudning hukmi, ajrimi, qarori qonuniy kuchga kirganidan keyin hukm qilinganligi munosabati bilan ichki ishlar organlari xizmatidan bo‘shatilgan shaxslarni xizmatga tiklash sudning xizmatga tiklash to‘g‘risidagi qonuniy kuchga kirgan qarori yoki O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining qarori asosida amalga oshiriladi.

Qolgan barcha asoslarga ko‘ra ichki ishlar organlari xizmatidan bo‘shatilgan shaxslarni xizmatga tiklash O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri qarori bilan amalga oshiriladi.

Tiklanishi lozim bo‘lgan shaxslarni shaxsiy tarkib ro‘yxatiga kiritish va lavozimga tayinlash O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri qarori bilan amalga oshiriladi.



### Savol va topshiriqlar:

1. Ichki ishlar organlaridagi xizmatni o'tashning asosiy maqsadi nima?
2. O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlaridagi xodimlarning ish vaqti qanday belgilangan?
3. Ichki ishlar organlari xodimlari uchun qanday ta'tillar mavjud?
4. Ichki ishlar organlaridagi xizmatni o'tashda qanday maxsus sharoitlar mavjud?
5. Ichki ishlar organlari xodimlari uchun xizmat muddati qanday uzaytirilishi mumkin?
6. Ichki ishlar organlari xodimlarini qanday asoslarga ko'ra xizmatdan bo'shatish mumkin?
7. Xizmatdan bo'shatilgan ichki ishlar organlari xodimlarini qayta xizmatga tiklash qanday amalga oshiriladi?
8. Ichki ishlar organlaridagi xizmatni to'xtatish holatlari nimalardan iborat?
9. Xizmat muddati yigirma yilga yetgan ichki ishlar organlari xodimi qanday huquqlarga ega bo'ladi?
10. Ichki ishlar organlari xodimlari uchun belgilangan chegara yoshi qanday?

### 1-§. Ichki ishlar organlari tomonidan shaxslarni ushlab turish asoslari va tartibi

Ichki ishlar organlari tomonidan shaxslarni ushlab turish asoslari O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi 407-son qonunining 4-bob, 18-moddasi, Jinoyat kodeksining 62-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksining 27-bob, 220-moddasida ushlab turish maqsadi ko‘rsatilgan bo‘lib, unda ushlab turish jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni uning jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanishiga barham berish, qochib ketishining, dalillarni yashirishi yoki yo‘q qilib yuborishining oldini olish maqsadida qisqa muddatga ozodlikdan mahrum qilishdan iboratdir.

Ushlab turish jinoyat ishi qo‘zg‘atilgunga qadar ham, ish qo‘zg‘atilganidan keyin ham amalga oshirilishi mumkin. Keyingi holatda ushlab turishga faqat surishtiruvchining, tergovchining yoki prokurorning qaroriga binoan yo‘l qo‘yiladi.<sup>57</sup>

**Ushlab turish deganda** - gumon qilinuvchini qisqa muddatga ozodlikdan mahrum etib, vaqtincha saqlash hibsonasiga joylashtirishdan iborat protsessual majburlov chorasi tushuniladi.

**Ushlab turish asoslariga jinoyatni sodir etishda gumon qilingan shaxs quyidagi asoslar mavjud bo‘lganda ushlab turilishi mumkin:**

- shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo‘lga tushsa;
- jinoyat shohidlari, shu jumladan jabrlanuvchilar uni jinoyat sodir etgan shaxs tariqasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatsalar;
- uning o‘zida yoki kiyimida, yonida yoki uyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilsa;
- shaxsni jinoyat sodir etishda gumon qilish uchun asos bo‘ladigan ma’lumotlar mavjud bo‘lib, u qochmoqchi bo‘lsa yoki doimiy yashaydigan joyi yo‘q yoki shaxsi aniqlanmagan bo‘lsa.

Jinoyat ishi qo‘zg‘atilgunga qadar gumon qilinuvchini ushlab turish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar ichki ishlar organining, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni yoki dastlabki tergovni amalga oshiruvchi boshqa organning xodimi, shuningdek muomalaga layoqatli har qanday shaxs, ko‘rsatilgan asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda, jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxsni ushlab turish va yaqin oradagi ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga olib kelishga haqlidir<sup>58</sup>.

Ushlab turish chog‘ida immunitet huquqidan foydalanuvchi shaxslar Deputatlar, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a‘zolari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman), O‘zbekiston

<sup>57</sup> JPK 220-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 18-sentabrdagi O‘RQ-335-sonli qonuni tahririda - O‘R QHT, 2012-y., 38-son, 433-modda.

<sup>58</sup> JPK 222-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-sentabrdagi O‘RQ-442-sonli qonuni tahririda - O‘R QHT, 2017-y., 36-son, 943-modda.

Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil, sudyalari va prokurorlar ushlab turilishi hamda ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga olib kelinishi mumkin emas va ushlab turish hollariga nisbatan tatbiq etilmaydi<sup>59</sup>.

***Jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar ushlab turish tartibi ichki ishlar organi xodimi, boshqa vakolatli shaxs ushlab turishning ko'rsatilgan asoslaridan bittasi mavjudligini bevosita aniqlasa yoki boshqa shohidlarning so'zlaridan aniqlasa:***

- o'zini tanishtirishi va ushlab turilgan shaxsning talabiga ko'ra o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatishi;

- gumon qilinuvchiga u jinoyat sodir etishda gumon qilib ushlanganligini ma'lum qilishi;

- ushlab turilgan shaxsga advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon qilish yoki xabar berish, himoyachiga ega bo'lish, ko'rsatuvlar berishni rad etishga bo'lgan protsessual huquqlarini tushuntirishi;

- ushlab turilgan shaxsga u bergan ko'rsatuvlardan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o'ziga qarshi foydalanilishi mumkinligini bildirishi;

- ushlab turilgan shaxsdan yaqin oradagi ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga birga borishini talab qilishi shart.

Ushlanayotgan shaxsda qurol borligi yoki u jinoyat sodir etganligini fosh qiluvchi dalillardan qutulish niyatida ekanligini taxmin qilishga yetarli asoslar mavjud bo'lsa, ushlayotgan vakolatli shaxs uni shaxsiy tintuv yoki olib qo'yishni amalga oshirishga haqlidir. Shaxsiy tintuv o'tkazish yoki olib qo'yish to'g'risidagi bayonnoma ushlangan shaxs ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilganidan so'ng xolislar hozirlikida tuzilishi mumkin.

Mazkur qoida ichki ishlar organi yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organ binosida amalga oshiriladigan ushlab turishga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Shaxsni ushlab turish videoyozuv orqali qayd etilmagan holda, ichki ishlar organi xodimi yoki boshqa vakolatli shaxs ushlab turilgan shaxs yaqin oradagi ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga olib kelinganidan so'ng videoyozuvdan foydalangan holda uning protsessual huquqlarini tushuntirishi shart. Ushlab turilgan shaxsga videoyozuv uni namoyish qilish orqali tanishtiriladi.

Shaxsni yalang'ochlash bilan bog'liq shaxsiy tintuvni videoyozuv orqali qayd etish taqiqlanadi.

Ushlab turish, shaxsiy tintuv qilish yoki olib qo'yish bayonnomasiga protsessual harakatlar videoyozuv orqali qayd etilganligi haqida yozib qo'yilib, videoyozuv materiallari bayonnomaga qo'shib qo'yiladi.

Agar ushlangan shaxs ish yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarlicha bilmasa, gumon qilinuvchining huquqlari unga tarjimon ishtirokida birinchi so'roqqa qadar tushuntirilib, bu haqda bayonnomaga yozib qo'yiladi.

<sup>59</sup> JPK 223-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 14-sentabrdagi O'RQ-446-sonli qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 37-son, 978-modda.

Vakolatli shaxslar va fuqarolar qonunga xilof yoki asossiz ushlab turganlik yoki ushlab vaqtida vakolatlari doirasidan chetga chiqqanlik uchun qonunda belgilangan javobgarlikka tortiladi<sup>60</sup>.

Ushlab turish bayonnomasini tuzish va ushlab turishning asosligini tekshirish ushlab turilgan shaxs ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilganidan so'ng huquqni muhofaza qiluvchi organning navbatchisi yoki boshqa xodimi ushlab turish bayonnomasini boshliqning ko'rsatmasiga binoan darhol tuzishi, unda quyidagilarni ko'rsatishi kerak:

*birinchidan*, bayonnoma tuzilgan joy va vaqtni;

*ikkinchidan*, ushbu shaxsning kimligi, kim tomonidan, qachon, qanday holatlarda, qonunda ko'rsatilgan qanday asoslarga ko'ra ushlanganligini;

*uchinchidan*, ushlangan shaxs qanday jinoyatni sodir etganlikda gumon qilinayotganligini;

*to'rtinchidan*, ushlangan shaxs ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga qaysi vaqtda olib kelinganligini;

*beshinchidan*, shaxsiy tintuv qilish va olib qo'yish natijalarini (ular o'tkazilgan bo'lsa);

*oltinchidan*, ushlab turishning videoyozuv orqali qayd etilganligi (u o'tkazilgan bo'lsa), ushlangan shaxsning videoyozuv materiallari bilan tanishganligi, shuningdek shaxsni ushlab turish vaqtida foydalanilgan vositalarning texnik xususiyatlarini. Bayonnomani ushlab turishning asosligini tekshirish vazifasi topshirilgan ichki ishlar organi xodimi yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organ xodimi, ushlab keltirgan vakolatli shaxs yoki fuqaro, ushlangan shaxs va xolislar imzo chekib, tasdiqlaydi.

Ichki ishlar organi xodimi yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organning xodimi amalga oshirilgan ushlab turish haqida ushlangan shaxs ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilgan paytdan e'tiboran o'n ikki soat ichida prokurorga yozma shaklda xabar berishi shart<sup>61</sup>.

Ushlab turishning asosli ekanligini tekshirish, hujjatlarni talab qilish va ko'zdan kechirish ushlangan shaxs ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilgan paytdan e'tiboran yigirma to'rt soatdan kechiktirmay o'tkazilishi lozim.

Ushlab turishga asos bo'lmagan taqdirda, ichki ishlar organi bo'linmasining boshlig'i yoki boshqa vakolatli shaxs ushlanganni ozod qilish to'g'risida qaror chiqaradi. Qarorning nusxasi darhol prokurorga yuboriladi.

Shaxs amalda ushlangan yoki uni jinoyat joyida ushlab bilan bog'liq tezkor-qidiruv tadbiri amalda yakunlangan paytdan boshlab u bilan bog'liq

<sup>60</sup> JPK 224-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 14-maydagi O'RQ-617-sonli qonuni tahririda - Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.05.2020-y., 03/20/617/0585-son.

<sup>61</sup> JPK 225-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-sentabrdagi O'RQ-442-sonli qonuni tahririda - O'R QHT, 2017-y., 36-son, 943-modda.

protsessual harakatlar amalga oshirilguniga qadar uning himoyachi bilan xoli uchrashishi ta'minlanadi. Bu haqda bayonnoma tuziladi<sup>62</sup>.

Ushlab turish, jinoyat ishi qo'zg'atish, ishda gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to'g'risidagi qarorlar darhol gumon qilinuvchiga e'lon qilinadi, ayni vaqtda unga nazarda tutilgan huquqlari tushuntiriladi va tanlangan yoki tayinlangan himoyachiga tanishib chiqish uchun taqdim etiladi. Qaror bilan tanishtirilgani va huquqlari tushuntirilgani qarorda qayd etilib, vakolatli shaxs va ushlangan shaxs tomonidan imzolanib, tasdiqlanadi. Bunda ushlangan shaxs ushlab keltirilgan paytdan boshlab yigirma to'rt soatdan kechiktirilmay so'roq qilinishi lozim.

Ushlab turish muddati shaxs amalda ushlangan paytdan (erkin harakatlanishga bo'lgan huquqlarning haqiqiy cheklangan payti) e'tiboran ko'pi bilan qirq sakkiz soatni tashkil etadi. Surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan zarur va yetarli asoslar taqdim etilganda ushlab turish sudning qarori bilan qo'shimcha ravishda qirq sakkiz soatga uzaytirilishi mumkin<sup>63</sup>.

Ushlab turish muddati tugagunga qadar va asoslar mavjud bo'lganda shaxs ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi, unga ayb e'lon qilinishi, bo'yicha so'roq qilinishiga amal qilgan holda ehtiyot chorasini tanlash haqidagi masala hal qilinishi zarur.

Alohida hollarda, ushlab turilgan gumon qilinuvchiga nisbatan sud tomonidan qamoqqa olish, uy qamog'i yoki garov tarzidagi ehtiyot choralari qo'llanilishi mumkin. Bunda gumon qilinuvchiga u ushlangan kundan e'tiboran o'n kun ichida ayblov e'lon qilinishi kerak. Aks holda ehtiyot chorasi bekor qilinadi va shaxs qamoqdan yoki uy qamog'idan ozod etiladi, garov esa garovga qo'yuvchiga qaytariladi. Jinoyat ishi qo'zg'atilganidan keyin va ushlab turishning butun muddati mobaynida ishni yuritish o'ziga taalluqli bo'lgan surishtiruvchi va tergovchi jinoyatni sodir etish holatlarini aniqlash, ushlab turishning asosli ekanligini tekshirish uchun o'z vakolatlari doirasida tergov harakatlari o'tkazishi mumkin.

Surishtiruvchining, tergovchining yoki prokurorning qaroriga binoan ushlab turish surishtiruvchining, tergovchining yoki prokurorning ushlab turish, gumon qilinuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish haqidagi qarori asosida ichki ishlar organi yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organ xodimi ushlangan shaxsni eng yaqin ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga darhol olib borishi shart. Amalga oshirilgan ushlab turish to'g'risida ushlab turish haqida qaror chiqargan vakolatli shaxs darhol xabardor qilinishi lozim<sup>64</sup>.

<sup>62</sup> JPK 225-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagi O'RQ-675-sonli qonuniga asosan beshinchi qism bilan to'ldirilgan - Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.02.2021-y., 03/21/675/0126-son.

<sup>63</sup> JPK 226-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli qonuni tahririda - Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son.

<sup>64</sup> JPK 227-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-sentabrdagi O'RQ-442-sonli qonuni tahririda - O'R QHT, 2017-y., 36-son, 943-modda.

Gumon qilinuvchi haqiqiy ushlangan paytdan boshlab o'tgan vaqt ayblanuvchini qamoqda saqlash yoki uning uy qamog'ida bo'lishi hamda belgilanganiga mutanosib ravishda sud tomonidan tayinlangan jazo muddatiga kiritiladi.

Ushlab turilganlarni saqlash joylari ushlangan shaxs ichki ishlar organi yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilganidan so'ng u ozodlikdan mahrum etish joyi hisoblanmagan xizmat binolarida saqlanadi yoki vaqtincha saqlash hibsonasi kamerasiga, ushlab turilgan harbiy xizmatchi esa gauptvaxtaga joylashtiriladi.

Ushlab turilganlarni ayrim joylarda istisno tarzida maxsus moslashtirilgan binolarda, dengiz va daryo kemalarida esa, maxsus ajratilgan kayutalarda saqlashga yo'l qo'yiladi.

Jazoni ijro etish muassasalarida ushlab turilganlarni saqlash uchun maxsus kameralar jihozlanadi.

Ushlab turilganlarni qamoqda saqlash joylarida saqlash tartibi va shart-sharoitlari qonunda belgilanadi<sup>65</sup>.

Ushlab turilganlarga uchrashish uchun ruxsat berish ushlab turilgan shaxsga himoyachi bilan uchrashuvga nazarda tutilgan qoidalarga ko'ra ruxsat beriladi.

Ushlab turilgan shaxsga himoyachi bilan birinchi xoli uchrashuvga birinchi so'roqqa ruxsat beriladi. Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi tanlanayotgan ushlab turilgan shaxsning himoyachi bilan uchrashuviga nazarda tutilgan ehtiyot chorasi qo'llanilishi lozim bo'lgan, muddatlar inobatga olingan holda ruxsat beriladi hamda uchrashuv surishtiruvchi, tergovchi va prokuror tomonidan ikki soatga qadar cheklanishi mumkin.

Ushlab turilgan shaxsga qarindoshlari va boshqa shaxslar bilan uchrashuvga ushlab turilgan shaxslar saqlanadigan joyning ma'muriyati ushlab turish to'g'risidagi materiallar qaysi tergovchi yoki surishtiruvchining ish yurituvida bo'lsa, faqat o'sha tergovchi yoki surishtiruvchining yozma ruxsati asosida ijozat beradi, himoyachi bilan uchrashuv bundan mustasno.

***Ushlab turilganni ozod qilish asoslari va tartibi, jinoyat sodir etishda gumon qilinib ushlab turilgan shaxs, agar:***

- jinoyat sodir etganligi haqidagi gumon tasdiqlanmasa;
- ushlab turilganga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash zarurati bo'lmasa yoki uni qo'llash sud tomonidan rad etilsa;
- ushlab turishning belgilangan muddati tugagan bo'lsa va ushlab turilganga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilmagan yoki ushbu Kodeks 243-moddasi o'ninchi qismining 3-bandiga muvofiq ushlab turish muddati uzaytirilmagan bo'lsa, ozod qilinadi.

Bolalar masalalari bo'yicha komissiyalar o'zlariga taalluqli ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni komissiya tarkibi a'zolarining kamida yarmi mavjud bo'lganda ko'rib chiqishga, nazarda tutilgan ma'muriy jazolarni o'zlariga

---

<sup>65</sup> Jinoyat kodeksining 62-moddasi hamda JPK 228-moddaning to'rtinchi, beshinchi va oltinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 29-sentabrdagi O'RQ-299-sonli qonuniga asosan to'rtinchi qism bilan almashtirilgan - O'R QHT, 2011-y., 40-son, 410-modda.

berilgan vakolatlar doirasida qo'llashga hamda oddiy ko'pchilik ovoz bilan qarorlar qabul qilishga haqlidir<sup>66</sup>.

Ushlab turilgan shaxsni ozod qilish surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qaroriga yoki sudning ajrimiga binoan ushlab turilganlar saqlanadigan joyning boshlig'i tomonidan amalga oshiriladi. Ozod qilish to'g'risidagi qaror yoki ajrim ushlab turilganlar saqlanadigan joyga kelib tushishi bilan darhol ijro etiladi.

Ushlab turilgan shaxsni bundan buyon ushlab turish uchun asoslar yo'qligi aniqlanishi bilanoq surishtiruvchi va tergovchi uni darhol ozod qilishlari shart.

Prokurorning, tergovchining yoki surishtiruvchining ushlab turilgan shaxsni ozod qilish haqidagi qarori, sudning uni ushlab turish muddatini uzaytirish to'g'risidagi yoki unga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi ajrimi qonunda belgilangan ushlab turish muddati ichida ushlab turilganlar saqlanadigan joyga kelib tushmasa, ushlab turilganlar saqlanadigan joyning boshlig'i bu shaxsni ozod qiladi va uning ozod qilinganligi to'g'risida prokurorga, tergovchiga yoki surishtiruvchiga bildirish xati yuboradi.

Zarur hollarda ushlab turilganlar saqlanadigan joyning ma'muriyati ozod qilingan shaxslarning yashash joyiga tekin jo'nab ketishini ta'minlaydi, ularning iltimosiga ko'ra, ushlab turilganlar saqlanadigan joyda bo'lgan vaqti haqida ma'lumotnoma beradi<sup>67</sup>.

Ushlab turish tufayli yetkazilgan ziyonni undirish shaxsga qonunsiz ushlab turish tufayli yetkazilgan ziyon, basharti keyinchalik unga nisbatan oqlov hukmi chiqarilgan bo'lsa yoki nazarda tutilgan asoslarga ko'ra ish tugatilgan bo'lsa, to'liq hajmda qoplanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekanligi belgilangan.

Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas, deb yozib qo'yilgan.

Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko'ra yo'l qo'yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas.

Shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart deb ko'rsatilgan bo'lsa, 28-moddada jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta'minlanadi.

Aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak.

<sup>66</sup> JPK 243-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi O'RQ-829-sonli qonuni tahririda - Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son.

<sup>67</sup> O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-iyuldagi O'RQ-100-sonli qonuni tahririda - Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-y., 6-son, 249-modda.

Hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas.

Agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas.

Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o'ziga nisbatan insoniy muomalada bo'linishi hamda inson shaxsiga xos bo'lgan sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishi huquqiga ega.

Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emas. 29-moddasida har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko'rsatiladi.

Har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e'tiboran o'z tanloviga ko'ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi ayblovning mohiyati va asoslari to'g'risida xabardor qilinish, unga qarshi yoki uning foydasiga guvohlik berayotgan shaxslarning so'roq qilinishini talab etish, tarjimon yordamidan foydalanish huquqiga ega.

Qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog'ida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Jinoyat uchun hukm qilingan har kim qonunda belgilangan tartibda hukmning yuqori turuvchi sud tomonidan qayta ko'rib chiqilishi huquqiga, shuningdek afv etish yoki jazoni yengillashtirish to'g'risida iltimos qilish huquqiga ega.

Huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning huquqlari qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jabrlanganlarga himoyalaniшни va odil sudlovdan foydalanishni ta'minlaydi, ularga yetkazilgan zararining o'rni qoplanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi deyilgan. 30-moddasida hech kim rasmiy e'lon qilinmagan qonun asosida hukm qilinishi, jazoga tortilishi, mol-mulkidan yoki biron-bir huquqidan mahrum etilishi mumkin emas, deb ta'kidlab qo'yilgan.

Aybsizlik prezumpsiyasi - gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi.

Aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak. Shuningdek, qonun qo'llanilayotganda kelib chiqadigan shubhalar ham gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin.

Agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas<sup>68</sup>.

Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish uch soatdan ortiq davom etishi mumkin emas. Ayrim hollarda alohida zarurat munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida ma'muriy yo'l bilan ushlab turishning boshqacha muddatlari belgilanishi mumkin.

Chegara tartibini yoki O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasi orqali o'tish punktlaridagi tartibni buzgan shaxslar bayonnoma tuzish uchun uch soatgacha ushlab turilishi mumkin, huquqbuzarning shaxsini va huquqbuzarlik holatlarini aniqlash uchun zarur hollarda esa - ushlab paytidan boshlab yigirma to'rt soat ichida prokurorga yozma tarzda ma'lum qilib, uch sutkagacha yoki huquqbuzarda o'zining shaxsini tasdiqlovchi hujjat bo'lmasa, prokurorning sanksiyasi bilan o'n sutkagacha ushlab turilishi mumkin<sup>69</sup>.

MJtKning 56–58, 61, 90-moddalarida, 164-moddasining 3-qismida, 170, 182, 184, 184<sup>2</sup>, 184<sup>3</sup>, 191, 194, 195, 201, 204–206, 210-moddalarida, 225-moddasining 1-qismida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan yoki o'zining shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlarni yashirgan shaxslarning huquqbuzarlik to'g'risidagi ishi ma'muriy ishlar bo'yicha sudya yoki ichki ishlar organi boshlig'i (boshliq o'rinbosari) tomonidan ko'rib chiqilgunga qadar, lekin uzog'i bilan 24 soatgacha ushlab turilishi mumkin.

Transport vositalarini ushlab turish nazarda tutilgan huquqbuzarlik sodir etilganda, shuningdek qonunchilik hujjatlarida to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan boshqa hollarda - ichki ishlar organlari tomonidan ushlab turiladi<sup>70</sup>.

Mahkumlarga alohida hollar (yaqin qarindoshining vafoti yoki hayoti uchun xavfli bo'lgan og'ir kasalligi, mahkumga yoki uning oilasiga jiddiy moddiy zarar yetkazgan voqea) munosabati bilan borish-kelish uchun ketadigan vaqtni (to'rt sutkagacha) hisobga olmagan holda, yetti sutkagacha bo'lgan muddatga jazoni ijro etish muassasasi doirasidan chetga chiqishga ruxsat etilishi mumkin bo'lib, mahkumlarga O'zbekiston Respublikasi doirasida chetga chiqishga ruxsat etiladi. Shu bilan birga agarda mahkum jazoni ijro etish muassasasiga qaytishdan bo'yin tovlagan hollarda belgilangan tartibda u jazoni ijro etish muassasasidan qochgan shaxs sifatida ichki ishlar organi tomonidan qidiriladi, ushlanadi va jazoni o'tash joyiga yuboriladi<sup>71</sup>.

Umuman olganda, O'zbekistonda tibbiy yo'sindagi majburlov choralari bo'yicha olimlar va mutaxassislar fikrlari turlicha bo'lib, ularning umumiy maqsadi jamiyat xavfsizligini ta'minlash va inson huquqlarini himoya qilishdir.

<sup>68</sup>O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 9-iyundagi O'RQ-1067-sonli qonuniga asosan ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qismlar bilan almashtirilgan - Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.06.2025-y., 03/25/1067/0498-son.

<sup>69</sup> O'zbekiston Respublikasi MJtKning 288-moddasi.

<sup>70</sup> O'zbekiston Respublikasi MJtKning 291-moddasiga asosan transport vositalarini haydovchilar tomonidan MJtKning 125-moddasining 4- va 5-qismlarida, 126, 131, 135, 135<sup>1</sup>, 136, 137, 176<sup>3</sup>-moddalarida, 194-moddasida (ichki ishlar organlari xodimining transport vositasini to'xtatish to'g'risidagi qonuniy talabini bajarmaslik xususidagi qismi).

<sup>71</sup> O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 82-moddasi.

Ruhiy holati buzilgan, ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan shaxslarga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari belgilangan asoslar bo‘yicha va tartibda sudning qaroriga binoan qo‘llaniladi<sup>72</sup>.

Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari sog‘liqni saqlash organlarining psixiatriya muassasalarida tartibga solingan qoidalarga asosan alkogolizm, giyohvandlik yoki toksikomaniyaga duchor bo‘lgan, aqli rasolikni istisno etmaydigan ruhiy holati buzilgan shaxslarga nisbatan esa – jazoni ijro etish muassasalarida ham amalga ijro etiladi<sup>73</sup>.

Ichki ishlar organlari voyaga yetmagan shaxs ushlab turilgan har bir holat to‘g‘risida uning yaqin qarindoshlariga yoki boshqa qonuniy vakillariga darhol xabar beradi.

Ichki ishlar organlari harbiy xizmatchisi ushlab turilganligi to‘g‘risida u harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy qism qo‘mondonligiga xabar beradi.

Ichki ishlar organlari chet yel fuqarosi ushlab turilganligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga xabar beradi.

Ichki ishlar organlari tomonidan shaxslarni ushlab turish — jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat xavfsizligini ta‘minlash va tergov-surishtiruv jarayonlarini samarali yuritishning muhim huquqiy vositalaridan biridir. Shu bilan birga, bu chora inson erkinligini vaqtincha cheklash bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, u faqat qonunchilikda belgilangan qat‘iy asoslar va aniq tartibga amal qilingan holda qo‘llanishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, amaldagi qonun hujjatlarida, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida shaxsni ushlab turishning huquqiy asoslari, muddatlari, tartibi va protsessual kafolatlari aniq belgilab qo‘yilgan. Shaxsni ushlab turish faqat jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan yoki jamiyat xavfsizligiga tahdid solayotgan holatlarda, zarurat va qonuniylik prinsiplariga amal qilgan holda amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, har qanday ushlab turish insonning sha‘ni va qadr-qimmatini kamsitmasligi, unga nisbatan qiynoqlar yoki noqonuniy bosimlar qo‘llanmasligi lozim.

Ichki ishlar organlari tomonidan shaxslarni ushlab turish mexanizmi fuqarolarning huquq va erkinliklariga tajovuz qilmasdan, aksincha, ularni himoya qilishga xizmat qilishi zarur. Bu esa, avvalo, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining yuksak huquqiy madaniyati, kasbiy mas‘uliyati va qonunchilikka so‘zsiz rioya etishiga bog‘liq. Shu bois, mazkur institutni takomillashtirishda xalqaro standartlar, inson huquqlari bo‘yicha kafolatlar va sud nazorati tizimining kuchaytirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>72</sup> O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining XVII-bobi “Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarining asoslari va ularni tayinlash” normalari.

<sup>73</sup> O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 33-bobi “Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari ijro etish” tartibi.



### Savol va topshiriqlar:

1. Ichki ishlar organlari tomonidan shaxslarni ushlab turish asoslarini tushuntirib bering?
2. Ichki ishlar organlari tomonidan shaxslarni ushlab turish tartibini aytib bering?
3. Jinoyat-protsessual majburlov chorasi va ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritishni ta'minlash chorasi sifatida ushlab turishni bir biridan farqlash mezonlari nimadan iborat?
4. Ushlab turish tushunchasiga ta'rif bering?
5. Ushlab turish muddatlari qanday va ular uzaytirilishi mumkinmi?
6. Xorijiy davlatning vakolatli organidan tegishli tarzda rasmiylashtirilgan so'rov olingan shaxsni ushlab berish xususiyatlarini ayting?
7. Ichki ishlar organlari tomonidan ma'muriy yo'l bilan ushlab turish xususiyatlarini ayting?
8. Ichki ishlar organlari tomonidan ushlab turilgan shaxslarga ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash qanday amalga oshiriladi?
9. Ichki ishlar organlari harbiy xizmatchisi ushlab turilganligi to'g'risida kimga xabar beradi?
10. Ichki ishlar organlari chet el fuqarosi ushlab turilganligi to'g'risida kimga xabar beradi?

### 2-§. Hududdagi uchastkalarni, turar joylarni, inshootlarni va boshqa ob'ektlarni o'rab olish (to'sib qo'yish)

Jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish hamda favqulodda holatlarda aholining hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishda hududlarni, turar joylarni, inshootlarni va boshqa ob'ektlarni o'rab olish (to'sib qo'yish) chora-tadbirlari alohida ahamiyatga ega. Ichki ishlar organlari tomonidan hududlarni o'rab olish - bu qonunchilikda belgilangan tartibda, jamoat tartibini saqlash, xavfsizlikni ta'minlash va xizmat vazifalarini bajarish maqsadida amalga oshiriladigan xizmat tadbiridir.

Hududlarni o'rab olish qadim zamonlardan buyon insonlar tomonidan o'z mulkini himoya qilish, chegaralash va ajratib ko'rsatish uchun qo'llanilgan bo'lib, bugungi kunda esa bu jarayon nafaqat xavfsizlik, balki huquqiy, me'moriy va estetik nuqtai nazardan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yurtimizda shaharsozlik, uy-joy qurilishi, xususiy mulkchilik va tadbirkorlik rivojlanib borayotgan bir paytda, uchastkalar va ob'ektlarni o'rab olish bo'yicha belgilangan qoidalarga amal qilish dolzarb masalaga aylangan.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-son qonunining 4-bob, 19-moddasida belgilanishicha, hududdagi uchastkalarni, turar joylarni, inshootlarni va boshqa ob'ektlarni o'rab olishga (to'sib qo'yish), Ichki ishlar organlari tuman, shahar ichki ishlar boshqarmasi (bo'limi) boshlig'ining va boshqa yuqori turuvchi rahbarlarning og'zaki yoki yozma qarori asos hisoblanadi.

***Ichki ishlar organlari tomonidan, hududdagi uchastkalarni o‘rab olishni (to‘sib qo‘yishni) quyidagi hollarda amalga oshiriladi:***

- avariya, tabiiy va texnogen xususiyatga ega bo‘lgan falokatlar hamda boshqa favqulodda vaziyatlar oqibatlarini tugatishda, epidemiyalar va epizootiyalar vaqtida karantin tadbirlarini o‘tkazishda;

- ommaviy tartibsizliklarga hamda transport harakatini, aloqa vositalarini va tashkilotlar ishini izdan chiqaruvchi boshqa harakatlarga chek qo‘yish bo‘yicha tadbirlarni o‘tkazishda;

- qamoqdan qochgan shaxslarni va jinoiy jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlayotgan shaxslarni qidirishda;

- jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxslarni ta‘qib etishda;

- terrorchilikka qarshi operatsiyani o‘tkazishda, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalari yoki zaharli yoki radioaktiv moddalar topilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni tekshirishda;

- ommaviy tadbirlar, shu jumladan bayramlar, xalq sayillari, mitinglar, ko‘cha yurishlarini o‘tkazishda.

Hududni o‘rab olish (to‘sib qo‘yish) tushunchasi va uning asosiy jihatlari bu ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladigan xavfsizlikni ta‘minlash chorasi hisoblanadi. Maqsadi muayyan hudud, bino, inshoot yoki ob‘ektga kirish va chiqishni vaqtincha yoki doimiy cheklash va nazorat qilishdan iborat.

Odatda favqulodda vaziyatlar, tergov harakatlari yoki jamoat tartibini ta‘minlash vaqtida qo‘llaniladi.

Hududdagi uchastkalarni, turar joylarni, inshootlarni va boshqa ob‘ektlarni o‘rab olish (to‘sib qo‘yish)da strategik maqsadlar va vazifalarni umumlashtiradi.

Avariya, tabiiy va texnogen xususiyatga ega bo‘lgan falokatlar hamda boshqa favqulodda vaziyatlar oqibatlarini tugatishda, epidemiyalar va epizootiyalar vaqtida karantin tadbirlarini o‘tkazishda – bunda ichki ishlar organlari odamlar qurbon bo‘lishiga, ularning sog‘lig‘iga yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishiga, jiddiy moddiy talafotlarga, odamlarning hayot faoliyati sharoitlari buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki olib kelgan sanoatdagi, transportdagi avariya va boshqa texnogen avariya, yong‘inlar (portlashlar), kuchli ta‘sir etuvchi zaharli, kimyoviy, radioaktiv hamda xavfli biologik moddalarning tarqalishi yoki tarqalish xavfi bilan bog‘liq avariya, binolar va inshootlarning to‘satdan qulashi, to‘g‘onlarning, tozalash inshootlarining buzilishi, shuningdek odamlarning hayot faoliyatini ta‘minlovchi kommunikatsiya tizimlaridagi avariya texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarga ichki ishlar organlari xodimlari ma‘sul etib birlashtiriladi.

Tadbirning xususiyati, ob-havo sharoitlari, xavfli tabiiy hodisalar va texnogen avariya yuzaga kelishi prognozi hamda ommaviy tadbirni o‘tkazishda fuqarolar xavfsizligini va jamoat tartibini ta‘minlashga ta‘sir ko‘rsatuvchi boshqa omillarga bog‘liq holda, ishchi guruh uning o‘tkazilishidan oldin ommaviy tadbirni o‘tkazish ob‘ektini tekshiradi va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘radi. Ishchi guruh tomonidan o‘tkazilgan tekshiruv

yakunlari bo'yicha ommaviy tadbirning o'tkazilish imkoniyati yuzasidan tekshiruv dalolatnomasi tuziladi<sup>74</sup>.

Ommaviy tadbirni o'tkazishdan oldin bartaraf etish mumkin bo'lmagan fuqarolarning xavfsizligini va jamoat tartibini ta'minlash chora-tadbirlarining amalga oshirilishini murakkablashtiruvchi holatlar, shu jumladan, prognoz qilingan xavfli tabiiy hodisalar va texnogen avariya ro'y berishi ehtimoli yuqoriligi aniqlanganda ishchi guruh ommaviy tadbirni o'tkazish sanasi va vaqtining kechroq muddatga ko'chirilishini, uni tomoshabinlarsiz o'tkazilishi yoki ommaviy tadbirning bekor qilinishi to'g'risidagi taklifni vakolatli organ rahbariga kiritadi<sup>75</sup>.

Ommaviy tadbirni o'tkazish davrida yuzaga kelgan kutilmagan holatlarning (yong'in, avariya) kelib chiqish omillari va sabablarini o'rganib, o'rganish natijalari bo'yicha aybdor shaxslarga nisbatan qonuniy choralar ko'rilishini ta'minlaydi.

Ichki ishlar organlari va huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlardan ommaviy tadbirni o'tkazish ob'ektida va unga tutash bo'lgan hududda yuzaga kelgan tezkor holat to'g'risida axborot oladi va ommaviy tadbirni o'tkazish davrida huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslarga nisbatan ichki ishlar organlari tomonidan tuzilgan hujjatlarning qonuniyligini o'rganib chiqadi.

Ommaviy tadbirni o'tkazish davrida kutilmagan holatlarning (yong'in, avariya) yuzaga kelish omillari va sabablarini tekshirish, shuningdek, aybdor shaxslarga nisbatan tergov tadbirlarini o'tkazish choralari ko'radi<sup>76</sup>.

Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish, ularni o'tkazishda fuqarolar xavfsizligini va jamoat tartibini saqlash chora-tadbirlarini kuchaytirish maqsadida Ichki ishlar vazirligi quyidagi ishlarni amalga oshiradi, Jumladan, ommaviy tadbirlarni o'tkazishda xavfsizlikni ta'minlash to'g'risidagi shartnomaning namunaviy shaklini bir oy muddatda ishlab chiqadi va tasdiqlaydi, ommaviy tadbirlar tashkilotchilari tomonidan ommaviy tadbirlarni o'tkazishda xavfsizlikni ta'minlash to'g'risida ichki ishlar organlari bilan majburiy tartibda shartnomalar tuzilishi yuzasidan qat'iy nazorat o'rnatadi, shuningdek ularning tegishli ruxsatnomalar olmasdan o'tkazilishi holatlariga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini ko'radi, vazirliklar va idoralarning ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish davomida xavfsizlikni ta'minlashga jalb qilinadigan bo'linmalari xatti-harakatlari muvofiqlashtirilishini ta'minlaydi.

Ommaviy tartibsizliklarga hamda transport harakatini, aloqa vositalarini va tashkilotlar ishini izdan chiqaruvchi boshqa harakatlarga chek qo'yish bo'yicha tadbirlarni o'tkazishda, jamiyat barqarorligi va taraqqiyoti tinchlik, qonun ustuvorligi hamda jamoat tartibiga bevosita bog'liqdir. Ommaviy tartibsizliklar esa ushbu barqarorlikka jiddiy xavf tug'diruvchi omillardan biri hisoblanadi. Bunday

<sup>74</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-sentabrdagi 569-sonli tahririda - Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.09.2024-y., 09/24/569/0714-son.

<sup>75</sup> 40-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-sentabrdagi 569-sonli qarori\_tahririda - Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.09.2024-y., 09/24/569/0714-son.

<sup>76</sup> Asos. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son.

holatlar nafaqat fuqarolarning xavfsizligiga tahdid soladi, balki transport harakati, aloqa vositalari hamda turli tashkilotlar faoliyatining izdan chiqishiga ham sabab bo'ladi.

**Ommaviy tartibsizlik** — bu ko'pchilik tomonidan sodir etiladigan, jamoat xavfsizligi va tartibini buzuvchi harakatlar majmuidir. Ular odatda norozilik namoyishlari, ijtimoiy ziddiyatlar, iqtisodiy muammolar, noto'g'ri axborot tarqalishi yoki provokatsiyalar natijasida yuzaga keladi. Ayrim hollarda tashqi kuchlarning aralashuvi yoki ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan yolg'on ma'lumotlar ham vaziyatni keskinlashtirishi mumkin.

Transport harakatining izdan chiqishida ommaviy tartibsizliklar, eng avvalo transport tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yo'llarning to'sib qo'yilishi, jamoat transporti vositalariga zarar yetkazilishi yoki harakat xavfsizligining buzilishi natijasida:

**birinchidan**, fuqarolarning ish va o'qish joylariga yetib borishi qiyinlashadi;

**ikkinchidan**, tez tibbiy yordam va boshqa favqulodda xizmatlar faoliyati sustlashadi;

**uchinchidan**, iqtisodiy faoliyatda uzilishlar yuzaga keladi.

Transport tizimining to'xtashi shahar yoki hudud hayotining deyarli barcha sohalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

**Aloqa tizimlari** — telefon, internet, ommaviy axborot vositalari - jamiyatning axborot almashinuvi va boshqaruv jarayonida muhim o'rin tutadi.

Tartibsizliklar vaqtida:

- aloqa infratuzilmasiga zarar yetkazilishi;

- internet va mobil tarmoqlarda uzilishlar;

- noto'g'ri va vahimali xabarlarining tez tarqalishi kabi holatlar yuz berishi mumkin. Bu esa aholi o'rtasida vahima kuchayishiga, rasmiy ma'lumotlarga bo'lgan ishonchning pasayishiga olib keladi.

Tashkilotlar faoliyatining izdan chiqishi natijasida davlat va xususiy tashkilotlar faoliyati ham ommaviy tartibsizliklardan jiddiy zarar ko'radi. Ish jarayonining to'xtashi, xodimlarning ish joyiga yetib bora olmasligi, mulkka zarar yetkazilishi iqtisodiy yo'qotishlarga sabab bo'ladi. Ayniqsa, bank-moliya, sog'liqni saqlash, ta'lim va kommunal xizmat ko'rsatish sohalarida yuzaga keladigan uzilishlar aholi hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

“Ommaviy tadbir — 100 va undan ko'p kishilarning ishtirokida ijtimoiy-siyosiy (anjumanlar, konferensiyalar, syezdlar), madaniy-ommaviy va ko'ngilochar tomosha dasturlari (musiqiy, adabiy va boshqa festivallar, konsert, teatr, sport, reklama tadbirlari, xalq sayillari, sirk, milliy namoyishlar va o'yinlar, ko'rik tanlovlari va boshqalar), shuningdek umumxalq, diniy, kasb bayramlarini o'tkazish maqsadida ommaviy tadbirni o'tkazish ob'ektida tashkil qilinadigan fuqarolarning birgalikda qatnashishlari”, deb tarif berilgan.

Ommaviy tartibsizliklarning oqibatlari uzoq muddatli bo'lishi mumkin. Ular jamiyatda ishonchsizlik muhitini kuchaytiradi, iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi va ijtimoiy ziddiyatlarni chuqurlashtiradi.

**Bunday holatlarning oldini olish uchun:**

- qonun ustuvorligini ta'minlash;

- aholi bilan ochiq va shaffof muloqotni yo'lga qo'yish;
- ishonchli axborot manbalarini rivojlantirish;
- yoshlar bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish;
- ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni o'z vaqtida hal etish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Qamoqdan qochgan shaxslarni va jinoiy jazoni o'tashdan bo'yin tovlayotgan shaxslarni qidirishda** - jamiyat xavfsizligi va qonun ustuvorligini ta'minlashda jinoyat sodir etgan shaxslarning jazoni muqarrar ravishda o'tashi muhim ahamiyat kasb etadi. Qamoqdan qochgan yoki sud hukmi bilan belgilangan jazoni o'tashdan bo'yin tovlayotgan shaxslarni qidirish esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu jarayon nafaqat jinoyatchilikka qarshi kurashish, balki fuqarolarning tinchligi va xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Qamoqdan qochish yoki jazoni ijro etishdan qasddan bo'yin tovlash amaldagi qonunchilikka muvofiq jinoyat hisoblanadi. Sud hukmi kuchga kirganidan so'ng, mahkum belgilangan tartibda jazoni o'tashi shart. Agar shaxs jazoni o'tashdan yashirinsa yoki jazoni ijro etish muassasasidan qochsa, vakolatli organlar tomonidan unga nisbatan qidiruv e'lon qilinadi.

Qidiruv jarayoni odatda jinoyat-protsessual qonunchilik normalari asosida amalga oshiriladi va ichki ishlar organlari, jazoni ijro etish muassasalari hamda boshqa vakolatli tuzilmalar hamkorligida olib boriladi.

**Qidiruvning asosiy maqsadi — qochgan yoki yashirinayotgan shaxsni aniqlash, qo'lga olish va sud hukmining ijrosini ta'minlashdir. Bu jarayon quyidagi jihatlar bilan ahamiyatlidir:**

- jamiyatda xavfsizlikni ta'minlash;
- jinoyat sodir etgan shaxsning javobgarlikdan qochib ketishining oldini olish;
- qonun ustuvorligini mustahkamlash;
- fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish.

Agar bunday shaxslar o'z vaqtida qo'lga olinmasa, ular yana jinoyat sodir etish xavfini tug'dirishi mumkin.

Qidiruv e'lon qilingandan so'ng, vakolatli organlar tomonidan shaxsning oxirgi yashash manzili, qarindoshlari, tanishlari, ish joyi va boshqa ehtimoliy joylar tekshiriladi. Shuningdek, mavjud ma'lumotlar bazalari, ro'yxatlar va boshqa axborot tizimlari orqali ma'lumotlar aniqlashtiriladi.

Zarurat tug'ilganda, hududiy, respublika yoki xalqaro qidiruv e'lon qilinishi mumkin. Xalqaro miqyosdagi qidiruvlar tegishli xalqaro hamkorlik mexanizmlari asosida amalga oshiriladi.

**Ichki ishlar organlari tomonidan quyidagi hollarda terrorchilikka qarshi operatsiyalar o'tkaziladi:**

- terrorchilikka qarshi operatsiyani o'tkazishda, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalari, zaharli yoki radioaktiv moddalar topilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni tekshirishda;
- terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkazish natijasida butunlay yo'q qilinganligi sababli tiklashning imkoni yo'q bo'lgan mol-mulkning bozor qiymati;

- terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkazish natijasida mol-mulkka yetkazilgan zarar.

Terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkazish natijasida shaxsning sog'lig'iga zarar yetkazilgan taqdirda, unga bepul zarur tibbiy yordam ta'minlanadi, fuqaro halok bo'lgan taqdirda esa — qonunchilikka muvofiq, uning oila a'zolariga pensiya yoki boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi tayinlanadi<sup>77</sup>.

Ma'naviy zararni qoplash masalalari sud tartibida hal qilinadi.

Agar fuqarolarning xavfsizligini va jamoat tartibini ta'minlash, tergov harakatlarini, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish, jinoyat, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joyni, hodisa joyini qo'riqlash, shuningdek xavf tahdid solayotgan mulk ob'ektlarini himoya qilish uchun zarur bo'lsa, nazarda tutilgan hollarda hududdagi uchastkalarini o'rab olish (to'sib qo'yish) chog'ida transport vositalari va piyodalar qatnovi cheklanishi yoki taqiqlanishi mumkin.

Agar fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga xavfning oldini olish uchun zarur bo'lsa va ularni boshqacha usulda himoya qilish mumkin bo'lmasa, o'rab olish (to'sib qo'yish) jismoniy va yuridik shaxslarga qarashli turar joylarga, imoratlarga va boshqa ob'ektlarga nisbatan ham amalga oshirilishi mumkin.

Ichki ishlar organlari ushbu moddada ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirishda bo'lg'usi o'rab olish (to'sib qo'yish) haqida aholini xabardor qilish, aholining normal hayot kechirishini ta'minlash choralarini ko'radi, fuqarolarga yuzaga kelgan vaziyatda eng qulay harakatlanish yo'nalishlarini tushuntiradi<sup>78</sup>.

Tashkilotlar va fuqarolarning transport vositalaridan foydalanishda ichki ishlar organlari tashkilotlarning yoki fuqarolarning transport vositalaridan tabiiy ofat yuz bergan joyga borish, shoshilinch tibbiy yordamga muhtoj fuqarolarni tibbiy muassasalarga olib borish, jinoyat sodir etgan shaxslarni ta'qib qilish va ichki ishlar organlariga olib kelish, hodisa joyiga yoki ichki ishlar organlarining shaxsiy tarkibini jangovar trevoga bo'yicha to'plash joyiga borish uchun majburiy tartibda foydalanishi mumkin va bunda transport vositasidan foydalanilganligi faktini tasdiqlovchi hamda undan foydalangan ichki ishlar organi xodimini identifikatsiyalovchi hujjat beriladi, chet davlatlarning diplomatik, konsullik vakolatxonalariga va boshqa vakolatxonalariga, xalqaro tashkilotlarga tegishli bo'lgan transport vositalari hamda maxsus mo'ljallangan transport vositalari bundan mustasno.

Tashkilotlar va fuqarolarning transport vositalaridan majburiy tarzda foydalanganlik natijasida xarajatlar qilingan yoki zarar yetkazilgan taqdirda, shuningdek transport vositasining egasiga mulkiy zarar yetkazilgan taqdirda ushbu xarajatlarning yoki zararlarning o'rnini ichki ishlar organlari tomonidan qoplash qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi<sup>79</sup>.

<sup>77</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 21-son, 235-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son.

<sup>78</sup> O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risidagi"gi O'RQ-407-son qonuning 4-bob, 19-moddasi.

<sup>79</sup> O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli tahririda - Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.

Shu bilan birga ichki ishlar organlari ommaviy tadbirni o'tkazish ob'ektiga tutash bo'lgan hududlarda transport vositalarining tekshiruvini, ommaviy tadbir ishtirokchilarining shaxsiy tekshiruvini va ulardagi buyumlarning tekshiruvini, shu jumladan texnik va maxsus vositalar yordamida amalga oshiradi.

Ta'kidlash joizki, ommaviy tadbir ishtirokchisi transport vositasining tekshiruvidan, shaxsiy tekshiruvdan yoki undagi buyumlar tekshirilishidan bosh tortgan taqdirda ommaviy tadbir ishtirokchisi (transport vositasi) ommaviy tadbirni o'tkazish ob'ektiga qo'yilmaydi.

Hududlarni, turar-joylarni va boshqa inshootlarni o'rab olish masalasida olimlar turli jihatlarni hisobga olishni tavsiya qiladilar. Bu jihatlarda arxitektura, ekologiya, xavfsizlik, ijtimoiy psixologiya va iqtisod kabi sohalarni qamrab oladi.

Hududlarni to'sib qo'yishning huquqiy asoslari - turar joylar, yer uchastkalari, inshootlar va boshqa ob'ektlarni o'rab olish yoki to'sib qo'yish faoliyati O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga asoslangan holda amalga oshirilishi lozim. Ushbu faoliyat fuqarolarning mulk huquqlari, qo'shnilar huquqlariga hurmat, jamoat tartibi va shaharsozlik me'yorlariga rioya etilgan holda bajarilishi zarur.

Xulosa qiladigan bo'lsak, hududdagi uchastkalarni, turar joylarni, inshootlarni va boshqa ob'ektlarni o'rab olish (to'sib qo'yish)da ichki ishlar organlarining o'rnini beqiyos, sababi har qanday holatda ham jinoyatchilikka qarshi kurashish, jinoyatchilikning barvaqt oldini olish, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, hududlarni o'rab olish masalasida muvozanatli yondashuvni ya'ni, xavfsizlik va shaxsiy hudud himoyasini ta'minlash bilan birga, ijtimoiy aloqalar, tabiiy muhit, iqtisodiy samaradorlikka ham xizmat qiladi.



### Savol va topshiriqlar:

1. Hududlarni o'rab olish (to'sib qo'yish) tushunchasi nimani anglatadi va uning asosiy maqsadi nima?
2. Ichki ishlar organlari tomonidan hududlarni o'rab olish qaysi normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanadi?
3. O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunining qaysi moddasida hududlarni o'rab olish tartibi belgilangan?
4. Hududlarni o'rab olish to'g'risida qaror kim tomonidan qabul qilinadi?
5. Qaysi hollarda ichki ishlar organlari hududlarni o'rab olish choralari qo'llaydi?
6. Favqulodda vaziyatlarda hududlarni izolyatsiya qilishning ahamiyati nimada?
7. Ommaviy tadbirlar vaqtida hududlarni o'rab olishning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
8. Qamoqdan qochgan yoki jazoni o'tashdan bo'yin tovlagan shaxslarni qidirishda hududlarni o'rab olish qanday rol o'ynaydi?
9. Terrorchilikka qarshi operatsiyalar davomida hududlarni o'rab olish qanday amalga oshiriladi?
10. Ichki ishlar organlari zarurat tug'ilganda fuqarolar yoki tashkilotlarning transport vositalaridan qanday tartibda foydalanishi mumkin?

### 3-§. Tashkilotlar va fuqarolarning transport vositalaridan foydalanish

Ichki ishlar organlari tashkilotlarning yoki fuqarolarning transport vositalaridan tabiiy ofat yuz bergan joyga borish, shoshilinch tibbiy yordamga muhtoj fuqarolarni tibbiy muassasalarga olib borish, jinoyat sodir etgan shaxslarni ta'qib qilish va ichki ishlar organlariga olib kelish, hodisa joyiga yoki ichki ishlar organlarining shaxsiy tarkibini jangovar trevoga bo'yicha to'plash joyiga borish uchun majburiy tartibda foydalanishi mumkin va bunda transport vositasidan foydalanilganligi faktini tasdiqlovchi hamda undan foydalangan ichki ishlar organi xodimini identifikatsiyalovchi hujjat beriladi, chet davlatlarning diplomatik, konsullik vakolatxonalariga va boshqa vakolatxonalariga, xalqaro tashkilotlarga tegishli bo'lgan transport vositalari hamda maxsus mo'ljallangan transport vositalari bundan mustasno.

*Ichki ishlar organlari xodimlari quyidagi hollarda tashkilotlarning yoki fuqarolarning transport vositalaridan majburiy tartibda foydalanishi mumkin:*

- tabiiy ofat yoki favqulodda holat yuz bergan joyga borishda;
- shoshilinch tibbiy yordamga muhtoj fuqarolarni tibbiy muassasalarga olib borishda;
- jinoyat sodir etgan shaxslarni ta'qib qilish va ichki ishlar organlariga olib kelishda;
- hodisa joyiga yoki ichki ishlar organlarining shaxsiy tarkibini jangovar trevoga bo'yicha to'plash joyiga borishda.

*Quyidagi transport vositalaridan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi:*

- chet davlatlarning diplomatik, konsullik vakolatxonalariga va boshqa vakolatxonalariga tegishli bo'lgan transport vositalari;
- xalqaro tashkilotlarga tegishli bo'lgan transport vositalari;
- maxsus mo'ljallangan va sirena o'rnatilgan transport vositalari, shuningdek Hukumat rahbarlarini olib yuruvchi, tibbiy tez yordam, yong'in o'chirish, konvoy, inkassator xizmatlarining transport vositalari.

Ichki ishlar organi xodimi transport vositasidan foydalanganda uning egasiga transport vositasidan foydalanganlik faktini tasdiqlovchi va xodimni identifikatsiyalovchi hujjat berilishi shart. Identifikatsiyalovchi hujjat namunasi va uning berish tartibi Ichki ishlar vazirligi tomonidan belgilanadi.

Transport vositasidan foydalangan ichki ishlar organi xodimi holat bo'yicha barcha tasdiqlovchi hujjatlar (huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa vakolatli davlat tashkilotlarining ma'lumotnomalari) ilova qilingan bildirgi bilan o'z rahbariga axborot beradi.

Xarajatlar va zararni qoplash masalasini o'rganish bo'yicha ichki ishlar organlarida doimiy komissiyalar tuziladi.

*Xarajatlar va zararni qoplash uchun transport vositasining egasi (uning vakili) ichki ishlar organiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:*

- xarajatlar va zararni qoplash to'g'risidagi ariza;
- pasport yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjatning nusxasi (jismoniy shaxslar uchun);
- transport vositasining texnik pasporti nusxasi;

- ichki ishlar organi xodimi transport vositasidan foydalanganligi faktini tasdiqlovchi va uni identifikatsiyalovchi hujjat;

- vakil sifatida murojaat qilish huquqini tasdiqlovchi hujjat va shaxsni tasdiqlovchi hujjatning nusxasi (transport vositasi egasining vakili murojaat qilgan taqdirda).

Ichki ishlar organi rahbari hujjatlarni 3 kun ichida komissiyaga taqdim etadi.

Hujjatlar 15 kun ichida, qo'shimcha hujjatlar yoki tekshiruv talab etilganda esa 1 oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi.

Murojaat ko'rib chiqilgandan so'ng uning muallifiga 3 kun ichida natijalar haqida yozma ma'lumot beriladi.

***Komissiyaning xarajatlar va zararni qoplash to'g'risidagi qaroriga asosan quyidagilar ichki ishlar organi tomonidan qoplanadi:***

- butunlay yaroqsiz holga kelgan va tiklash imkoni bo'lmagan taqdirda transport vositasining ichki ishlar organi foydalanishidan oldingi bozor qiymati;

- transport vositasidan foydalanganlik natijasida me'yor bo'yicha sarf qilingan yoqilg'ining haqiqiy xarajat qiymati;

- ichki ishlar organi transport vositasidan foydalanganidan keyin qilingan xarajatlar yoki yetkazilgan zarar.

Xarajatlar va zarar miqdori ichki ishlar organi tomonidan baholash tashkilotini jalb qilgan holda aniqlanadi.

Transport vositasi egasi (uning vakili) bilan kelishilgan holda mulkiy zarar naqd shaklda yoki pul o'tkazish, teng qiymatdagi transport vositasini berish yo'li bilan uni rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni inobatga olgan holda natura tarzida qoplanishi mumkin.

Xarajatlar va zararni qoplash to'g'risida qaror qabul qilingandan so'ng ichki ishlar organi 10 kun ichida ularni qoplab berishi lozim.

O'rnatilishicha, ichki ishlar organlari tomonidan tashkilotlar va fuqarolarning transport vositalaridan majburiy tarzda xodimning noqonuniy xatti-harakatlari tufayli foydalanganlik natijasida qilingan xarajatlar yoki yetkazilgan zarar aybdor shaxsdan undirib olinadi<sup>80</sup>.

Ichki ishlar organlari tomonidan xizmat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda tashkilotlar va fuqarolarning transport vositalaridan majburiy tarzda foydalanganlik natijasida qilingan xarajatlar yoki yetkazilgan zarar, shuningdek transport vositasining egasiga yetkazilgan mulkiy zararining o'rnini qoplash tartibini belgilaydi.

Ichki ishlar organlari tomonidan tashkilotlar va fuqarolarning transport vositalaridan majburiy tarzda foydalanganlik natijasida qilingan xarajatlar yoki yetkazilgan zarar, shuningdek mulkiy zararining o'rnini hamda uning miqdorini aniqlash bilan bog'liq xarajatlar Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

---

<sup>80</sup> Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-apreldagi "Ichki ishlar organlari tomonidan tashkilotlar va fuqarolarning transport vositalaridan majburiy tarzda foydalanganlik natijasida qilingan xarajatlar yoki yetkazilgan zarar, shuningdek transport vositasining egasiga yetkazilgan mulkiy zararining o'rnini qoplash tartibi to'g'risida"gi 235-son qarori.

Ichki ishlar organlari tomonidan tashkilotlar va fuqarolarning transport vositalaridan majburiy tarzda xodimning noqonuniy xatti-harakatlari tufayli foydalanganlik natijasida qilingan xarajatlar yoki yetkazilgan zarar, shuningdek mulkiy zararining o'rnini O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining byudjetdan tashqari jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplanadi, ushbu summa keyinchalik aybdor shaxsdan undirib olinadi.

Bunday holatlarda transport vositalari haydovchilari ichki ishlar organi xodimining transport vositalaridan majburiy tarzda foydalanish talabiga bo'ysunishi shart va xodimdan xodimni identifikatsiyalovchi hujjatni talab qilish huquqiga ega.

Ichki ishlar organlari tomonidan transport vositalaridan foydalanilganda, transport vositasining egasiga xodim transport vositasidan foydalanilganlik faktini tasdiqlovchi identifikatsiyalovchi hujjat berilishi shart.

Transport vositasidan foydalangan ichki ishlar organi xodimi holat bo'yicha barcha tasdiqlovchi hujjatlar (huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa vakolatli davlat tashkilotlarining ma'lumotnomalari) ilova qilingan bildirgi bilan xizmat joyi bo'yicha ichki ishlar organi rahbariga axborot beradi.

Shu bilan birga ta'kidlash joizki, chet davlatlarning diplomatik, konsullik vakolatxonalariga va boshqa vakolatxonalariga tegishli transport vositalari, xalqaro tashkilotlarga tegishli bo'lgan transport vositalari, maxsus mo'ljallangan va ovoz chiqaruv moslamalari (sirena) o'rnatilgan transport vositalaridan hamda Hukumat rahbarlarini olib yuruvchi, tibbiy tez yordam, yong'in uchirish, konvoy, inkassator xizmatlarining transport vositalaridan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Tashkilotlar va fuqarolarning transport vositalaridan majburiy tarzda foydalanganlik natijasida xarajatlar qilingan yoki zarar yetkazilgan taqdirda, shuningdek transport vositasining egasiga mulkiy zarar yetkazilgan taqdirda ushbu xarajatlarning yoki zararlarning o'rnini ichki ishlar organlari tomonidan qoplash belgilangan tartibda amalga oshiriladi<sup>81</sup>.

Tashkilotlar va fuqarolarning transport vositalaridan foydalanishi masalasida olimlar turli jihatlardan fikr yuritishadi.

Tashkilotlar va fuqarolarning transport vositalaridan majburiy tarzda foydalanganlik natijasida qilingan xarajatlar yoki yetkazilgan zarar, shuningdek mulkiy zararining o'rnini qoplash masalalarini o'rganish bo'yicha ichki ishlar organlarida doimiy komissiyalar tuziladi. Mazkur komissiya tarkibiga ichki ishlar organining tegishli xizmatlari xodimlari kiritiladi va ichki ishlar organi rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Tashkilotlar va fuqarolarning transport vositalaridan majburiy tarzda foydalanganlik natijasida qilingan xarajatlar va yetkazilgan zarar, shuningdek mulkiy zararining o'rnini qoplash uchun transport vositasining egasi yoki uning vakili ichki ishlar organiga murojaat qiladi va quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

---

<sup>81</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-apreldagi "Ichki ishlar organlari tomonidan tashkilotlar va fuqarolarning transport vositalaridan majburiy tarzda foydalanganlik natijasida qilingan xarajatlar yoki yetkazilgan zarar, shuningdek transport vositasining egasiga yetkazilgan mulkiy zararining o'rnini qoplash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 235-son qarori.

**Transport vositasidan majburiy foydalanganlik natijasida qilingan xarajatlar va yetkazilgan zarar, shuningdek mulkiy zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi arizada quyidagilar ko'rsatiladi:**

- yuridik shaxslar uchun – yuridik shaxsning nomi, uning rekvizitlari, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami, bank rekvizitlari, rahbarning familiyasi, ismi va otasining ismi;

- jismoniy shaxslar – familiyasi, ismi va otasining ismi, bank rekvizitlari (mavjud bo'lsa), yashash manzili va bog'lanish uchun telefon raqami, elektron manzili (mavjud bo'lsa) to'g'risida ma'lumotlar;

- jismoniy shaxslar uchun – pasport yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjatning nusxasi;

- transport vositasini qayd etish guvohnomasi (texnik pasporti) nusxasi;

- ichki ishlar organlari tomonidan transport vositalaridan foydalanilganlik faktini tasdiqlovchi hamda undan foydalangan ichki ishlar organi xodimini identifikatsiyalovchi hujjat;

- yuridik yoki jismoniy shaxsning vakili uchun (transport vositasi egasining vakili murojaat qilgan taqdirda) – vakil sifatida murojaat qilish huquqini tasdiqlovchi hujjat va shaxsni tasdiqlovchi hujjatning nusxasi.

Tashkilotlar va fuqarolarning transport vositalaridan majburiy tarzda foydalanganlik holatiga aniqlik kiritish uchun ichki ishlar organi rahbari tomonidan xodimning bildirgisi barcha asoslovchi hujjatlari bilan birgalikda uch kun muddatda komissiyaga taqdim etiladi.

Komissiyaning zararni qoplash to'g'risidagi qaroriga asosan butunlay yaroqsiz holga kelgan va tiklash imkoni bo'lmagan transport vositasining ichki ishlar organi tomonidan foydalanishdan avvalgi holatidagi bozor qiymati, foydalanganlik natijasida me'yor bo'yicha sarf qilingan yoqilg'ining haqiqiy xarajat qiymati, ichki ishlar organi tomonidan transport vositasidan foydalanilgandan keyin qilingan xarajatlar yoki yetkazilgan zararining o'rnini ichki ishlar organlari tomonidan qoplanadi.

Ichki ishlar organlari tomonidan transport vositasining egasi yoki uning vakillarining murojaatlari, tegishli hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab o'n besh kun davomida, qo'shimcha hujjatlar yoki tekshiruv talab etilganda esa bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqilishi, ichki ishlar organlari tomonidan murojaat ko'rib chiqilgandan so'ng, uning natijalari haqida murojaat muallifiga uch kun muddatda yozma ma'lumot berilishi lozim.

Ta'kidlash joizki, ichki ishlar organlari tomonidan transport vositalaridan foydalanilganlik faktini tasdiqlovchi hamda undan foydalangan ichki ishlar organi xodimini identifikatsiyalovchi hujjat bo'lmagan taqdirda zarar qoplanmaydi.

Transport vositasi egasi yoki uning vakili bilan kelishilgan holda, mulkiy zarar naqd yoki pul o'tkazish, teng qiymatdagi transport vositasini berish yo'li bilan, uni rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni inobatga olgan holda natura tarzida qoplanishi mumkin. Ichki ishlar organlari tomonidan transport vositalaridan foydalanilganlik uchun qilingan xarajatlar va yetkazilgan zarar, shuningdek mulkiy zarar o'rnini qoplash bo'yicha tegishli qaror qabul qilingandan so'ng, ichki ishlar

organlari tomonidan o'n kun muddatda keltirilgan zarar qoplanishi (berilishi) lozim.

Xulosa qiladigan bolsak, tashkilotlar va fuqarolarning transport vositalaridan foydalanish tartibi ichki ishlar organlarining xizmat vazifalarini samarali bajarishini ta'minlash bilan birga fuqarolarning mulkiy huquqlarini ham himoya qilishga qaratilgan. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, ichki ishlar organlari xodimlari favqulodda holatlar, tabiiy ofatlar, shoshilinch tibbiy yordamga muhtoj fuqarolarni yetkazish, jinoyat sodir etgan shaxslarni ta'qib qilish yoki hodisa joyiga tez yetib borish kabi zarur holatlarda tashkilotlar va fuqarolarning transport vositalaridan majburiy tartibda foydalanishi mumkin.

Bunda fuqarolarning huquqlari himoya qilinishi uchun aniq tartib va kafolatlar belgilangan. Jumladan, transport vositasidan foydalangan ichki ishlar organi xodimi transport egasiga foydalanish faktini tasdiqlovchi va xodimni identifikatsiyalovchi hujjat berishi shart. Agar transport vositasidan foydalanish natijasida xarajatlar qilingan yoki zarar yetkazilgan bo'lsa, ushbu zarar davlat tomonidan belgilangan tartibda qoplanadi. Buning uchun ichki ishlar organlarida maxsus komissiyalar faoliyat yuritadi va taqdim etilgan hujjatlar asosida zararining miqdori aniqlanadi hamda tegishli qaror qabul qilinadi.



### Savol va topshiriqlar:

1. Ichki ishlar organlari qaysi hollarda tashkilotlar va fuqarolarning transport vositalaridan majburiy tartibda foydalanishi mumkin?
2. Transport vositalaridan majburiy foydalanishda qanday istisnolar (foydalanishga yo'l qo'yilmaydigan transport vositalari) mavjud?
3. Ichki ishlar organi xodimi transport vositasidan foydalanganda egasiga qanday hujjat berishi shart?
4. Transport vositasidan foydalanilganlik faktini tasdiqlovchi hujjatning ahamiyati nimada?
5. Transport vositasi egasi xarajatlar va zararni qoplash uchun ichki ishlar organiga qanday hujjatlarni taqdim etishi kerak?
6. Ichki ishlar organi rahbari hujjatlarni komissiyaga necha kun ichida taqdim etishi lozim?
7. Xarajatlar va zararni qoplash to'g'risidagi murojaatlar qancha muddatda ko'rib chiqiladi?
8. Komissiyaning zararni qoplash to'g'risidagi qaroriga asosan qanday xarajatlar qoplanadi?
9. Butunlay yaroqsiz holga kelgan transport vositasi uchun qanday tartibda tovon to'lanadi?
10. Xarajatlar va zarar miqdori qanday tartibda aniqlanadi?

## VII BOB

# ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI TOMONIDAN JISMONIY KUCH ISHLATISH, MAXSUS VOSITA VA O'QOTAR QUROLLARNI QO'LLASH TARTIBI VA SHARTLARI

## 1-§. Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalar va o'qotar qurollarni qo'llashning huquqiy asoslari

O'qotar quroldan foydalanish eng so'nggi chora hisoblanadi. Shuning uchun IIONing xodimlari qurolni amalda qo'llashdan oldin belgilangan qoidalarga qat'iy rioya qilishi lozim. O'ziga birlashtirilgan o'qotar qurol va maxsus vositalarni xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida olib yurish, jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni va o'qotar qurolni qo'llash huquqiga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda ega bo'ladi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy kuch, maxsus vositalar va qurol qo'llashi quyidagi hujjatlar bilan tartibga solinadi:

- O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni (2016-yil 16-sentabrda qabul qilingan, 21-24-moddalar).
- Ma'muriy, Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslar — kuch ishlatish oqibatida kelib chiqadigan huquqiy munosabatlar uchun.
- Ichki ishlar vazirligi buyruqlari va nizomlari — amalda qo'llash tartibini belgilaydi.

Zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan, ya'ni mudofaalanuvchi yoki boshqa kishining shaxsi yoki huquqlarini, jamiyat yoki davlat manfaatlarini qonunga xilof tajovuzlardan tajovuzchiga zarar yetkazgan holda himoya qilish chog'ida qilingan harakat, agar zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqilmagan bo'lsa, jinoyat deb topilmaydi. Zarar yetkazish maqsadida qasddan hujum qilish zaruriy mudofaa deb topilmaydi.

Oxirgi zarurat holatida, ya'ni shaxsning yoki boshqa fuqarolarning shaxsiga yoki huquqlariga, jamiyat va davlat manfaatlariga tahdid soluvchi xavfni qaytarish uchun qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlarga zarar yetkazgan holda sodir etilgan qilmish, basharti, shu xavfni o'sha holatda boshqa choralar bilan qaytarishning iloji bo'lmasa hamda keltirilgan zarar oldi olingan zararga qaraganda kamroq bo'lsa, jinoyat deb topilmaydi.

Agar boshqa vositalar bilan xavfning oldini olish mumkin bo'lsa yoki keltirilgan zarar oldi olingan zarardan oshib ketsa, qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlarga bunday zarar yetkazish oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish deb topiladi.

Oxirgi zarurat holatida sodir etilgan qilmishning qonuniyligini baholashda oldi olinishi lozim bo'lgan xavfning xususiyati va xavflilik darajasi, shunday xavfning haqiqatan mavjud yoki mavjud emasligi va yuz berish vaqtining yaqinligi, xavfni qaytaruvchi shaxsning mavjud imkoniyatlari, vujudga kelgan vaziyatdagi ruhiy holati va ishning boshqa holatlari hisobga olinadi.

Shunday qilib, hujum aynan fuqaroga yoki IIO xodimiga qilingan bo'lishi shart emas. Shaxsning boshqalarga zo'rlik ishlatishi yoki tazyiq o'tkazish,

shuningdek IIO xodimining qonuniy talablarini bajarmayotgan yoki vazifalarini bajarishga to'sqinlik qilayotganlarga nisbatan boshqa usullar ijobiy natija bermaganda, xodimlar jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni va o'qotar qurolni qo'llash huquqiga ega<sup>82</sup>.

IIONing xodimi maxsus tayyorgarlikdan, shuningdek jismoniy kuch ishlatilishi, maxsus vositalar va o'qotar qurol qo'llanilishi bilan bog'liq sharoitlardagi harakatlarga kasbiy yaroqliligini tekshirish uchun davriy tekshiruvdan o'tishi shart. Jismoniy kuch ishlatilishi, maxsus vositalar va o'qotar qurol qo'llanilishi bilan bog'liq sharoitlarda harakat qilishga kasbiy yaroqliligini aniqlash bo'yicha tekshiruvdan o'ta olmagan IIO xodimi egallab turgan lavozimga muvofiqligini aniqlash uchun maxsus sinovlardan o'tadi.

Jismoniy kuch ishlatilishi, maxsus vositalar yoki o'qotar qurol qo'llanilishidan avval ularni qo'llash niyati to'g'risida aniq ifodalangan ogohlantirish bo'lishi kerak, bundan ushbu ogohlantirishning imkoni bo'lmagan yoki ularning qo'llanilishini kechiktirish fuqarolarning va ichki ishlar organlari xodimlarining hayoti va sog'lig'iga bevosita xavf tug'diradigan hamda boshqa og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan hollar mustasno. Jismoniy kuch ishlatilishi, maxsus vositalar va o'qotar qurol qo'llanilishi yuzaga kelgan vaziyatga, shaxslarning xatti-harakatlarining xavfliligi xususiyatiga va darajasiga muvofiq bo'lishi kerak. Bunda IIO xodimi har qanday zararning imkon qadar kam bo'lishiga intilishi shart. Tan jarohati olgan fuqarolarga birinchi yordam ko'rsatilishi, shuningdek imkon qadar qisqa vaqt ichida tibbiy yordam ko'rsatish choralari ko'rilishi, ularning qarindoshlari esa yigirma to'rt soat ichida bu haqda xabardor qilinishi kerak.

IIONing xodimi, agar yuzaga kelgan vaziyatda maxsus vositalarni yoki o'qotar qurolni qo'llash uchun asoslar vujudga kelishi mumkin deb hisoblasa, maxsus vositalarni yoki o'qotar qurolni qo'llash uchun tayyorlash hamda ularni jangovar holatga keltirish huquqiga ega.

Jismoniy kuch ishlatilgan, maxsus vositalar va o'qotar qurol qo'llanilgan har bir holat to'g'risida ichki ishlar organining xodimi bevosita boshlig'iga darhol axborot berishi shart. Jismoniy kuch ishlatilganligi va maxsus vositalar qo'llanilganligi natijasida jismoniy yoki yuridik shaxslarning hayotiga, sog'lig'iga yoki mol-mulkiga zarar yetkazilgan har bir holat haqida, shuningdek o'qotar qurol qo'llanilgan barcha holatlar to'g'risida ichki ishlar organlari prokurorga darhol xabar beradi.

IIO xodimining jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni yoki o'qotar qurolni qo'llash chog'ida o'z vakolatlari doirasidan chiqqanligi qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Agar jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni yoki o'qotar qurolni qo'llash qonunda belgilangan asoslar bo'yicha va tartibda amalga oshirilgan bo'lsa, IIO xodimi jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni yoki o'qotar qurolni qo'llash chog'ida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'lmaydi<sup>83</sup>.

<sup>82</sup> O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni, 2016-yil 16-sentabr, 21-modda.

<sup>83</sup> O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni, 2016-yil 16-sentabr, 21-modda.

IIO xodimi tomonidan jismoniy kuch ishlatilganligi, maxsus vositalar yoki o'qotar qurol qo'llanilganligi natijasida fuqaroga tan jarohati yetkazilsa yoki u halok bo'lsa, xodim hodisa joyini o'zgarishsiz qoldirishga qaratilgan choralarni ko'rish shart.



### Savol va topshiriqlar:

1. IIO xodimlari o'qotar qurolni qanday hollarda qo'llash huquqiga ega?
2. Zaruriy mudofaa holatida shaxsga zarar yetkazish jinoyat deb topiladimi?
3. Oxirgi zarurat holatida sodir etilgan harakatlarning qonuniyligi qanday baholanadi?
4. Jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalar va o'qotar qurolni qo'llashda qanday ogohlantirishlar zarur?
5. Jismoniy kuch ishlatish yoki qurol qo'llashdan avval qanday shartlar bajarilishi kerak?
6. IIO xodimi maxsus vositalarni yoki o'qotar qurolni jangovar holatga keltirish huquqiga qachon ega bo'ladi?
7. Jismoniy kuch ishlatish yoki o'qotar qurolni qo'llash natijasida zarar yetgan holatlar qanday tartibda xabar qilinishi kerak?
8. IIO xodimi tomonidan jismoniy kuch ishlatish yoki qurol qo'llash holatlarida qanday javobgarlik mavjud?
9. Jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalar yoki o'qotar qurol qo'llanganidan keyin qanday choralar ko'rilishi kerak?
10. IIO xodimi tomonidan zarar yetkazilgan fuqarolarni qanday tarzda ogohlantirish va yordam ko'rsatish majburiyatlari mavjud?

## 2-§. Ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy kuch ishlatish shartlari

Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan jismoniy kuch ishlatish huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi 2016-yil 16-sentabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunining 22-moddasida belgilangan.

**Jismoniy kuch ishlatish** — bu ichki ishlar organlari xodimlarining jinoyatlarni oldini olish, huquqbuzarlarni ushlab, jamoat tartibini saqlash yoki o'zini himoya qilish maqsadida, zarurat bo'lganda, jismoniy vositalar orqali ta'sir ko'rsatishidir. Bu jarayonda ichki ishlar organi xodimi jismoniy kuchdan, asosan, huquqbuzarni to'xtatish yoki uning hujumini bartaraf etish uchun foydalanadi<sup>84</sup>.

Ishlar organlari organlari xodimlari tomonidan jismoniy kuch ishlatish quyidagi holatlarda amalga oshirilishi mumkin:

**Hujumni to'xtatish:** Agar huquqbuzar ichki ishlar organi xodimiga yoki boshqalarga hujum qilayotgan bo'lsa, xodim o'zini himoya qilish uchun jismoniy kuch ishlatishi mumkin.

<sup>84</sup> O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni, 2016-yil 16-sentabr, 22-modda.

**Huquqbuzarni ushlab:** Agar huquqbuzar qochayotgan yoki qarshilik ko'rsatayotgan bo'lsa, ichki ishlar organi xodimi uni ushlab uchun kuch ishlatishi mumkin.

**Jamoat tartibini saqlash:** Agar jamoat joylarida jiddiy tartibsizliklar yuzaga kelsa, ichki ishlar organi xodimi tartibni tiklash uchun jismoniy kuchdan foydalanishi mumkin.

**Zarur holatlar:** Ba'zida ichki ishlar organi xodimlari jismoniy kuchni faqat zarurat bo'lganda, boshqa choralar natija bermasa qo'llashlari mumkin<sup>85</sup>.

Agar kuch ishlatilmaydigan usullar IIO xodimining zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlamasa, u quyidagi hollarda shaxsan o'zi yoki bo'linma (guruh) tarkibida jismoniy kuch ishlatish, shu jumladan kurashning jang usullarini qo'llash huquqiga ega bo'ladi, jumladan:

- jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklarga chek qo'yish uchun;
- jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarni eng yaqindagi ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga olib borish va bu shaxslarni ushlab turish uchun;
- IIO xodimining qonuniy talablariga qarshilik ko'rsatilishini bartaraf etish uchun<sup>86</sup>.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar va huquqbuzarliklarni to'xtatib qolish maqsadida, shuningdek ularni ushlab chog'ida, agar boshqa usullar bilan muassasa ma'muriyatining qonuniy talablarini ta'minlashning iloji bo'lmasa, mahkumlarga nisbatan jismoniy kuch ishlatilishi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 69- moddasida belgilangan.

Jismoniy kuch ishlatilishi natijasida mahkumning hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazilgan har bir holat to'g'risida prokurorga darhol xabar beriladi<sup>87</sup>.

Shuningdek, homiladorlik belgilari sezilib turgan ayollarga, nogironlik belgilari ko'rinib turgan shaxslarga, yoshi aniq ko'rinib turgan yoki ma'lum bo'lgan voyaga yetmaganlarga nisbatan jismoniy kuch ishlatish taqiqlanadi, bundan ularning qurolli qarshilik ko'rsatganligi, fuqarolarning yoki ichki ishlar organlari xodimining hayoti va sog'lig'iga tahdid etib, hujum qilganligi hollari mustasno.

IIO xodimi tomonidan xizmat faoliyati davomida yoki xizmat faoliyati bilan bog'liq bo'lganda huquqbuzarga nisbatan zarar yetkazilishi mumkin. Bunday kuch ishlatish jinoyat yoki huquqbuzarlikning boshqa turidan jabrlanayotgan shaxsning yoki o'zining hayoti, sog'lig'i, jismoniy ozodligi, mulki va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa ijtimoiy munosabatlarga nisbatan qilingan tajovuz bartaraf etish va kelib chiqishi mumkin bo'lgan zararli oqibatlarining oldini olish maqsadida amalga oshiriladi.

---

<sup>85</sup> O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni, 2016-yil 16-sentabr, 22-modda.

<sup>86</sup> O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni, 2016-yil 16-sentabr, 22-modda.

<sup>87</sup> O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi, 69-modda.

Agar tajovuz bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilayotgan bo'lsa, mudofaalanuvchi hujum qiluvchilarning har biriga nisbatan guruhdagi barcha tajovuzchilar harakatining xarakteri va xavflilik darajasiga qarab tegishli himoya choralarini ko'rishga haqli. Jismoniy kuch ishlatilganda, ichki ishlar organi xodimi tomonidan zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat talablaridan chetga chiqish qat'iy taqiqlanadi. Bu shuni anglatadiki, ichki ishlar organlari xodimlari kuchdan faqatgina zarurat bo'lganda va boshqa choralar natija bermasa foydalanishi mumkin.

**Zaruriy mudofaa** — bu xodimning o'zini yoki boshqalarni himoya qilish uchun kuch ishlatish holati bo'lib, u faqat hujumning darajasiga mos ravishda va faqat zaruriyatni bartaraf etish uchun ishlatilishi kerak.

Oxirgi zarurat holatida esa, agar shaxs yoki boshqalar uchun tahdid mavjud bo'lsa, lekin boshqa vositalar bilan bu tahdidni bartaraf etishi mumkin bo'lmasa, kuch ishlatish mumkin. Biroq, bu holatdagi zarar keltirilgan zarar miqdori xavfning oldini olish uchun zarur bo'lgan zarar miqdoridan oshmasligi kerak<sup>88</sup>.

Agar xodim zaruriy mudofaa yoki oxirgi zaruratning chegaralaridan chetga chiqsa, u qonuniy javobgarlikka tortilishi mumkin.



### Savol va topshiriqlar:

1. Ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy kuch ishlatish huquqiy asoslari qaysi qonunda belgilangan?
2. Jismoniy kuch ishlatishning asosiy maqsadi nima?
3. Ichki ishlar organi xodimlari jismoniy kuchni qaysi holatlarda ishlatishi mumkin?
4. Jismoniy kuch ishlatishning zaruriyatini qanday holatlar belgilaydi?
5. Jismoniy kuch ishlatishda qanday holatlarda “zarurat va mutanosiblik” prinsipi amal qiladi?
6. Jismoniy kuch ishlatiladigan holatlarda qanday majburiyatlar ichki ishlar organi xodimiga yuklatiladi?
7. Mahkumlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarni to'xtatish uchun jismoniy kuch ishlatilishi mumkinmi?
8. Jismoniy kuch ishlatishda homilador ayollarga, nogironlarga yoki voyaga yetmaganlarga nisbatan qanday cheklovlar mavjud?
9. Jismoniy kuch ishlatilishi natijasida mahkumning hayoti va sog'lig'iga zarar yetgan holatda qanday choralar ko'riladi?
10. Jismoniy kuch ishlatish holatida prokurorga qanday xabar berilishi kerak?

<sup>88</sup> O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.

### 3-§. Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan maxsus vositalarni qo‘llash tartibi

Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan maxsus vositalarni qo‘llash tartibining huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasi 2016-yil 16-sentabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunining 23-moddasida belgilangan.

**Maxsus vositalar** jinoyat yoki ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etishlariga chek qo‘yish maqsadida, shaxslarni qo‘lga olish vaqtida va ularni eng yaqindagi ichki ishlar organiga yoki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organga olib borish hamda bu shaxslarni ushlab turish uchun qo‘llaniladi<sup>89</sup>.

IIO xodimi quyidagi hollarda maxsus vositalarni qo‘llash huquqiga ega:

- fuqaroga yoki IIO xodimiga qilingan hujumni qaytarishda;
- jinoyatga yoki ma‘muriy huquqbuzarlikka chek qo‘yishda;
- IIO xodimiga qarshilik ko‘rsatilishiga chek qo‘yishda;
- jinoyatni sodir etish chog‘ida yoki uni sodir etganidan keyin darhol ko‘rib qolingan, yashirinishga urinayotgan shaxsni ushlashda;
- qurolli qarshilik ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan shaxsni ushlashda;
- ushlab turilgan shaxslarni va qamoqqa olingan, ma‘muriy qamoqqa olingan shaxslarni olib borish, qo‘riqlab borish va qo‘riqlashda, shuningdek qochishga urinishini, atrofdagilarga yoki o‘ziga zarar yetkazishini bartaraf etish maqsadida;
- zo‘ravonlik bilan ushlab turilgan shaxslarni, egallab olingan binolarni, xonalarni, inshootlarni, transport vositalarini va yer uchastkalarini ozod qilishda;
- fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga, jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ommaviy tartibsizliklarga hamda boshqa g‘ayriqonuniy xatti-harakatlarga chek qo‘yishda;
- haydovchisi IIO xodimining to‘xtash to‘g‘risidagi talabini bajarmagan transport vositasini to‘xtatishda;
- jinoyatlar yoki ma‘muriy huquqbuzarliklar sodir etayotgan yoki sodir etgan shaxslarni aniqlashda;
- muhofaza qilinadigan ob‘ektlarni himoya qilishda, g‘ayriqonuniy xatti-harakatlarni sodir etayotgan fuqarolar guruhlarining harakatlanishini to‘stib qo‘yishda.

IIO xodimi quyidagi maxsus vositalarni qo‘llash huquqiga ega:

- rezina tayoqlar;
- ko‘zdan yosh oqizuvchi moddalar, gazli, shikastlantiruvchi qurol;
- qo‘l kishanlar yoki boshqa bog‘lash vositalari;
- maxsus bo‘yovchi va markirovka qiluvchi vositalar;
- elektroshok qurilmalari;
- xizmat hayvonlari;

<sup>89</sup> O‘zbekiston Respublikasi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni, 2016-yil 16-sentabr, 23-modda.

- chalg'itma ta'sir ko'rsatuvchi nur-tovush;
- transport vositalarini majburiy to'xtatish vositalari;
- tinchlantirish ko'ylagi;
- suv bilan zarba beruvchi mashinalar;
- zirxli mashinalar;
- muhofaza qilinadigan ob'ektlarni (hududlarni) himoya qilish, g'ayriqonuniy harakatlar sodir etayotgan fuqarolar guruhlarining harakatlanishini to'sish vositalari;

- to'siq-g'ovlarni bartaraf etuvchi vositalar.

Maxsus vositalarning qo'llanilishi uchinchi shaxslarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga xavf tug'dirmasligi kerak.

Homiladorlik belgilari sezilib turgan ayollarga, nogironlik belgilari ko'rinib turgan shaxslarga, yoshi aniq ko'rinib turgan yoki ma'lum bo'lgan voyaga yetmaganlarga nisbatan, shuningdek kuch ishlatmasdan, jamoat tartibini, transport, aloqa vositalari va tashkilotlarning ishini buzmasdan o'tkazilayotgan g'ayriqonuniy yig'ilishlar, mitinglar, namoyishlar, ommaviy chiqishlar va piket qo'yishlarni bartaraf etish chog'ida maxsus vositalarning, shu jumladan gazli hamda shikastlantiruvchi qurolning qo'llanilishi taqiqlanadi, bundan ularning qurolli qarshilik ko'rsatganligi yoki fuqarolarning yoki ichki ishlar organlari xodimining hayoti hamda sog'lig'iga haqiqatda tahdid etib, guruh bo'lib hujum qilganligi hollari mustasno.

Maxsus vositalarni qo'llashda quyidagilar taqiqlanadi:

✓ odamning boshiga, bo'yning, o'mrov suyagiga, qorniga, jinsiy a'zolariga, yurak sohasiga rezina tayoq bilan zarbalar berish;

✓ havo harorati selsiy bo'yicha nol darajadan past bo'lganida suv bilan zarba beruvchi mashinalarni qo'llash<sup>90</sup>.

Suv bilan zarba beruvchi va zirxli mashinalar Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirining, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari boshliqlarining og'zaki yoki yozma qarori asosida qo'llaniladi, bu haqda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziriga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar prokurorlariga hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlarga darhol xabar beriladi.

Ichki ishlar organlari ta'minotida bo'ladigan maxsus vositalarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Ichki ishlar organlari boshliqlari hamda maxsus operatsiya rahbari o'zining qarorida maxsus vositalarning qo'llash tartibini belgilaydi.

Ichki ishlar organlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish chog'ida xodim maxsus vositalarni qo'llash bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish huquqiga ega.

### **IIO xodimining to'xtash to'g'risidagi talabini bajarmagan holatlarda transport vositasini to'xtatishda maxsus vositalaridan foydalanish**

Ichki ishlar organlari xodimlari transport vositalarini quyidagi holatlarda

<sup>90</sup> O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni, 2016-yil 16-sentabr, 23-modda.

to'xtatadilar:

- zarur bo'lganda ko'chalar va avtomobil yo'llaridagi transport hamda piyodalar qatnovini cheklash va taqiqlash, zarur hollarda transport vositalarini to'xtatish va haydovchilarning transportni boshqarish hamda foydalanish huquqi haqidagi hujjatlarini, yo'l varaqalari va tashib ketilayotgan yuklarining transportdagi yuklarga hamda hujjatlarga mos kelishini tekshirish, transport vositalaridan noqonuniy maqsadlarda foydalanganligi gumon qilinganda ularni ko'zdan kechirib chiqish, mast holatdagi, shuningdek transport vositasini boshqarish va foydalanish uchun hujjatlari bo'lmagan shaxslarni transport vositasini boshqarishdan chetlatish, belgilangan tartibda davlat transportidan shaxsiy maqsadlarda o'zboshimchalik bilan foydalanish holatlarini oldini olish choralarini ko'rishda;

- tabiiy ofat joyiga borish, tez yordamga muhtoj bo'lgan fuqarolarni davolash muassasalariga yetkazish, jinoyatni sodir etgan shaxslarni ta'qib etib borish, ushlab va ularni ichki ishlar organlariga olib borish, shuningdek voqea sodir bo'lgan joyga zudlik bilan yetib borish kerak bo'lgan hollarda korxonalar, muassasalar, tashkilotlar jamoat uyushmalari yoki fuqarolarga tegishli bo'lgan transport vositalarini to'xtatish va ulardan foydalanish (diplomatik, konsullik va chet el davlatlarining boshqa vakolatxonalari, xalqaro tashkilotlarning transport vositalari bundan istisno)da.

- fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga, jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ommaviy tartibsizliklarga hamda boshqa g'ayriqonuniy xatti-harakatlarga chek qo'yishda;

- avtotransport haydovchisi IIO xodimining to'xtash to'g'risidagi talabini bajarmagan transport vositasini to'xtatishda.

Maxsus vositalarni qo'llagan xodim o'rnatilgan tartibda o'zining bevosita rahbariga bildirgi orqali axborot beradi. Bildirgida qachon, qayerda, kimga nisbatan, qanday vaziyatda maxsus vositalar qo'llanilganligi ko'rsatiladi<sup>91</sup>.



### **Savol va topshiriqlar:**

1. Maxsus vositalar ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan qaysi maqsadlarda qo'llaniladi?
2. IIO xodimlari qanday hollarda maxsus vositalarni qo'llash huquqiga ega?
3. Maxsus vositalar orqali fuqarolarga yoki IIO xodimlariga qilingan hujum qanday to'xtatiladi?
4. IIO xodimi jinoyatga chek qo'yishda qanday maxsus vositalardan foydalanishi mumkin?
5. IIO xodimining maxsus vositalarni qo'llashda jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi roli qanday?

<sup>91</sup> O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni, 2016-yil 16-sentabr, 23-modda.

6. Maxsus vositalarni qo'llashda qanday hollarda ularning uchinchi shaxslarning hayoti yoki sog'lig'iga xavf tug'dirmasligi kerak?

7. Maxsus vositalar nima uchun nogironlik belgilari ko'rinib turgan shaxslar yoki voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llanilmaydi?

8. IIO xodimi transport vositasini to'xtatishda qanday maxsus vositalardan foydalanishi mumkin?

9. Maxsus vositalarni qo'llashda odatdagi taqiqlangan joylar qaysilar?

10. Maxsus vositalarni qo'llagan IIO xodimi qanday tartibda axborot berishi kerak?

#### 4-§. Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan o'qotar qurolni qo'llash tartibi

Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan o'qotar qurolni qo'llash uchun huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi 2016-yil 16-sentabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunining 24-moddasida belgilab berilgan.

**O'q otar qurol** porox yoki boshqa modda quvvati hisobiga yo'naltirilgan holda harakatga keluvchi aslaha bilan nishonni masofadan turib mexanik urish uchun mo'ljallangan qurol.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Davlat bojxona qo'mitasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining harbiy tuzilmalari qurollantirilgan, jangovar harakatlarni olib borish hamda xizmat vazifalarini bajarish uchun mo'ljallangan qurol jangovar qurol jumlasiga kiradi.

#### **IIO xodimi quyidagi hollarda o'q otar qurolni qo'llash huquqiga ega:**

✓ fuqarolarni yoki o'zini hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan, zo'rlik ishlatish bilan qilingan hujumdan himoya qilishda;

✓ garovdagilarni ozod qilishda;

✓ o'ta og'ir jinoyatni sodir etish chog'ida ko'rib qolingan va yashirinishga urinayotgan shaxsni ushlashda, agar boshqa vositalar bilan bu shaxsni ushlash imkoni bo'lmasa<sup>92</sup>;

✓ ichki ishlar organlarining o'q otar qurollarini, o'q-dorilarini, portlovchi moddalarini, transport vositalarini, maxsus va jangovar texnikasini egallab olishga bo'lgan urinishlarga chek qo'yishda;

✓ fuqarolarning uy-joylariga, davlat organlarining va boshqa tashkilotlarning qo'riqlanadigan ob'ektlariga, o'ta muhim yuklariga, transport vositalariga, binolariga guruh bo'lib qilingan hujumni yoki qurolli hujumni daf etishda;

<sup>92</sup> O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni, 2016-yil 16-sentabr, 24-modda.

✓ qurolli qarshilik ko'rsatayotgan shaxsni, shuningdek yonidagi qurolni, o'q-dorilarni, portlovchi moddalarni, portlatish qurilmalarini, zaharli yoki radioaktiv moddalarni topshirish to'g'risidagi qonuniy talabni bajarishni rad etayotgan shaxsni ushlashda;

✓ jinoyat sodir etishda gumon qilinib ushlab turilgan shaxslarning, o'ziga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilgan, ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning qamoqdan qochib ketishiga chek qo'yishda, shuningdek ushbu shaxslarni kuch ishlatib ozod qilishga bo'lgan urinishlarga chek qo'yishda;

✓ agar transport vositasining haydovchisi fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga haqiqiy xavf tug'dirsa hamda IIO xodimining qonuniy talablariga qaramay, to'xtashdan bosh tortsa, ushbu transport vositasini shikastlash yo'li bilan to'xtatishda;

✓ insonning hayoti va sog'lig'iga tahdid solayotgan hayvonni zararsizlantirishda;

✓ qurol ishlatish niyati haqida ogohlantirish sifatida o'q otishda, yuqoriga qarata yoki boshqa xavfsiz yo'nalishda o'q otish orqali xavf-xatar signali berishda yoki yordamga chaqirishda.

IIONing xodimi o'qotar qurolni qo'llashdan oldin ogohlantirishi shart, bundan uning hayotiga yoki fuqarolarning hayotiga bevosita xavf tahdid solayotgan hollar mustasno.

Ayollarga, nogironlik belgilari ko'rinib turgan shaxslarga, yoshi aniq ko'rinib turgan yoki ma'lum bo'lgan voyaga yetmaganlarga nisbatan o'qotar qurolni qo'llash taqiqlanadi, bundan ularning qurolli hujum qilganligi, qurolli qarshilik ko'rsatganligi yoki fuqarolarning yoki IIO xodimining hayoti va sog'lig'iga tahdid etib, guruh bo'lib hujum qilganligi hollari mustasno. O'qotar qurol qo'llanilishi natijasida tasodifiy shaxslar jabrlanishi mumkin bo'lsa, IIO xodimi ko'p fuqarolar to'planganda uni qo'llash huquqiga ega emas. Ichki ishlar organlari qurollantiriladigan o'qotar qurol va uning o'q-dorilari turlarining ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. Ushbu ro'yxatga kirmaydigan o'qotar qurol va uning o'q-dorilari bilan ichki ishlar organlarini qurollantirish hamda ulardan foydalanish taqiqlanadi<sup>93</sup>.

### **Maxsus vositalar va o'qotar qurollarni qo'llash vaqtida xavfsizlik choralari**

#### **Maxsus vositalarni qo'llashda xavfsizlik qoidalari**

Ko'zdan yosh oqizuvchi moddalar, gazli qurol, chalg'itma ta'sir ko'rsatuvchi nur-tovush moslamalarini shaxsiy tarkib tomonga qaratib qo'llash taqiqlanadi, ularning qo'llanilishi natijasida bulut hosil bo'lgan hududda qolgan xodimlar zudlik bilan gaz niqoblarni kiyishlari va xavfli hududni tark etishlari lozim.

<sup>93</sup> O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni, 2016-yil 16-sentabr, 24-modda.

Gaz-tutun buluti tarqalgan hududda xizmat olib borayotgan xodimlar gaz niqoblarda bo'lishlari lozim.

***Ko'zni yoshlantiruvchi vositalar bilan ishlashda quyidagilar qat'iy man etiladi:***

- ushbu vositalarni qismlarga ajratish, o'zboshimchalik bilan nosozliklarni bartaraf etish, sumkalardan tashqarida olib yurish;
- qo'llash jadalligini oshirish (gazli granatalarni qo'llash jadalligi maxsus operatsiya rahbari tomonidan belgilanadi);
- maxsus karabindan otish uchun mo'ljallangan qog'oz gilzali, yorituvchi va signal beruvchi barcha turdagi o'q-dorilarni hamda gazli granatalarni signal berish to'pponchasidan otish.

To'siq-g'ovlarni bartaraf etuvchi vositalar va chalg'itma ta'sir ko'rsatuvchi nur-tovush moslamalarining pilta (zapal)lari alohida olib yurilishi lozim. Pilta (zapal)larni elektr manbasiga ulashdan oldin zanjirda kuchlanish yo'qligi tekshiriladi. Ushbu vositalarni qo'llayotgan xodim shaxsiy himoya vositasida bo'lishi kerak.

Portlamay qolgan barcha portlovchi va nur-tovushli moslamalar mutaxassislar tomonidan zararsizlantiriladi.

O'chib qolgan alanga uzatuvchi shnurni qaytadan yoqish qat'iy man etiladi.

Elektr manbai yordamida portlatiladigan barcha to'siq-g'ovlarni bartaraf etuvchi vositalar va nur-tovushli granatalarning sozligiga ishonch hosil qilgandan so'ng, ular qaytadan portlatilishi mumkin.

***Transport vositalarini majburiy to'xtatish vositalarini quyidagi holatlarda qo'llash qat'iy man etiladi:***

- odamlarni tashish uchun mo'ljallangan transportlarga nisbatan ushbu vositalarda yo'lovchilar bo'lganda;
- chet davlatlarning diplomatik, konsullik va boshqa vakolatxonalari, shuningdek xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalariga tegishli avtotransport vositalariga;
- tog' yonbag'ir yo'llarida, shuningdek yo'lning ko'rinishi chegaralangan qismlarida;
- temir yo'l kesishmalarida, ko'priklarda, yo'l o'tkazgichlarda.

Elektroshok qurilmasi induktorini ustiga qopqog'i yopilgan holda olib yurish va saqlash lozim.

***Elektroshok qurilmasi bilan harakat qilganda quyidagilar taqiqlanadi:***

- induktor qopqog'i mavjud bo'lmagan, harakatga keltirishga tayyor bo'lgan elektroshok qurilmasi elektrodlariga tegish va qo'llarni yaqinlashtirish;

•elektroshok qurilmasini yong‘ir va nam havoda qo‘llash<sup>94</sup>.

Tez alanga oluvchi va portlovchi ob‘ektlarda yashiringan jinoyatchilarga nisbatan qo‘llaniladigan va yonuvchi (portlovchi) xususiyatlarga ega bo‘lgan maxsus vositalarni qo‘llash yong‘in o‘chirish xizmatlari bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Maxsus vositalar qo‘llanilgandan so‘ng xonalar (bino) jarohat olganligi, yong‘in o‘choqlari va portlamay qolgan vositalarni aniqlash maqsadida tekshiriladi. Portlamay qolgan vositalarni zararsizlantirish maqsadida mutaxassislar jalb qilinadi.

O‘qotar qurolni qo‘llashda xavfsizlik choralariga qat‘iy rioya qilish talab etiladi.

***Qu‘yidagi xavfsizlik choralariga qat‘iy rioya qilish shart:***

✓ qurolni o‘qlangan yoki o‘qlanmaganidan qat‘i nazar, ko‘p fuqarolar to‘plangan joyga, tasodifiy shaxslar jabrlanishi mumkin bo‘lgan va boshqa xavfli yo‘nalishlarga qaratish;

✓ qurolni qarovsiz qoldirish yoki uni o‘zga shaxsga berish;

✓ maxsus belgilangan joylardan tashqarida o‘qotar qurolni to‘liq va to‘liqsiz qismlarga ajratish, o‘qlash va o‘qsizlantirish;

✓ o‘qotar qurolni belgilanmagan joyda saqlash va olib yurish;

✓ qurolni maqsadsiz g‘ilofdan chiqarish, o‘qni o‘qdonga jo‘natgan holda olib yurish;

✓ nosoz quroldan o‘q otish yoki yaroqsiz o‘q-dorilarni qo‘llash;

✓ o‘q-dorilarni qismlarga ajratish, o‘qdondan tashqarida saqlash va olib yurish.

Xodimning xizmat olib borishiga to‘sqinlik qiladigan holatlar vujudga kelganda yoki shunday holat aniqlanganda, uning bevosita boshlig‘i (komandir) tomonidan o‘qotar qurol olib qo‘yiladi.

Xodim o‘qotar qurolni yong‘in chiqishi, avariya yoki zaharli moddalarning chiqishi va portlash vujudga kelishi mumkin bo‘lgan xavfli yo‘nalishlarga qarata qo‘llashi taqiqlanadi.

Xodim o‘qotar qurolini qo‘llash uchun tayyorlashga keltirgandan so‘ng, uni qo‘llash zaruriyati bo‘lmagan taqdirda, o‘qotar qurol o‘qsizlantirilishi shart. Shuningdek, o‘qotar qurolni qo‘llab bo‘lgandan so‘ng ham uning o‘qsizlantirilganligi tekshirilishi shart.

O‘qotar qurol qo‘llanilishi natijasida tan jarohati olgan fuqarolarga xavfsizlik choralarini ko‘rgan holda birinchi yordam, shuningdek imkon qadar qisqa vaqt ichida tibbiy yordam ko‘rsatish choralari ko‘riladi<sup>95</sup>.

<sup>94</sup> O‘zbekiston Respublikasi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni, 2016-yil 16-sentabr, 23-modda.

<sup>95</sup> O‘zbekiston Respublikasi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni, 2016-yil 16-sentabr, 24-modda.



### Savol va topshiriqlar:

1. O'qotar qurolni ichki ishlar organlari xodimlari qanday hollarda qo'llash huquqiga ega?
2. O'qotar qurolning qo'llanilishi uchun huquqiy asoslar qaysi qonunda belgilangan?
3. IIO xodimi o'qotar qurolni qo'llashdan oldin nima qilishi kerak?
4. Qaysi hollarda ayollarga, nogironlarga yoki voyaga yetmaganlarga nisbatan o'qotar qurolni qo'llash taqiqlanadi?
5. O'qotar qurolni qo'llashda tasodifiy jabrlanishlar oldini olish uchun qanday xavfsizlik choralari ko'rilishi kerak?
6. IIO xodimi o'qotar qurolni faqat qanday vaziyatlarda qo'llashi mumkin?
7. O'qotar qurolni qo'llashda IIO xodimi qanday xavfli yo'nalishlarga qarata qurolni yo'naltirmasligi kerak?
8. O'qotar qurolni qo'llagan IIO xodimi qanday hollarda bevosita rahbariga axborot berishi kerak?
9. IIO xodimi o'qotar qurolni qo'llashda qanday xavfsizlik qoidalariga rioya qilishi kerak?
10. O'qotar qurol qo'llangandan so'ng, jarohatlangan fuqarolarga qanday yordam ko'rsatish zarur?

### 1-§. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojatlari tushunchasi, turlari va shakllari

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojatlari to‘g‘risida”gi 445-son Qonuni<sup>96</sup> hamda Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi “Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi 341-son qarori<sup>97</sup> ijrosini ta‘minlash maqsadida Ichki ishlar vazirligining narmativ hujjati asosida ishlab chiqildi. Mazkur buyruqda keltirilgan II O‘larida jismoniy va yuridik shaxslarning murojatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi Nizomga asosan Vazirlik departamentlari, bosh boshqarmalari, xizmatlari, boshqarmalari, markazlari, harbiy tuzilmalari, ta‘lim, o‘quv muassasalari, tarkibiy bo‘linmalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar va Toshkent viloyati IIBBlari, viloyatlar IIBlari hududiy bo‘linmalari hamda tuman va shahar II O‘larida jismoniy va yuridik shaxslarning murojatlari bilan ishlash tartibi belgilangan.

Murojatlari og‘zaki, yozma yoki elektron shaklda berilishi hamda arizalar, takliflar va shikoyatlar tarzida bo‘lishi mumkin:

**ariza** – huquqlarni, erkinliklarni va qonuniy manfaatlarni amalga oshirishda yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi iltimos bayon etilgan murojati;

**taklif** – davlat va jamiyat faoliyatini takomillashtirishga doir tavsiyalarni o‘z ichiga olgan murojati;

**shikoyat** – buzilgan huquqlarni, erkinliklarni tiklash va qonuniy manfaatlarni himoya qilish to‘g‘risidagi talab bayon etilgan murojati;

**anonim murojati** – jismoniy shaxsning familiyasi (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar yoki yuridik shaxsning to‘liq nomi, uning joylashgan manzili (pochta manzili) to‘g‘risidagi ma‘lumotlar ko‘rsatilmagan yoki ular haqida yolg‘on ma‘lumotlar ko‘rsatilgan murojati, shuningdek, uni identifikatsiya qilish imkoniyatini bermaydigan elektron murojati yoki imzo bilan tasdiqlanmagan yozma murojati;

**murojati tuzatish dublikati** – aynan bir jismoniy yoki yuridik shaxs murojati tuzatish ko‘chirma nusxasi;

**takroriy murojati** – avvalgi murojatlari bo‘yicha qabul qilingan qaror yuzasidan shikoyat qilingan yoki boshqacha tarzda norozilik bildirilgan, shuningdek, agar takroriy murojati kelib tushgan paytda ko‘rib chiqishning qonun hujjatlarida belgilangan muddati tugagan bo‘lsa, avvalgi murojati o‘z vaqtida

<sup>96</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojatlari to‘g‘risida”gi 445-son Qonuni.

<sup>97</sup> Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi “Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi 341-son qarori.

ko‘rib chiqilmaganligi haqida xabar qilingan, aynan bir jismoniy yoki yuridik shaxsdan kelib tushgan murojaat;

**elektron murojaat** – belgilangan tartibda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida berilgan, shu jumladan Vazirlik yoki uning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari rasmiy veb-saytlariga joylashtirilgan murojaat, real vaqt rejimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda berilgan og‘zaki murojaatlar bundan mustasno;

**ommaviy qabul** – tarkibiy yoki hududiy bo‘linma rahbarlarining jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari bilan ommaviy uchrashuvlarda murojaatlarni qabul qilishga doir harakati;

**videokonferensaloqa** – uzoqda joylashgan bir nechta abonentlarning real vaqt rejimida audio va videoaxborot almashish imkoniyati bilan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda interaktiv hamkorlik qilishi;

**sayyor qabul** - tasdiqlangan jadval asosida tarkibiy yoki hududiy bo‘linma rahbarlari tomonidan joylarga chiqqan holda jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish bilan bog‘liq tashkiliy va boshqa chora-tadbirlar majmuidan iborat bo‘ladi<sup>98</sup>.

Jismoniy va yuridik shaxslar yakka tartibda yoki jamoa bo‘lib murojaat etishlari mumkin. Biroq, murojaatlar shakli va turidan qati nazar, bir xil ahamiyatga ega bo‘ladi.

Vazirlik tizimida rasmiy veb-sayti orqali yoki ularning rasmiy elektron pochta manziliga kelib tushgan murojaatlar elektron murojaatlar tarzida qayd etiladi va Ichki ishlar vazirligining narmativ hujjatida aks etgan, IIOlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi Nizomda belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi, Internet tarmog‘idagi O‘zbekiston Respublikasi Hukumati portali orqali kelib tushgan murojaatlar elektron murojaatlar tarzida qayd etiladi va bu ham IIOlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi Nizomda belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

Ommaviy axborot vositalari tahririyatlaridan kelib tushgan murojaatlar belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqiladi. Jismoniy va yuridik shaxslarning belgilangan tartibdagi huquq va kafolatlarining buzilishiga yoki mahrum qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi, biroq murojaatlar davlat tilida va boshqa tillarda berilishi mumkin.

Murojaatlarni qabul qilishda quyidagi murojaatlarga qo‘yiladigan talablarga muvofiqligiga e‘tibor berilishi va aniqlik kiritilishi lozim:

jismoniy shaxsning murojaatida uning familiyasi (ismi, otasining ismi), yashash joyi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar ko‘rsatilganligiga;

yuridik shaxsning murojaatida uning to‘liq nomi, joylashgan manzili (pochta manzili) to‘g‘risidagi ma‘lumotlar ko‘rsatilganligiga;

<sup>98</sup> Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi “Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi 341-son qarori.

murojaatda ichki ishlar organining aniq nomi, murojaat yuborilayotgan mansabdor shaxsning lavozimi va familiyasi (ismi, otasining ismi) ko'rsatilgan, shuningdek, murojaatning mohiyati bayon etilganligiga;

murojaatda muallifning elektron pochta manzili, aloqa telefonlari va faks raqamlari ko'rsatilganligiga;

murojaat etuvchilarning vakillari orqali berilgan murojaatlarga vakilning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinganligiga ahamiyat berilishi lozim.

Shuningdek, murojaatga u bo'yicha ilgari qabul qilingan mavjud qarorlar yoki ularning nusxalari va uni ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlar ilova qilinganda, mazkur hujjatlar qaytarilmaydi (murojaat etuvchi ularni qaytarish haqida yozma ariza bergan holatlar bundan mustasno). Yuqorida ko'rsatib o'tilgan hujjatlar murojaat taalluqliligi bo'yicha boshqa davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxslariga yuborilganda murojaatga ilova qilinishi kerak.

Qonunga ko'ra, jismoniy va yuridik shaxslarga tarkibiy va hududiy bo'linmalar hamda ularning mas'ul xodimlariga yakka tartibda yoki jamoa bo'lib murojaat etish huquqi kafolatlanadi<sup>99</sup>.

Murojaat etish huquqi ixtiyoriy amalga oshiriladi. Hech kim biron-bir murojaatni himoya qilishga yoki unga qarshi qaratilgan harakatlarda ishtirok etishga majbur qilinishi mumkin emas.

Xorijiy davlatlarning jismoniy va yuridik shaxslari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tarkibiy yoki hududiy bo'linmalarga qonuniy murojaat etish huquqiga ega bo'ladi.

Murojaat etish huquqidan foydalanayotganda jismoniy shaxslarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeiga, shuningdek, yuridik shaxslarning mulk shakli, joylashgan yeri (pochta manzili), tashkiliy-huquqiy shakllariga va boshqa holatlariga qarab kamsitishga yo'l qo'yilmaydi.

Murojaatni ko'rib chiqishga mas'ul etib belgilangan xodim – O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda qonunlari talablariga rioya etishi, ularning to'liq, xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqilishi, jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari, erkinliklari tiklanishi hamda qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash bo'yicha o'z vakolatlari doirasida choralar ko'rishi shart.

Ota-ona qarovisiz qolgan bolalarning ichki ishlar organlariga bevosita qilgan murojaatlarini to'liq ko'rib chiqish kafolatlanadi va bola to'liq muomala layoqatiga ega emasligi sabablari bilan bunday murojaatlari ko'rib chiqilmasligiga, shuningdek, murojaatlarni ko'rib chiqishda jismoniy shaxslarning shaxsiy hayoti, yuridik shaxslarning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar ularning roziligisiz, davlat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini kamsituvchi ma'lumot va boshqa axborotning oshkor etilishiga, jismoniy va yuridik shaxs to'g'risidagi, murojaatga taalluqli bo'lmagan ma'lumotlarni

---

<sup>99</sup> O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrdagi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi 445-son Qonuni.

aniqlashga yo'l qo'yilmaydi. Jismoniy shaxsning iltimosiga ko'ra uning shaxsiga doir ma'lumotlar oshkor etilmasligi kerak.

Jismoniy shaxsni, ularning vakilini, ularning oila a'zolarini, yuridik shaxsni, uning vakilini va yuridik shaxs vakilining oila a'zolarini ular o'z huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarish yoki himoya qilish maqsadida ichki ishlar organlariga va ularning mas'ul xodimlariga murojaat etganligi, shuningdek, murojaatlarda o'z fikrini bildirganligi va tanqid qilganligi munosabati bilan ta'qib etish man etiladi.

Murojaatlar ularda qo'yilgan masalalarni hal etishga vakolatli bo'lgan tarkibiy yoki hududiy bo'linmaga yoki ularning mas'ul xodimiga beriladi. Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatni mustaqil ravishda berishga, shuningdek, bu boradagi vakolatni o'z vakiliga berishga yoki murojaatni pochta aloqa tarmog'i orqali yoki elektron shaklda yuborishga haqli bo'ladi.

Voyaga yetmaganlar, muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan shaxslarning manfaatlarini ko'zlab murojaatlar ularning qonuniy vakillari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berilishi mumkin.

Og'zaki murojaatlar real vaqt rejimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yoki Vazirlikning ishonch, tezkor aloqa telefonlari orqali va videokonferensaloqa vositasida ham berilishi mumkin bo'lib, jismoniy shaxsning murojaatida uning familiyasi (ismi, otasining ismi), yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi. Yuridik shaxsning murojaatida esa uning to'liq nomi, joylashgan manzili (pochta manzili) to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'lishi shart. Murojaatda ichki ishlar organining aniq nomi, murojaat yuborilayotgan mansabdor shaxsning lavozimi va familiyasi (ismi, otasining ismi) ko'rsatilgan hamda murojaatning mohiyati bayon etilishi hamda muallifning elektron pochta manzili, aloqa telefonlari va faks raqamlari ko'rsatilishi mumkin.

Murojaat pochta aloqa tarmog'i orqali konvertida kelib tushganda konvertida murojaat va unga ilovalar mavjudligi tekshiriladi. Konvertida murojaat mavjud bo'lmasa yoki u yaroqsiz bo'lsa, shuningdek, murojaatda ko'rsatilgan ilovalar mavjud bo'lmasa, uni qabul qilgan tarkibiy yoki hududiy bo'linmada uch nafar xodim ishtirokida ikki nusxada dalolatnoma tuzilib, uning bir nusxasi murojaat etuvchiga konvertida ko'rsatilgan manzil bo'yicha yuboriladi. Kelib tushgan murojaatlar konvertlari murojaat etuvchining manzilini, murojaatning jo'natilgan va olingan vaqtini aniqlash uchun saqlanishi mumkin. Noto'g'ri kelib tushgan murojaatlar konverti ilova qilingan holda, belgilangan joyga yangi konvertlarda jo'natiladi yoki murojaat etuvchiga qaytariladi. Yozma murojaat, murojaat etuvchi jismoniy shaxsning imzosi yoki yuridik shaxs vakolatli shaxsining imzosi bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Jismoniy shaxsning yozma murojaatini uning imzosi bilan tasdiqlash imkoni bo'lmagan taqdirda, murojaat uni yozib bergan shaxsning imzosi bilan tasdiqlanib, uning familiyasi (ismi, otasining ismi) ham qo'shimcha ravishda yozib qo'yilishi kerak. Biroq, murojaatni berish muddati, qoida tariqasida, belgilanmaydi.

Ayrim hollarda, agar tarkibiy va hududiy bo'linmalarning murojaatni ko'rib chiqish bo'yicha imkoniyatlariga, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini o'z vaqtida amalga oshirish va himoya

qilishni ta'minlash zaruratiga bog'liq bo'lsa, shuningdek, tegishli qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra murojaatni berish muddati belgilanishi mumkin.

Ariza yoki shikoyat bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi tarkibiy bo'linmaga jismoniy yoki yuridik shaxsga uning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini buzuvchi harakat (harakatsizlik) sodir etilganligi yoki qaror qabul qilinganligi ma'lum bo'lgan paytdan e'tiboran uzog'i bilan bir yildan kechiktirmay beriladi. Ariza yoki shikoyat berishning uzrli sabablarga ko'ra o'tkazib yuborilgan muddati arizani yoki shikoyatni ko'rib chiquvchi tarkibiy yoki hududiy bo'linma rahbari tomonidan tiklanadi.

Tarkibiy va hududiy bo'linmalarda murojaatni qabul qilish, ro'yxatga olish, ijroga qaratish hamda ko'rib chiqilishini nazorat qilish "E-murojaat" tizimi orqali elektron shaklda olib boriladi.

Murojaatlarni qabul qilish, ro'yxatga olish, ijroga qaratish, hisobini yuritish va ko'rib chiqilishini nazorat qilish Vazirlik Tashkiliy departamenti Murojaatlar bilan ishlash boshqarmasi va uning tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladi. Boshqarma murojaatlarning ko'rib chiqilishini nazorat qilish masalalarida bevosita O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziriga bo'ysunadi.

Boshqarmaning murojaatlarni qabul qilish, qonuniy hal qilish bilan bog'liq ko'rsatmalari tarkibiy va hududiy bo'linmalar uchun majburiy bo'lib, aybdor xodimlarning javobgarlik masalasini hal qilish uchun xizmat tekshiruvi o'tkaziladi.

Aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni tashkil etish, shuningdek, murojaatlar bilan ishlashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish maqsadida tarkibiy va hududiy bo'linmalar o'z virtual qabulxonalarini tashkil etishi mumkin. Virtual qabulxonalar qaysi tarkibiy yoki hududiy bo'linma tomonidan tashkil etilgan bo'lsa, o'sha tarkibiy yoki hududiy bo'linma rahbari nomidan faoliyat ko'rsatadi.

Murojaatlar bo'yicha ish yuritish jarayonida yozma va pochta aloqa tarmog'i orqali olingan murojaatlar Boshqarma yoki uning quyi tuzilma xodimlari tomonidan elektron shaklga o'tkaziladi (skaner qilinadi) va elektron tizim orqali ro'yxatga olinadi.

Og'zaki murojaat bilan kelgan shaxslarning murojaatida ko'rsatilgan tegishli ma'lumotlar uning shaxsi va vakolatini tasdiqlovchi hujjatda ko'rsatilgan ma'lumotlar bilan mosligi tekshirilib, elektron tizimga kiritiladi yoki tegishli tartibda to'ldirilgan hisobga olish varaqasi elektron shaklga o'tkaziladi (skaner qilinadi) va elektron tizim orqali ro'yxatga olinadi. Murojaatdagi masala tegishli hududiy bo'linma vakolatida hal etilishi mumkin bo'lgan hollarda murojaat elektron tizim orqali hududiy bo'linmaga yuboriladi va ularning ko'rib chiqilishi ustidan nazorat Boshqarmaning mazkur hududiy bo'linmadagi tuzilmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Tarkibiy bo'linma yoki uning mansabdor shaxslari nomiga yo'llangan murojaatlar, ushbu tarkibiy bo'linmaning kanselyariyasi (kotibiyati) yoki boshqa mas'ul xodimlari tomonidan qabul qilinadi. Elektron murojaatlar ish vaqti tugaganidan keyin tushgan taqdirda navbatdagi ish kunida ro'yxatga olinadi. Murojaatlarni elektron tizim orqali ro'yxatga olmasdan ijroga qaratish mumkin emas.

Murojaatni ro'yxatdan o'tkazishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi<sup>100</sup>.

Ommaviy qabullar vaqtida kelib tushib, joyida hal etilgan og'zaki murojaatlarni ro'yxatdan o'tkazish talab qilinmaydi, Bunda jismoniy shaxsning yoki yuridik shaxs vakilining familiyasi, ismi, otasining ismi, uning yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar, murojaatning qisqacha mazmuni, shuningdek, uni ko'rib chiqish natijasi ommaviy qabul bayonnomasida ko'rsatiladi.

Tuman-shahar ichki ishlar organlarining murojaatlar bilan ishlash guruhlarida quyidagi mazmundagi murojaatlar ro'yxatga olinishi va maxsus elektron tizimga kiritilishi mumkin emas:

- jinoyat va hodisalar to'g'risidagi;
- aybiga iqrorlik to'g'risidagi;
- fuqaroning bedarak yo'qolganligi haqidagi;
- avariya, yong'inlar, epidemiyalar, epizootiyalar, tabiiy ofatlar, baxtsiz hodisalar haqidagi;
- hujjat yoki mol-mulk yo'qolganligi to'g'risidagi;
- ichki ishlar organlarining maxsus muassasalari yoki jazoni ijro etish koloniyalarida jazo muddatini o'tayotgan va tergov hibsxonalarida ushlab turilgan shaxs tomonidan jinoyat sodir etilganligi aniqlanganligi yoki jinoyat alomatlari mavjud bo'lishi mumkinligi haqidagi holatlar.

Davolash muassasalarining, ularga murojaat qilgan shaxslarning badanidagi tan jarohatlari izlari jinoiy xatti-harakatlar natijasida yetkazilgan bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi xabarnomalari, yuz bergan holatlar bo'yicha sug'urta kompaniyalarining xatlari, xodimlarning jinoyat va hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida aks ettiruvchi bildirgilar, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov harakatlari bo'yicha advokatlar tomonidan kiritilgan iltimosnomalar hamda deputat, senator yoki advokat so'rovlari Boshqarma va uning quyi tuzilmalari orqali ro'yxatga olinib, o'rganilishi mumkin emas.

Agar elektron tizimga kiritilgan murojaat bo'yicha olib borilayotgan tekshiruv jarayonida tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov harakatlari o'tkazilishi talab etiladigan holatlar aniqlanganida, ushbu murojaatni ko'rib chiqayotgan xodim darhol o'zining bevosita rahbariga axborot beradi va u o'rnatilgan tartibda jinoyat yoki huquqbuzarlik to'g'risidagi murojaat sifatida ro'yxatga olinadi.

Elektron tizimga kiritilgan murojaatlar murojaatlarni qayd etish varag'i (reestr)ga tegishli yozuvlarni kiritish va murojaatning birinchi sahifasi quyi o'ng qismida ro'yxatga olish shtampini qo'yib, uni ko'rib chiqishga mas'ul etib belgilangan tarkibiy bo'linma yoki xodimga ijro uchun yuboriladi. Qayd etish shtampida tarkibiy yoki hududiy bo'linmaning rasmiy nomi (umumqabul qilingan qisqartirilgan nom yoki qisqartma ko'rsatilishi mumkin), murojaatning kelib tushgan sanasi va qayd raqami ko'rsatiladi.

---

<sup>100</sup> Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi "Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi 341-son qarori.

Murojaat turiga kiritilmagan xatlar (tashakkurnoma, tabriknoma, taklifnoma va fikr-mulohazalar) tegishli tarkibiy yoki hududiy bo‘linmaga yuboriladi va ularni murojaat sifatida ro‘yxatga olish talab etilmaydi.

Shuningdek, murojaatlarning tartib raqamlari har yilning boshidan yangidan hisoblanadi.



### Savol va topshiriqlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi 445-son qonuni nima maqsadda qabul qilingan edi?

2 Vazirlar Mahkamasining “Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi 341-son qarori qachon ijroga yo‘naltirilgan?

## 2-§. Ichki ishlar organlarida jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslar vakillarini qabul qilish tartibi va shartlari

Ichki ishlar organlarida jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslar vakillarini qabul qilish tartibi belgilangan huquqiy-normativ hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Murojaat kelib tushgan vaqtdan boshlab bir ish kundan kechikmay ro‘yxatga olinib, Vazirlikda – tarkibiy bo‘linma rahbariga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligida – Vazir va Vazir o‘rinbosarlari, Toshkent shahar va Toshkent viloyat ichki ishlar bosh boshqarmalari, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalarida – bosh boshqarma va boshqarma rahbari hamda ularning o‘rinbosarlariga, tuman-shahar ichki ishlar organlari rahbarlariga kiritiladi hamda ular murojaatni ko‘rib chiqish bo‘yicha mas‘ul tarkibiy bo‘linma (xodim)ni belgilagan holda rezolyusiya qo‘yadi. Murojaat siporish qo‘yilgan vaqtdan boshlab, bir ish kuni mobaynida ijro etuvchi sifatida belgilangan tarkibiy bo‘linma (xodim)ga yoki ijrochiga murojaatlarni qayd etish varag‘i (reestr)ga imzo qo‘ydirgan holda beriladi va reestrlar alohida yig‘majildga jamlab boriladi hamda yil yakunida belgilangan tartibda saqlash uchun kanselyariyaga topshiriladi.

Tarkibiy va hududiy bo‘linma xodimlarining qonun buzilishi bilan bog‘liq xatti-harakatlari va Vazirlik tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari tomonidan qabul qilingan qarordan norozilik to‘g‘risidagi murojaatlar Vazir o‘rinbosarlariga taqdim etiladi. Tarkibiy yoki hududiy bo‘linma rahbarining qonun buzilishi bilan bog‘liq xatti-harakati va Vazir o‘rinbosarlari tomonidan qabul qilingan qarordan norozilik masalasidagi hamda bevosita Vazir tomonidan o‘tkazilgan shaxsiy yoki sayyor qabullar jarayonida kelib tushgan murojaatlar ko‘rib chiqilishini tashkillashtirish uchun Vazirga taqdim etiladi.

Ko‘rib chiqilgan har bir murojaat uni ko‘rib chiqishga doir hujjatlar bilan birga, varaqlar sonidan qat‘i nazar, alohida (tekshiruv materiali sifatida) yig‘ma jildga tikiladi. Ushbu murojaat muallifi tomonidan aynan mazkur masala bo‘yicha kelib tushgan takroriy yoki dublikat murojaatlar bitta yig‘ma jildga tikiladi. Yig‘ma jild tomlarga ajratilishi mumkin.

Murojaat tegishliligi bo'yicha boshqa davlat organi yoki tarkibiy va hududiy bo'linmaga yuborilganda, u bo'yicha to'plangan hujjatlar hamda ushbu murojaat yuborilgan kuzatuv yoki topshiriq xatining nusxasi murojaatlar bilan ishlashga mas'ul xodim tomonidan xronologik tartibda umumiy yig'ma jildga tikilib, yil yakunida kanselyariya (kotibiyat)ga topshiriladi va kanselyariya (kotibiyat)da uch yil saqlanadi va o'rnatilgan tartibda yo'q qilinadi.

Murojaatlarni ko'rib chiqish tartibida Boshqarma tomonidan tarkibiy va hududiy bo'linmaga ijro uchun yuborilgan murojaatlarni ushbu tarkibiy va hududiy bo'linmaning mas'ul xodimlari ko'rib chiqadi. Ularni ko'rib chiqish boshqa tarkibiy bo'linmaning vakolatiga tegishli bo'lsa, ular Boshqarmaga qaytariladi.

Vazirlik tarkibiy bo'linmalari tomonidan tegishli kuzatuv xati yoki Vazirlik rahbariyatining rezolyusiyasi orqali boshqa tarkibiy bo'linmaga ijro uchun yuborilishi mumkin emas (tarkibiy bo'linma yoki uning mansabdor shaxsi nomiga yo'llangan murojaatlar bundan mustasno). Hal etish o'zining vakolati doirasiga kirmaydigan masalalar qo'yilgan murojaat besh kun muddatda ushbu tarkibiy yoki hududiy bo'linma rahbari tomonidan imzolangan xat bilan tegishli organga yuboriladi, bu haqda murojaat qiluvchiga yozma yoki elektron shaklda xabar qilinadi. Agar murojaatda uni tegishli organga yuborish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar mavjud bo'lmasa, u holda ular besh kun muddatda asoslantirilgan tushuntirish bilan murojaat qiluvchiga qaytariladi.

Pochta aloqa tarmog'i, qabullar jarayonida kelib tushgan murojaat quyi turuvchi bo'linma tomonidan ko'rib chiqilishi lozim bo'lsa, murojaat kelib tushgan kundan boshlab besh kun muddatda tarkibiy bo'linma rahbari tomonidan imzolangan xat yoki topshiriq bilan birga yuboriladi va bu haqda murojaat qiluvchiga yozma, elektron shaklda xabar beriladi, shuningdek, murojaatni ko'rib chiqish uchun uni quyi bo'linmaga yuborgan mas'ul xodim ushbu murojaat va uning kuzatuv xati nusxalarini olib, qonuniy hal qilinishini nazorat qiladi va unda qo'yilgan masalani hal etish vakolati doirasiga kirmaydigan yoki qabul qilgan qarori yoki harakati (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilinayotgan xodimga ijro uchun berilishi taqiqlanadi.

Murojaatni ko'rib chiqish jarayonida murojaatning dublikati kelib tushsa, ushbu murojaat avval tushgan murojaat bilan birgalikda ko'rib chiqiladi hamda natijasi bo'yicha yagona javob beriladi. Murojaatning dublikati murojaat ko'rib chiqilib, javob yuborilganidan keyin kelib tushsa, bu haqda murojaat etuvchi yozma tartibda xabardor qilinadi. Agar murojaatdagi masalalar xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga daxldor bo'lsa, ularning vakillari murojaatni ko'rib chiqishda ishtirok etish uchun uni ko'rib chiqayotgan mas'ul xodim tomonidan o'z vakolatlari doirasida jalb etiladi. Zarur hollarda murojaatni ko'rib chiqayotgan mas'ul xodim tomonidan tegishli mutaxassislar jalb etilishi mumkin. Murojaatni ko'rib chiqayotgan mas'ul xodim o'z tashabbusiga yoki murojaat etuvchining iltimosiga ko'ra uni eshitishni tashkil etishi mumkin.

Murojaatni ko'rib chiqishga mas'ul etib belgilangan xodim tomonidan ushbu murojaat bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar rejasi tuziladi va mas'ul xodimning bevosita rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Murojaat yuzasidan yangi vajlar keltirilgan yoki dastlabki murojaat bo'yicha o'tkazilgan tekshiruvda unda ko'rsatilgan har bir masala bo'yicha vajlarni rad etuvchi yoki tasdiqlovchi aniq asoslar keltirilmagan bo'lsa, qaytadan tekshiruv o'tkaziladi. Murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha tarkibiy yoki hududiy bo'linma tomonidan tegishli qaror qabul qilinadi, bu haqda darhol yozma yoki elektron shaklda murojaat qiluvchiga javob xati (xabar) yuboriladi.

Javob xatida murojaatda ko'rsatilgan har bir masala bo'yicha vajlarni rad etuvchi yoki tasdiqlovchi aniq asoslar (zaruratga qarab qonun hujjatlari normalariga havolalar qilingan holda) bo'lishi kerak. Javob xati murojaat etilgan tilda bayon qilinadi va u tarkibiy yoki hududiy bo'linma rahbari yoki uning o'rinbosarlari tomonidan imzolanadi.

Ommaviy qabullar vaqtida kelib tushib, joyida hal etilgan og'zaki murojaatlarga yozma yoki elektron shakldagi javob talab etilmaydi.

Jismoniy yoki yuridik shaxsning iltimosiga ko'ra murojaatni ko'rib chiqqan mas'ul xodim javob xatining mazmunini o'zgartirmasdan tushuntirishi va yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatishi shart.

Murojaat qiluvchining murojaatga javobni tushuntirish va uni tuzatish to'g'risidagi iltimosi u kelib tushgan kundan e'tiboran o'n kun ichida ko'rib chiqiladi.

Murojaat qiluvchiga javob xati yuborilgan kun murojaatni ko'rib chiqish tugallangan kun hisoblanadi.

Yuqori turuvchi yoki boshqa davlat organlari, shuningdek tegishli tarkibiy bo'linmaning nazoratida bo'lgan murojaat bo'yicha uni ko'rib chiqqan mas'ul xodim murojaat qiluvchiga yuborilgan javob xatining nusxasini ilova qilgan holda, murojaatni ko'rib chiqish natijalari to'g'risida nazorat qiluvchi organ yoki tarkibiy bo'linmaga yozma shaklda axborot kiritadi.

Vazirlik rahbariyati nazoratidagi murojaat bo'yicha Boshqarma tomonidan nazorat varag'i yuritiladi hamda ushbu murojaatni nazoratga olgan rahbar tomonidan nazoratdan va ijrodan olinadi<sup>101</sup>.

Murojaatni ko'rib chiqish uchun quyi ichki ishlar organlariga yuborilishining asosliliigi va murojaatga berilgan javob xatini qonun hujjatlari talablariga muvofiqligiga uni ko'rib chiqqan mas'ul xodim hamda uning bevosita rahbari javobgar hisoblanadi.

Murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlari murojaatlar bilan ishlash muddatlari ular tarkibiy yoki hududiy bo'linmaga kelib tushgan kundan boshlab hisoblanadi. Agar tegishli muddatning oxirgi kuni dam olish va bayram kunlariga to'g'ri kelsa, navbatdagi ish kuni muddat tugaydigan kun hisoblanadi.

Ariza yoki shikoyat masalani mazmuni bo'yicha hal etishi shart bo'lgan kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kun mobaynida, qo'shimcha o'rganish yoki tekshirish, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilganda asoslantirilgan bildirgi orqali tarkibiy yoki hududiy bo'linma rahbarining ruxsati bilan bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi.

---

<sup>101</sup> Ichki ishlar vazirining 2024-yil 24-apreldagi "Ichki ishlar organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 200-son buyrug'i.

Ariza va shikoyatni ko'rib chiqish uchun tekshirish o'tkazish, qo'shimcha materiallarni so'rab olish yoki boshqa chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lgan hollarda, uni ko'rib chiqish muddatlari Vazir va Vazir o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari boshliqlari tomonidan istisno tariqasida, asoslantirilgan bildirgi orqali uzog'i bilan yana bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga xabar qilinadi.

Taklif kelib tushgan kundan e'tiboran bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi, qo'shimcha o'rganishni talab etadigan takliflar bundan mustasno, bu haqda taklifni kiritgan jismoniy yoki yuridik shaxsga o'n kun muddatda yozma shaklda xabar qilinadi. Ayrim hollarda murojaatning mazmunidan kelib chiqib, Vazir va uning o'rinbosarlari, tarkibiy yoki hududiy bo'linma rahbari hamda Boshqarma tomonidan murojaatni ko'rib chiqish muddatlari qisqartirilishi mumkin.

Murojaatning belgilangan muddatlarda ko'rib chiqilishiga uni ko'rib chiqishga mas'ul bo'lgan xodim va uning bevosita rahbari javobgar hisoblanadi.

Murojaatlarni ko'rmay qoldirishda quyidagi murojaatlar ko'rib chiqilmaydi:

- anonim murojaatlar;
- jismoniy va yuridik shaxsning vakillari orqali berilgan murojaatlar, ularning vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmagan taqdirda;
- murojaat muallifi sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa;
- qonunda belgilangan boshqa talablarga muvofiq bo'lmagan murojaatlar.

Murojaatlar ko'rmay qoldirilganda tegishli xulosa tuziladi hamda tarkibiy yoki hududiy bo'linma rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Ichki ishlar organi xodimining noo'rin xatti-harakatlari to'g'risidagi anonim murojaat zarur chora-tadbirlar belgilashda foydalanish uchun tegishli tarkibiy bo'linmaga ma'lumot tariqasida taqdim etilishi mumkin<sup>102</sup>.

Murojaatlarni ko'rib chiqish quyidagi hollarda tugatiladi:

takroriy murojaatlarda yangi vajlar yoki yangidan ochilgan holatlar keltirilmagan bo'lsa, ilgarigi murojaat materiallarida esa tekshiruvlarning to'la-to'kis materiallari mavjud bo'lsa va murojaat qiluvchiga belgilangan tartibda javoblar berilgan bo'lsa;

murojaat qiluvchi o'z murojaatini belgilangan tartibda chaqirib olgan yoki uni ko'rib chiqishni tugatish to'g'risida qayta murojaat qilgan bo'lsa;

yashash joyi, turgan joyi (pochta manzili), elektron pochta manzili yoki boshqa rekvizitlari o'zgarganligi to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilmaganligi tufayli chaqirishning imkoni yo'qligi sababli murojaatni murojaat qiluvchining ishtirokisiz ko'rib chiqish imkoniyati bo'lmaganda;

murojaatni murojaat qiluvchining ishtirokisiz ko'rib chiqish imkoniyati mavjud emasligi sababli, mas'ul xodim tomonidan chaqirilgan murojaat qiluvchi kelmay qolgan taqdirda;

---

<sup>102</sup> Ichki ishlar vazirining 2024-yil 24-apreldagi "Ichki ishlar organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 200-son buyrug'i.

murojaat qiluvchi jismoniy shaxs vafot etganidan so'ng murojaatni ko'rib chiqish huquqiy vorislikka yo'l qo'ymasa.

Takroriy murojaatni ko'rib chiqish tugatilganda, murojaat qiluvchi bilan yozishmalar olib borishni tugatish to'g'risidagi xulosa Vazir o'rinbosarlari tomonidan tasdiqlanadi. Mazkur xulosa asosida murojaat qiluvchi takroriy murojaatning asossizligi va ushbu masala yuzasidan u bilan yozishmalar tugatilishi to'g'risida yozma ravishda xabardor qilinadi. Yozishmalar olib borish tugatilgan murojaat qiluvchidan takroriy murojaat kelib tushgan taqdirda, bunday murojaatni ko'rib chiqish murojaat qiluvchini bu haqda xabardor qilmasdan tugatiladi.

Jismoniy shaxslarning hamda yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilishni tashkil etish bo'yicha Vazirlik rahbariyati, tarkibiy yoki hududiy bo'linma rahbarlari tomonidan jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari qabul qilinadi hamda ularning sayyor va ommaviy qabullari tashkil etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslarning vakillarini joylarda sayyor qabul qilish jadvallari (yillik yoki yarim yillik) ishlab chiqilib, Vazir tomonidan tasdiqlanadi. Jismoniy va yuridik shaxslarning vakillarini shaxsiy, sayyor va ommaviy qabul qilish belgilangan kun va soatlarda, qabul qilish jadvaliga muvofiq o'tkaziladi. Qabul qilish jadvali, uni o'tkazish vaqti, joyi va qabulga oldindan yozilish to'g'risidagi axborot, qabul qilish tartibi rasmiy veb-saytlarda e'lon qilish, hamma kirishi mumkin bo'lgan joylardagi stendlarga yoki boshqa texnik vositalarga joylashtirish orqali manfaatdor shaxslar e'tiboriga yetkaziladi. Sayyor va ommaviy qabul o'tkaziladigan hududlardagi ichki ishlar organlari tomonidan bir hafta oldin aholi bilan ushbu masalada targ'ibot ishlari amalga oshiriladi.

Vazirlik rahbariyati, tarkibiy yoki hududiy bo'linma rahbarlari shaxsiy qabulida bo'lgan shaxslar, jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillarini qabul qilish jurnalida qayd etib boriladi. Ushbu jurnal kompyuter yordamida yuritilishi mumkin.

Jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish uchun alohida xona ajratilishi hamda u murojaat qilib kelgan shaxslar uchun qulay shart-sharoitlarga, shu jumladan kirish yo'llari (jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarni manfaatlarini inobatga olgan), asosiy kirish joyi, kutish va fuqarolarni qabul qilish, shuningdek sanitariya-gigiyena xonalariga ega bo'lishi lozim.

Jismoniy va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish xonalari:

huquqiy maqomini belgilovchi davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlar bo'lmagan normativ-huquqiy hujjatlar ro'yxati;

ish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar, tegishli xizmat telefonlarining raqamlari hamda murojaatlarni qabul qilish tartibi to'g'risidagi axborot;

faoliyati to'g'risida axborot olishga doir so'rovni qabul qilish tartibi haqidagi axborot;

ko'rsatadigan davlat xizmatlarining ro'yxatlari aks ettirilgan axborot stendlari va boshqa zarur axborot hamda ma'lumotlar bilan jihozlanadi.



### Savol va topshiriqlar:

1. IIOLarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi borasidagi hujjatning huquqiy asosi?
2. Ariza nima?
3. Shikoyat nima?
4. Taklif nima?

### 3-§. Ichki ishlar organlarida jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko‘rib chiqish muddatlari va tugatish asoslari

Jismoniy va yuridik shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda ichki ishlar organlarining faoliyati haqida, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga bevosita daxldor bo‘lgan haqqoniy axborotni olish huquqiga ega hisoblanadi, biroq foydalanilishi qonun bilan cheklangan axborot bundan mustasno<sup>103</sup> hisoblanadi.

Murojaatda ko‘rsatilgan masalani har tomonlama va o‘z vaqtida hal qilish maqsadida uni boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan birga ko‘rib chiqish (hal qilish) talab etilsa, murojaatni ko‘rib chiquvchi ichki ishlar organi boshqa davlat organlari va tashkilotlariga murojaatni kollegial eshitishni o‘tkazish uchun murojaat qilishga haqli<sup>104</sup>.

Jismoniy va yuridik shaxsning vakili Vazirlik rahbariyatiga yoki boshqa vakolatli xodimlarga videokonferensaloqa vositasida murojaat qilishi oldindan tasdiqlangan maxsus axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan holda videokonferensaloqa jadval orqali amalga oshiriladi. Buning uchun murojaat etuvchi videokonferensaloqa o‘rnatilgan tegishli tarkibiy yoki hududiy bo‘linmaga belgilangan tartibdagi talabnoma bilan murojaat qiladi. Ariza elektron shaklda berilishi mumkin.

Talabnomada quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

jismoniy shaxs uchun – murojaat etuvchining familiyasi (ismi, otasining ismi), yashash joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

yuridik shaxsning to‘liq nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

elektron pochta manzili;

aloqa telefoni va yoki faksning raqami;

videokonferensaloqa o‘tkazishga qulay sana va vaqt;

murojaat tili;

murojaatning qisqacha mazmuni.

<sup>103</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni.

<sup>104</sup> Ichki ishlar vazirining 2024-yil 24-apreldagi “Ichki ishlar organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 200-son buyrug‘i.

Murojaat etuvchilarning vakillari orqali berilgan murojaatlarga ularning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

Vazirlikning tarkibiy yoki hududiy bo'linmasi rahbari talabnomani ko'rib chiqib, uni videokonferensaloqa orqali ko'rib chiqish yoki ko'rib chiqishni rad etish haqida qaror qabul qiladi.

Murojaatlarni ko'rib chiqishda tarkibiy va hududiy bo'linmalarning xodimlari quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

murojaatni ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan axborotni belgilangan tartibda so'rash va olish;

murojaat qiluvchi, uning vakili yoki boshqa shaxslarning ishtirokisiz murojaatni ko'rib chiqish mumkin bo'lmaganda ularni eshitish uchun chaqirish;

atayin, bila turib yolg'on ma'lumotlar ko'rsatilgan murojaatni tekshirish sababli sarflangan xarajatlarning o'rnini qoplash to'g'risida sudga murojaat qilish.

Ichki ishlar organlari xodimlari:

murojaatlar to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

murojaat qiluvchiga uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta'minlashi, agar ular davlat siri yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olsa, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazsa bu mumkin emas;

jismoniy va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish vaqtida yuqori bilim, kasbiy mahorat va huquqiy tayyorgarlikni namoyon etishi, muomala madaniyatiga rioya qilishi, ularning muammolarini to'liq tinglash va qayd etishi;

murojaat etuvchiga ko'rib chiqish natijalari hamda qabul qilingan qaror haqida murojaat ko'rib chiqilganidan so'ng yozma yoki elektron shaklda darhol xabar qilishi, ommaviy qabullar vaqtida tushib, joyida hal qilingan og'zaki murojaatlar bundan mustasno;

jismoniy yoki yuridik shaxs murojaati yuzasidan qabul qilingan qarordan norozi bo'lsa, ushbu qaror ustidan shikoyat berish tartibini tushuntirishi;

murojaatni ko'rib chiqish natijalariga ko'ra qabul qilingan qarorning ijrosini nazorat qilishi;

qonunga xilof harakatlar (harakatsizlik)ni bartaraf etish yuzasidan darhol choralar ko'rishi, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishini keltirib chiqaruvchi sabablar va sharoitlarni o'z vakolatlari doirasida aniqlashi;

jismoniy shaxs, uning vakili, ularning oila a'zolari, yuridik shaxs, uning vakili va yuridik shaxs vakilining oila a'zolari murojaatlari sababli ta'qib etilishini belgilangan tartibda bartaraf etishi;

murojaatlarni ko'rib chiqishda jismoniy shaxslarning shaxsiy hayoti, yuridik shaxslarning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni ularning rozilgisiz oshkor etmasligi;

murojaat qiluvchidan murojaatga taalluqli bo'lmagan ma'lumotlarni talab qilmasligi;

jismoniy shaxsning iltimosiga ko'ra uning shaxsiga doir ma'lumotlarni sir saqlashi;

agar jismoniy yoki yuridik shaxsga uning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini buzilishi natijasida moddiy zarar yoki ma'naviy ziyon yetkazilgan bo'lsa, qonunda belgilangan tartibda moddiy zararining o'rnini qoplash yoki ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish choralarini ko'rishi shart deb hisoblaniladi.

Tarkibiy va hududiy bo'linma rahbarlari shaxslarning huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini, shuningdek, jamiyat hamda davlatning manfaatlarini buzilishini keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash va bartaraf etish maqsadida har chorakda murojaatlarni umumlashtirib, tahlil qilinishini ta'minlaydi. Har oy yakuni bo'yicha Vazirlik rahbariyati, tarkibiy va hududiy bo'linmalarining rahbarlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari bilan o'tkazilgan uchrashuvlar natijalari to'g'risida ma'lumotlar umumlashtirilib, tahlil qilinadi.

Boshqarma tomonidan murojaatlarda tez-tez ko'tarilgan masalalar, ularni ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha aniqlangan kamchiliklar va qonun hujjatlari talablarining buzilishini keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etish maqsadida ko'rilgan choralar aks ettirilgan ma'lumotnomalar tuzilib, Vazirlik rahbariyatiga murojaatlarni ko'rib qonuniyligini ta'minlash, samaradorligini oshirish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini, shuningdek, jamiyat va davlatning manfaatlarini buzilishini keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish, qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritiladi. Murojaatlarni umumlashtirish va tahlil qilish asosida tuzilgan ma'lumotnomalar yoki sharhlar Vazirlik tizimidagi rasmiy veb-saytlarda e'lon qilinadi.

Tarkibiy va hududiy bo'linmalarda murojaatlar bilan ishlash yo'nalishidagi ishlarni muvofiqlashtirib borish bo'yicha doimiy komissiya tuziladi va komissiya tarkibiga rais, rais o'rinbosari, a'zolar va kotib kiradi. Komissiya tarkibi ofitser xodimlardan iborat bo'ladi. Komissiya faoliyati tarkibiy va hududiy bo'linma rahbari tomonidan nazorat qilinadi.

Komissiya tomonidan:

murojaatlarning ko'rib chiqilishi va hal etilishi monitoring qilinadi;

murojaatlar bilan ishlash sohasida aniqlangan qonun buzilishi holatlarini bartaraf qilish bo'yicha zarur chora-tadbirlar belgilash to'g'risida takliflar kiritiladi;

murojaatlarning ko'rib chiqilishi natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida chop etilishini tashkil etadi;

murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi buzilishi holatlari aniqlanganda, aybdor xodimlarni javobgarlikka tortish to'g'risida taklif kiritadi;

murojaatlarning kelib chiqish sabablarini aniqlash va bartaraf qilish bo'yicha ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etadi;

sohada ishlarni yaxshilash bo'yicha takliflar tayyorlaydi.

Komissiya o'z faoliyatini tarkibiy va hududiy bo'linma rahbari tomonidan tasdiqlangan rejaga muvofiq amalga oshiradi va majlislarini zaruriyatga ko'ra, biroq har chorakda kamida bir marta o'tkazadi.

Komissiya majlisini uning raisi, Komissiya raisi bo'lmagan taqdirda, rais o'rinbosari olib boradi. Komissiya kotibi majlis bayonnomalarini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomalarni Komissiya a'zolari va boshqa manfaatdor tashkilotlarga yuboradi<sup>105</sup>.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarni qabul qilish va ko'rib chiqishni qonunga xilof ravishda rad etish, ularni ko'rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzish, ularga yozma, elektron shaklda javob yubormaslik, qonun hujjatlariga zid qaror qabul qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari tiklanishini, murojaat munosabati bilan qabul qilingan qarorning bajarilishini ta'minlamaganlik, jismoniy shaxslarning shaxsiy hayoti to'g'risidagi hamda yuridik shaxslarning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni ularning roziligisiz oshkor etish, jismoniy va yuridik shaxsni murojaat qilganligi munosabati bilan yoki bildirilgan fikri va murojaatidagi tanqid uchun ta'qib qilish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Murojaatlar bilan ishlash tartibini buzganligi uchun javobgarlikka tortilgan xodimlar to'g'risida tegishli ma'lumotnoma tuziladi va har chorakda Boshqarmaga taqdim etib boriladi. Bu esa tarkibiy va hududiy bo'linma rahbarlari zimmasiga yuklatiladi. Murojaatlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik, tuhmat va haqoratdan iborat murojaat berganlik belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

Xususan, murojaatlarni ko'rib chiqishda IIOlari va mansabdor shaxslari quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

murojaatni ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan axborotni belgilangan tartibda so'rash va olish;

murojaat qiluvchi, uning vakili yoki boshqa shaxslarning ishtirokisiz murojaatni ko'rib chiqish mumkin bo'lmaganda ularni eshitish uchun chaqirish;

bila turib, atayin yolg'on ma'lumotlar ko'rsatilgan murojaatni tekshirish sababli sarflangan xarajatlarni o'rnini qoplash to'g'risida sudga murojaat qilish.

IIOlari va ularning mansabdor shaxslari qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

IIOlari va ularning mansabdor shaxslari:

murojaatlar to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etishi;

murojaat qiluvchiga uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor hujjatlar, qarorlar hamda boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta'minlashi, agar ular davlat siri yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olmasa, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazmasa;

murojaat etuvchiga ko'rib chiqish natijalari hamda qabul qilingan qaror haqida murojaat ko'rib chiqilganidan so'ng darhol yozma yoki elektron shaklda xabar qilishi;

---

<sup>105</sup> Ichki ishlar vazirining 2024-yil 24-apreldagi "Ichki ishlar organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 200-son buyrug'i.

murojaat yuzasidan qabul qilingan qaror ustidan, agar jismoniy yoki yuridik shaxs ushbu qarorga rozi bo'lmasa, shikoyat berish tartibini tushuntirishi;

murojaatni ko'rib chiqish natijalariga ko'ra qabul qilingan qarorning ijrosini nazorat qilishi;

qonunga xilof harakat (harakatsizlik)larni bartaraf etish yuzasidan darhol choralar ko'rishi, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzilishini keltirib chiqaruvchi sabablar va sharoitlarni o'z vakolatlari doirasida aniqlashi;

jismoniy shaxs, uning vakili, ularning oila a'zolari, yuridik shaxs, uning vakili va yuridik shaxs vakilining oila a'zolari ularning murojaatlari sababli ta'qib etilishini belgilangan tartibda bartaraf etishi;

agar jismoniy yoki yuridik shaxsga uning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini buzilishi natijasida moddiy zarar yoki ma'naviy ziyon yetkazilgan bo'lsa, qonunda belgilangan tartibda moddiy zararining o'rnini qoplash yoki ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish choralarini ko'rishi;

jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish vaqtida yuqori bilim, kasbiy mahorat va huquqiy tayyorgarlikni namoyon etishi, muomala madaniyatiga rioya qilishi, ularning muammolarini to'liq tinglashi va qayd etishi;

murojaatlarni ko'rib chiqishda jismoniy shaxslarning shaxsiy hayoti, yuridik shaxslarning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni ularning rozilgisiz oshkor etmasligi;

murojaat qiluvchidan murojaatga taalluqli bo'lmagan ma'lumotlarni talab qilmasligi;

jismoniy shaxsning iltimosiga ko'ra uning shaxsiga doir ma'lumotlarni sir saqlashi shart.

Murojaatlarning ko'rib chiqilishini monitoring va nazorat qilishda murojaat qaysi rahbar yoki vakolat berilgan mansabdor shaxs tomonidan nazoratga olingan bo'lsa, o'sha shaxs tomonidan nazoratdan va ijrodan olinadi. Shu bilan birga oraliq javoblar berilgan va to'liq ko'rib chiqilmagan murojaatlar nazoratdan olinmaydi.

Tarkibiy va hududiy bo'linmalar, shuningdek, tuman (shahar) II O'larida murojaatlar bilan ishlash bo'yicha doimiy komissiya tuziladi. Komissiya tarkibiga rais, rais o'rinbosari, a'zolar va kotib kiradi. Komissiya tarkibi ofitser xodimlardan iborat bo'ladi.

Komissiyaga tarkibiy bo'linmalarda – rahbar o'rinbosari, hududiy bo'linmalarda – ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha o'rinbosarlar, tuman (shahar) II O'larida – ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosar raislik qiladi.

Komissiya faoliyati II O'lari rahbarlari tomonidan nazorat qilinadi.

Murojaatlarni umumlashtirish va tahlil qilish ham muhim jarayon hisoblanadi.

II O'lari jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, shuningdek, jamiyat va davlat manfaatlarini buzilishini keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash hamda bartaraf etish yuzasidan tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish va boshqa zaruriy chora-tadbirlarni belgilash maqsadida har oyda murojaatlarni umumlashtirish va tahlil qilishni ta'minlaydi.

IIOlari tomonidan yuritilishi majburiy bo'lgan statistik hisobot shakllari Boshqarma tomonidan ishlab chiqiladi. IIOlari o'z faoliyat yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda qo'shimcha statistik hisobot shakllarini ishlab chiqishlari va yuritishlari mumkin.

Hisobotlarda keltirilgan raqamlar to'g'riligiga murojaatlar bilan ishlash yo'nalishiga mas'ul bo'lgan xodim, uning bevosita rahbari va murojaatlar bilan ishlash yo'nalishidagi ishlarni muvofiqlashtirib borish bo'yicha doimiy komissiya raisi javobgar hisoblanadi. Hisobot shakllari va tahliliy ma'lumotlar IIOlari rahbarlari yoki uning o'rinbosarlari tomonidan imzolangan holda Boshqarmaga har oyning 3-sanasiga qadar taqdim etiladi. Har oy yakuni bo'yicha Vazir va uning o'rinbosarlari, IIOlarining rahbarlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari bilan o'tkazilgan uchrashuvlar natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar umumlashtirilib, tahlil qilingan holda muhokamaga kiritiladi.

Murojaatlarni umumlashtirish va tahlil qilish natijalariga ko'ra Boshqarma tomonidan murojaatlar bilan ishlashning umumiy ko'rsatkichlari, murojaatlarda tez-tez ko'tarilgan masalalar, murojaatlarni ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha aniqlangan asosiy kamchiliklar, qoidabuzarliklar, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari, jamiyat va davlat manfaatlari buzilishini keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etish maqsadida ko'rilgan choralar aks ettirilgan ma'lumotnomalar tuziladi.

Boshqarma tomonidan Vazir va uning o'rinbosarlariga murojaatlarni ko'rib chiqishning qonuniyligini ta'minlash, samaradorligini oshirish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlari, shuningdek, jamiyat va davlatning manfaatlari buzilishini keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish, qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritiladi.

Murojaatlar to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarini buzganlik, tuhmat va haqoratdan iborat murojaat berganlik belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ichki ishlar organlarida jismoniy yoki yuridik shaxslarning murojaatlari og'zaki, yozma yoki elektron shaklda berilishi hamda arizalar, takliflar va shikoyatlar tarzida bo'ladi. Jismoniy va yuridik shaxsning murojaatida davlat organining, tashkilotning aniq nomi, murojaat yuborilayotgan mansabdor shaxsning lavozimi va familiyasi (ismi, otasining ismi) ko'rsatilgan, shuningdek murojaatning mohiyati bayon etilgan bo'lishi kerak.

IIOlarining rahbarlari jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillarini qabul qilish tartibi va jadvallari, qabullarni o'tkazish vaqti, joyi hamda qabulga oldindan yozilish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlarni IIOlarining rasmiy veb-saytlarida e'lon qilsin, ma'muriy binoda hamma ko'rishi mumkin bo'lgan joylardagi stendlarga yoki boshqa texnik vositalarga joylashtirish orqali tashrif buyuruvchilar e'tiboriga yetkazib borish choralari ko'radi.



### Savol va topshiriqlar:

1. Tarkibiy va hududiy bo‘linmalar yoki tuman (shahar) IIolarida murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha doimiy komissiya faoliyati nimadan iborat?
2. Komissiya o‘z faoliyatini tarkibiy va hududiy bo‘linma rahbari tomonidan tasdiqlangan reja asosida majlislarni qanday tartibda o‘tkazadi?
3. Murojaatlar bilan ishlash tartibini buzganligi uchun javobgarlikka tortilgan xodimlar to‘g‘risida tegishli ma’lumotnoma tuzish va har chorakda Boshqarmaga taqdim etib borish kimning zimmasiga yuklatiladi?

### 1-§. Ichki ishlar organlarida ish yuritish tushunchasi, turlari, vazifa va maqsadlari

Ish yuritish - boshqaruv apparatining o'z (boshqaruv, aloqa, nazorat, hamkorlik, rejalashtirish, tahlil) funksiyasini bajarish jarayonidagi hujjatlashtirish va hujjatlar bilan ishlashni tashkil qilish masalalarini qamrab oluvchi faoliyat hisoblanadi.

Bugungi kunda "ish yuritish" termini o'rnida hujjatlar bilan ishlash, jumladan hujjatlar aylanishi va saqlanish masalalarini qamrab oluvchi "hujjatlar bilan ta'minlash" termini ko'proq qo'llanilmoqda. Ish yuritish har doim ichki ishlar organlarining ishida sezilarli o'rin tutgan. Aynan ichki ishlar organlarining faoliyati va uning tezkorligi ko'p jihatdan ish yuritishning qanday tashkil etilganligiga bog'liq.

Ichki ishlar organlarida ish yuritish boshqaruv jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, ushbu idora ishining eng hal qiluvchi sohalariga - rahbarlik, tartibga solish, ijro etish, hisob va nazorat, amaliyotni umumlashtirish kabilarga katta ta'sir ko'rsatadi. Boshqaruvning tezkorligi, boshqaruv mehnatining ishonchliligi, uyushganligi ko'p jihatdan ish yuritishning qanday yo'lga qo'yilganligiga bog'liq.

"Ish yuritish"ning ahamiyati ish yuritishning aniq va to'g'ri yo'lga qo'yilganligi - hujjatlar bilan ishlash, hujjatlarni qayd etish, dastlabki ko'rib chiqish va taqsimlash, ularni qayta ishlashni uyushtirish, shakl va rekvizitlarni belgilash, hujjatlarni hisobga olish va ijrosini nazorat qilish, ma'lumot-axborot xizmati ko'rsatish, hujjatlarni jo'natish, shuningdek, ish jildda hujjatlarni rasmiylashtirish (jamlash) va ularni saqlash ichki ishlar organlarining uzluksiz ishlashida katta o'rin tutadi<sup>106</sup>.

Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat vazifalarini tahlil qilish natijalarining ko'rsatishicha, ularni bajarish uchun zarur bo'lgan kasbiy ko'nikmalar orasida eng muhimi hujjatlarni tuzish, rasmiylashtirish va tayyorlash borasidagi ko'nikmalardir. Chunki, xodimlar ish vaqtining 80 foizigacha bo'lgan qismi hujjatlar bilan ishlashga sarflanadi.

Ish yuritish hujjatlarini yozishni o'rganish uchun quyidagilarni bilish zarur:

- avvalambor, hujjatning yo'nalishi va uning tuzilishiga e'tibor berib tanishish;

- hujjat namunasi matnini o'qiganda uning mohiyatini bilishga harakat qilish, axborot dalillari bayoni izchilligiga, xat boshini joylashishiga va tinish belgilar qo'yilishiga e'tibor berish;

- yangi hujjat yozishga kirishganda "e'tibor bering" sarlavhasi ostidagi matn bilan albatta tanishish va unga rioya qilish;

<sup>106</sup> Ichki ishlar idoralarida boshqaruvni tashkil etish: Ma'ruzalar kursi / D.S. Muxamadaliyev, J.S. Muxtorov, B.A. Saidov va boshq.

- notanish soʻzlarning maʼnosini izohli va ruscha-oʻzbekcha lugʻatlardan foydalangan holda aniqlik kiritish kerak<sup>107</sup>.

Hozirgi vaqtda ichki ishlar organlari faoliyati haqidagi axborotlarni yuqori darajaga yetkazib berish, ichki ishlar organlari faoliyatining oʻzaro bogʻliq huquqni muhofaza qiluvchi organlar orasidagi axborotlarni oʻzaro ayirboshlash va uzatish zamonaviy axborot kommunikatsiya vosita (elektron pochta, rasmiy sayt, E-xat, elektron platforma “zoom”)lari orqali amalga oshirilmoqda.

Ish yuritish tartiblarining huquqiy asosi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hisoblanib, IIVda ish yuritishning meʼyoriy-huquqiy hujjatlari ikki tizimga boʻlinadi:

- ish yuritishning tartibi va shu jarayondagi munosabatlarni belgilab beruvchi **qonunlar**;

- ish yuritishning tartibi va shu jarayondagi munosabatlarni belgilab beruvchi **qonunosti hujjatlar**.

Ish yuritishning tartibi va shu jarayondagi munosabatlarni belgilab beruvchi qonunlarga quyidagilar kiradi:

- Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- “Davlat tili haqida”gi qonun;
- Oʻzbekiston Respublikasining “Davlat sirlari toʻgʻrisida”gi qonun;
- “Normativ-huquqiy hujjatlar toʻgʻrisida”gi qonun va tegishli huquqiy normativ hujjatlar.

Ish yuritishning tartibi va shu jarayondagi munosabatlarni belgilab beruvchi qonunosti hujjatlariga quyidagilar kiradi:

- Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari;
- Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
- Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- vazirliklar, davlat qoʻmitalari va idoralarining hujjatlari;
- mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari;
- Oʻzbekiston Respublikasi IIVning 2005-yil 8-yanvardagi 10-son buyrugʻi va tegishli huquqiy normativ hujjatlar.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida Oʻzbekiston Respublikasining davlat tili oʻzbek tili ekanligi eʼtirof etilgan. Demak, Oʻzbekiston Respublikasida rasmiy ish yuritish ham oʻzbek tilida amalga oshiriladi.

Maʼlumki, 1989-yil 21-oktabrda “Oʻzbekiston SSRning davlat tili toʻgʻrisida”gi qonuni qabul qilindi. Oʻzbek tili davlat tili deb eʼlon qilindi<sup>108</sup>. Ish yuritish sekin-asta oʻzbek tiliga oʻtkazila boshlandi, uni oʻrganishni yaxshilash yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgilandi. Bu qonunning qabul qilinishi oʻzbek xalqining milliy oʻz-oʻzini anglashning oʻsishi, respublikada millatlararo hamjihatlikni saqlanib qolishi uchun katta ahamiyatga ega boʻldi.

<sup>107</sup> Ichki ishlar idoralarida boshqaruvni tashkil etish: Maʼruzalar kursi / D.S. Muxamadaliyev, J.S. Muxtorov, B.A. Saidov va boshq.

<sup>108</sup> 1989-yil 21-oktabrdagi “Oʻzbekiston SSRning davlat tili toʻgʻrisida”gi qonuni

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 27-dekabr kunidagi “Davlat sirlari to‘g‘risida”gi qonuni<sup>109</sup>da ish yuritish jarayonida davlat sirlarini himoya qilishga oid qoidalar belgilangan.

Ichki ishlar organlarida ish yuritishni tashkil qilish masalalari O‘zbekiston Respublikasi IIVning tegishli normativ hujjatlarida ham belgilab qo‘yilgan. Ushbu hujjatlar ish yuritishni hujjatlar kelib tushgan yoki tuzilgan paytdan boshlab, ularni arxivga topshirgunga qadar bo‘lgan bosqichlarini tartibga soluvchi normativlar va tavsiyalarni o‘z ichiga olgan asosiy qoidalar majmuidir.

O‘zbekiston Respublikasi IIVning ichki ishlar organlarida maxfiylik tartibini ta‘minlash masalalari yuzasidan chiqarilgan normativ hujjatlarda maxfiy hujjatlar bilan ishlash tartibi ham belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi IIVning ichki ishlar organlarida operativ qidiruv faoliyatini tartibga soluvchi buyruqlarida ayni vaqtda operativ qidiruv hujjatlarini rasmiylashtirish, hisobga olish, qayd etish va saqlash tartibi ham belgilangan. Vazirlikning ichki ishlar organlari, ularning xizmat va bo‘linmalari faoliyatining muayyan yo‘nalishlarini tartibga soluvchi ayrim buyruqlarida turli xil xizmat hujjatlari blanklarining namunalari berilgan, ularni to‘ldirish tartibi ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi IIV tizimida ish yuritishni tashkil etish va olib borish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 29-martdagi 140-sonli “O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkillashtirish haqida”gi qarori<sup>110</sup> asosida ishlab chiqilgan IIVning 2005-yil 10-sonli “O‘zbekiston Respublikasi IIV tizimida ish yuritishni tashkillashtirish va olib borish haqida”gi buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi IIV tizimida ish yuritishni tashkillashtirish va olib borish haqidagi Yo‘riqnoma” orqali amalga oshiriladi.

Mazkur Yo‘riqnoma bilan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi markaziy apparatida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi, viloyatlar va Transportdagi ichki ishlar boshqarmalari, shahar, tuman, tarmoq ichki ishlar bo‘limlari, o‘quv yurtlari hamda O‘zbekiston Respublikasi IIV tizimidagi boshqa bo‘linmalar, idoralar, korxonalar va tashkilotlarda ish yuritishni tashkillashtirish va olib borishning yagona tartibi belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasida ish yuritish tartiblari – ish yuritish to‘g‘risidagi qonunchilik va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llanilgan holda amalga oshiriladi va yuritiladi<sup>111</sup>.

Bugungi kunda, IIV tizimida ish yuritishni tashkil qilish masalalari O‘zbekiston Respublikasi IIVning tegishli normativ-huquqiy hujjatlari bilan tartibga solingan bo‘lib, ushbu hujjatlar ish yuritishni hujjatlar kelib tushgan yoki tuzilgan paytdan boshlab, ularni arxivga topshirgunga qadar bo‘lgan bosqichlarni

<sup>109</sup> 2024-yil 27-dekabr kunidagi “Davlat sirlari to‘g‘risida”gi qonuni.

<sup>110</sup> Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 29-martdagi 140-sonli “O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkillashtirish haqida”gi qarori.

<sup>111</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonuni.

tartibga soluvchi normativlar va tavsiyalarni o'z ichiga olgan asosiy qoidalar majmuidan iborat.

**Hujjat** – inson vaqtda va makonda bировga berish uchun yaroqli usulda qayd etilgan axborotga ega bo'lgan moddiy ob'ektdir. Har qanday organning, shu jumladan ichki ishlar organlarining faoliyat ko'rsatishi turli hujjatlarni tuzish, olish, jo'natish bilan bog'liq. Shu bois, ularning faoliyatining samaradorligi hujjatlashtirish hamda hujjatlar bilan ishlashni tashkil qilish masalalari bilan bog'liq.

Ichki ishlar organlarining faoliyati jarayonida hujjatlar yaratiladi, almashtiriladi, qayta ishlanadi va saqlanadi. Hujjatlarsiz ichki ishlar organlari faoliyatini tasavvur qilib bo'lmaydi. Hujjatlashtirish va hujjatlar bilan ishlashni tashkil qilish ish yuritish deb ataladigan o'ziga xos faoliyatga kiradi<sup>112</sup>.

**Ichki ishlar organlari faoliyatida hujjat** deganda – izlash, bировga topshirish, saqlash tarzida hujjatlar tizimida aylanishi mumkin bo'lgan har qanday axborot tashuvchisi tushuniladi. Hujjat – matn, ovoz yozuvi yoki tasvir ko'rinishida qayd etilgan axborotga ega bo'lgan hamda saqlash va jamiyatda foydalanish maqsadlarida vaqt va makonda bировga topshirishga mo'ljallangan moddiy ob'ektdir. Hujjatlar odatda blanklarda rasmiylashtiriladi va belgilangan rekvizitlar majmuiga ega bo'ladi.

Demak, hujjatning asosiy vazifasi zarur axborotni qayd etish va saqlashdan iborat. Masalan, ichki ishlar organlarida tuziladigan hujjatlarda operativ vaziyat, ayrim xizmat va bo'linmalar faoliyatining natijalari, huquqbuzarliklar sodir etgan, sud va tergovdan yashiringan shaxslar haqidagi ma'lumotlar bo'ladi. Hujjatlarda qayd etilgan ushbu axborotdan ichki ishlar organlarining xodimlari yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilishda, ularni hal qilish choralarini ishlab chiqish va amalga oshirishda foydalanadi.

Ichki ishlar organlarida tuziladigan hujjatlar ichki ishlar organlarining o'zaro, boshqa organlar, tashkilotlar va fuqarolar bilan aloqa qilish vositalaridan biri bo'lib, aloqa funksiyasini ham bajaradi. Masalan, ichki ishlar organlarining xodimlari xizmat xatlari orqali boshqa organ va tashkilotlardan zarur axborotni so'rab oladilar, ularga huquqbuzarliklarning sodir etilishiga imkon beruvchi sharoitlarni bartaraf etish haqida takliflar yuboradilar, fuqarolarga ularning arizalari yuzasidan qabul qilingan qarorlar haqida xabar beradilar.

Ichki ishlar organlarida tuziladigan hujjatlarning yuridik ahamiyati shundaki, ular yuridik harakatlar, hodisalar, holatlarni rasmiy tasdiqlash vositasi va ularning yuridik dalili hisoblanadi. Masalan, ichki ishlar organi xodimi ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida tuzgan bayonnomada nojo'ya xatti-harakat va holatlar, huquqbuzarning shaxsi haqida daliliy ahamiyatga ega bo'lgan axborotni qayd etadi. Fuqaroga qurol sotib olish uchun berilgan ruxsatnoma ushbu shaxsda tegishli huquq mavjudligining rasmiy tasdig'i hisoblanadi. Ichki ishlar organi, uning bo'linmasi yoki alohida olingan xodimining ishini tekshirish natijalari haqidagi ma'lumotnoma ish ahvolidan rasmiy tasdig'i bo'lib xizmat qiladi<sup>113</sup>.

<sup>112</sup> J.Muxtorov "Ichki ishlar organlarida ish yuritishni tashkillashtirish". O'quv qo'llanma 2021-yil.

<sup>113</sup> O'sha joyda

Hujjatlar yuridik dalil bo'lish qobiliyatiga ega bo'lganligi sababli, ichki ishlar organlari (ularning bo'linmalari va xodimlari) faoliyatining qonuniyligi va samaradorligini ular tuzgan hujjatlarni o'rganish orqali nazorat qilish mumkin. Masalan, kuch va vositalarning joylashtirilishi, ulardan foydalanish natijalari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan hujjatlarni o'rganish asosida organ faoliyatining samaradorligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Jinoyat ishlarining materiallarini, ma'muriy jazo tayinlash haqidagi qarorlarni o'rganish ichki ishlar organlari va uning ayrim xodimlari faoliyatida qonuniylikning ahvolini baholashga hamda aniqlangan xatolarni bartaraf etish choralarini ko'rishga imkon beradi.

Ichki ishlar organlari faoliyatidagi xizmat hujjatlariga har qanday uslubda bajarilgan matnli va grafik ko'rinishdagi: qo'lda yozilgan, rasm ko'rinishida tayyorlangan, chizilgan, yozuv mashinkasida (printerda) bosib chiqarilgan, nashriyot yoki boshqa uslubda nashr etilgan materiallar kiradi.

**Ish yuritishni o'rganish va olib borish**, asosan, quyidagi mezonlar bo'yicha tasniflanadi:

- ichki ishlar organlari faoliyatining yo'nalishlari bo'yicha;
- hujjatlarning yuzaga kelish joyi va harakatlanish yo'nalishi bo'yicha;
- ularda aks ettiriladigan masalalarning soni bo'yicha;
- manfaatdor shaxslarning hujjatlarni imzolashda ishtirok etishi bo'yicha;
- hujjatlardagi axborotning maxfiylik darajasi bo'yicha.

Boshqaruv (tashkil qilish) hujjatlari ichki ishlar organlarining ichki tashkiliy faoliyati jarayonida tuziladi. Ular vazifasiga ko'ra, o'z navbatida, idora etish, hisobot hujjatlari hamda umumiy xususiyatga ega bo'lgan hujjatlarga bo'linadi.

Idora etish hujjatlari guruhiga boshqaruvga oid yozma huquqiy hujjatlar (buyruqlar, yo'riqnomalar, ko'rsatmalar, rejalar va boshqalar) kiradi.

Hisobot hujjatlarida (ish haqidagi hisobot, bildirgi yoki yozma doklad, tushuntirish xati, ma'lumotnoma) vazifalar, topshiriqlar, rejalashtirilgan tadbirlarning bajarilishi haqidagi axborot o'z aksini topadi.

Umumiy xususiyatga ega bo'lgan hujjatlar guruhiga Ichki ishlar organlari faoliyatidagi turli masalalar yuzasidan tuziladigan xilma-xil hujjatlar: dalolatnoma, bayonnoma, xizmat xati, telegramma kabilar kiradi<sup>114</sup>.

Hozirgi vaqtda boshqaruv hujjatlarini tasniflashning barcha e'tirof etgan tizimi mavjud emas. Tegishli huquqiy-normativ hujjatlarda **boshqaruv hujjatlarining boshqa guruhlari** – tashkiliy (nizomlar, ustavlar), instruktiv (buyruqlar, yo'riqnomalar), ma'lumot beruvchi (dalolatnoma, bayonnoma), operativ (xizmat xatlari, yozuvlar) kabi turlari ham mavjud.

**Tezkor qidiruv hujjatlari** ichki ishlar organlarining tezkor qidiruv faoliyatini aks ettiradi. Bunday hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi va ular bilan ishlash qoidalari O'zbekiston Respublikasi IIVning idoraviy normativ hujjatlari bilan belgilanadi.

**Jinoyat-protsessual hujjatlar** (tergov harakatlarining bayonnomalari, qarorlar va boshqalar) jinoyat ishlarini tergov qilish borasida amalga oshiriladigan

<sup>114</sup> J.Muxtorov "Ichki ishlar organlarida ish yuritishni tashkillashtirish". O'quv qo'llanma 2021-yil.

harakatlarni aks ettiradi. Ularning mazmuni va shakliga qo'yiladigan talablarning ko'p jihatlari jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida belgilangan.

**Ma'muriy protsessual hujjatlar** (ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi bayonnomalar, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarga doir qarorlar, nazorat-litsenziya tizimi ob'ektlarini tekshirish dalolatnomalari)da ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash borasidagi ma'muriy faoliyati o'z aksini topadi. Ushbu hujjatlarning ko'pchiligiga (*mazmuni va rekvizitlariga*) qo'yiladigan talablar ma'muriy-protsessual qonun hujjatlarida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi IIVning idoraviy normativ hujjatlarida belgilangan<sup>115</sup>.

Barcha hujjatlar, yuzaga kelgan joyi va harakat yo'nalishi bo'yicha chiqish, kirish hujjatlari va ichki hujjatlarga bo'linadi:

Ichki ishlar organlari va boshqa organlar, tashkilotlar yoki fuqarolarga jo'natadigan hujjatlar *chiqish hujjatlari* deyiladi.

Boshqa organlar (tashkilotlar, muassasalar) yoki fuqarolardan keladigan hujjatlar *kirish hujjatlari* deb ataladi.

Ichki ishlar organlarida yaratilgan va jo'natish uchun mo'ljallanmagan hujjatlar *ichki hujjatlar* deb nomlanadi<sup>116</sup>.

Hujjatlarda aks ettiriladigan masalalarning soni bo'yicha **oddiy** va **murakkab** hujjatlarga ajratiladi.

Bitta masala bo'yicha tuzilgan hujjat oddiy hujjat hisoblanadi. Agar hujjatda ikki yoki undan ortiq masalalarga oid axborot mavjud bo'lsa murakkab hujjat hisoblanadi. Boshqa sharoitlari teng bo'lganda, oddiy hujjatlarni tuzishga harakat qilish lozim, chunki bu keyinchalik ular bilan ishlashni osonlashtiradi.

Bitta hujjatda bir qancha masalalarni aks ettirish bunday hujjatni turli xodimlar ijro etishini talab qilishi mumkin. Ushbu holatda hujjat bir ijrochidan boshqasiga ko'p bora beriladi, bu esa oxir-oqibatda uning ijrosini sekinlashtiradi. Murakkab hujjatlarning o'tishini tezlashtirish uchun ko'p hollarda ularni ko'paytirish, ulardan ko'chirmalar olish zarurati yuzaga keladi. Bu esa hujjatlar aylanishini qiyinlashtiradi.

Hujjatni tuzish va imzolashda manfaatdor shaxslarning ishtiroki bo'yicha bir tomonlama va ikki tomonlama (ko'p tomonlama) hujjatlar farqlanadi.

Bir tomonlama hujjat bir shaxs (bir taraf - organ yoki mansabdor shaxs) nomidan tuziladi. Bildirgi, ma'lumotnoma, jinoyat ishini qo'zgatish, ma'muriy jazo qo'llash haqidagi qarorlar, xodimni lavozimga tayinlash haqidagi buyruq va ichki ishlar organlarida tuziladigan boshqa ko'plab hujjatlar bir tomonlama hujjatlar hisoblanadi.

Tuzish va imzolashda ikki yoki undan ortiq manfaatdor tomonlarning vakillari ishtirok etadigan hujjatlar ikki tomonlama hujjatlar deb ataladi. Masalan, ichki ishlar organlarining bir xodimi boshqasidan qandaydir hujjatlarni, materiallarni qabul qilishi haqidagi dalolatnoma ushbu materiallarni topshiruvchi

<sup>115</sup> J.Muxtorov "Ichki ishlar organlarida ish yuritishni tashkillashtirish". O'quv qo'llanma 2021-yil.

<sup>116</sup> O'zbekiston Respublikasi IIVning 2005-yil 8-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi IIV tizimida ish yuritishni tashkillashtirish va olib borish haqida"gi 10-sonli buyrug'i.

va qabul qiluvchi shaxslar tomonidan tuziladi va tegishli tartibda imzolanadi. Nazorat-litsenziya tizimi ob'ektlarini tekshirish haqidagi dalolatnomani ichki ishlar organlarining yoki ma'muriy ob'ektning vakillaridan iborat komissiya a'zolari tuzadi va manfaatdor tomonlar (tashkilotlar, fuqarolar) ishtirokida imzolanadi.

Hujjatlardagi axborotning maxfiylik darajasiga ko'ra, hujjatlar o'ta muhim, mutlaqo maxfiy, maxfiy, xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan va maxfiy bo'lmagan (ochiq) hujjatlarga bo'linadi.

Maxfiylashtirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlarga ega (o'ta muhim, mutlaqo maxfiy, maxfiy) va ochiq e'lon qilinishi mo'ljallanmagan (xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan) hujjatlar maxsus normativ hujjatlar bilan belgilanadi<sup>117</sup>.

Hujjatlarni tasniflashga, yuqorida keltirilganlardan tashqari, boshqa yondashuvlar ham mavjud:

- saqlanish muddati bo'yicha (bir yil, uch yil, besh yil va uzoq muddatli);
- axborotni aks ettirish texnikasi bo'yicha (qo'lyozma, mashinada yozilgan hujjatlar, kinohujjatlar, fotohujjatlar) va boshqalar.

Hujjatlarning rasmiy hujjatlar, asl hujjatlar va nusxa hujjatlar kabi turlariga bo'linishi ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatining xususiyati bilan bog'liq. Ayrim yuridik masalalarning hal qilinishi faqat rasmiy yoki asl hujjatda mavjud bo'lgan axborotga asoslanishi mumkin, boshqa masalalarni hal qilish uchun esa hujjatning nusxasini o'rganish yetarli bo'ladi. Jumladan:

**Rasmiy hujjat** – tashkilot yoki mansabdor shaxs tuzgan va belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hujjat.

**Rasmiy hujjatning asl nusxasi** – ushbu hujjatning birinchi yoki yagona nusxasi.

**Asl hujjat** – hujjatning o'zida bo'lgan yoki qandaydir yo'l bilan aniqlangan uning qachon va qayerda tuzilganligi yoki kim tuzganligi haqidagi ma'lumot voqelikka mos keladigan hujjat.

**Hujjatning nusxasi** – boshqa hujjatdagi axborotni va uning barcha yoki bir qism tashqi belgilarini aks ettiradigan hujjat.

**Hujjatlar nusxalarining quyidagi turlari ajratiladi:**

**faksimile nusxa** - asl nusxani istenosiz barcha xususiyatlarini aks ettiruvchi nusxasi (asl hujjatning fotonusxasi, kserokopiyasi);

**erkin nusxa** - asl nusxadagi hujjatning barcha axboroti o'z aksini topadi, ammo shakli unga mos kelmaydi. Erkin nusxa asl nusxaning shaklini emas, mazmuninigina aks ettiradi;

**ko'chirma nusxa** - hujjatning bir qismini to'liq aks ettiruvchi va belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (masalan, xizmat majlisi bayonnomasidan ko'chirma, mehnat daftarchasidan ko'chirma);

**dublikat** - yo'qotilgan yoki shikast yetgan asl nusxa o'rniga tuziladigan va asl nusxa bilan bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan nusxa. Dublikat mazmuni

---

<sup>117</sup> O'zbekiston Respublikasi IIVning 2005-yil 8-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi IIV tizimida ish yuritishni tashkillashtirish va olib borish haqida"gi 10-sonli buyrug'i.

va shakli bilan hujjatning asl nusxasidan farq qilmaydi. Hujjatning bunday nusxalarida “dublikat” deb yozib qo‘yiladi<sup>118</sup>.

Ichki ishlar organlaridagi ish yurituvda tuziladigan hujjatlarni tasniflash orqali kasbiy faoliyatimizda zarur bo‘lgan maxsus bilimlarni puxta egallashimiz lozim.

O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarining boshqaruv faoliyatida quyidagi xizmat hujjatlari qo‘llaniladi, yani buyruq, farmoyish, ko‘rsatma, nizom, qo‘llanma, yo‘riqnoma, qoida, reja, hisobot, ma‘ruza, bayonnoma, dalolatnoma, telegramma, xizmatga oid xat, ma‘lumotnoma, xabarnoma, vakolatnoma, bildirgi kabi xizmat hujjatlari qo‘llaniladi. Xususan:

**Buyruq** - Ichki ishlar vazirining (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, Toshkent shahar IIBB, viloyatlar va Transportdagi IIBlar boshliqlarining) yakka hokimligiga asoslangan huquqiy hujjat bo‘lib, muayyan muassasa oldida turgan asosiy va kundalik vazifalarni hal qilish maqsadida qo‘llaniladi.

**Farmoyish, ko‘rsatma** - Ichki ishlar vazirining o‘rinbosarlari (hududiy ichki ishlar organlari boshliqlarini o‘rinbosarlari), shuningdek IIV, IIB, IIBB va TIIB sohaviy xizmatlari boshliqlari tomonidan xizmat sohasiga oid masalalar bo‘yicha ishlab chiqiladigan hamda yuqori turuvchi rahbariyatning me‘yoriy hujjatlariga qarama-qarshi bo‘lmaydigan boshqaruv xizmat hujjati hisoblanadi.

**Nizom** - ichki ishlar organini tashkil etilishi va faoliyatining asosiy qoidalari o‘rnatilgan me‘yoriy-huquqiy hujjat hisoblanadi.

**Qo‘llanma, yo‘riqnoma, qoida** - ichki ishlar organlari va mansabdor shaxslar faoliyatining tashkiliy, ilmiy-texnik, xo‘jalik, moliyaviy va boshqa tomonlarini belgilab beruvchi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar hisoblanib, nizom, qo‘llanma, yo‘riqnoma va qoidalar odatga ko‘ra, tegishli mansabdor shaxslarning buyruqlari bilan amalda harakatga kiritiladi.

**Reja** - ish yoki tadbirlarning bajarilishiga mo‘ljallangan ro‘yxat bo‘lib, ularning ijro etilish muddatlari, ijro etuvchilari va ijro etilish nazoratini amalga oshiruvchilari ko‘rsatiladi.

**Hisobot, ma‘ruza** - yuqori turuvchi boshliqqa taqdim etiluvchi rejalar, topshiriqlarning bajarilishi, tadbirlarning o‘tkazilishi haqidagi va boshqa ma‘lumotlar.

**Bayonnoma** - turli yig‘ilish, kengash va boshqa turli anjumanlarning borishini, majlis qatnashchilarining chiqishlarini va ular qabul qilgan qarorlarni qisqa, aniq holda qayd qiluvchi rasmiy hujjat.

**Dalolatnoma** - o‘rnatilgan holatlar va voqea hodisalarni tasdiqlaydi, bir necha shaxslar ishtirokida tuziladi va mansabdor shaxs tomonidan vakolat doirasida tasdiqlanadi.

**Telegramma** - topshiriq va xabarni uzatish, yetkazish uchun mo‘ljallangan xizmat hujjati.

**Xizmatga oid xat** - mazmuni bo‘yicha turlicha bo‘lgan boshqa xizmat hujjatlarining umumlashgan nomi.

---

<sup>118</sup> O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2005-yil 8-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi IIV tizimida ish yuritishni tashkillashtirish va olib borish haqida”gi 10-sonli buyrug‘i.

**Ma'lumotnoma** - turli ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi, axborot tariqasidagi xizmat hujjati bo'lib, ehtiyoj tug'ilganda raqamli materiallar hamda rasmiy ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi mumkin.

**Xabarnoma** - yuqori turuvchi idoralarning buyruqlari va ko'rsatmalarini quyi tizimlar tomonidan bajarilishi bayon etiluvchi hujjat.

**Vakolatnoma** - u yoki bu shaxs tomonidan unda bayon etilgan rahbarning topshirig'ini bajarishi majburiyligi yoki bajarish mas'uliyatini olganligini tasdiqlovchi hujjat.

**Bildirgi** - xizmat doirasidagi yoki shaxsiy tafsilotga ega bo'lgan masalalar bayon etiladigan hujjat hisbolanadi<sup>119</sup>.



### Savol va topshiriqlar:

1. Ish yuritish tushunchasi va ichki ishlar organlarida ish yuritishning ahamiyati to'g'risida gapirib bering.
2. Ichki ishlar organlarida ish yuritishning huquqiy asoslari deganda nimani tushunasiz?
3. Ichki ishlar organlarida ish yuritishni o'rganishda xodimlar qanday bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim?
4. Ichki ishlar organlarida ish yuritish deganda nimani tushunasiz?

## 2-§. Xizmat hujjatlarining tuzishga qo'yiladigan talablar

Xizmat faoliyatini xizmat hujjatlarida hujjatlashtirish quyidagi bosqichlardan iborat:

- o'rganib chiqish;
- loyihasini tuzish;
- xomakisini tayyorlash;
- rasmiylashtirish.

Xizmat hujjati tuzishda ishni dastlab, tartibga solinishi ko'zda tutilayotgan masalaning mohiyatini, ushbu masala bo'yicha amaldagi qonunchilik buyruqlar, ko'rsatmalar va ma'lumotnoma materiallarni o'rganib chiqishdan boshlanishi lozim. Shundan so'ng hujjat loyihalashtiriladi.

Xizmat hujjatlarining xomaki loyihalari alohida qog'oz varaqalarida yoki hisoblash texnikasi vositalarida tayyorlanadi va vakolatli sub'ekt nazorati va tasdig'idan so'ng rasmiylashtiriladi.

Ichki ishlar organlarining boshqaruv faoliyatida tuziladigan xizmat hujjatlariga qo'yilgan talablar majmuini quyidagilarga ajratish mumkin:

- umumiy talablar;
- yuridik talablar;
- axborot madaniyatiga qo'yilgan talablar;

<sup>119</sup> J.Muxtorov "Ichki ishlar organlarida ish yuritishni tashkillashtirish". O'quv qo'llanma 2021-yil.

- hujjatlarni tayyorlash, rasmiylashtirish, qayta ishlash tezkorligiga qo'yilgan talablar;

- hujjat blankalarga qo'yilgan talablar;

- hujjatlarning matnlariga qo'yilgan talablar;

- bosma qurilmalar yordamida tayyorlanadigan hujjatlarga qo'yiladigan talablar.

Ichki ishlar organlarida yaratiladigan turli xil xizmat hujjatlarini ham vazifasi, ham mazmuni bo'yicha tuzish va rasmiylashtirish ish yuritish amaliyotida ishlab chiqilgan ayrim umumiy talablarga (qoidalarga) bo'ysunadi. Bu talablar hujjatlar matnining har xil qismlari mazmuniga, qog'oz sifati va o'lchamiga taalluqlidir.

Xizmat hujjatlarini tayyorlash va ro'yxatga olishda hujjatlarning qonuniyligi va imkon qadar maqsadga muvofiqligini ta'minlovchi, ularning tezkor ijro etilishiga imkon beruvchi qoidalarga rioya etilishi lozim.

Xizmat hujjati qo'yidagi umumiy talablarga javob berishi lozim:

- amaldagi qonunchilikka, buyruq, ko'rsatma va boshqa yuqori turuvchi boshliqlarning boshqaruv hujjatlariga mos kelishi;

- avvalgi chiqarilgan hujjatlarda mavjud bo'lgan talablarning qaytarilmasligi, zaruriyat bo'lganda ulardagi ilovaga tayanishi;

- ilgari chiqarilgan hujjatlarda o'rnatilgan me'yor va qoidalarga o'zgartirishlar kiritilishi;

- qisqa, aniq, lo'nda bo'lib, turli xil talqin qilishlarni keltirib chiqaruvchi jumladan foydalanilmagan holda tayyorlanishi;

- tegishli shaklda tayyorlanishi, yani hujjatning nomlanishi (buyruq, farmoyish), hujjatning sarlavhasi (xizmatga oid xatlar bundan mustasno), mazmunining bayoni, hujjatning tasdiqlanishi (imzo, muhr bosilishi), sana, hujjat yuboriladigin manzilning ko'rsatilishi (zarurat bo'lganda) lozim.

Xizmat hujjati barcha umum qabul qilingan grammatik qoidalarga rioya etilgan holda, qisqa va aniq, xizmat sohasi doirasidagi rasmiy uslubda yoziladi.

Qo'llanilayotgan atamalar O'zbekiston Respublikasining ichki ishlar organlarida qabul qilingan atamashunoslik qoidalariga mos kelishi va bir xil ma'noda qo'llanilishi lozim. Ilgari qo'llanilmagan yangi tushunchalar va terminlar kiritilishi zaruriyati tug'ilganda, bu haqida ushbu xizmat hujjatining matnida yotiladi va yangi terminga ta'rif (tushuncha) beriladi.

Ichki ishlar orgalarining hujjatlariga qo'yiladigan yuridik talablarga rioya etilishi hujjatning yuridik kuchini, ya'ni hujjatdagi ma'lumotlarning qonunga asoslangan shubhasizligi, obro'liligi, ishonchliligi, binobarin, hujjatning muayyan toifadagi shaxslar uchun majburiyligini ta'minlaydi. Vakolatli sub'ektdan kelib chiquvchi va uning vakolatiga qat'iy mos keluvchi hujjat yuridik kuchga ega bo'ladi. Masalan, huquqbuzarlik holatlarini inobatga olgan holda va qonunda belgilangan shakllarga rioya etgan holda chiqarilgan ma'muriy jazo berish haqidagi qaror bunday hujjatni chiqarish uchun tegishli ma'muriy-yuridik

vakolatlarga ega bo'lgan mansabdor shaxsdan kelib chiqqan taqdirda, yuridik kuchga ega bo'ladi<sup>120</sup>.

Bundan tashqari, hujjatning yuridik kuchi uni tayyorlash, qabul qilish va tasdiqlashning belgilangan tartibiga rioya etish orqali ta'minlanadi. Masalan, ichki ishlar organlarining ayrim hujjatlarini yo'q qilish to'g'risidagi dalolatnomani maxsus tayinlangan ekspert komissiyasi tayyorlagan, uning a'zolari, ichki ishlar organining rahbari imzolagan va yuqori turuvchi organing boshlig'i tasdiqlagan bo'lishi kerak.

Shuningdek, hujjatlarning yuridik kuchini ta'minlaydigan qoidalardan tashqari, ularni tuzishning huquqiy madaniyatini ta'minlovchi qoidalarni ham kiritish lozim. Ular, avvalo, hujjatlarda turli terminlarning yuridik nuqtai nazardan to'g'ri qo'llanilishiga taalluqlidir. "olib kelish", "ushlab turish", "hibsga olish", "tintuv o'tkazish", "ko'zdan kechirish" kabi sof yuridik terminlar hujjatlarni tuzishda har doim ham to'g'ri ishlatilmaydi. Ushbu terminlarning har biri qonunda qat'iy belgilangan ma'muriy-protsessual yoki jinoyat-protsessual harakatni bildiradi. Ushbu terminlarning ishlatilishi hujjatlarda qayd etiladigan protsessual harakatlar nomlarining yuridik tabiatiga mos kelishi kerak. "Cho'ntak o'g'riliklari", "xonadon o'g'riliklari", "davlat miqyosidagi o'g'riliklar" kabi iboralar ishlatilgan hujjatlarni huquqiy madaniyat nuqtai nazaridan xato bo'lgan hujjatlar deb hisoblash lozim.

Hujjatlarni tuzishning huquqiy madaniyati talabi ularni tuzishda bir qator hollarda bunga asos bo'lgan hujjatga havola qilish zarurligini bildiradi. Masalan, tashkilot rahbariga ushbu tashkilot xodimlari ma'muriy nojo'ya harakatlar sodir etganligi haqida xabar beruvchi va ularga nisbatan tarbiyaviy xususiyatga ega bo'lgan choralar ko'rishni taklif etuvchi xizmat xati tuzishda, bu taklif O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 312-moddasiga muvofiq yuborilayotganligini ta'kidlash zarur. Ushbu qoidaning bajarilishi nafaqat hujjat tuzish huquqiy madaniyatining darajasini aks ettiradi, balki uni tayyorlash bosqichida tuzilayotgan hujjatning qonunga (boshqa huquqiy hujjatlarga) muvofiqligi tekshirilishini ta'minlaydi, hujjatni ijro etish bosqichida esa ijrochida unda berilgan taklifni bajarishga mas'uliyatliroq munosabatni shakllantiradi.

Ichki ishlar organlari boshqaruv faoliyatida axborot-tahlil hujjatlarini tuzilishida quyidagilarga ahamiyat berishimiz lozim:

Ichki ishlar organlarida ishlab chiqilayotgan xizmat hujjatlari qat'iy belgilangan qoidalarga ega bo'lishi lozim, ularsiz ushbu hujjatlar to'liq deb hisoblanmaydi. Ko'pgina hollarda ichki ishlar organlari ish yurituvdagi hujjatlarning belgisi ularda mavjud axborotni ahamiyatlilik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Operativ ma'lumotlarni o'zida olib yuruvchi xizmat hujjatlari to'rt toifaga bo'linadi:

- o'ta muhim;
- mutlaqo maxfiy;

---

<sup>120</sup> Ichki ishlar idoralarida boshqaruvni tashkil etish: Ma'ruzalar kursi / D.S. Muxamadaliyev, J.S. Muxtorov, B.A. Saidov va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013-y.

- maxfiy;
- “xizmatda foydalanish uchun” kabi hujjatlar hisoblanadi<sup>121</sup>.

Operativ ma'lumotlarni o'zida olib yuruvchi xizmat hujjat (xat)lari quyidagi elementlarga ega bo'lishi lozim:

- ✓ maxfiylik belgisi (grifi);
- ✓ nusxa soni;
- ✓ zaruriyat tug'ilganda “shaxsan” yoki “shaxsan ochilsin” yozuvi;
- ✓ qaysi kirish raqami bajarilayotganligi;
- ✓ hujjat ishlab chiqilgan idoraning nomi va joylashuv manzili;
- ✓ imzo qo'yilgan sana va ro'yxat nomeri;
- ✓ hujjat jo'natilayotgan muassasaning nomi va joylashuv manzili;
- ✓ javob berilayotgan hujjatning raqami va sanasi;
- ✓ hujjatning mazmuni (matni);
- ✓ hujjatga ilova (agar mavjud bo'lsa);
- ✓ imzo, ijrochilar va hujjat loyihasi kelishilgan boshqa xodimlarning

imzolari;

- ✓ bosilgan nusxalarning soni va kimga jo'natilishi (jo'natish hisobi);
- ✓ ijrochining familiyasi (bir xil familiyadagi ijrochilar bo'lsa, ismi sharifi);
- ✓ jurnali bo'yicha hisob raqami (sertifikatlangan kompyuter raqami);
- ✓ maxfiylik belgisi;
- ✓ maxsus bloknot yoki varaq raqamlarini kiritish mumkin.

Barcha ko'rsatib o'tilgan elementlar nomaxfiy hujjatlar uchun ham tegishli hisoblanadi. Xizmatga oid xatlar qisqa va aniq bo'lib, odatda ikki varaqdan oshmasligi lozim.

Axborot-tahlil hujjatining umumiy tuzilishi quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

- nomlanishi;
- kirish qismi;
- asosiy qism;
- yakunlovchi qism (xulosa)<sup>122</sup>.

Ish yuritish holatini buzganlik uchun quyidagi javobgarlik<sup>123</sup> turlari yuzaga keladi:

- jinoiy huquqiy;
- intizomiy.

**Jinoiy-huquqiy** javobgarlik jinoyat kodeksining quyidagi moddalarida belgilangan:

241<sup>1</sup>-modda. Jinoyatni hisobga olishdan qasddan yashirish.

Jinoyatlar to'g'risidagi arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish yoki ko'rib chiqish xizmat vazifalariga kiradigan mansabdor shaxsning jinoyatni hisobga olishdan qasddan yashirishi — ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki muayyan huquqdan mahrum qilib, uch

<sup>121</sup> J.Muxtorov “Ichki ishlar organlarida ish yuritishni tashkillashtirish”. O'quv qo'llanma 2021-yil.

<sup>122</sup> J.Muxtorov “Ichki ishlar organlarida ish yuritishni tashkillashtirish”. O'quv qo'llanma 2021-y.

<sup>123</sup> O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 2023-yil.

yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha qilmish:

a) takroran sodir etilgan bo'lsa;

b) bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan bo'lsa;

v) og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa — muayyan huquqdan mahrum qilib, besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

162-modda. Davlat sirlarini oshkor qilish.

Davlat sirlarini oshkor qilish yoki o'z gaga berish, ya'ni davlat siri, harbiy sir yoki xizmat siri hisoblangan ma'lumotlarning, bu ma'lumotlar ishonib topshirilgan yoki xizmati, kasb faoliyati yuzasidan ulardan xabardor bo'lgan shaxs tomonidan oshkor qilinishi, basharti, bu qilmishda davlatga xoinlik alomatlarini bo'lmasa, — uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lsa — besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

163-modda. Davlat siri yoki harbiy sir hisoblangan hujjatlarni yo'qotish.

Hujjatlarning, shuningdek ashyo yoki moddalarning, agar ular haqidagi ma'lumot davlat siri yoki harbiy sirni ifodalasa, xizmat yoki kasb faoliyati yuzasidan ishonib topshirilgan shaxs tomonidan yo'qotilishi, basharti, bu yo'qotish ana shu hujjatlar, ashyo yoki moddalar bilan muomalada bo'lish qoidalarini buzish natijasida ro'y bergan bo'lsa — bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lsa — uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi<sup>124</sup>.

Ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarida hujjatlarini yuritish va saqlash bilan bog'liq *ish yuritish holatlarini buzganlik uchun intizomiy tartibda xodimlar javobgarlikka tortiladilar*<sup>125</sup>.

Jumladan, intizomiy javobgarlik turlari:

- ogohlantirish;

- tanbeh;

- xayfsan;

- qattiq xayfsan;

- maxsus unvonidan bir pog'ona pasaytirish;

- egallab turgan lavozimiga noloyiqligi;

- egallab turgan lavozimidan ozod qilish;

- ichki ishlar organlaridan bo'shatishgacha bo'lgan jazolarni kiritishimiz mumkin.

Ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarida hujjatlarni saqlash ham muhim jarayon hisoblanib, idoraviy arxivga ijro qilingan hujjatlar, murojaatlar, nazorat ishlari va ro'yxatdan o'tkazish kitoblari hamda boshqa hujjatlar topshiriladi.

<sup>124</sup> O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 2023-yil.

<sup>125</sup> O'zbekiston Respublikasi IIVning 2005-yil 8-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi IIV tizimida ish yuritishni tashkillashtirish va olib borish haqida"gi 10-sonli buyrug'i.

Hujjatlarni idoraviy arxivga topshirishdan oldin birma-bir tekshirilib, saralanadi va tartib bilan topshiriladi.

Shuningdek, hujjatlar idoraviy arxivga topshirish uchun tayyor bo‘lganidan so‘ng ularning ro‘yxati tuziladi. Qabul qilish – topshirishni amalga oshiruvchi xodimlar tomonidan ro‘yxatning barcha nusxalariga hujjatlarning soni, qabul qilish sanasi va familiyalari ko‘rsatilib, imzo qo‘yilishi kerak.

Hujjatlar ro‘yxatining birinchi nusxasi arxivda qoladi, ikkinchisi esa mas’ul xodimga qaytarilishi shart. Arxivdan olingan hujjatlarga biror-bir belgi qo‘yish yoki yozuvlar kiritish taqiqlanadi. Arxivdan olingan hujjatlar, zarurat tugashi bilanoq, 15 kundan kechiktirmasdan arxivga qaytarilishi kerak. Aynan, IIV tizimida hujjatlarni yuritish muhim va mas’uliyatli jarayon hisoblanadi.



### Savol va topshiriqlar:

1. Ichki ishlar organlarida ish yuritishning turlari va vazifalari nimalardan iborat?
2. IIV tizimida ish yuritishga tegishli qanday qonun va qonun osti hujjatlarni bilasiz?
3. Ichki ishlar organlari faoliyatida “hujjat” tushunchasi, vazifasi va uning ahamiyati deganda nimani tushunasiz?

### 3-§. Xizmat hujjatlarini rasmiylashtirish tartibi

Hujjatlarni tuzganda, ular tuzilganidan so‘ng odatda qayd etilishini, qayergadir jo‘natilishini, ular olingan joyda qayta ishlanishini va hujjatlar aylanishi jarayonining boshqa bosqichlaridan o‘tishini inobatga olish lozim. Ushbu bosqichlarning o‘tish vaqti, hujjatlarni tayyorlash va qayta ishlash uchun kuch sarfi ko‘p jihatdan hujjat tuzuvchilarning hujjatlarni tuzishga qo‘yiladigan muayyan qoidalarga rioya etishlariga bog‘liq. Ular tuzgan ushbu hujjatlar bilan ko‘plab xodimlar (kompyuter operatori, kotib, ish yurituvchi va boshqalar) ishlashini inobatga olishlari lozim. Buning ustiga ularning har biriga hujjatda mavjud bo‘lgan har xil axborot talab etiladi. Masalan, ichki ishlar organining hujjatni yuboruvchi kotibiga hujjat kimga yuborilayotganligi, u nima haqida ekanligi, ijrochisi kim ekanligi haqida axborot zarur.

Hujjatni olgan organning kotibi uchun, hujjatning bundan keyingi harakat yo‘nalishini to‘g‘ri belgilashi uchun, qanday hujjat kelib tushganligi, uning qisqacha mazmunini bilish zarur. Ichki ishlar organining rahbariga hujjatda yoritilgan masalalarning nomi va xususiyatini, hujjatning kimdan kelganligini bilish zarur. Faqat bevosita ijrochigagina hujjatda mavjud bo‘lgan barcha ma’lumotlar talab qilinadi.

Har bir hujjatda operativ va statistik axborot bo‘ladi. Operativ axborot hujjatning mazmunini aks ettiradi va uning matn qismida joylashtiriladi. Bunday axborot, avvalo, muayyan mansabdor shaxsga hujjatning ijrochisiga mo‘ljallangan bo‘ladi. Statistik axborot hujjatning, adresatning nomi, u tuzilgan joy va vaqt haqidagi ma’lumotlar hamda asosan ish yuritish bo‘linmalarining xodimlari uchun mo‘ljallangan boshqa ma’lumotlar – hujjatning rekvizitlarida beriladi.

Rekvizitlarning to‘g‘ri yoritilishi hujjatlarning tez, eng kam kuch sarflab tayyorlanishi, rasmiylashtirilishi va qayta ishlanishiga yordam beradi.

Hujjatlar vazifasiga ko‘ra quyidagi asosiy rekvizitlarga ega bo‘lishi mumkin:

- yuqori turuvchi tashkilotning nomi;
- tashkilotning nomi;
- tarkibiy bo‘linmaning nomi;
- tashkilotning indeksi;
- pochta va telegraf adresi, telefon raqami;
- hujjatning nomi va sarlavhasi;
- chiqqan sanasi va joyi;
- adresat;
- kelishilganligi, tasdiqlanganligi, maxfiylik darajasi kabilarni ko‘rsatuvchi griflari;
- hujjatning tasdiqlanganligi, ilovasi bor-yo‘qligi haqidagi belgi;
- hujjatning ijro etilganligi haqidagi belgi.

Barcha rekvizitlar blankda (standart varaqda) joylashtiriladi. Hech bir hujjat rekvizitlarning to‘liq to‘plamiga ega bo‘lmasligini inobatga olish lozim. Har bir hujjat, nimaga mo‘ljallanganligidan kelib chiqib, u yoki bu rekvizitlar to‘plamiga ega bo‘ladi.

Hujjatning sarlavhasi – hujjat mazmunining qisqacha (1-2 qatorli) bayoni (“moddiy boyliklarni saqlashdagi kamchiliklar to‘g‘risida”, “tuman ichki ishlar bo‘limi xodimlarini rag‘batlantirish haqida” va boshqalar)dan iborat bo‘ladi.

Sarlavha hujjatning nomidan quyiroqda blank (varaq)ning chap tomonidagi yuqori qismida aks ettiriladi. A4 (standart varaq) o‘lchamidagi barcha hujjatlarning matni sarlavhaga ega bo‘lishi kerak. A5 (148x210 mm)<sup>126</sup> o‘lchamdagi hujjatlarnigina sarlavhasiz tuzishga ruxsat etiladi.

Hujjatning tasdiqlanishi quyidagi rekvizitlarni o‘z ichiga oladi: imzo, tasdiqlash, kelishish, kelishish grifi va muhr. Har qanday hujjatni tasdiqlashning majburiy usuli imzo hisoblanadi. “Imzo” rekvizitining tarkibiga hujjatni imzolagan shaxs lavozimining nomi (agar hujjat blankda tuzilmagan bo‘lsa – to‘liq, blankda tuzilgan hujjatda – qisqacha), shaxsiy imzo va uning ma’nosi kiradi.

Chiqish hujjatlarining ish jildda oladigan nusxalarida tasdiqlash sanasini va nusxani tasdiqlagan shaxsning lavozimini ko‘rsatmaslikka yo‘l qo‘yiladi.

Hujjatning ijro etilganligi va ish jildga qo‘shish uchun yuborilganligi haqidagi belgida quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

- agar hujjatning ijro etilganligidan dalolat beruvchi hujjat bo‘lmasa, ijro etilganligi haqida qisqacha ma‘lumot yoki bunday hujjat bo‘lsa, uning sanasi va soniga havola qilinadi;
- “Ish jildga” so‘zi;
- hujjat saqlanadigan ishjildning nomeri.

---

<sup>126</sup> O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2005-yil 8-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi IIV tizimida ish yuritishni tashkillashtirish va olib borish haqida”gi 10-sonli buyrug‘i.

Hujjatning ijro etilganligi va ishjildga yuborilganligi haqidagi yozuvni hujjat ijrochisi yoki hujjat tayyorlangan tarkibiy bo‘linmaning rahbari imzolashi va sanani yozib qo‘yishi kerak.

Shuningdek, xizmat hujjatlarining blanklariga qo‘yilgan talablarga ham amal qilishimiz lozim. Blanklarga qo‘yiladigan talablar hujjatni qayta ishlash, o‘rganish va keyinchalik saqlash uchun qulay bo‘ladigan qilib tayyorlashni taqozo etadi.

Hujjat blankida, yuqorida ta’kidlanganidek, rekvizitlar tarkibi bo‘lishi kerak. Blanklarning ikki turi belgilangan: xatlar uchun blank hamda tashkiliy hujjatlarning boshqa turlari uchun mo‘ljallangan umumiy blank. Agar muayyan turdagi hujjatlar yiliga 200 tadan ortiq tuziladigan bo‘lsa, ularning blanklarini tayyorlashga yo‘l qo‘yiladi<sup>127</sup>.

Blanklarning ikki o‘lchami belgilangan – A4 (210x297) va A5 (148x210).

Har bir turdagi blanklar rekvizitlarni burchak qilib yoki uzunasiga joylashtirib tayyorlanadi.

Hujjatlarning blanklarida sarlavha qismining rekvizitlari markazlashgan usulda (rekvizit har bir qatorining boshi va oxiri satr chegarasidan bir xil masofada) yoki bayroq usulida (rekvizitning har bir qatori satrning chap chegarasidan boshlab) joylashtiriladi.

Rekvizitlar burchak qilib joylashtirilgan blanklarda davlat gerbining tasviri blankning yuqori qismida tashkilot nomi aks ettirilgan qatorning o‘rtasi uzra, rekvizitlari uzunasiga joylashtirilgan blanklarda esa – yuqori qismining markazida joylashtiriladi. Tasvirning diametri 20mm. dan ortiq bo‘lmaydi.

Tashkilot, yuqori turuvchi organlarning, shuningdek tarkibiy bo‘linmaning nomi (to‘liq, qisqartirilgan nomi yoki uning bosh harflari) tegishli huquqiy hujjatlarda belgilangan nomlarga muvofiq bo‘lishi lozim. Tarkibiy bo‘linmaning nomini tipografiya usuli bilan bir qatorda, mashinkada yozishga ham yo‘l qo‘yiladi. Tashkilotning emblemasi sifatida belgilangan tartibda qayd etilgan xizmat belgisidan foydalanilishi kerak. Emblemaning tasviri tashkilot nomining qatorida joylashtirilishi lozim.

Xatlarning blanklarida quyidagi rekvizitlar ko‘rsatiladi: “Aloqa korxonasining indeksi, pochta va telegraf manzili, teletayp (abonent telegrafi)ning nomeri, telefon raqami, bankdagi hisobvaraqa nomeri”, “Sana”, “Indeks”, “Kirish hujjatining indeksi va kirish sanasi”.

Umumiy blanklarda esa quyidagi rekvizitlar ko‘rsatiladi: “sana”, “indeks”, “hujjat tuzilgan yoki chop etilgan joy”.

Hujjatlarning blanklarini oq yoki och tusdagi qog‘ozda operativ poligrafiya (matbaa) vositalari yordamida hujjatlarni ko‘paytirishga imkon beruvchi to‘q rangli bo‘yoqlarda bosib chiqarish lozim. Bunda matnning trafaret qismlari blanklarida mashina yozuvi kiritiladigan yonma-yon qatorlarning asoslari yozuv mashinkasining oraliq intervaliga karrali masofada joylashishi kerak. Hoshiya va ayrim rekvizitlar uchun cheklovchi belgilar blankka burchaklar yoki boshqa belgilar tarzida tushiriladi. Blanklarga falsovka qilish va qog‘oz teshgich bilan teshiklar ochish uchun belgilar qo‘yishga yo‘l qo‘yiladi.

<sup>127</sup> <https://drive.google.com/> (Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo‘llanma 2020-yil).

Hujjat bir necha tilda tuziladigan bo'lsa, blank rekvizitlari ushbu tillarda takrorlanishi kerak.

Xizmat hujjatlarining matnlariga qo'yiladigan talablar ularni anketalar, jadvallar, yaxlit matn ko'rinishlarida, shuningdek ushbu shakllarning birlashmasi ko'rinishida rasmiylashtirishni taqozo etadi.

Matn anketa ko'rinishida tuzilganida belgilarning nomlari bosh kelishikdagi ot orqali yoki ikkinchi shaxs ko'plikdagi hozirgi yoxud o'tgan zamon fe'llarida ifodalangan so'z birikmalari ("bo'lgansiz", "bilasiz", "egasiz") orqali aks ettirilishi kerak. So'zlarda ifodalangan xususiyatlar belgilarning nomlariga grammatik jihatdan mos kelishi zarur.

Jadvalning ustunlari va qatorlari nomlangan bo'lishi lozim. Ushbu nomlar bosh kelishikdagi ot bilan ifodalanishi, ustunlar va qatorlardagi kichik sarlavhalar katta sarlavhalar bilan grammatik aloqadorlikda bo'lishi zarur. Agar jadvallar bir sahifadan ortiq joy egallasa, jadval ustunlari raqamlab chiqilishi va keyingi betlarda faqat ustunlarning raqamlari ko'rsatilishi kerak. Agar uzluksiz bog'lanishli matn bir qancha qarorlar, xulosalar kabilarga ega bo'lsa, uni bo'limlar, bo'linmalar, bandlarga bo'lish va arab raqamlari bilan belgilash kerak.

Yakka boshchilik prinsiplari asosida faoliyat ko'rsatuvchi tashkilotlarning boshqaruvga oid hujjatlarida, shuningdek rahbariyatga qaratilgan hujjatlarda matn birinchi shaxs birlik shaklida bayon etilishi kerak ("buyuraman", "taklif qilaman", "so'rayman"). Kollegial (birgalikda boshqariladigan) organlarning boshqaruvga oid hujjatlarida matn uchinchi shaxs birlikda bayon qilinadi ("qaror qildi"). Ikki organ birgalikda qabul qilgan boshqaruv hujjatlarida matn birinchi shaxs ko'plikda bayon qilinadi ("buyuramiz", "qaror qildik"). Bayonnoma matni uchinchi shaxs ko'plikda yoki fe'lning majhul nisbatida ifodalanadi ("so'zga chiqdilar", "tinglandi", "qaror qilindi").

Xatlarda bayon etishning quyidagi shakllaridan foydalaniladi:

- birinchi shaxs ko'plikda ("jo'natishingizni so'raymiz", "ko'rib chiqish uchun jo'natayapmiz");
- birinchi shaxs birlikda ("...zarur deb hisoblayman", "ajratishingizni so'rayman")<sup>128</sup>;
- uchinchi shaxs birlikda ("O'zbekiston Respublikasi IIV ... e'tiroz bildirmaydi", "O'zbekiston Respublikasi IIV ... mumkin deb hisoblaydi").

Shuningdek, bosma qurilmalar yordamida tayyorlanadigan hujjatlarga ham belgilangan tartibda ma'lum bir talablar qo'yiladi.

A4 formatdagi blanklarda hujjat matni bir yarim oralig'da, A5 formatdagi blanklarda – bir oralig'da bosiladi. Tipografiya orqali nashr etish uchun tayyorlanayotgan hujjatlarning matnini ikki oraliqda bosishga yo'l qo'yiladi. Bir necha qatordan iborat rekvizitlar (matndan tashqari) bir oraliqda bosiladi. "Adresat", "Tasdiqlash grifi", "Ilova mavjudligi haqida belgi", "Kelishuv grifi" kabi rekvizitlarning tarkibiy qismlari bir-biridan 1,5-2 qator oraliqdagi intervalda joylashtiriladi.

<sup>128</sup> <https://drive.google.com/> (Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo'llanma 2020-yil).

Hujjatning rekvizitlari bir-birlaridan 2-3 qator oraliqdagi intervalda joylashtiriladi. Hujjat turining nomi bosh harflarda bosiladi. “Imzo” rekvizitida imzoning ma’nosi lavozimning nomi ifodalangan oxirgi qatorning to‘g‘risida ism-sharifning bosh harflari bilan familiya o‘rtasida joy qoldirmasdan bosiladi.

Ko‘p qatorli rekvizitlarning qatoridagi belgilar soni 28 tadan oshmasligi kerak. Matn sarlavhasidagi belgilar soni 150 ta belgidan (5 qatordan) ortiq bo‘lsa, sarlavhani o‘ng hoshiya chegarasigacha joylashtirishga yo‘l qo‘yiladi. Sarlavha oxiriga nuqta qo‘yilmaydi.

Hujjatlarni bosmadan chiqarishda tabulyatorning 8 ta standart holatidan foydalaniladi:

- chap hoshiya chegarasidan “matn sarlavhasi”, “matn” (abzassiz), “Ilova mavjudligi haqida belgi”, “Ijrochining familiyasi va telefon raqami”, “hujjatning ijro etilganligi va ishjildga qo‘shish uchun jo‘natilganligi haqidagi belgi” rekvizitlarini, “Imzo” va “Kelishuv grifi” rekvizitlaridagi, shuningdek “Asliga to‘g‘ri” yozuvidagilavozimning nomini hamda “TINGLANDI”, “SO‘ZGA CHIQQILAR”, “QARORQILINDI”, “BUYURAMAN”, “TAKLIF QILAMAN” kabi so‘zlarni bosish uchun;

- matnda abzasni boshlash uchun beshta bosma belgidan keyin;
- jadvallar va trafaret matnlarni tuzish uchun 16 ta bosma belgidan keyin;
- jadvallar va trafaret matnlarni tuzish uchun 24 ta bosma belgidan keyin;
- “adresat” rekviziti uchun 32 ta bosma belgidan keyin;
- “tasdiqlash grifi” va “hujjatdan foydalanishni cheklovchi grif” rekvizitlari uchun 40 ta bosma belgidan keyin;
- imzo rekvizitida imzoni ma’nosini olib borish uchun 48 ta bosma belgidan keyin;
- jadvallar va trafaret matnlarni tuzish uchun 56 ta bosma belgidan keyin yoziladi.

Bir nechta tasdiqlash va kelishish griflari bo‘lganida, ularni tabulyatorning 0- va 5- holatidan boshlab, bir qatorda vertikal ustunlar bo‘yicha joylashtiriladi.

Hujjat matnida izohlar yoki mustaqil abzasga ajratilgan hamda chop etish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan hujjatga havola bo‘lsa, “Izoh” va “Asos” so‘zlari tabulyatorning 0- holatidan boshlab, ularga taalluqli matn esa – bir oraliqda bosiladi. Hujjatlar ikki yoki undan ortiq sahifada rasmiylashtirilganida ikkinchi va undan keyingi sahifalar raqamlab chiqilishi kerak.

“Xizmat xati”ni tuzish va rasmiylashtirish tartibi

Ichki ishlar organlaridagi ko‘pchilik xizmatlarning xodimlari xizmat xati, dalolatnoma, ma’lumotnoma kabi boshqaruv hujjatlarini ko‘proq tuzadilar. Xizmat xati hujjatini tuzish va rasmiylashtirish qoidalarini batafsilroq ko‘rib chiqamiz.

**Xizmat xati** – ichki ishlar organlarida tuziladigan boshqaruv hujjatlarining eng ko‘p tarqalgan turlaridan biri.

Xizmat xatlari orqali tashkilotlarning so‘rovlariga, fuqarolarning arizalariga javoblar beriladi, iltimoslar qilinadi.

Xizmat xati blankda yoki ichki ishlar organining nomi aks ettirilgan shtamp izi hamda muassasa blanklariga xos bo‘lgan boshqa ayrim rekvizitlar tushirilgan standart formatdagi qog‘ozda yozilishi kerak.

Xizmat xati quyidagicha yo‘llanadi. Xat muassasaga yo‘llanishi mumkin. Ushbu holda muassasaning nomi bosh kelishikda ko‘rsatiladi. Masalan, Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek TIIB. Tarkibiy tuzilmaga xat yo‘llanganida, dastlab muassasaning nomi, so‘ngra tarkibiy bo‘linmaning nomi bosh kelishikda ko‘rsatiladi. Masalan: Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek TIIB Jinoyat qidiruv bo‘limi

Xat mansabdor shaxsga yo‘llanishi ham mumkin. Agar bu shaxs muassasa rahbari bo‘lsa, uning lavozimi, familiyasi va unvoni muassasaning nomiga jo‘nalish kelishigida kiritiladi. Xat tarkibiy bo‘linma rahbariga yo‘llanganida, dastlab muassasaning nomi bosh kelishikda, so‘ngra tarkibiy bo‘linma rahbarining lavozimi va familiyasi jo‘nalish kelishigida ko‘rsatiladi. Agar xat harbiy yoki maxsus unvonga, ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega bo‘lgan shaxsga yuborilayotgan bo‘lsa, uning unvoni yoki darajasi ko‘rsatiladi.

Muassasa (tarkibiy bo‘linma) nomi, mansabdor shaxsning ismi sharifidan so‘ng ushbu muassasaning to‘liq pochta manzili ko‘rsatiladi. Ichki ishlar organlari o‘rtasidagi yozishmalarda ularning pochta manzili ko‘rsatilmaligi mumkin.

Xizmat xatlari fuqarolarga yo‘llanganida, dastlab pochta manzili, so‘ngra adresatning familiyasi va ismi sharifi ko‘rsatiladi. Masalan: 700060, Toshkent, Jahon Obidov ko‘chasi, 10-uy, 16-kv. M. Yo‘ldoshevga.

“Adresat” rekviziti blankning (standart varaqning) yuqori o‘ng qismida ko‘rsatiladi.

Agar xat A4 formatdagi blank (qog‘oz)da rasmiylashtirilsa, uning nomi bo‘lishi kerak. Xatning nomi odatda “to‘g‘risida” ko‘makchisi bilan yakunlanadi va “xat nima to‘g‘risida” degan savolga javob beradi.

Masalan: Ob‘ektni qo‘riqlashdagi kamchiliklar to‘g‘risidagi hujjatda sarlavha blank (standart varaq)ning chap qismida yoziladi.

Agar xat so‘rovga berilgan javob bo‘lsa, sarlavhadan avval hamda yuborilayotgan xatning nomeri va sanasidan keyin javob yo‘llanishiga sabab bo‘lgan tashabbuschi hujjatning indeksi va sanasi ko‘rsatiladi. Masalan: 2003.15.12 dagi 13-4-sonli xatga.

A5 formatdagi blank (varaqa)da yoziladigan javob xatlarida sarlavha qo‘yilmaydi, balki tashabbuschi hujjatning indeksi va sanasi ko‘rsatiladi, xolos.

Xatning matnda eslatib o‘tiladigan ilovasi mavjud bo‘lganida (bu kuzatuv xati deb nomlanadigan xatlarga xos), xat matnidan so‘ng quyidagi shaklda ilova mavjudligi haqida belgi qo‘yiladi, masalan, ilova 2 nusxada 5 varaqdan iborat bo‘lishi mumkin.

Agar xatning matnda aytilmagan ilovalari bo‘lsa, ularning nomlarini har bir ilovadagi varaqlar soni va ularning nusxasini ko‘rsatgan holda sanab o‘tish zarur, masalan:

Ilovalar:

Birgalikda amalga oshiriladigan tadbirlar rejasi 5 v. 2 nusxa.

Rejaning bajarilishi haqida ma‘lumot 2 v. 1 nusxa. Agar ilovalar tikilgan bo‘lsa, varaqlar soni ko‘rsatilmaydi.

Xizmat xatining matni kirish, dalillar va xulosalar, xotima kabi mantiqiy elementlarga ega bo'lishi kerak. Kirishda xat yozish uchun sabab va vajlar ko'rsatiladi.

Agar ko'rilgan choralarni oqlovchi qandaydir hujjatga havola qilish lozim bo'lsa, "...ga muvofiq" deb yoziladi. Agar iltimos, taklif, rad etish avvalgi harakatlardan kelib chiqadigan bo'lsa, "...sababli" deb yoziladi.

Dalillarda faktlar, da'volar, qonun hujjatlariga havolalar keltiriladi, mantiqiy xulosalar ifodalanadi. Xotimada xatning asosiy ma'nosi – iltimos, taklif, rad etish, rozilik kabilar bayon etiladi. Ammo har bir xatning matnida ham sanab o'tilgan elementlarning barchasi bo'lishi shart emas. Ular murakkab xatlar tuzilganida bo'lishi kerak. Xat tuzuvchi iltimosining bajarilishi maxsus asoslashni talab etmasligiga ishonsa, xat faqat xotimadan iborat bo'lishi mumkin.

Mazkur elementlarni xat matnida joylashtirish tartibi aniq belgilanmagan.

Oddiy qisqa xatlar xotimadan boshlanishi, so'ngra dalillar keltirilishi mumkin. Hajmi katta, murakkab xatlarda dalillarni, mantiqiy xulosalarni keltirib, adresatda xotimada ko'rsatilgan iltimosni, taklifni bajarish zarurligiga ishonch hosil qilish maqsadga muvofiq.

Xizmat xatining ishonchli bo'lishi xat tuzuvchining his-tuyg'ularini ifodalash uchun qo'llanilgan grammatik vositalarga emas, balki unda keltirilgan ma'lumotlarning asosiligi va shubhasizligi bilan bog'liq.

Shu bois xat yozganda, "juda", "zudlik bilan", "kechiktirmay" kabi ravishlarni ko'p ham qo'llamaslik kerak. Ular har doim ham xatga istalgan ishonchlilik bag'ishlamaydi, ko'p bora takrorlanishi esa tezlashtirish funksiyasini pasaytiradi.

Xizmat xati organ (muassasa) nomidan yozilishini e'tiborga olish kerak, shu bois unda shaxsiy jihat iloji boricha kamaytirilishi, bayon etish uslubi neytral bo'lishi, unda istehzo hamda beodoblik ko'rinishlari bo'lmasligi kerak. Xat matnini uchinchi shaxs nomidan tuzgan mas'ul, masalan: "Ichki ishlar bo'limi ... so'raydi".

**Dalolatnoma** – bir necha shaxsning yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlar, hodisalar, holatlarni tasdiqlash uchun tuzgan hujjat<sup>129</sup>idir.

Dalolatnomada quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- organning nomi (masalan, O'zbekiston Respublikasi IIV);
- muassasaning nomi (masalan, Toshkent shahar IIBB);
- muassasaning manzili yoki hujjat tuzilgan joy (masalan, Toshkent sh.);
- hujjat turining nomi (dalolatnoma);
- sana;
- matn sarlavhasi (masalan, ish hujjatlarini qabul qilish va topshirish to'g'risida);
- dalolatnoma tuzuvchi shaxslarning imzolari.

Bundan tashqari, dalolatnomada muassasa nomeri (indeksi) va shtampi (grifi) kabi rekvizitlar bo'lishi mumkin. Dalolatnoma matni odatda ikki qismdan,

---

<sup>129</sup> O'zbekiston Respublikasi IIVning 2005-yil 8-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi IIV tizimida ish yuritishni tashkillashtirish va olib borish haqida"gi 10-sonli buyrug'i.

ya'ni kirish va ta'kidlash qismlaridan iborat bo'ladi. Kirish qismida dalolatnomani tuzish asoslari va uni tuzuvchilar (uni tuzish vaqtida hozir bo'lgan shaxslar) ko'rsatiladi. Odatda, dalolatnomani bir necha shaxs (kamida ikki kishi) tuzadi, ammo vakolatli mansabdor shaxs boshqa shaxslar ishtirokida tuzishi ham mumkin.

Dalolatnomani tuzishda ishtirok etgan shaxslar sanab o'tilganida, ularning ism-shariflari, familiyalari va lavozimlari ko'rsatiladi.

Dalolatnomani komissiya tuzganida, dastlab komissiya raisining familiyasi, so'ngra alifbo tartibida komissiya a'zolarining familiyalari keltiriladi.

Ta'kidlash qismida bajarilgan ishning maqsadi, vazifalari, mazmuni va xususiyati bayon qilinadi, aniqlangan faktlar qayd etiladi. Zarur bo'lganida, dalolatnomaga komissiya qarorlari, xulosalari, xotimalariga ega bo'lgan yakuniy qism kiritilishi mumkin. Dalolatnoma matni tuzilgan dalolatnoma nusxalarining soni va ularning qayerda ekanligini ko'rsatish bilan yakunlanadi.

Dalolatnomani faktlar yoki hodisalarni aniqlashda ishtirok etgan barcha shaxslar imzo chekadilar.

**Ma'lumotnoma** – qandaydir faktlarga aniqlik kiritish, ularni tasdiqlash, rad etish tartibida tuziladigan axborot xususiyatiga ega hujjat<sup>130</sup>dir.

Ma'lumotnoma yuqori turuvchi organ yoki mansabdor shaxsning ko'rsatmasi bo'yicha tuziladi va u so'rayotgan axborotga ega bo'lishi kerak. Ma'lumotnoma matnning mazmunini ochib beruvchi sarlavhaga ega bo'lishi lozim (masalan, shaxsiy tarkib orasida ijro intizomining ahvoli to'g'risida). Ma'lumotnomada qayd etilgan ma'lumotlar taalluqli bo'lgan sana yoki vaqt oralig'i matndan alohida rekvizitga ajratiladi va ma'lumotnoma matnidan oldin joylashtiriladi. Masalan, "16.07.03 dagi holat bo'yicha" yoki "01.01.03 dan 01.07.03 gacha bo'lgan davr uchun". Ushbu ma'lumotlar matn sarlavhasining tarkibiga ham kiritilishi mumkin. Agar ma'lumotnoma bir necha masalalar bo'yicha tuzilayotgan bo'lsa, matni bir necha qismga bo'linadi va har biridan avval sarlavhasi ko'rsatiladi.

Bir organ (bo'linma) ichidagi yuqori turuvchi mansabdor shaxs uchun mo'ljallangan ma'lumotnomalarni uni tuzgan shaxs imzolaydi. Yuqori turuvchi organning ko'rsatmasi bo'yicha tuziladigan ma'lumotnomani uni yuborayotgan ichki ishlar organi (bo'linmasi)ning rahbari imzolaydi. Davlat apparati, jumladan IIV va uning organlarining ish uslubini takomillashtirish boshqaruv faoliyatini qogozbozlikdan tozalashni, ortiqcha hujjatlar tuzishdan voz kechishni, hujjatlar tuzish uchun vaqt va kuch sarfini kamaytirishni taqozo etadi.

Axborot-tahliliy ishning zamonaviy usullarini, xususan kompyuterdan foydalangan holda bajariladigan usullarini ishlab chiqish va joriy etish, ichki ishlar organlari va uning xizmatlarining hisobotlarini kamaytirish, ularning shaklini soddalashtirish, boshqaruv apparati xodimlarining faoliyatini baholash mezonlarini takomillashtirish, ularni organlar va bo'linmalarda bevosita amaliy, tashkiliy ishlarni bajarishga yo'naltirish kabilar xizmat yozishmalarining hajmini kamaytirishga xizmat qiladi. Ammo ushbu choralar ko'pgina hujjatlarni tuzish

---

<sup>130</sup> O'zbekiston Respublikasi IIVning 2005-yil 8-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi IIV tizimida ish yuritishni tashkillashtirish va olib borish haqida"gi 10-sonli buyrug'i.

zarurligini istisno etmaydi. Ichki ishlar organlari xodimlarining hujjatlarni tuzish borasidagi ishini oqilona tashkil etish muhim vazifa hamda ularning operativ xizmat faoliyati samaradorligini oshirish yo'nalishlaridan biridir.

Hujjatchilik ishlarini oqilona tashkil etish, yuqorida bayon etilgan hujjatlarni tuzish va rasmiylashtirish qoidalariga rioya etishdan tashqari, hujjatlar matnlarining hajmini ularni birxillashtirish evaziga kamaytirishni taqozo etadi. Ichki ishlar organlari faoliyatida uchraydigan ko'plab vaziyatlarning bir xilda ekanligi ularni tavsiflash uchun kichik o'zgartishlar kiritilgan ayni bir matnlardan foydalanish imkonini beradi. Bunday matnlar namunaviy matnlar deb ataladi. Namunaviy matnlarning qismlariga ega bo'lgan hujjatlarning blanklari trafaret blanklar (qarorlar, kun tartiblari, bayonnomalar, buyruqlar va boshqa hujjatlarning blanklari) deb ataladi.

Ichki ishlar organlarining faoliyatiga kompyuter texnikasining joriy etilishi hozirgi vaqtda hujjatlarni qoliplashtirish (formallashtirish)ni chuqurlashtirish hamda ularni tuzishda ishlatiladigan atamalarni birxillashtirishni talab etmoqda.

Shuningdek, sohaviy xizmatlardagi birlamchi hujjatlarini tuzish, rasmiylashtirish, yuritish va saqlash tartibi xizmat faoliyatidagi muhim jarayon hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ichki ishlar organlarida ish yuritish boshqaruv jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, ushbu idora ishining eng hal qiluvchi sohalariga - rahbarlik, tartibga solish, ijro etish, hisob va nazorat, amaliyotni umumlashtirish kabilarga katta ta'sir ko'rsatadi.

Xodimlarga ish yuritish bo'yicha bilimlarni ichki ishlar organlari faoliyatini inobatga olib, tizimlashtirgan holda berish, ish yuritishni to'g'ri tashkillashtirish, olib borish hamda ijro intizomi va nazoratini to'g'ri qo'llashni o'rgatish, shuningdek, kelajakda ulardan samarali foydalanish bo'yicha o'quv ko'nikmalarini hosil qilish va rivojlantirishdan iborat.



### Savol va topshiriqlar:

1. Ichki ishlar organlarining boshqaruv faoliyatida tuziladigan xizmat hujjatlarining turlarini bilasizmi?
2. Hujjatlarni saqlash va ulardan foydalanish tartibi to'g'risida gapirib bering.
3. Sohaviy xizmatlardagi birlamchi hujjatlarini tuzish, rasmiylashtirish, yuritish va saqlash tartibi haqida nimalarni bilasiz?

## §1. Professional imij va muloqot etiketi

Zamonaviy demokratik islohotlar davrida ichki ishlar organlari faoliyatining samaradorligi nafaqat xodimlarning huquqiy va jismoniy tayyorgarligi, balki ularning ijtimoiy-psixologik kompetensiyasi bilan ham belgilanmoqda. Bugungi kunda ichki ishlar organi xodimi davlat hokimiyatining “vizual timsoli” va jamiyatda huquqiy tartibotni ta’minlovchi asosiy sub’ekt sifatida namoyon bo’ladi. Shu bois, xodimning professional imiji va muloqot etiketi xizmat faoliyatining ikkinchi darajali elementi emas, balki aholining tizimga bo’lgan ishonchini shakllantiruvchi muhim strategik resurs hisoblanadi<sup>131</sup>.

Professional imij bu shaxsning kasbiy maqomi, ijtimoiy roli va shaxsiy fazilatlarini o’zida mujassam etgan, ijtimoiy persepsiya qonuniyatlari asosida fuqarolar ongida shakllanadigan yaxlit psixologik tasvirdir<sup>132</sup>. U nafaqat tashqi atributlarni ya’ni xizmat kiyimi, tashqi ko’rinish va shaxsiy gigienani balki xodimning intellektual salohiyati, emotsional intellekti va qadriyatlar tizimini ham aks ettiradi. Imijning mukammalligi xodim va fuqaro o’rtasidagi psixologik to’siqlarni bartaraf etishga, nizoli vaziyatlarni yumshatishga hamda qonuniy talablarning ixtiyoriy bajarilishiga zamin yaratadi<sup>133</sup>.

Professional imij deganda shaxsning kasbiy faoliyati davomida shakllanadigan, uning malakasi, axloqiy fazilatlarini va ijtimoiy rolini aks ettiruvchi yaxlit psixologik obraz tushuniladi. Ichki ishlar organlari xodimi uchun imij shunchaki tashqi ko’rinish emas, balki davlat hokimiyatining nufuzini ifodalovchi va fuqarolarda qonun ustuvorligiga nisbatan ishonch uyg’otuvchi strategik vositadir<sup>134</sup>.

Muloqot etiketi esa xizmat munosabatlarida belgilangan va umume’tirof etilgan odob-axloq me’yorlari, nutq madaniyati hamda kasbiy etika qoidalari majmuasi bo’lib, u xodimning ijtimoiy madaniyatini ifodalaydi<sup>135</sup>. Yuqori darajadagi muloqot madaniyati xodimga turli toifadagi shaxslar bilan konstruktiv dialog o’rnatish, verbal va noverbal ta’sir vositalaridan mahorat bilan foydalanish imkonini beradi.

Ichki ishlar xodimining professional imiji konseptual jihatdan fuqarolarda xavfsizlik hissini paydo qilishga, adolat tamoyillarini vizual va amaliy jihatdan namoyon etishga hamda har qanday ekstremal vaziyatlarda psixologik barqarorlikni saqlab qolish qobiliyatiga asoslanadi<sup>136</sup>.

<sup>131</sup> Каримова В.М. Ижтимоий психология. — Т.: Ўқитувчи, 2019.

<sup>132</sup> Андреева Г.М. Социальная психология. — М.: Аспект Пресс, 2018.

<sup>133</sup> Леонтьев А.А. Психология общения. — М.: Смысл, 2017.

<sup>134</sup> Ўзбекистон Республикаси “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги Қонуни. — Т., 2016.

<sup>135</sup> Мехринисо А. Касбий этика ва хизмат маданияти. — Т.: Akademnashr, 2020.

<sup>136</sup> Goleman D. Emotional Intelligence. — New York: Bantam Books, 2019.

Professional imijning tarkibiy komponentlari ya'ni ichki ishlar organi xodimining kasbiy imiji bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan to'rtta asosiy komponent orqali namoyon bo'ladi<sup>137</sup>. Jumladan:

➤ **Vizual komponent** - imijning birinchi va eng tez qabul qilinadigan qismi tashqi qiyofadir. Xizmat kiyimi nafaqat davlat belgisi, balki tartib va intizom ramzi ham hisoblanadi. Formaning ozodaligi, xodimning jismoniy holati va shaxsiy gigienasi fuqarolarda ilk daqiqalardayoq uning o'z ishiga bo'lgan munosabati haqida muayyan xulosa shakllantiradi<sup>138</sup>;

➤ **Verbal komponent** - xodimning nutqi uning intellektual salohiyati va madaniy darajasining ko'zgusi hisoblanadi. Verbal komponent nutqning mantiqiy izchilligi, ovoz tembri va intonatsiyaning vaziyatga mosligini o'z ichiga oladi<sup>139</sup>;

➤ **Noverbal komponent** - insonlararo munosabatlarda axborotning katta qismi mimika, jestlar va ko'z bilan kontakt orqali uzatiladi. Shuning uchun ichki ishlar xodimi o'z xatti-harakatlarida vazminlikni saqlashi, suhbatdosh bilan psixologik masofani to'g'ri belgilashi va tahdid soluvchi harakatlardan tiyilishi zarur<sup>140</sup>;

➤ **Psixologik komponent** - Mazkur komponent xodimning ichki dunyosi, qadriyatlari va psixologik tayyorgarligini ifodalaydi. Emotsional barqarorlik stress va nizoli vaziyatlarda hissiyotlarga berilmasdan, sovuqqonlik bilan qaror qabul qilish imkonini beradi<sup>141</sup>.

Ichki ishlar organlari faoliyatida qonuniylik va adolat prinsipi xizmat faoliyatida muhim hisoblanadi ya'ni xodimning kasbiy imiji, eng avvalo, uning qonun ustuvorligiga bo'lgan sadoqati va ijtimoiy adolat tamoyillarini amalda namoyon etishi bilan shakllanadi. Xizmat muloqoti jarayonida millat, til, ijtimoiy kelib chiqish yoki moddiy ahvoldan qat'i nazar, har qanday diskriminatsiyaning mavjud emasligi fuqarolarda davlatga nisbatan hurmat hissini uyg'otadi<sup>142</sup>.

Ijobiy imijning psixologik ta'siri ichki ishlar xodimining ijobiy imiji shunchaki vizual ko'rinish emas, balki aholi ong ostiga ta'sir etuvchi kuchli psixologik vositadir<sup>143</sup>. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xodimning imiji professional standartlarga javob bergan taqdirda, jamiyatda "ijtimoiy tartib" konsepsiyasi mustahkamlanadi va huquqbuzarlikka moyil shaxslarda "psixologik to'siq" paydo bo'ladi. Ijobiy imij orqali shakllantirilgan ishonch aholining huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikka tayyorlik darajasini oshiradi.

Ijobiy natijalarga erishishda xodimda muloqot etikasi shakllangan bo'lishi lozim. Muloqot etiketi bu xizmat faoliyati davomida xodim va fuqaro, shuningdek, rahbar va bo'ysunuvchi o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, insoniylik va kasbiy madaniyat tamoyillariga asoslangan axloqiy qoidalar tizimidir<sup>144</sup>.

<sup>137</sup> Романов В.В. Юридическая психология. — М.: Юрайт, 2021.

<sup>138</sup> Mehrabian A. Nonverbal Communication. — Chicago: Aldine Publishing, 2017.

<sup>139</sup> Леонтьев А.А. Психология общения. — М.: Смысл, 2017.

<sup>140</sup> Mehrabian A. Nonverbal Communication. — Chicago: Aldine Publishing, 2017.

<sup>141</sup> Goleman D. Emotional Intelligence. — New York: Bantam Books, 2019.

<sup>142</sup> Каримова В.М. Ижтимоий психология. — Т.: Ўқитувчи, 2019.

<sup>143</sup> Андреева Г.М. Социальная психология. — М.: Аспект Пресс, 2018.

<sup>144</sup> Мехринисо А. Касбий этика ва хизмат маданияти. — Т.: Akademnashr, 2020.

O'z novbatida muloqot etikasi quyidagi turlarga bo'linadi. Jumladan:

**Rasmiy muloqot** - bu turdagi muloqotda asosiy urg'u masofa saqlash, huquqiy normalarga rioya qilish va xodimning shaxsiy hissiyotlarini namoyon etmasligiga qaratiladi;

**Norasmiy muloqot** - bu muloqot turi xizmat vazifasidan tashqari xodimlar o'rtasidagi hamjihatlikni mustahkamlash va ish qobiliyatini tiklashga xizmat qiladi<sup>145</sup>;

**Konfliktli muloqot** - suhbatdosh tomonidan qarshilik yoki tajovuzkorlik kuzatilganda vaziyatni nazorat qilish uchun qo'llaniladi<sup>146</sup>;

**Ekstremal vaziyatdagi muloqot** - qisqa va aniq buyruqlar favqulodda vaziyatlarda odamlarni boshqarishning muhim vositasi hisoblanadi<sup>21</sup>.

Shu bilan birga muloqotga kirishuvchi xodim suhbatdoshni tinglash ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Tinglash ko'nikmasi quyidagilarga bo'linadi xususan,

Aktiv tinglash - bu suhbatdosh fikrini tinglash, tushunish va unga psixologik qo'llab-quvvatlash jarayonidir<sup>147</sup>.

Qayta tasdiqlash (parafraza) - suhbatdosh fikrini o'z so'zlari bilan qayta ifodalash fuqaroda tushunilganlik hissini uyg'otadi<sup>148</sup>.

Empatiya namoyish etish - empatiya insonning hissiyotini anglash va unga nisbatan insoniy munosabat bildirish orqali ishonch muhitini yaratadi<sup>149</sup>.

Verbal va noverbal uyg'unlik - muloqot samaradorligi so'zlar va tana tili o'rtasidagi uyg'unlikka bog'liq. Agar nutq va mimika o'rtasida ziddiyat bo'lsa, suhbatdoshda ishonchsizlik paydo bo'ladi<sup>150</sup>.

Muloqot jarayonida suhbatdoshni bilish uchun xodim tomonidan savol bilan murojaat qilish orqali amalga oshirish mumkin. Bu jarayonda xodim savol berish texnikasidan foydalanadi ya'ni savollar muloqot yo'nalishini boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Ochiq savollar keng ma'lumot olishga, yopiq savollar esa aniqlik kiritishga xizmat qiladi.

Suhbatdosh doim ham xodim bilan ijobiy tarza muloqotga qirishmaydi, ayrim hollarda suhbatdosh salbiy muloqotga kirish jarayoni yuz beradi ya'ni qiyin vaziyatlarda muloqot kelib chiqadi. Bu vaziyat agressiv shaxslar bilan muloqotda xodim hissiyotga berilmasligi va diqqatni huquqiy yechimga qaratishi lozim.

Bundan tashqari kritik va stress holatlarda muloqot ham vujudga kelishi mumkin ya'ni stress vaziyatlarida inson axborotni qiyin qabul qiladi. Shuning uchun xodimning ko'rsatmalari qisqa, aniq va takroriy bo'lishi zarurligi tavsiya qilinadi.

Imij va muloqot etiketining kasbiy samaradorlikka ta'siri juda muhimdir, xodimning professional imiji xizmat vazifalarini bajarishda qo'llaniladigan muhim psixologik vosita hisoblanadi. Bular quyidagilardan iborat, profilaktika

<sup>145</sup> Каримова В.М. Ижтимоий психология. — Т.: Ўқитувчи, 2019.

<sup>146</sup> Леонтьев А.А. Психология общения. — М.: Смысл, 2017.

<sup>147</sup> Андреева Г.М. Социальная психология. — М.: Аспект Пресс, 2018.

<sup>148</sup> Леонтьев А.А. Психология общения. — М.: Смысл, 2017.

<sup>149</sup> Goleman D. Emotional Intelligence. — New York: Bantam Books, 2019.

<sup>150</sup> Mehrabian A. Nonverbal Communication. — Chicago: Aldine Publishing, 2017.

samaradorligini oshiradi, nizolarni kamaytiradi, aholi ishonchini mustahkamlaydi, huquqbuzarliklarning latent qismini kamaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur imijni rivojlantirish uchun quyidagi mexanizmlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- o‘z-o‘zini monitoring qilish va refleksiya;
- o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish;
- kommunikativ treninglar va rolli o‘yinlarni bajarish.

Shu bilan birga xodim o‘z ustida ishlashi, bilim darajasini oshirib borishi va nutqi ustida ishlash zarurdir. Badiiy va psixologik adabiyotlarni mutolaa qilish nutq madaniyatini boyitadi va fikrlash doirasini kengaytiradi.

Professional imij va muloqot etiketi ichki ishlar organlari xodimining kasbiy mahoratining ajralmas qismi hisoblanadi. Zamonaviy ichki ishlar xodimi, bu faqat qonunni biladigan emas, balki insonlar bilan to‘g‘ri muloqot qila oladigan, psixologik jihatdan barqaror, yuqori madaniyatli va professional mutaxassisdir.



### Savol va topshiriqlar:

1. Ichki ishlar organlari xodimining professional imiji deganda nima tushuniladi va uning asosiy maqsadi nimadan iborat?
2. Professional imijning tarkibiy komponentlari qaysilar va ular qanday vazifani bajaradi?
3. Muloqot etiketi nima hamda u xizmat faoliyatida qanday ahamiyat kasb etadi?
4. Aktiv tinglash, parafraza va empatiya muloqot jarayonida qanday psixologik natija beradi?
5. Professional imij va muloqot etiketi ichki ishlar organlari faoliyatining samaradorligiga qanday ta‘sir ko‘rsatadi?

## §2. Deeskalatsiya san‘ati: tajovuzkorlik va qarshilikni so‘ndirish.

**Deeskalatsiya** — bu keskinlashayotgan nizoning sur‘atini pasaytirish, vaziyatni qurolli yoki jismoniy to‘qnashuv darajasidan konstruktiv muloqot darajasiga qaytarish jarayonidir<sup>151</sup>. Uning ilmiy asosi **“Hissiy yuqumlilik”** fenomeniga tayanadi, insonlar muloqot davomida bir-birlarining hissiyotlarini (tajovuz yoki xotirjamlikni) avtomatik ravishda ko‘chirib oladilar.

**Deeskalatsiya** — bu nafaqat nizoni to‘xtatish, balki inson ongi va xulq-atvorini boshqarish strategiyasidir<sup>152</sup>. Psixologik nuqtai nazardan, deeskalatsiya suhbatdoshning “amfibiya miyasi” reaktiv, himoyalannuvchi qismi faolligini pasaytirib, uning **“neokorteks”** mantiqiy fikrlovchi qismi faoliyatini tiklashga qaratilgan.

**Deeskalatsiya** — bu shunchaki xushmuomalalik emas, balki suhbatdoshning biokimyoviy va psixologik holatini maqsadli ravishda o‘zgartirish jarayonidir. Xodimning eng kuchli quroli uning **ichki sovuqqonligidir**.

<sup>151</sup> Douglas Noll *De-Escalate: How to Calm an Angry Person in 90 Seconds or Less*. — 2017.

<sup>152</sup> Анатолий Анцупов, Александр Шпилов *Конфликтология*. — Москва: ЮНИТИ, 2013.

Agar xodim tajovuzga tajovuz bilan javob bersa, bu nizoning eskalatsiyasiga (kuchayishiga) olib keladi. Deeskalatsiya san'ati esa xodimning “emotsional langar” vazifasini bajarishi, ya'ni o'z xotirjamligi orqali fuqaroning hayajonini so'ndirishidir.

IIO xodimi vaziyatni deeskalatsiya qilar ekan, u nizoning **vertikal rivojlanishini** kuchayishini to'xtatib, uni **gorizontal tekislikka** muzokaraga ko'chiradi. Bu jarayonda xodim “vaziyat qurboni” emas, balki “vaziyat me'mori” sifatida namoyon bo'ladi.

Hissiy yuqumlilik — bu bir insonning hissiyotlari, yuz ifodalari va tana harakatlari ikkinchi insonga ongsiz ravishda o'tishi jarayonidir. Bu mexanizm miyadagi **“ko'zgu neyronlari”** ishiga asoslanadi<sup>153</sup>.

- **Salbiy yuqumlilik**, fuqaro baqirganda xodim ham ovozi ko'tarsa, bu “rezonans” effektini beradi va tajovuz geometrik progressiyada ortadi.

- **Ijobiy yuqumlilik** (Deeskalatsiya kaliti), xodim har qanday baqiriq va haqoratga vazminlik, past tembrdagi ovoz va xotirjam nigoh bilan javob bersa, suhbatdoshning miyasi ham ongsiz ravishda bu holatni “nusxalay” boshlaydi. Oqibatda, fuqaroning organizmidagi adrenalini miqdori tushib, u tinchlana boshlaydi.

Psixologiyada “langar” tushunchasi ma'lum bir holatni barqaror ushlab turish vositasini anglatadi. Nizo markazida turgan xodim o'zining ichki barqarorligi bilan vaziyatning “epitsentri”ga aylanadi<sup>154</sup>.

Agar xodimning ichki holati mustahkam bo'lsa, fuqaroning agressiyasi xodimga “yuqmaydi”, aksincha, xodimning xotirjamligi fuqaroni o'z doirasiga tortadi. Bu jarayon **“emotsional boshqaruv ierarxiyasi”** deb ataladi, kimning irodasi va hissiy nazorati kuchli bo'lsa, vaziyatni o'sha taraf boshqaradi<sup>155</sup>.

#### **Amaliy tahlil va misollar:**

1. **“Tezlikni pasaytirish”** taktikasi, agar fuqaro tez va baland gapirayotgan bo'lsa, xodim ataylab sekinroq va pastroq ohangda gapirishi kerak. Bu suhbatdoshning fiziologik ritmini (nafas olishi va yurak urishini) sekinlashtiradi<sup>156</sup>.

2. **“Psixologik bo'shliq”** yaratish, tajovuzkor fuqaroning savoli yoki haqoratidan so'ng 2-3 soniyalik sukut saqlash. Bu sukut suhbatdoshning “zarbasini” havoga uchirib yuboradi va uni kutilmagan reaksiya oldida to'xtashga majbur qiladi<sup>157</sup>.

Jorj Tompson tomonidan ishlab chiqilgan va dunyo huquqni muhofaza qilish tizimlarida “Verbal dzyudo” sifatida tanilgan **LEAPS** modeli xodimga tajovuzkor suhbatdoshning “zarbasi”ni kuch ishlatmasdan qaytarish imkonini beradi.

Modelning mohiyati, hissiyotlar girdobiga tushib qolgan fuqaroni mantiqiy muloqot maydoniga olib o'tishdir. Modelning tarkibiy elementlari:

<sup>153</sup> Виктор Шейнов *Управление конфликтами*. — Минск, 2010.

<sup>154</sup> Николай Козлов *Психология общения*. — Москва, 2015.

<sup>155</sup> Дейл Карнеги *Как завоёвывать друзей и оказывать влияние на людей*. — Москва: Попурри.

<sup>156</sup> Ўзбекистон Миллий университети психологик тадқиқотлари тўпламлари.

<sup>157</sup> Daniel Goleman *Emotional Intelligence*. — 1995.

**1. Listen** - Faol tinglash, bu bosqichning maqsadi suhbatdoshning “emotsional dekompressiya”sini ta’minlash. Inson jahl ustida bo‘lganida uning miyasidagi limbik tizim faol bo‘ladi va u tinglash qobiliyatini yo‘qotadi<sup>158</sup>. Xodimning sukut saqlab, fuqaroga gapirishga imkon berishi uning organizmidagi "emotsional bosim"ni chiqarib yuboradi. Bu bosqichda xodim nafaqat so‘zlarni, balki suhbatdoshning ohangi va yashirin maqsadlarini ham ilg‘ashi lozim;

**2. Empathize** - Empatiya namoyish etish, bu suhbatdoshning fikriga qo‘shilish emas, balki uning hissiyotlarini tushunishni ifodalashdir. “*Sizning hozirgi holatingizni tushunib turibman*” yoki “*Bu vaziyatda har kim ham xafa bo‘lishi mumkin*” kabi iboralar fuqaroning “himoyalani” instinktini pasaytiradi. Psixologik nuqtai nazardan, insonning hissiyoti tan olinganda, uning tajovuzkorligi keskin kamayadi;

**3. Ask** - Tizimli savol berish, hissiyotlardan mantiqqa o‘tish ko‘prigi. Ochiq savollar (Kim? Nima? Qachon? Qanday?) suhbatdoshning miyasini "mantiqiy fikrlash" rejimiga o‘tishga majbur qiladi. Chunki savolga javob berish uchun inson baqirishni to‘xtatib, xotira va tahlilni ishga tushirishi shart;

**4. Paraphrase** - Mazmuni qayta ifodalash, bu suhbatdosh aytgan gaplarni o‘z so‘zlaringiz bilan qayta bayon qilish masalan, “*Agar sizni to‘g‘ri tushungan bo‘lsam, muammo shundaki...*”). Bu texnik jihatdan ikkita muhim vazifani bajaradi: birinchidan, ma’lumot almashinuvidagi xatolarni tuzatadi, ikkinchidan, fuqaroda “meni eshitishyapti va tushunishyapti”-degan ishonchni shakllantiradi<sup>159</sup>.

**5. Summarize** - Yakuniy xulosa, bu bosqichda xodim vaziyatni nazorat ostiga olganini ko‘rsatadi. Muammoni hal qilish uchun aniq algoritm yoki variantlar taklif qilinadi. Bu suhbatdoshda vaziyat ijobiy hal bo‘lishiga nisbatan umid uyg‘otadi.

Amaliy vaziyat tahlili, fuqaro bo‘limga kelib, uning murojaati ko‘rib chiqilmayotganidan g‘azablanmoqda “senlar faqat pul berganning ishini qilasan! Soatlab kuttirishdan boshqasiga yaramaysan!”-deb aytdi.

**Xodimning LEAPS asosidagi deeskalatsiya javobi** “*Men sizni eshitib turibman (Listen). Murojaatingiz javobsiz qolayotgani va vaqtingiz ketayotganidan haqli ravishda norozisiz, buni tushunaman (Empathize). Iltimos ayting-chi, aynan qaysi masalada va qachon murojaat qilgan edingiz? (Ask). Demak, siz o‘tgan payshanba kuni ariza topshirgansiz, lekin hali ijrochidan xabar olmangansiz, shundaymi? (Paraphrase). Keling, hozir men tegishli bo‘lim bilan bog‘lanib, arizangiz holatini aniqlaymanva sizga natijasini aytaman. Bir oz kutib tura olasizmi? (Summarize)*”.

Bunday muloqot algoritmi fuqaroni “ayblovchi” maqomidan “hamkorlik qiluvchi” maqomiga o‘tkazadi. LEAPS modeli xodimga “psixologik qalqon” vazifasini o‘taydi. U xodimning emotsional chidamliligini oshiradi va xizmat vazifasini qonuniy hamda madaniy doirada hal etishga xizmat qiladi<sup>160</sup>.

<sup>158</sup> Marshall Rosenberg *Nonviolent Communication: A Language of Life*. — 2003.

<sup>159</sup> George Thompson *Verbal Judo: The Gentle Art of Persuasion*. — 2013.

<sup>160</sup> А. Я. Анцупов, А. И. Шипилов Конфликтология. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2013.

Tajovuzni soʻndirishda tana tili soʻzlardan koʻra muhimroq. **Proksemika** (masofa psixologiyasi) qoidalariga koʻra, tajovuzkor shaxs bilan muloqotda quyidagilarni qoʻllash zarur:

**1. Xavfsizlik burchagi:** Toʻgʻridan-toʻgʻri (yuz-yuzga) turish tahdid sifatida qabul qilinadi. Suhbatdoshga nisbatan 45 gradus burchak ostida turish psixologik bosimni kamaytiradi va taktik ustunlik beradi.

**2. Qoʻllar holati:** Qoʻllarni koʻkrakka chapishtirmaslik (yopiq pozitsiya) va qoʻllarni choʻntakka solmaslik. Ochiq kaftlar (bel darajasida) tinchlik va nazorat belgisidir.

**3. Koʻz bilan kontakt:** Tikilib turish (agressiya belgisi) emas, balki vaqti-vaqti bilan nigohni uzib, suhbatdoshni diqqat bilan kuzatish<sup>161</sup>.

Neverbal kommunikatsiya va proksemika, tana tili taktikasi ilmiy tadqiqotlarga koʻra, nizoli vaziyatlarda axborotning 55% dan ortigʻi neverbal kanallar (tana holati, jestlar, masofa) orqali uzatiladi. Tajovuzkor shaxs uchun xodimning tana tili "doʻst" yoki "dushman" signalini beruvchi asosiy indikator<sup>162</sup>.

**Xavfsizlik burchagi** (Tactical Stance), yuzma-yuz, yaʼni "koʻkrak koʻkrakka" qarab turish hayvonot olamida ham, insonlarda ham hujum oldidagi pozitsiya hisoblanadi. Bunday pozitsiya suhbatdoshda "kurash yoki qoch" reaksiyasini faollashtiradi. Xodim suhbatdoshga nisbatan **45 gradus burchak** ostida turishi lozim bu "L-pozitsiya" deb ham ataladi. Bu holat xodimning hayotiy muhim aʼzolarini himoya qiladi, psixologik bosimni kamaytiradi va agar fuqaro hujum qilsa, muvozanatni saqlab qolishga yordam beradi.

**Proksemika** (Masofa psixologiyasi), insonning shaxsiy hududi (Personal Space) odatda 0,5 metrdan 1,2 metrgacha boʻladi. Tajovuzkor shaxs bilan muloqotda "**reaksiya zonasi**" kamida 2-3 metr saqlanishi shart<sup>163</sup>. Agar xodim fuqaroga juda yaqin borsa, fuqaro buni oʻziga nisbatan tahdid deb qabul qiladi va tajovuzi ortadi. Masofa saqlash esa xodimga suhbatdoshning harakatlarini kuzatish va kerak boʻlsa, jismoniy himoyaga oʻtish uchun vaqt beradi.

**Qoʻllar holati va "Ochiqlik"** signali, qoʻllarni koʻkrakka chapishtirish yoki choʻntakka solish nafaqat taktik jihatdan xavfli hujumni qaytarishga ulgurmaslik, balki psixologik jihatdan "men senga ishonmayman" yoki "men sendan ustunman" degan signalni beradi. Qoʻllar bel darajasida, ochiq kaftlar bilan boʻlishi "Tinchlantiruvchi jest" suhbatdoshning ong osti darajasida tinchlanishiga yordam beradi<sup>164</sup>.

<sup>161</sup> В. П. Шейнов Управление конфликтами. — Минск: Харвест, 2010.

<sup>162</sup> Н. И. Козлов Психология общения. — М.: Эксмо, 2015.

<sup>163</sup> Дейл Карнеги Как завоёвывать друзей и оказывать влияние на людей. — Минск: Попурри, 2019.

<sup>164</sup> Marshall Rosenberg *Nonviolent Communication: A Language of Life*. — Encinitas: PuddleDancer Press, 2003.

Nizolarni boshqarishda **“To‘rt qadamli taktika”** xodimga psixologik ustunlik beradi va muloqotni mantiqiy yakuniga yetkazadi. Jumladan:

**Birinchi qadam**, identifikatsiya va emotsional diagnostika - muloqotni boshlashdan oldin suhbatdoshning holatini to‘g‘ri aniqlash kerak. Usuli “Men hozir kim bilan gaplashyapman?” agar fuqaro hissiyotlar girdobida bo‘lsa jahl, qo‘rquv, unga qonun moddalarini tushuntirish befoyda. Misol uchun, *“Bu inson hozir mashinasi jarima maydoniga tushgani uchun emas, balki oilaviy muammolari sababli portlamogda”*. Buni tushunish xodimga vaziyatni shaxsiy qabul qilmaslikka yordam beradi.

**Ikkinchi qadam**, vaqt sotib olish (The 2-Second Rule) agressiv savol yoki haqoratdan so‘ng darhol javob bermang. Ikki soniyalik tanafuz suhbatdoshning kutilgan reaksiyasini janjalni buzadi va xodimga o‘z hissiyotlarini jilovlab, eng to‘g‘ri so‘zni tanlash imkonini beradi.

**Uchinchi qadam**, muqobil variantlar taklifi insonga tanlov berilganda, u o‘zini vaziyatni nazorat qilayotgandek his qiladi va qarshilik ko‘rsatish ishtiyoqi susayadi. Misol uchun, “Biz hozir ikki xil yo‘l tutishimiz mumkin. Birinchisi, siz baqirishda davom etasiz va men sizni tartibbuzarlik uchun ushlashga majbur bo‘laman. Ikkinchisi, siz vazminlik bilan hujjatlarni taqdim etasiz va biz bu masalani 5 daqiqada hal qilamiz. Qaysi biri sizga ma‘qul?”.

**To‘rtinchi qadam**, professional yechim vaziyatni qonuniy va aniq yakunlash. Bunda xodim “men g‘olib bo‘ldim” emas, balki “qonun g‘olib bo‘ldi” degan taassurot qoldirishi kerak. Misol uchun, “To‘g‘ri qaror qabul qilganingiz uchun rahmat. Mana, bayonnoma nusxasi. Siz uning ustidan shikoyat qilish huquqiga egasiz”.

Professional xodim bu nafaqat kuch ishlata oladigan, balki o‘z gavdasi, nigohi va masofasi orqali vaziyatni quolsiz bo‘ysundira oladigan shaxsdir. Deeskalatsiya bu kuchsizlik emas, balki yuksak intellektual va kasbiy mahorat belgisidir<sup>165</sup>.

Amaliy mashg‘ulot, Nizoli vaziyatlarni boshqarish (Simulyatsiya) ya‘ni “To‘rt qadamli taktika” qo‘llaymiz. Ishtirokchilarga nizoli vaziyat beriladi masalan, jarima maydonchasida mashinasini olib chiqolmayotgan asabiy haydovchi bilan bo‘ladigan jarayonda amalga oshiramiz. Jumladan:

1. **Identifikatsiya**, suhbatdoshning hissiyotini aniqlash u qo‘rqyaptimi, jahli chiqyaptimi yoki charchaganmi?.

2. **Vaqt sotib olish**, bir oz sukut saqlash yoki sekinroq gapirish. Bu suhbatdoshning yurak urishini pasaytiradi.

3. **Variant berish**, unga ikkita tanlov taklif qilish. Masalan, *“Biz hozir baqirib muloqotni to‘xtatishimiz yoki vazminlik bilan hujjatlarni rasmiylashtirishni boshlashimiz mumkin”*.

4. **Yechim**, qonuniy va amaliy yechimni ko‘rsatish.

<sup>165</sup> Daniel Goleman *Emotional Intelligence*. — New York: Bantam Books, 1995.



### Savol va topshiriqlar:

1. Deeskalatsiya tushunchasi nima va uning asosiy psixologik maqsadi nimadan iborat?
2. “Hissiy yuqumlilik” fenomeni deeskalatsiya jarayonida qanday rol o‘ynaydi?
3. LEAPS modelining asosiy bosqichlari qaysilar va ular nizoli vaziyatni boshqarishda qanday ahamiyatga ega?
4. Tajovuzkor shaxs bilan muloqotda proksemika va neverbal kommunikatsiya qoidalariga qanday amal qilish zarur?
5. Nizolarni boshqarishdagi “To‘rt qadamli taktika”ning bosqichlarini tushuntirib bering.

### §3. Stress-menejment va affektiv holatlarni boshqarish.

Zamonaviy professional muhitda shaxsning emotsional intellekti va psixologik chidamliligi uning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Stress va affektlarni boshqarish — bu shunchaki tinchlanish emas, balki organizmning moslashuvchanlik imkoniyatlarini ilmiy asosda boshqarishdir.

**Stress** (ingl. *stress* – kuchlanish) — bu organizmning har qanday kuchli tashqi ta’sirga (stressorga) nisbatan o‘ziga xos bo‘lmagan (nospesifik) moslashuv reaksiyasidir<sup>166</sup>.

Stress tushunchasini birinchi bo‘lib fanga kiritgan Gans Sele uni “Umumiy moslashuv sindromi” deb atagan. Gans Sele (Hans Selye, 1907–1982) — dunyoga mashhur kanadalik biolog va shifokor, **“stress haqidagi ta’limotning asoschisi”** hisoblanadi. U tibbiyot olamida stress tushunchasini ilmiy asoslab bergani uchun “Tibbiyot Eynshteyni” deb ham yuritiladi<sup>167</sup>.

U stressning uch bosqichini ajratib ko‘rsatgan: **Xavotir bosqichi:** Organizm xavfni sezadi va resurslarni (adrenalin, energiya) safarbar qiladi. “Qoch yoki kurash” holati ishga tushadi; **Qarshilik bosqichi:** Organizm vaziyatga moslashadi va yuqori kuchlanishda ishlashda davom etadi. Agar stressor to‘xtasa, tana tiklanadi; **Toliqish bosqichi:** Agar stress juda uzoq davom etsa, tananing resurslari tugaydi. Bu bosqichda turli kasalliklar masalan, oshqozon yarasi, yurak xastaliklari va depressiya kelib chiqadi<sup>168</sup>.

Yana bir olim, Richard Lazarus (Richard Lazarus, 1922–2002-yillar) — amerikalik mashhur psixolog, stress va emotsiyalar sohasidagi eng yirik nazariyotchilardan biri. U stressni shaxs va atrof-muhit o‘rtasidagi o‘ziga xos munosabat sifatida ta’riflaydi. Bunda insonning voqeaga bergan **kognitiv bahosi** (uni xavfli yoki xavfsiz deb hisoblashi) asosiy rol o‘ynaydi. Gans Sele stressning

<sup>166</sup> Hans Selye *The Stress of Life*. — New York: McGraw-Hill, 1956.

<sup>167</sup> Hans Selye Стресс без дистресса. — М.: Прогресс, 1982.

<sup>168</sup> Е. П. Ильин Эмоции и чувства. — СПб.: Питер, 2001.

**biologik** (tanadagi jarayonlar) tomonini o'rgangan bo'lsa, Richard Lazarus uning **psixologik** (fikrlash bilan bog'liq) tomonini asoslab bergan<sup>169</sup>.

### **Stressni boshqarishning koping-strategiyalari:**

“Koping” (inglizcha *to cope* — yengib o'tish, yeng shimarib kirishish) tushunchasini ifodalaydi. Bu — insonning stress vaziyatlarida o'zini tutish va muammoni hal qilish usullaridir. Olimlar kopingni ikki turga bo'lgan: **Muammoga yo'naltirilgan koping:** Muammoni hal qilish uchun konkret harakatlar qilish (masalan, reja tuzish, ma'lumot izlash); **Emotsiyaga yo'naltirilgan koping:** Vaziyatni o'zgartira olmasa, unga bo'lgan his-tuyg'uni o'zgartirish (masalan, meditatsiya qilish, vaziyatga ijobiy qarash yoki muammodan qochish)<sup>170</sup>.

### **“Stressga bo'lgan munosabat” fenomeni**

Stenford universiteti professori Kelli Makgonigal tadqiqotlariga ko'ra, stressning sog'liqqa zarari uning miqdoriga emas, balki insonning unga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Agar siz stressni “organizmning qiyinchilikka tayyorgarligi” (yurak tez urishi — miyaga ko'p kislorod borishi) deb qabul qilsangiz, qon tomirlaringiz qisilmaydi va stressning salbiy oqibatlari minimallasadi<sup>171</sup>. Stressdan qo'rqishning o'zi stressdan ko'ra zararliroq ekani isbotlangan.

### **Gormezis konsepsiyasi**

Zamonaviy biologiyada **“Gormezis”** tushunchasi ommalashmoqda. Bu — kichik dozadagi stressning organizmni chiniqtirishi va umrni uzaytirishi haqidagi ta'limot. Masalan, qisqa muddatli sovuq dush, ochlik yoki intensiv jismoniy mashqlar “foydali stress” hisoblanadi. Ular hujayralardagi regeneratsiya jarayonlarini va avtofagiya (eski hujayralardan tozalanish) tizimini ishga tushiradi<sup>172</sup>.

### **“Ijtimoiy stress” va Oksitotsin**

Ilgari stress faqat “qoch yoki kurash” (adrenalin/kortizol) bilan bog'langan bo'lsa, yangi tadqiqotlar stress paytida **oksitotsin** (mehr-muhabbat gormoni) ham ajralib chiqishini ko'rsatdi. Oksitotsin yurak hujayralarini stress ta'siridagi shikastlanishdan himoya qiladi. Bu degani, stress paytida boshqalar bilan muloqot qilish va yordam so'rash — biologik jihatdan eng samarali himoya mexanizmidir<sup>173</sup>.

### **Vagus nervining roli**

Zamonaviy stress-menejmentning markazida vagus nervi (tarqoq nerv) turadi. U parasimpatik asab tizimining asosi bo'lib, organizmni “dam ol va hazm qil” holatiga qaytaradi. Vagus nervini stimullash orqali (masalan, uzun nafas

<sup>169</sup> Richard Lazarus, Susan Folkman *Stress, Appraisal, and Coping*. — New York: Springer Publishing Company, 1984.

<sup>170</sup> Richard Lazarus *Psychological Stress and the Coping Process*. — New York: McGraw-Hill, 1966.

<sup>171</sup> Kelly McGonigal *The Upside of Stress: Why Stress Is Good for You, and How to Get Good at It*. — New York: Avery Publishing Group, 2015.

<sup>172</sup> Edward J. Calabrese *Hormesis: A Revolution in Biology, Toxicology and Medicine*. — New York: Springer, 2010.

<sup>173</sup> Mark P. Mattson *Hormesis Defined*. — Ageing Research Reviews, 2008.

chiqarish yoki tomoqni chayish orqali) bir necha soniya ichida kortizol darajasini tushirish mumkinligi ilmiy tasdiqlangan<sup>174</sup>.

### **Raqamli stress va “Texnostress”**

2024-2026-yillardagi tadqiqotlar **“dofaminli tebranma”** natijasida yuzaga keladigan stressga e'tibor qaratmoqda. Smartfondan kelayotgan uzluksiz bildirishnomalar (notifikatsiyalar) miyani doimiy "giper-hushyorlik" holatida ushlab turadi. Bu surunkali mikro-stress bo'lib, u insonni sezdirmasdan emotsional toliqishga olib keladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson sog'lig'i uchun hayotdagi katta fojialardan ko'ra kundalik mayda asabbuzarliklar, yo'llardagi tirbandliklar, hamkasblar bilan kelishmovchilik, navbatda turish kabi holatlar ko'proq zarar yetkazadi. Chunki bu mayda stresslar to'planib, surunkali tus oladi.

**Stress-menejmentning zamonaviy texnologiyalari.** Professional stress-menejment uchta darajada amalga oshiriladi:

### **Fiziologik daraja bu - tana bilan ishlash**

- **Progressiv mushak relaksatsiyasi** Mushaklarni navbat bilan kuchli zo'riqtirish va bo'shashtirish orqali markaziy asab tizimini tinchlantirish<sup>175</sup>.

- **Diafragmal nafas olish:** “4-7-8” texnikasi (4 soniya nafas olish, 7 soniya ushlab turish, 8 soniya chiqarish) vagus nervini faollashtirib, yurak urishini sekinlashtiradi.

### **Kognitiv daraja bu - fikrlash bilan ishlash**

- **Refreyming:** Vaziyatga berilayotgan ma'noni o'zgartirish. Masalan, “Bu muammo meni tamom qiladi” degan fikrni “Bu vaziyat mening yangi qirralarimni ochish uchun imkoniyat” deb qayta ifodalash<sup>176</sup>.

- **Kognitiv detsentratsiya:** Muammoga “tashqaridan” yoki “uchinchi shaxs” nigohi bilan qarash.

### **Tashkiliy daraja bu - taym-menejment**

- **Eyzenxauer matritsasi:** Ishlarni muhimlik va shoshilinchlik darajasiga ko'ra taqsimlash orqali “vaqt tanqisligi” stressidan xalos bo'lish<sup>177</sup>.

**Xulosa qilib aytganda:** Agar, stress — bu organizmning reaksiyasi deydigani bo'lsak, uning qanday kechishi — bu insonning stressorni qanday qabul qilishi hamda uni nazorat qilish orqali esa, konstruktiv oqimda kechishi-deb tushuntirish mumkin.

### **Affektiv holatlar va ularning determinatsiyasi**

“Affektiv holatlar determinatsiyasi” — psixologiyada insonning kuchli hissiy holatlari ya'ni affekt qanday omillar ta'sirida yuzaga kelishini anglatadi.

<sup>174</sup> Sue Carter Oxytocin and human evolution. — *Current Topics in Behavioral Neurosciences*, 2018.

<sup>175</sup> Щербатых Ю. В. (2008). *Психология стресса и методы коррекции*. Питер.

<sup>176</sup> Paul J. Zak The neurobiology of trust. — *Scientific American*, 2011.

<sup>177</sup> Kelly McGonigal *The Upside of Stress: Why Stress Is Good for You, and How to Get Good at It*. — New York: Avery Publishing Group, 2015.

Bu atamani qismlarga ajratib ko‘radigan bo‘lsak, “affektiv holatlar” — qo‘rquv, g‘azab, qattiq xursandchilik, stress, vahima kabi kuchli emotsional holatlar bo‘lsa, “determinatsiya” — biror hodisaning sabablar va omillar bilan belgilanishi ifodalanadi<sup>178</sup>. Shuning uchun “affektiv holatlar determinatsiyasi” deganda, insondagi kuchli emotsional holatlarning qanday ichki va tashqi omillar tufayli paydo bo‘lishi tushuniladi.

Shunday qilib, affekt — bu qisqa muddatli, lekin juda kuchli kechuvchi, insonning irodaviy nazoratini susaytiruvchi emotsional portlashdir. Bunda emotsiyalar, xususan g‘azab, dahshat, haddan tashqari quvonchning hissiy patologik ko‘rinishi namoyon bo‘ladi<sup>179</sup>.

**Affektning psixologik mexanizmlari:** Affekt holatida bosh miya po‘stlog‘ining tormozlanish jarayonlari susayib, po‘stloq osti markazlari ya‘ni, limbik tizim faollashadi. Bu "Ongning torayishi" fenomeniga olib keladi<sup>180</sup>.

Bunday omillarga quyidagilar kiradi: tashqi vaziyatlar (janjal, xavf, bosim), ichki psixologik holat, insonning individual-psixologik xususiyatlari (temperament va xarakter), charchoq yoki stress, ijtimoiy muhit, fiziologik holat (uyqusizlik, kasallik va h.k.).

Yana bir misol, imtihon oldidan kuchli xavotir — stress va mas‘uliyat hissining determinatsiyasi natijasi yoki kutilmagan haqoratdan keyin g‘azab chiqishi — tashqi ta‘sir bilan bog‘liq affektiv reaksiya, ish joyida rahbarning asossiz tanqidiga xodimning baqirib, eshikni qattiq yopib chiqib ketishi — bu fiziologik affektning klassik ko‘rinishidir. Bunda xodim o‘z harakatlarining oqibatini anglash qobiliyatini vaqtincha yo‘qotadi.

### **Affektiv holatlarni boshqarishning “Tezkor algoritmi”**

Affekt holati boshlanayotganini sezganda, masalan, kuchli g‘azablanganda quyidagi **“To‘xtash”** texnikasi tavsiya etiladi: 1. Harakatni va gapirishni to‘xtating. 2. Chuqur nafas oling. 3. Tanangizda nima bo‘layotganini kuzating (yurak urishi, qo‘l titrashi). Bu emotsional miyadan kognitiv miyaga o‘tishga yordam beradi. 4. Faqat shundan keyin ongli qaror qabul qiling<sup>181</sup>.

**Shunday qilib**, stress va affektlarni boshqarish — bu insonning o‘z biokimyoviy va psixologik jarayonlari ustidan nazorat o‘rnatishidir. Professional yondashuv muntazam ravishda nafas mashqlarini bajarish, kognitiv qayta baholashni o‘rganish va shaxsiy chegaralarni belgilashni talab etadi.

Stress haqidagi tushunchalar so‘nggi yillarda neyrobiologiya va psixofiziologiya sohasidagi kashfiyotlar tufayli ancha kengaydi. Endilikda stressga nafaqat “zararli holat”, balki organizmning moslashuvchanlik resursi sifatida qaralmoqda.

<sup>178</sup> Ўзбекистон Миллий университети Психология ва педагогика муаммолари (илмий тўплам). — Т.: ЎзМУ нашриёти, 2018–2024.

<sup>179</sup> Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. — М.: Питер, 2002.

<sup>180</sup> Robert Sapolsky *Why Zebras Don't Get Ulcers*. — New York: Henry Holt, 2004.

<sup>181</sup> James Gross *Handbook of Emotion Regulation*. — New York: Guilford Press, 2014.



### **Savol va topshiriqlar:**

1. Stress tushunchasini fanga kim kiritgan va uning “Umumiy moslashuv sindromi” nazariyasidagi uch bosqich nimalardan iborat?
2. Richard Lazarus stressning psixologik tomonini qanday izohlagan va uning yondashuvi Hans Selye nazariyasidan nimasi bilan farq qiladi?
3. Koping-strategiyalar nima va muammoga yo‘naltirilgan hamda emotsiyaga yo‘naltirilgan koping o‘rtasidagi farq nimada?
4. Stress-menejmentning fiziologik, kognitiv va tashkiliy darajalariga qanday usullar kiradi?
5. Affektiv holatlarning determinatsiyasi deganda nima tushuniladi va affekt holatini boshqarishning “To‘xtash” texnikasi qanday amalga oshiriladi?

#### §4. Konfliktologiya: nizoli holatlar prevensiyasi.

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi, axborot oqimining keskin ortishi, turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarining to'qnashuvi hamda insonlar o'rtasidagi psixologik va huquqiy munosabatlarning dinamik xususiyat kasb etishi konfliktlar soni va ko'lamining ortishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda konfliktologiya nafaqat nazariy fan, balki amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muhim kasbiy yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi.

Ayniqsa, ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat faoliyati bevosita turli darajadagi ziddiyatlar, nizoli vaziyatlar, stressli holatlar va yuqori emotsional taranglik bilan bog'liq. Xodimlar har kuni huquqbuzarliklar, oilaviy janjallar, ommaviy tartibsizliklar, fuqarolar murojaatlari, maishiy mojarolar, jamoat xavfsizligi bilan bog'liq holatlar hamda turli ijtimoiy-psixologik muammolarga duch keladilar. Shu sababli nizoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, emotsional barqarorlikni saqlash, huquqiy va axloqiy me'yorlarga tayangan holda muloqot olib borish xodimning muhim kasbiy kompetensiyalaridan biri hisoblanadi.

Konfliktologiya — konfliktlarning kelib chiqish sabablari, rivojlanish bosqichlari, psixologik va ijtimoiy mexanizmlari, ularni oldini olish hamda samarali hal qilish usullarini o'rganuvchi fan sohasidir. U inson xulq-atvori, kommunikatsiya psixologiyasi, boshqaruv, huquqshunoslik va ijtimoiy munosabatlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ichki ishlar organlari tizimida xizmat samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Huquqni muhofaza qilish faoliyatida konfliktlarni faqat kuch ishlatish yoki ma'muriy ta'sir choralari orqali hal etish yetarli emas. Zamonaviy yondashuvlar profilaktika, konstruktiv muloqot, deeskalatsiya, muzokara, mediatsiya va hamkorlik mexanizmlariga ustuvor ahamiyat qaratadi. Chunki har qanday nizoning to'g'ri boshqarilishi nafaqat muayyan vaziyatni barqarorlashtiradi, balki fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchini ham mustahkamlaydi.

Mazkur bo'limning asosiy maqsadi, ichki ishlar organlari xodimlarida konfliktlarning tabiati va mexanizmlarini anglash, nizoli vaziyatlarni erta aniqlash, ularning oldini olish, stress va agressiyani boshqarish, professional kommunikatsiyani yo'lga qo'yish hamda konfliktlarni qonuniy va konstruktiv usullarda hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Mazkur material ichki ishlar organlari xodimlarining boshlang'ich tayyorgarligi, qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarida, shuningdek, xizmat faoliyatida uchraydigan nizoli vaziyatlarni professional darajada boshqarish bo'yicha muhim o'quv-uslubiy manba sifatida xizmat qiladi.

“Konflikt” (nizo) — bu qarama-qarshi maqsadlar, qiziqishlar, pozitsiyalar, fikrlar yoki qarashlarning to'qnashuvidir. Ichki ishlar organlari tizimida nizo nafaqat salbiy hodisa, balki mavjud muammolarni yuzaga chiqaruvchi va tizimni isloh qilishga undovchi signal hamdir.

“Konfliktologiya” atamasi ikki qismdan tashkil topgan bo'lib, u lotincha va yunoncha so'zlar birikmasidan kelib chiqqan ya'ni lotincha **“conflictus”**

— “to‘qnashuv”, “qarama-qarshilik”, “ziddiyat”, yunoncha **“logos”** — “ta’limot”, “fan”, “o‘rganish” ma’nolarini anglatadi.

Shundan kelib chiqqan holda, konfliktologiya turli ijtimoiy munosabatlarda yuzaga keladigan konfliktlar (nizolar), ularning kelib chiqish sabablari, rivojlanish qonuniyatlari, psixologik va ijtimoiy mexanizmlari, shuningdek ularni oldini olish, boshqarish va hal qilish usullarini o‘rganuvchi fan sohasidir<sup>182</sup>.

Ilmiy nuqtai nazardan konfliktologiya tabiati va mohiyatini, inson xulq-atvori va muloqot psixologiyasini, ijtimoiy munosabatlardagi ziddiyatlarni, stress va agressiya omillarini, muzokara, mediatsiya va deeskalatsiya texnologiyalarini tadqiq etadi.

Konfliktologiya psixologiya, sotsiologiya, pedagogika, boshqaruv, huquqshunoslik va siyosatshunoslik kabi fanlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, ichki ishlar organlari tizimida konfliktologiya aholi bilan muloqot qilishni, ommaviy tartibni saqlashni, huquqbuzarliklarni profilaktika qilish, xizmat intizomini ta’minlashni, krizis vaziyatlarda harakat qilish kabi yo‘nalishlarda muhim amaliy ahamiyatga ega.

“Konfliktologiya — konfliktlarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va hal qilinishi qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan<sup>183</sup>”.

Har qanday konflikt muayyan tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Konfliktning mazmunini to‘g‘ri anglash va uni samarali boshqarish uchun uning asosiy elementlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ilmiy adabiyotlarda konfliktning tarkibiy tuzilishi odatda ob‘ekt, sub‘ekt va insident kabi asosiy qismlardan iborat deb qaraladi jumladan:

1. **Konflikt ob‘ekti** — tomonlar o‘rtasida qarama-qarshilik kelib chiqishiga sabab bo‘lgan manfaat, resurs, qadriyat yoki huquqdir. Ya’ni konflikt “nima ustida” ketayotganini anglatadi.

Konflikt ob‘ekti moddiy yoki nomoddiy bo‘lishi mumkin.

*Moddiy ob‘ektlarga* mol-mulk, pul mablag‘i, xizmat vakolati, lavozim, resurslar.

*Nomoddiy ob‘ektlarga* hurmat, obro‘, ta’sir doirasi, adolat, psixologik ustunlik hisoblanadi.

IIO tizimida **konflikt ob‘ektlari** quyidagilar bilan bog‘liq xususan, xizmat vazifalarining taqsimotida, rahbarlik vakolatida, intizomiy qarorlarda, huquqiy baholashda, fuqarolarning huquq va manfaatlarida vujudga kelishi mumkin. *Misol uchun*, ikki xodim navbatchilik jadvali adolatsiz tuzilgan deb hisoblasa, konflikt ob‘ekti xizmat yuklamasining taqsimlanishi hisoblanadi.

**Konflikt sub‘ektlari**, konfliktda ishtirok etayotgan tomonlardir. Ular yakka shaxs, guruh yoki tashkilot bo‘lishi mumkin. Sub‘ekt turlariga xodim — fuqaro, xodim — xodim, rahbar — bo‘ysunuvchi, guruh — guruh, tashkilot — tashkilot bo‘lishi mumkin.

<sup>182</sup> Анцупов А.Я., Шипилов А.И. *Конфликтология*. — Москва: Юрайт, 2023.

<sup>183</sup> Гришина Н.В. *Психология конфликта*. — Санкт-Петербург: Питер, 2022.

*Ichki ishlar organlarida sub'ektlariga* profilaktika inspektori va fuqaro, patrul xodimi va haydovchi, rahbar va xodim, tezkor guruhlar, turli xizmat bo'linmalari o'rtasida namoyon bo'ladi.

Muhim jihati konflikt sub'ektlarining psixologik holati, temperamenti, huquqiy madaniyati va muloqot uslubi konfliktning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi<sup>184</sup>. Misol uchun, tergovchi va tezkor xodim o'rtasida ma'lumot taqdim etish muddati yuzasidan kelishmovchilik kelib chiqdi. Bu holatda ikki xodim konflikt sub'ekti hisoblanadi.

Insident konfliktni yashirin holatdan ochiq to'qnashuv bosqichiga o'tkazuvchi voqea, harakat yoki bahonadir. Insident konfliktning boshlanish nuqtasi hisoblanadi. Insident xususiyatlariga, konfliktni "faollashtiradi", emotsional reaksiyani kuchaytiradi, tomonlarni ochiq qarama-qarshilikka olib keladi<sup>185</sup>.

*Insident turlariga* qo'pol muomala, nohaq tanqid, haqorat, buyruqni noto'g'ri berish, huquqni cheklash va axborotni yashirish kiradi. Misol uchun, fuqaro hujjat tekshiruvi jarayonida xodimning muomalasidan norozi bo'lib ovozini ko'tardi<sup>186</sup>. Shu vaziyat konfliktning insidenti hisoblanadi. Ko'pincha konfliktning haqiqiy sababi chuqurroq bo'ladi, insident esa uni faqat ochiq shaklga olib chiqadi.

Konfliktlar ishtirokchilar soni, mazmuni, psixologik xususiyatlari va ijtimoiy muhitiga qarab turlarga ajratiladi. Jumladan:

1. *Ichki (intrapersonal) konflikt* — insonning ichki psixik holatida yuzaga keladigan qarama-qarshilikdir<sup>187</sup>. Bunday konfliktida inson ikki qaror o'rtasida qoladi, burch va hissiyot o'rtasida ikkilanadi va shaxsiy qadriyatlar va xizmat talablari o'rtasida ziddiyat sezadi.

IIO amaliyotida xodimi qonun talabini bajarish, insonparvarlik, rahbar buyrug'i va vijdon o'rtasida tanlov qilishga majbur bo'lishi mumkin. Misol uchun, yosh inspektor voyaga yetmagan huquqbuzarga nisbatan qonuniy chora qo'llashi kerak, ammo uning og'ir oilaviy ahvolini ko'rib ichki ziddiyatga tushadi. Mazkur holatdan kelib chiqadigan oqibatlar ya'ni stress, emotsional charchoq, qaror qabul qilishda qiyinchilik va professional deformatsiya yuzaga keladi.

2. *Shaxslararo konflikt* — ikki shaxs o'rtasida manfaat, pozitsiya yoki munosabatlar to'qnashuvi asosida kelib chiqadigan konfliktidir. Bu eng keng tarqalgan konflikt turi hisoblanadi<sup>188</sup>. Kelib chiqish sabablariga muomala madaniyati pastligi, agressiya, tushunmovchilik, manfaatlar to'qnashuvi va adolatsiz munosabat natijasida paydo bo'ladi. IIO amaliyotida shaxslararo konfliktlar quyidagilar orasida paydo bo'ladi xodim va huquqbuzar, xodim va fuqaro, ikki xodim hamda rahbar va bo'ysunuvchi o'rtasida kuzatiladi.

<sup>184</sup> В. Каримова Муомала психологияси. — Т.: Fan va texnologiya, 2010.

<sup>185</sup> Б. Қодиров Педагогик конфликтология. — Т.: Tafakkur Bo'stoni, 2015.

<sup>186</sup> Ўзбекистон Миллий университети Конфликтология ва ижтимоий психология муаммолари (илмий тўплам). — Т.: ЎЗМУ нашриёти, 2018–2024.

<sup>187</sup> А. Я. Анцупов, А. И. Шипилов Конфликтология. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2013.

<sup>188</sup> Herbert Kelman Conflict resolution and prevention theories. — *Journal of Social Issues*, 1990.

Misol uchun, patrul xodimi haydovchidan hujjat talab qildi. Haydovchi xodimning muomalasini qo‘pol deb hisoblab, bahs boshladi natijada konflikt yuzaga keldi.

Bunday vaziyatni oldini olish choralariga hurmatli muloqot qilish, faol tinglash, deeskalatsiya va emotsiyani nazorat qilish orqali amalga oshiriladi.

3. *Shaxs va guruh o‘rtasidagi konflikt* — bu turda bir shaxs jamoa yoki guruh bilan qarama-qarshilikka kiradi. Sabablariga guruh normalarini qabul qilmaslik, rahbarlik uchun kurash, “norasmiy lider” ta’siri va intizomiy kelishmovchilik natijasida yuzaga keladi<sup>189</sup>.

IIO amaliyotida ayrim hollarda tajribali xodim rahbar qarorlarini ochiq tanqid qilishi mumkin. Bu esa jamoada ziddiyat paydo qiladi. Misol uchun, jamoada ta’sir kuchiga ega bo‘lgan norasmiy lider, rahbarning yangi tartiblariga qarshi chiqadi va boshqalarni ham ta’sir ostiga oladi. Buning oqibatida jamoaviy muhit buzilishi, intizom pasayishi va guruhbozlikka olib keladi.

4. *Guruhlararo konflikt* — ikki yoki undan ortiq jamoa, bo‘linma yoki tashkilot o‘rtasidagi qarama-qarshilikdir. Sabablariga vazifalar taqsimoti, resurslar uchun raqobat, axborot almashinuvida muammo va rahbarlik masalasida yuzaga chiqadi<sup>190</sup>.

IIO amaliyotida tezkor xizmat va tergov bo‘limi, patrul xizmati va profilaktika bo‘limi hamda turli hududiy bo‘linmalar o‘rtasida funksional kelishmovchiliklar kuzatilishi mumkin. Misol uchun, tergov bo‘limi tezkor xodimlar ma’lumotni kechiktirib berganidan norozi bo‘ldi, bu holat guruhlararo konfliktga sabab bo‘ldi.

Mazkur vaziyatni Oldini olish choralariga aniq vakolat taqsimoti, hamkorlik, axborot almashinuvini yaxshilash va jamoaviy treninglar o‘tkazish natijasida amalga oshiriladi.

Konflikt birdaniga yuzaga kelmaydi. U muayyan bosqichlar asosida rivojlanadi bular quyidagilar hisoblanadi:

1. *Latent (yashirin) bosqich* - bu bosqichda ziddiyat mavjud bo‘ladi, ammo hali ochiq ko‘rinish olmaydi. Belgilari ishonch pasayishi, norozilik, sovuq munosabat va ichki taranglik. Muhim jihati shundaki, agar konflikt shu bosqichda aniqlansa, uning oldini olish oson bo‘ladi.

2. *Ochiq to‘qnashuv* - tomonlar ochiq qarshi harakatga o‘tadi. Belgilariga bahs, shikoyat, agressiv muloqot, emotsional reaksiyalar kiradi. Misol uchun, fuqaro xodim qaroridan norozi bo‘lib, ovozi ko‘taradi.

3. *Avj nuqtasi (kulminatsiya)* - konfliktning eng yuqori taranglik bosqichi. Belgilariga emotsional portlash, tahdid, qattiq agressiya va nazorat yo‘qolishi hisoblanadi. Bu bosqichda huquqbuzarlik, jismoniy to‘qnashuv yoki xizmat intizomi buzilishi mumkin.

4. *Pasayish va yechim* - konflikt sekin-asta susayadi va muayyan yechimga kelinadi. Yechim shakllariga murosas, mediatsiya, muzokara, intizomiy qaror

<sup>189</sup> Morton Deutsch *The Resolution of Conflict*. — New Haven: Yale University Press, 1973.

<sup>190</sup> В. П. Шейнов Управление конфликтами. — Минск: Харвест, 2010.

va sud tartibida hal etiladi. Natijalariga munosabat tiklanishi, ishonch yo‘qolishi, hamkorlik yaxshilanishi va psixologik iz qolishi mumkin<sup>191</sup>.

Konfliktning tarkibiy elementlari, turlari va rivojlanish bosqichlarini chuqur anglash ichki ishlar organlari xodimlariga quyidagilarni hosil qiladi:

- nizoli vaziyatlarni erta aniqlash;
- konfliktni deeskalatsiya qilish;
- professional muloqotni ta‘minlash;
- stressni boshqarish;
- qonuniy va konstruktiv qaror qabul qilish imkonini beradi.

Ichki ishlar organlari faoliyatida nizoni boshqarishning eng samarali usuli, bu uning prevensiyasidir. “Prevensiya” atamasi lotincha **“praeventio”** so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “oldini olish”, “ogohlantirish”, “barvaqt cheklash” degan ma‘nolarni anglatadi<sup>192</sup>.

Ilmiy nuqtai nazardan, **prevensiya** — muayyan salbiy hodisa, xavf, huquqbuzarlik yoki konfliktning yuzaga kelish ehtimolini oldindan aniqlash va uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidir<sup>193</sup>.

#### **Prevensiya strategiyalari:**

1. Tolerantlik - o‘zgacha fikr va xulq-atvorga nisbatan bag‘rikenglik;
2. Axborot ochiqligi - xodimlarga qarorlar sababini tushuntirish;
3. Psixologik monitoring - shaxsiy tarkibning ruhiy holatini muntazam tekshirish.

Konfliktni hal qilish modellari (Tomas-Kilmann matritsasi):

- **Raqobat** o‘z manfaatini o‘tkazish (faqat qonuniy talablarni bajartirishda qo‘llaniladi);
- **Moslashish** raqib manfaati uchun o‘z pozitsiyasidan voz kechish;
- **Chetlashish** nizodan qochish (vaqtinchalik yechim);
- **Kompromiss** ikki tomonning ham ma‘lum imtiyozlarga rozi bo‘lishi;
- **Hamkorlik** ikkala tomonni qanoatlantiradigan yangi yechim topish.

Eng samarali yondashuv hamkorlik uzoq muddatli ijobiy natija beradi. Buning afzalliklari ishonch, barqarorlik, jamoaviy muhit va psixologik sog‘lomlik hisoblanadi<sup>194</sup>. Misol uchun, tezkor xizmat hamda profilaktika xizmati vazifalar taqsimoti bo‘yicha kelisha olmayapti. Rahbar vazifalarni adolatli taqsimlasa, hamkorlik muhiti shakllanadi.

Muzokara tomonlarning bevosita muloqoti. Ichki ishlar organi xodimi professional muzokarachi bo‘lishi shart. Muzokara bosqichlariga tayyorgarlik, tomonlarni tinglash, muammoni aniqlash, yechim variantlarini topish, qaror qabul qilish hisoblanadi<sup>195</sup>.

<sup>191</sup> Л. А. Петровская Конфликтология: учебное пособие. — М.: Питер, 2000.

<sup>192</sup> Chris Voss *Never Split the Difference*. — New York: Harper Business, 2016.

<sup>193</sup> Б. Қодиров Педагогик конфликтология. — Т.: Tafakkur Bo‘stoni, 2015.

<sup>194</sup> Douglas Noll *De-Escalate: How to Calm an Angry Person in 90 Seconds or Less*. — New York: Atria Books, 2017.

<sup>195</sup> Thomas Gordon *Parent Effectiveness Training*. — New York: Three Rivers Press, 2000.

Mediatsiya uchinchi xolis tomon masalan, psixolog yoki tajribali faxriy yordamida nizoni hal qilish. Mediatsiyaning afzalliklari vaqt tejaydi, munosabatni saqlaydi, agressiyani kamaytiradi, sudgacha hal qilish imkonini beradi<sup>196</sup>.

Ichki ishlar organlari amaliyotida mediatsiya oilaviy nizolarni, qo‘shnichilik mojarolarini va yoshlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni hal qilishda samarali hisoblanadi. Misol uchun, ikki qo‘shni yer masalasida janjallashmoqda. Profilaktika inspektori har ikki tomonni alohida tinglab, qonun talablarini tushuntirsa va murosa taklif etsa, konflikt sudgacha hal qilinishi mumkin.



**Konflikt** — ijtimoiy munosabatlarning tabiiy qismi hisoblanadi. Uning oqibati konfliktni qanday boshqarishga bog‘liq.<sup>197</sup> Ichki ishlar organlari xodimlari uchun konfliktologiya kasbiy kompetensiya, psixologik barqarorlik, stressga chidamlilik, samarali kommunikatsiya, fuqarolar bilan ishlash madaniyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Zamonaviy huquqni muhofaza qilish tizimida konfliktlarni kuch ishlatish, bosim emas, balki muloqot, profilaktika, mediatsiya, hamkorlik va huquqiy madaniyat orqali hal qilish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Ko‘p yillik xizmat davomida fuqarolarga faqat “potensial huquqbuzar” sifatida qarash odati nizolarni ko‘paytiradi. Qarshingizdagi insonning holatini tushunishga harakat qiling, lekin hissiyotlarga berilmang.

<sup>196</sup> М. Давлетшин Умумий психология. — Т.: Ўзбекистон, 2010.

<sup>197</sup> Douglas Noll De-Escalate: How to Calm an Angry Person in 90 Seconds or Less. — New York: Atria Books, 2017.

Emotsiyalar avjida bo'lganda “affekt holati”, muloqotni pauza qilish taktik chekinish eng to'g'ri yo'ldir.



### Savol va topshiriqlar:

1. Konfliktologiya fani nimani o'rganadi va uning Ichki ishlar organlari faoliyatidagi amaliy ahamiyati nimada?
2. Konfliktning asosiy tarkibiy qismlari — ob'ekt, sub'ekt va insident tushunchalarini izohlang.
3. Ichki (intrapersonal) konflikt bilan shaxslararo konflikt o'rtasidagi farq nimada va ular ichki ishlar organlari amaliyotida qanday namoyon bo'ladi?
4. Konflikt rivojlanishining bosqichlari qaysilar va latent bosqichda nizoni aniqlash nima uchun muhim hisoblanadi?
5. Tomas-Kilmann konfliktni hal qilish modelidagi asosiy yondashuvlar qaysilar va nima sababdan “hamkorlik” eng samarali usul deb hisoblanadi?

## §5. Olomon psixologiyasi va ommaviy jarayonlarni boshqarish.

Zamonaviy dunyoda globallashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning tezlashishi va axborot oqimlarining kengayishi natijasida ommaviy jarayonlar va odamlarning stixiyali to'planishi bilan bog'liq holatlar tez-tez kuzatilmoqda. Ommaviy tadbirlar masalan sport musobaqalari, konsertlar, bayramlar shuningdek, kutilmagan ijtimoiy noroziliklar, stixiyali mitinglar yoki favqulodda vaziyatlarda jumladan, yong'in, zilzila, texnogen halokatlardagi tiqilinchlar, qisqa fursatda oddiy odamlar guruhini boshqarib bo'lmas, agressiv yoki vahimoli olomonga aylantirishi mumkin.

Jamiyatda qonuniylilikni va jamoat xavfsizligini ta'minlash ichki ishlar organlari xodimlarining bosh vazifasi hisoblanadi. Olomon to'plangan vaziyatlarda an'anaviy xizmat taktikalari yoki faqat jismoniy kuch ishlatishga tayanish ko'pincha kutilgan natijani bermaydi, aksincha, vaziyatni yanada keskinlashtirib, ommaviy tartibsizliklarga sabab bo'ladi. Olomon — bu shunchaki odamlar yig'indisi emas, u alohida psixologik qonuniyatlar asosida harakat qiluvchi “jonli organizm”dir<sup>198</sup>. Shu bois, xodimining kasbiy tayyorgarligida olomon psixologiyasini chuqur bilish, uning xulq-atvorini oldindan prognoz qilish va ekstremal sharoitlarda muzokaralar olib borish ko'nikmalariga ega bo'lish hayotiy zaruratdir.

### *Olomon tushunchasi va fenomeni*

**Olomon** — umumiy qiziqish yoki vaziyat tufayli bir joyga to'plangan, tashkiliy tuzilmaga ega bo'lmagan, ammo bir xil his-tuyg'u va harakatlar atrofida tez birlashuvchi odamlarning vaqtinchalik yig'indisidir.

Olomon psixologiyasining asoschilari **Gyustav Le Bon** “Olomon psixologiyasi”, **Gabriel Tard** “Taqlid qonuni” va **Zigmund Freyd** hisoblanadi.

<sup>198</sup> Фрейд З. *Психология масс и анализ человеческого «Я»*. — СПб.: Азбука, 2015.

Le Bon o‘zining **“Olomon psixologiyasi”** (1895-y) asarida olomonni salbiy va vayronkor kuch sifatida ta’riflaydi. Olomon ichida inson ongli shaxsdan “avtomat”ga aylanadi va quyidagi mexanizmlar ishga tushadi:

- **Anonimlik:** Shaxsiy mas’uliyat hissi yo‘qoladi.
- **Yuqumlilik:** Hissiyot va harakatlar tez tarqaladi.
- **Ishonuvchanlik:** Olomon gipnoz holatiga tushib, liderning buyruqlariga so‘zsiz bo‘ysunadi<sup>199</sup>.

**Zigmund Freyd “Guruh psixologiyasi va Ego tahlili”** (1921-y) asarida Le Bon g‘oyalarini rivojlantirib, olomonning birlashishini emotsional bog‘liqlik bilan tushuntiradi. Olomon a‘zolari o‘zlarining "Ideal-Ego"sini (ichki vijdon va ideallarini) lider timsoli bilan almashtiradilar. Lider olomon uchun “ota” figurasiga aylanadi<sup>200</sup>.

**Filip Zimbardoning asarlarida** olomonning xatti-harakatlari shaxsiyatsizlashish (deindividualizatsiya) orqali tushuntiriladi. Stendford qamoqxonasida 1971-yilda o‘tkazilgan tajribada inson anonim guruh ichida bo‘lganida, ichki axloqiy me‘yorlar kuchini yo‘qotishi va u tashqi vaziyatga (rolga) qarab ish tutishi tadqiq qilingan<sup>201</sup>.

Tadqiqotlarga ko‘ra, olomon ichida shaxs o‘z individualligini yo‘qotadi va quyidagi fenomenlar yuzaga keladi:

**Deindividualizatsiya:** Odamlar o‘z harakatlari uchun shaxsiy mas’uliyatni his qilmay qo‘yadilar “Buni men emas, hamma qilaypti”.

**Intellekt darajasining pasayishi:** Olomon ichida eng ziyoli inson ham jamiyatning eng quyi qatlami darajasida fikrlay boshlaydi. Mantiq o‘rnini his-tuyg‘ular egallaydi.

**Ishonuvchanlikning ortishi:** Olomon har qanday mish-mish, chaqiriq va shiorlarga soddalik bilan ishonadi<sup>202</sup>.

### Olomonning turlari va tasnifi

IIO xodimlari vaziyatni to‘g‘ri baholashlari uchun olomonning qaysi turga mansubligini aniqlashlari shart. Psixolog **N. Smelzer** va mahalliy yuridik psixologiya tasnifiga ko‘ra, olomon quyidagi turlarga bo‘linadi<sup>203</sup>:

Olomon turi	Tavsifi	IIO xodimlari uchun xavf darajasi
1. Oddiy (tasodifiy) olomon	Yo‘l-transport hodisasi yoki yong‘in atrofida qiziquvchanlikdan to‘planganlar.	Past, lekin agressiv turga aylanishi mumkin.
2. Konvensional olomon	Konsert, sport o‘yinlari yoki diniy marosimlarga ma‘lum qoidalar asosida to‘planganlar.	O‘rtacha. Ommaviy tartibsizlikka aylanish xavfi bor.

<sup>199</sup> Robert Cialdini Психология влияния. — СПб.: Питер, 2018.

<sup>200</sup> Sigmund Freud Психология масс и анализ Я. — М.: АСТ, 2009.

<sup>201</sup> Stanley Milgram Подчинение авторитету. — М.: Альпина нон-фикшн, 2015.

<sup>202</sup> Robert Cialdini Психология влияния. — СПб.: Питер, 2018.

<sup>203</sup> David G. Myers Социальная психология. — СПб.: Питер, 2016.

<b>3. Ekspressiv olomon</b>	O‘z tuyg‘ularini (shodlik, g‘azab, qayg‘u) faol namoyish etuvchilar (masalan, karnaval yoki siyosiy miting).	Yuqori. His-tuyg‘ular maksimal darajada bo‘ladi.
<b>4. Harakatdagi (faol) olomon</b>	Eng xavfli turi. Quyidagi 3 ta kichik turga bo‘linadi:	Kritik xavfli

### Harakatdagi olomonning kichik turlari:

**Agressiv olomon:** Maqsadi vayron qilish, kaltaklash, o‘t qo‘yish va yo‘q qilish bo‘lgan, nafrat bilan boshqariluvchi omma.

**Vahimoli olomon:** Real yoki xayoliy xavfdan qochish istagida bo‘lgan, o‘zini boshqara olmaydigan omma (masalan, yong‘inda tiqilinch hosil qilish).

**Akvizitiv (talonchi) olomon:** Moddiy boyliklarni, mahsulotlarni yoki defitsit narsalarni qo‘lga kiritish uchun bir-birini bosib-yanchishga tayyor omma<sup>204</sup>.

### Olomonda ruhiy yuqumlilik va liderlar masalasi

Olomondagi eng asosiy mexanizm — bu **psixik yuqumlilikdir**. Bunda his-tuyg‘ular va xatti-harakatlar mantiqsiz ravishda, xuddi virus kabi bir odamdan ikkinchisiga o‘tadi. Uning ishlash zanjiri:

**Affekt** → **Taqlid** → **Ishontirish** → **Liderlar**.

Olomon doimo yetakchiga (liderga) muhtoj. Olomon ichidagi liderlar ikki turga bo‘linadi: **Tashkilotchi:** Olomonni oldindan rejalashtirib, ma‘lum maqsad yo‘lida yo‘naltiruvchi shaxs, **vaziyatli (Stixiyali) lider:** Olomon ichidan hissiyotlar eng yuqori nuqtaga chiqqanda ajralib chiquvchi, baqiroq, agressiv yoki ruhiy muvozanatsiz shaxs. Uning “Olg‘a!”, “Uringlar!” degan birgina chaqirig‘i olomonni harakatga keltiradi.

Olomonni tarqatish yoki jilovlash uchun birinchi navbatda uning liderlarini aniqlash va ularni olomon ko‘zidan pana qilib (neytrallashtirib) ajratib olish zarur<sup>205</sup>.

### Olomonni boshqarish va muzokara olib borish taktikalari

IIO xodimlari olomon bilan to‘qnashganda quyidagi psixologik qoidalarga amal qilishlari kerak:

**Ovoz va ohang:** Olomon bilan gaplashganda shaxsiy mikrofon yoki karnaylardan (rupor) foydalanish, ovoz vazmin, qat‘iy, buyruq ohangida, lekin tahdidsiz bo‘lishi kerak.

**Ommani parchalash:** Katta olomonni to‘siqlar, texnikalar yordamida kichik-kichik guruhlariga bo‘lib yuborish ularning umumiy kuchini va yuqumlilik darajasini keskin kamaytiradi.

**Diqqatni chalg‘itish:** Olomon kutayotgan voqeadan boshqa kutilmagan bayonot yoki hodisa bilan ularning diqqatini sovutish<sup>206</sup>.

<sup>204</sup> Elliot Aronson *Общественное животное*. — М.: Прайм-Еврознак, 2006.

<sup>205</sup> Henri Tajfel *Социальная идентичность*. — М.: Питер, 2004.

<sup>206</sup> Еникеев М. И. *«Юридическая психология»*. — М.: Норма, 2016.

## Amaliy keyslar va muzokaralar tahlili

### Keys №1. Agressiv (siyosiy/ijtimoiy) olomon bilan muzokara

**Vaziyat:** Korxonada yoki hokimiyat binosi oldida 500 nafardan ziyod ishchi ish haqi berilmagani yoki qarordan noroziligi sababli to'plandi. Olomon ichidan "Binoga bostirib kiramiz!", "Hokim chiqsin!" degan chaqiriqlar yangramoqda. Vaziyat agressiv fazaga o'tmoqda.

**Xodimining xatosi:** Muzokaraga chiqib, olomonga baqirish, "Tarqaling, aks holda kuch ishlatamiz!" deb tahdid qilish. Bu olomonning g'azabini yanada olovlantiradi.

**To'g'ri psixologik taktika:** IIO vakili va mas'ul shaxs karnay orqali vazmin ovoz bilan: *"Hurmatli fuqarolar, talabingiz qonuniy va tushunarli. Biz sizni eshitishga tayyormiz. Iltimos, ichingizdan talablarni bayon qiluvchi 3 yoki 5 nafar vakilni saylab ajrating, ularni binoga taklif qilamiz va masalani ko'rib chiqamiz"*, deb murojaat qiladi.

**Psixologik ta'siri:** Olomon o'z vakillarini saylash jarayoniga o'tadi. Shaxssiz olomondan konkret fikrlaydigan guruh ajraladi. Vaziyatning emotsional harorati keskin tushadi.

### Keys №2: Stadiondagi vahimali olomoni to'xtatish

**Vaziyat:** Futbol o'yini yakunida tribuna ostidagi yo'lakda yong'in chiqqanligi haqida kimdir baqirdi (yolg'on yoki chin). Minglab odamlar bitta tor chiqish eshigi tomon yugurdi. Tiqilinch boshlandi, odamlar bir-birini bosib yanchmoqda.

**Xodimining xatosi:** Olomon oqimi yo'nalishiga qarshi turib olib, yo'lni to'sishga urinish.

### To'g'ri psixologik taktika:

Karnay orqali baland, buyruq beruvchi, vazmin va aniq yo'ro'qnoma beriladi: *"Diqqat! Vahimaga o'rin yo'q! Asosiy chiqish eshigi ochiq! Zahira chiqish yo'llari o'ng tomonda! O'ng tomonga harakatlaning!"*

Olomon ichidagi nisbatan xotirjam erkaklarni nomlab chaqirish: *"Ko'k kurtkalik aka, yoningizdagi bolani qo'lidan ushlang! To'xtang! Siz chapga yuring!"* Bu buyruq vahima zanjirini uzadi.

### IIO xodimlari uchun eslatma:

- **Olomon bilan hech qachon bahslashmang va unga mantiqni tushuntirishga urinmang.** U baribir eshitmaydi. Olomon faqat qisqa, aniq buyruqlarni tushunadi<sup>207</sup>.

- **Emotsional "ko'zgu" bo'lmang.** Olomon sizga baqirsa, siz unga baqirmang. Sizning xotirjamligingiz ularning hissiyotini so'ndiruvchi suv vazifasini bajarishi kerak<sup>208</sup>.

- **Liderni ommadan ajratib oling.** Agar olomoni harakatga keltirayotgan konkret shaxs bo'lsa, tezkor guruh yordamida uni sezdirmasdan olomon ichidan sug'urib olish vaziyatni 80% ga barqarorlashtiradi<sup>209</sup>.

<sup>207</sup> Лебон Г. «Психология народов и масс» . — М.: Академический проект, 2011. — 240 с.

<sup>208</sup> Тард Г. «Мнение и толпа» . — М.: Институт психологии РАН, 1999. — 304 с.



### Savol va topshiriqlar:

1. Olomon psixologiyasi deganda nima tushuniladi va nima sababdan olomon “jonli organizm” sifatida tavsiflanadi?
2. Gustave Le Bon olomon psixologiyasini qanday izohlagan va uning asosiy mexanizmlari nimalardan iborat?
3. Olomonning asosiy turlari qaysilar va agressiv, vahimali hamda akvizitiv olomon bir-biridan qanday farqlanadi?
4. Olomonda “psixik yuqumlilik” fenomeni qanday ishlaydi va liderlarning olomon xatti-harakatiga ta’siri nimada namoyon bo‘ladi?
5. Ichki ishlar organlari xodimlari olomonni boshqarishda qanday psixologik taktikalardan foydalanishi kerak?

---

<sup>209</sup> Бехтерев В. М. «Внушение и его роль в общественной жизни» . — СПб.: Питер, 2001. — 256 с.

**1-§. Shaxsiy gigiyena**

Insonlarning hayot tarzi, ularning sanitariyaga doir bilimdonligi, bu bilimlarini kundalik turmushda qo'llay olishlari va unga qat'iy rioya qilishlari, o'z organizmlari va badanlariga bo'lgan ongli munosabatlari, o'z salomatliklariga bo'lgan munosabatlari sog'liqni saqlashdagi eng muhim sharoitlar hisoblanadi. Ana shu elementlar salomatlikni, jismoniy va ruhiy faollikni, uzoq umr ko'rish, umrni uzaytiruvchi omillar hisoblanadi.

Har bir muayyan shaxsning salomatligi birinchi navbatda uning hayot tarziga, ana shu turmush tarzi elementlariga ongli yondoshishiga bog'liqdir. Shular bilan bog'liq holda aytish lozimki, sog'lom turmush tarzi asosida atrof muhitda bor bo'lgan barcha omillarning organizmga ta'sir etishi mumkinligi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish, ana shu omillardan o'zining salomatligi uchun foyda keltiradigan tomonlaridan samarali foydalana olishi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun bugungi kundagi shaxsiy gigiyena tushunchasi avvaldan bizga ma'lum bo'lgan tushunchadan biroz farq qiladi.

Bugungi kundagi **shaxsiy gigiyena** – har bir odam (shaxs)ning kundalik turmushdagi turli tuman gigiyenik qoidalarning o'ziga xos jihatlariga og'ishmay rioya qilishi demakdir. Ammo, shu bilan bir qatorda gigiyenik bilimlarga ega bo'lgan har bir odam o'zining salomatligi va mehnat qobiliyatini o'zi bema'lol boshqara oladi, biroq hammamizga ma'lum bo'lgan atrof-muhit omillari shunchalik turli-tumanki, ularning hammasini bir odam boshqara olmasligi ham mumkin.

Gigiyenik bilimlarga ega bo'lgan har bir ongli odam o'zining kundalik ovqatlanish tartibi va ovqatli moddalarning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini bilishi va unga og'ishmay amal qilishi, kun tartibiga rioya qilishi, mehnat va dam olish sharoitlarini yaratishi, o'zining badani, kiyim-kechagi, turar-joylarini toza saqlashi, badanini chiniqtirishi uchun tabiiy omillardan unumli foydalana olishi, jismoniy tarbiya mashqlarini bajarishi, zararli odatlarga o'rganmaslik, oilada va ish joylarida eng muvofiq psixologik munosabatlarni o'rnatish, odamlar bilan o'zaro munosabatlarni yaxshilash kabilarni o'zi boshqarishi mumkin.

Keltirilgan omillarning tutgan o'rnini to'g'ri baholash va bu omillardan o'zining salomatligi uchun ijobiy foydalana oladigan odamlardan hozirgi kundagi keng tarqalgan kasalliklarni kamaytirish mumkinligini kutish mumkin. Odamlarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish har qanday davlatdagi sog'liqni saqlash tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

**Badan gigiyenasi**

**Teri gigiyenasi** terini parvarish qilish, teri faoliyatini me'yorida saqlash va kasalliklardan muhofaza qilish uchun zarur. Odam badanini qoplab turgan teri organizmni tashqi zararli ta'sirlardan: sovuq qotish, qizib ketish, namlik, mexanik va kimyoviy shikastlanishlardan himoya qiladi, modda almashinuvida faol ishtirok etadi. U mikroblardan saqlaydi. Teri sirti undan ajraladigan lizotsim birikmasi

muhofaza vazifasini o'taydi. Teriga tushadigan ko'pgina bakteriyalar lizotsim ta'sirida nobud bo'ladi, shuningdek, teri organizmning asosiy issiqlik muvozanatini saqlaydi. Tana harorati ko'pincha atrof-muhit haroratidan yuqori bo'ladi. Shu sababli organizm issiqlikni to'xtovsiz ravishda ajratib turish bilan birga, ayni vaqtda, tana haroratini muayyan darajada saqlash uchun sarflangan issiqlik o'rnini to'ldirib turadi.

Odam terlaganda teri orqali ter bilan birga organizm uchun keraksiz va zararli moddalar bilan birga organizm uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan osh tuzi va C vitamini ham ajralib chiqadi. Terlash faqat organizm holatigagina emas, balki uni o'rab turgan tashqi muhitga ham bevosita bog'liq.

Terining yog' bezlari orqali ajratiladigan yog' terini yumshatib, uni qurib qolishidan va shikastlanishdan saqlaydi.

Quyosh yog'dusi ta'sirida teri sathida D vitamini sintezlanadi. Bu o'z vaqtida K va Ca tuzlari almashinuvini yaxshilab, suyaklarning to'g'ri rivojlanishini ta'minlaydi.

Terining kasallanishi butun organizmga ta'sir qiladi. Shuningdek, ayrim sistemalar, chunonchi, asab, ichki bezlar, yurak-tomir va ovqat hazm qilish sistemalari faoliyatining buzilishi teri faoliyatiga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.

Tashqi muhit - iqlim sharoitlari, ovqatlanish ham terining ishiga katta ta'sir qilishini unutmashlik lozim. Teri, ayniqsa, uning ochiq qismlari kun bo'yi ozmi-ko'pmi chang bilan qoplanadi. Bordi-yu shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilinmasa, changlar ter va yog' bilan aralashib, ter va yog' bezlarining kanalchalarini berkitib qo'yadi, natijada teri o'zining barcha muhim vazifalarini o'tay olmaydi. Odam doimo pokiza bo'lib, chiniqib yursa terisi sog'lom bo'ladi. Tozalik - teri gigiyenasining eng muhim shartidir. Terini ifloslanishdan saqlash uchun muntazam ravishda haftada bir-ikki marta cho'milish kerak.

Sovunlar ishqorli va moyli bo'ladi. Yog'li sovunlardan bolalar sovuni "Yaichnoe" sovunlari aksariyat teriga yaxshi ta'sir qiladi. Ayniqsa, terisi quruq kishilar shunday sovunda yuvinishlari foydali.

Yuz gigiyenasi - sog'lom teri bug'doy rang yoki pushti rangli bo'lib, tabiiy tusda bo'ladi. U nozik, ajinsiz va mayin bo'ladi.

Har bir odam o'z yuz terisini ozoda, sog'lom, nozik, tiniq va ajinsiz bo'lishiga harakat qilishi kerak. Yuz terisi chiroyiga nuqsonlarni berkitib turuvchi va sun'iy husn beruvchi turli xil pardoz vositalaridan foydalanish bilan emas, balki yuz terisini muntazam ravishda gigiyenik parvarish qilish, shuningdek, ichki a'zolar va tashqi muhitning ta'sirlaridan asrash orqali erishish mumkin.

To'g'ri ovqatlanish, me'da-ichaklarning holatini kuzatib borish masalalari, spirtli ichimliklar va har xil dorilarni bilar-bilmas iste'mol qilmaslik, sabzavot, mevalar va ko'katlarni ko'proq yeb turish kerak. Vaqtida ishlab, vaqtida dam olish bularning jami yuz terisini sog'lomlashtirish va go'zalligini saqlashning asosiy shartidir.

Qo'l gigiyenasida tirnoqlar ozodaligiga alohida e'tibor berish lozim. Tirnoqning asosiy vazifasi barmoq uchini mexanik zararlanishdan saqlash. Tirnoqni tez-tez olib turish kerak. Tirnoq o'sib ketsa, iflos bo'lib, turli mikroblar saqlashidan tashqari, salga sinib, barmoq terisini shikastlantiradi.

Soch gigiyenasi. Sochni erinmasdan har kuni tarash, haftada bir marta sovunlab yuvish kerak. Soch yuvilganda chang bilan birga mikroorganizmlar ham yuvilib ketadi. Bosh terisi juda quruqlashib ketmasligi uchun haftada 1–2 marta yuvsa ham bo‘ladi. Soch moylarini ko‘p qo‘llanilishi yaramaydi, chunki bunda sochlarning tabiiyligi yo‘qoladi.

Qadim zamonlardan beri O‘rta Osiyoda yashovchi mahalliy ayollar sochlarini qatiqda yuvishni odat qilganlar. Qatiq bilan yuvilgan sochning tabiiy rangi, mayinligi va o‘sinh tezligi o‘zgarmaydi, lekin achigan qatiqni ishlatish hamda uni toza yuvmaslik natijasida aksariyat boshda qo‘lansa hid hosil bo‘ladi. Dimiqqan sochda parazitlarning rivojlanishiga imkon tug‘iladi. Shu bois, bosh qatiqlab yuvilgach, “Bolalar sovuni” yoki shampun bilan iliq suvda hid qolmaguncha yuvish lozim.

Og‘iz bo‘shligi va tishlarni parvarish.

Og‘iz bo‘shligi va tishlarni kasallanishdan himoya qilish uchun ham ularni parvarish qiladigan vositalarni to‘g‘ri tanlash katta ahamiyatga ega. Og‘iz bo‘shligining normal holati deganda - oppoq va toza tishlar, silliq va toza holdagi og‘iz shilliq pardasi, og‘izdagi normal mikroflora tushuniladi. Og‘iz bo‘shligi va tishlarni parvarish qilish uchun har kuni ertalab va kechqurun - uxlash oldidan tish poroshogi yoki tish pastasi bilan tish cho‘tkasi yordamida tishlarni tozalash lozim.

Og‘iz bo‘shligini parvarish qilish vositalari ikki guruhga bo‘linadi:

mexanik vositalar - qattiq ovqatli moddalarni chaynash, tish cho‘tkalaridan foydalanish, tish oralarini tozalagichlari kabilar. Bu vositalar tish oralari va tish-milk cho‘ntaklarida qolib ketadigan ovqatlardan tozalar va tishlarda hosil bo‘ladigan yumshoq pardalarni yo‘qotish uchun qo‘llanadi;

fizik-mexanik vositalar - tish yuvish poroshogi va tish yuvish pastalari, og‘iz bo‘shligidagi tishlarning fiziologik holatlariga muvofiq turli xildagi pastalardan foydalanish mumkin. Sog‘lom tishlar uchun oddiy gigiyenik tish yuvish pastalarining o‘zi kifoya qiladi, chunki ularning tarkibida cho‘ktirilgan bo‘r moddasi, yoqimli hid va ta‘m beruvchi aromatik moddalar va glitserin moddasi bor. Og‘iz bo‘shligi va tishlarda biron bir kasalligi bor bo‘lgan shaxslar uchun esa davolovchi - profilaktik pastalardan foydalanish tavsiya qilinadi. Bunday pastalar tarkibiga turli xildagi aralashmalar, ya‘ni og‘izning shilliq pardasini yallig‘lanishidan saqlovchi va antibakterial vositalar qo‘shilgan bo‘ladi.

Tishlarni har kuni muntazam ravishda parvarish qilish ovqat hazmini yaxshilaydi, yoqimsiz hidni yo‘qotadi, tishlarni sog‘lom va chiroyliligini ta‘minlaydi. Tish kasalliklarini oldini olish maqsadida har yili 2–3 marta stomatologga borib, profilaktik tekshiruvdan o‘tib turish zarur.

Oyoq terisini ham parvarish qilib turish shart. Tovon terisi ancha qalin bo‘lib, unda ter bezlari bo‘ladi. Oyoq yaxshi parvarish qilinmasa, terlaydi, natijada yoqimsiz hid chiqadi va teri bichiladi.

Barmoqlar orasi shilinmasligi va ozodalik uchun oyoqni yotishdan oldin sovunlab yoki iliq suvda yuvishga odatlanish kerak.

Har kuni sovunlab yuvilsa, teri zaiflashib qoladi va tashqi muhit ta‘siriga chidamsiz bo‘lib qoladi.

Hisoblashlarga ko'ra har bir kishi kuniga qo'l, oyoq, yuzni yuvishi uchun o'rtacha 6-8 gramm, jumladan, 1 oyda taxminan 200-250 gramm sovun sarflar ekan. Issiq iqlim sharoitida ko'p terlash, terining quruqlashishga moyilligi sovundan ko'p foydalanishni talab qilmaydi.

Kiyim-kechakka bo'lgan gigiyenik talablar.

Kiyim-kechak va poyabzal gigiyenik jihatdan hamda estetik talablarga javob berishi, yaxshi kayfiyat uyg'otishi bilan birga, ish qobiliyatini pasaytirmasligi kerak. Kiyim va poyabzal kiygan kishi unda o'zini erkin his qilishi lozim. Shu sababli, kiyim-bosh va poyabzallar qanday matodan tikilishi va kim kiyishidan qat'iy nazar, hamisha yaxshi sifatli, davr talabiga va gigiyena talablariga javob berishi lozim.

Kiyim-kechak kishi organizmini tashqi muhitning har qanday ta'sirlari (issiq, sovuq, qor, yomg'ir, shamol)dan muhofaza qilishi, shuningdek, har qanday ob-havo sharoitida ham tana haroratini bir me'yorda tutib turishiga yordam berishi zarur.

Kiyim tikiladigan matolarga nisbatan fizik va gigiyenik talablar qo'yiladi. Uning og'irligi, qalinligi, havo o'tkazish xususiyati, namlikni o'tkazish-o'tkazmasligi kabi xususiyatlari e'tiborga olinadi.

Bundan tashqari, kiyim tikiladigan matoning nurni o'zidan qaytarishi, yumshoqligi, yuvganda va dazmollaganda dastlabki ko'rinishini yo'qotmasligi, tez kirdan tozalanishi, chang yutishini ham hisobga olish lozim.

Kiyim organizmni yozda issiqdan, qishda sovuqdan va har xil tashqi ta'sirlardan asrashi lozim.

Gigiyena jihatidan beqam-u ko'st libos tanada o'ziga xos mikroiklim hosil qiladi. Bu esa kishining salomatligini yaxshilash bilan birga kayfiyatiga ham ko'tarinkilik bag'ishlaydi.

Kiyimlar issiqlik o'tkazishiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Hayvon terisi va parranda patlaridan tayyorlangan kiyim issiqlikni juda kam o'tkazadi. Ip, zig'ir tolasi va shohi matolar issiqlikni ko'proq o'tkazadi. Jun va ip-gazmollardan tikilgan kiyimlar issiqlik o'tkazish jihatidan o'rtacha hisoblanadi.

Faslga qarab ham har-xil kiyimlar kiyiladi, ya'ni qishda bir necha kiyim ustma-ust kiyiladi. Bunda kiyimlar orasidagi havo issiqlikni kam o'tkazadi. Ayni vaqtda organizmni tashqi muhit haroratining o'zgarishidan himoya qiladi. Kiyimni faslga qarab to'g'ri tanlash salomatlikni saqlashda muhim ahamiyatga ega.

O'rta Osiyo iqlimi quruq va keskin kontinentalligi bilan farq qiladi. Yoz faslida kunlar juda isib ketadi, namlik juda kam bo'ladi. Bahor va kuz faslida havo harorati ancha o'zgaruvchan bo'lib, kuchli shamol esadi, namlik yuqori bo'ladi. Qish faslida esa havo harorati past va oqimi kuchli bo'ladi.

Shuning uchun havo haroratiga qarab kiyimlarning gigiyenik xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlash maqsadga muvofiqdir.

Kiyimlik mato o'zida elektrostatik zaryadlarni mumkin qadar kam saqlaydigan, organizmga ta'sir qiladigan mayda zarrachalarni (chang, bakteriya) o'tkazmaydigan bo'lishi kerak.

Ichki kiyim (badanga tegib turadigan) namlikni, havoni yaxshi o'tkazadigan hamda gigroskopik bo'lishi lozim. Bunday kiyim organizmdan chiqadigan

karbonat angidrid, ter hamda teri orqali ajraladigan boshqa moddalarni, jumladan, suvda eruvchi vitaminlarni, moddalar almashinuvida hosil bo'ladigan zaharli birikmalarni tashqi muhitga chiqarib yuborish xususiyatiga ega bo'ladi.

Shuningdek, kiyimlik matoni yuvish va tozalash oson bo'lishi lozim. Kiyim yil fasliga, kishining jinsi, yoshi, gavdasi, bo'yi va bajaradigan ishi xususiyatiga mos bo'lishi kerak.

**Kiyim quyidagi asosiy gigiyenik talablarga javob berishi lozim:**

- quruqligida va namligida ham havoni yaxshi o'tkazishi;
- issiqda namni-terni shimadigan va tez quriydigan;
- quyosh nurini qaytaradigan va teriga ta'sir qilishiga yo'l qo'ymaydigan;
- badanga yopishib turmasligi (ter bug'lanishiga halaqit bermasligi);
- elektrostatik zaryadlardan holi bo'lishi lozim.

Qishlik kiyimning issiqlik o'tkazish xususiyati kam bo'lishi kerak. Kech kuz va qish fasllarida, havo sovuq paytlarda, faqat bir qavat ichki kiyim kiyish kamlik qiladi.

Kiyim qavatlari orasida havo almashinib turadigan bo'lishi uchun uni sal kengroq tikish lozim. Quyosh yog'dusini o'zida yutadigan qora va jigarrang matodan tikilgan kiyimlar yilning sovuq fasllarida kiyiladi. Oq rang esa quyosh nurini qaytaradi, shu tufayli O'rta Osiyo sharoitida, asosan, ochiq rangli ip va ipakdan tikilgan kiyimlar kiyiladi.

Kiyim har bir odamning o'ziga loyiq bo'lishi shart. Tor libosda odam erkin harakat qila olmaydi, bundan tashqari, organizmda qon aylanishi buziladi. Dag'al gazmoldan tikilgan kiyim terini ta'sirlab, har xil teri kasalliklarini keltirib chiqarishi mumkin.

O'zbekiston iqlimi sharoitida yoz oylarida quyosh nuri tik ta'sir qilganda, albatta bosh kiyim kiyish zarur. U faqat boshnigina emas, balki ko'zni ham quyosh nuridan himoya qiladi.

Bosh kiyim issiqni kam, havoni yaxshi o'tkazadigan, quyosh nurini ko'proq qaytaradigan matodan tikilishi va yengil bo'lishi kerak. Eng yaxshisi oddiy ip matodan tikilgan bosh kiyim–gardishi keng shlyapa bo'yinni va hatto yelkani ham quyosh nuridan himoya qiladi.

Kiyimning gigiyenik xususiyatlari. Havo harorati qanday bo'lishidan qat'iy nazar, organizm haroratini muvozanatda saqlay olish xususiyati kiyimga qo'yiladigan asosiy gigiyenik shart hisoblanadi. Kiyim, asosan, tabiiy (paxta, zig'ir), hayvon (jun, ipak), sun'iy (kapron, neylon, lavsan, shtapel) tolalardan to'qilgan matolardan tikiladi.

Matoning havo o'tkazuvchanligi qancha yuqori bo'lsa, uning issiqni saqlash xususiyati shuncha past bo'ladi. Bu xususiyat, asosan, matoning xossasiga, qalinligiga, tolasining yo'g'on-ingichkaligiga, to'qilishi va g'ovakligiga bog'liq.

Namni yaxshi o'tkazadigan matodan tikilgan kiyim terning bug'lanishiga yordam beradi. Yupqa va silliq matolar namni tez bug'lantiradi, jundan to'qilgan kiyimlar esa, paxta tolasidan to'qilgan kiyimlarga nisbatan namni sekin bug'lantiradi va organizm haroratini bir me'yorda saqlaydi. Namgarchilikda bir necha qavat kiyim kiygan ma'qul, chunki kiyimlar orasidagi havo hisobiga u yerda

o'ziga xos "mikroiqlim" hosil bo'ladi. Mikroiqlim harorati ustki kiyimning o'tkazuvchanlik xususiyatiga bog'liq.

Tabiiy tolalar. Turmushda tabiiy, ya'ni o'simlik tolalari (paxta, zig'ir)dan to'qilgan matolarga ehtiyoj katta.

Bir xil tolalardan har xil gigiyenik xossalarga (issiq, sovuq, qalin, dag'al, g'ovak) ega bo'lgan kiyim-boshlar tikiladi.

Junning issiqlik o'tkazmaslik xususiyati yuqori bo'lib, zig'ir va ipak tolasi undan keyingi o'rinda turadi.

Ip gazlamadan to'qilgan kiyim yuvilganda yoki nam tortganda o'zining dastlabki ko'rinishini yo'qotadi. Issiqni saqlash xususiyati ham kamayadi.

Jundan to'qilgan gazlamalarning gigroskopik xususiyati yuqori bo'lib, boshqa tabiiy tolalarga nisbatan namni yaxshi shimadi. Pishiq to'qilgan, yumshoq va g'ovak matolar gigiyena talablariga mos keladi.

Sun'iy tolalar. Sun'iy tolalar o'tgan asrda birinchi marta yog'och sellyulozasidan olingan.

Sun'iy tolalardan tikilgan kiyimlarning asosiy kamchiligi—nam tortganda uzoq vaqt quriydi va quriyotganda organizmdan issiqlikni ko'p tortib oladi. Unda elektrostatik zaryadlar paydo bo'ladi. Bu zaryadlar kishi badaniga noxush ta'sir qiladi, yani terini qichishtiradi, badanga va kiyimga yopishadi.

Sintetik kiyimlar namni kam shimishi tufayli, ter va yog' bezlari faoliyatiga salbiy ta'sir qiladi. Har xil teri kasalliklariga sabab bo'lishi mumkin.

Lavsan tolasi jun tolasidan 3 baravar mustahkam bo'lib, issiqqa va kimyoviy ta'sirga, quyosh nuriga chidamli, yuvganda o'zgarmaydi. Ko'pincha tabiiy tolalar bilan sintetik tolalar qo'shib to'qiladi. Bunda mato pishiq, havo o'tkazadigan, g'ijimlanmaydigan va gigiyena talablarga javob beradi.

Poyabzalga qo'yiladigan gigiyenik talablar. Baland poshna, tor poyafzal kishini tez charchatadi, oyoqda qadoq paydo qiladi, tovonning uzoq muddat qisilib turishi tufayli oldin panja, keyin oyoqning hamma yeri jabrlanadi. Oqibatda yassi oyoqlik paydo bo'ladi, doimo qisilib turishi natijasida esa barmoqlar qiyshayib, shilinishi hamda bo'g'inlar yallig'lanishi mumkin.


Poyabzal yengil, qulay, chidamli, yil fasli, ob-havo va mehnat sharoitiga mos bo'lishi kerak.

Paypoqsiz rezina kalish kiyish mumkin emas. Rezina poyabzal oyoqni terlatadi. Yog'in-sochinda va sovuq kunlarda oyoq sovqotadi, natijada oyoq og'rig'i va boshqa kasalliklarga chalinish mumkin.

Yoz faslida, mumkin qadar, usti ochiq, tagi charm tufli kiygan yaxshi. Bunday poyabzal o'zidan havoni va namni yaxshi o'tkazadi.

Ayniqsa sandal oyoq uchun qulay va yengil. Sovuqda ichi jundan tikilgan, ustiga charm qoplangan poyabzal kiygan ma'qul. Bahor va kech kuzda charm etik, botinka (paypoq yoki paytava bilan) kiyish kerak. Poyabzalni har kuni tozalab, moylab turish kerak. Shunda u yumshoq bo'lib, ko'pga chidaydi.

Poshnasi baland (ayollar) poyabzal tana og'irlik markazining surilishiga olib keladi. Bu esa umurtqa pog'onasining qiyshayishiga, ichki a'zolarining o'rnidan siljishiga sabab bo'ladi (1-rasm). Oqibatda har xil kasalliklar kelib chiqadi.



1-rasm.

Uyda kiyiladigan, ishlik va ko‘chalik poyabzal bo‘ladi.

Tik turib ish bajaradigan odamlarga poshnasi 3 sm.li tufli yoki botinka kiyish tavsiya qilinadi. Avval oyoqqa paypoq, keyin poyabzal kiygan ma‘qul. Paypoq havoni yaxshi o‘tkazadigan va terni tez shimadigan matodan to‘qilgan bo‘lishi lozim. Jun paypoq qishda oyoqni issiq tutadi va shamollashdan asraydi.

Oyog‘i terlaydigan kishilar faqat tabiiy matodan to‘qilgan paypoq kiyishlari lozim.

Oyoqni qisib turadigan rezina bog‘ichlar qon aylanishini buzadi va turli kasalliklar, oyoq venalarining varikoz kengayishiga sabab bo‘ladi.

Ichki kiyimlar. Ich kiyimlarni haftada bir marta almashtirib turish kerak. Tekshiruvlardan ma‘lum bo‘lishicha, ich kiyimda 6 kundan keyin 4-5 %, 10 kunda esa 11 % gacha kir yig‘ilar ekan. Ip gazlamadan to‘qilgan ich kiyim qaynatib yuvilganda bir yo‘la ham kirdan, ham mikroblardan tozalanadi.

Ko‘rpa va yostiq jildlar, choyshabning ip gazlamalardan tikilgani ma‘qul. Bularni kraxmallash (ohorlash) tavsiya etilmaydi. Ohorlangan matolar o‘zidan havoni kam o‘tkazishi bilan birga namlikni shimmaydi.

Ko‘rpa, yostiq jild va choyshablarni har 7-10 kunda tozasiga almashtirib turish shart.



### Savol va topshiriqlar:

1. Shaxsiy gigiyena va sog‘lom turmush tarzining inson salomatligi hamda uzoq umr ko‘rishdagi roli nimalardan iborat?
2. Terining inson organizmi uchun asosiy vazifalari qaysilar va nima sababdan tozalik teri gigiyenasining eng muhim sharti hisoblanadi?

3. Soch va tirnoqlarni parvarish qilishda qanday gigiyenik qoidalarga rioya qilish lozim (masalan, qatiqda yuvishning o'ziga xos tomonlari)?

4. Kiyim-kechak va mato tanlashda qanday fizik-gigiyenik talablar (namlik shimishi, havo o'tkazuvchanligi va h.k.) inobatga olinishi kerak?

5. Noto'g'ri tanlangan poyabzal (masalan, tor yoki juda baland poshnali) inson salomatligiga, xususan, qad-qomat va ichki a'zolarga qanday salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin?

## 2-§. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish

**Birinchi tibbiy yordam** – bu zarur chora-tadbirlar evaziga jarohatlanganlar hayotini saqlab qolish, kelib chiqishi mumkin bo'lgan asoratlarning oldini olish, kasallik va jarohat kechuvini yengillashtirishdir. Kundalik hayotda eng ko'p uchraydigan baxtsiz hodisalar tufayli yuzaga keladigan jarohatlanishlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

mexanik jarohatlanish; kuyish, issiq va oftob urish; sovuq urishi va umumiy muzlash; cho'kish va yer bosib qolishi tufayli bo'g'ilish; is gazidan zaharlanish; elektrdan jarohatlanish; chaqmoqdan shikastlanish va boshqa holatlar kiradi.

Birinchi tibbiy yordam voqea sodir bo'lgan joyda shikastlanganning o'zi (o'z-o'ziga yordam) yoki boshqa kishi tomonidan (o'zaro yordam) hamda maxsus o'rgatilgan shaxslar tomonidan ko'rsatiladi. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatishda, eng avvalo, zudlik bilan shikastlovchi manba (omil)ni aniqlash, uni yo'qotish, har bir jarohatda tavsiya qilinadigan tibbiy yordam choralari qo'llash, shifokorni chaqirish yoki jarohatlangan fuqaroni yaqin oradagi tibbiyot muassasasiga olib borish kerak. Ba'zi hollar, deylik, kuchli qon ketganda, suyaklar og'ir singanda, es-hush yo'qotilganda, nafas olish va yurak faoliyati to'xtaganda, bemorga o'sha zahoti shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish zarur. Bunday vaziyatda jarohatlanganlarni transportirovka qilish mumkin emas va reanimatsiya chora-tadbirlarini qo'llash kerak. Reanimatsiya (jonlantirish) – bemorni hayotga qaytarishga, uning organ va to'qimalaridagi qaytmas o'zgarishlarning oldini olishga qaratilgan, zudlik bilan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmui. Bunda, birinchi navbatda, bemorning nafas olishi va qon aylanishini tiklashga hamda ushlab turishga erishiladi.

Birinchi tibbiy yordam voqea sodir bo'lgandan keyin iloji boricha qisqa fursat ichida ko'rsatilishi kerak. Agar bir paytda bir necha kishi jarohat olsa, ko'rsatiladigan yordam muddati va ketma-ketligi aniqlanadi. Bolalarga va shoshilinch yordamga muhtoj kishilarga birinchi galda zarur yordam ko'rsatiladi. Masalan, son suyagi ochiq sinib arteriyadan qon ketib turganda, eng avvalo, qonni to'xtatish, jarohatga steril bog'lam qo'yish va shundan keyingina oyoqni qimirlamaydigan qilib bog'lash kerak. Buning uchun maxsus shinadan yoki qo'l ostidagi vositalardan foydalanish kerak.

Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish IIO xodimidan ehtiyotkorlik va hushyorlikni talab qiladi. Har bir yordam usullarini bajarishda bemor yoki shikastlangan kishining sog'ligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Agar birinchi tibbiy yordam ko'pchilik tomonidan amalga oshirilayotgan bo'lsa, bunda guruh

ichidan bir kishiga rahbarlik topshiriladi. Qolaversa, bu vaziyatda jarohatlangan kishi uchun to'g'ri tashxis qo'yish ham muhim sanaladi. Tashxis kasallik yoki jarohatning sub'ektiv va ob'ektiv belgilarini aniqlash asosida qo'yiladi. Sub'ektiv belgilarga bemor yoki jarohatlangan kishining shikoyatlari (agar uning es-hushi joyida bo'lsa) kiradi. Ob'ektiv belgilarga esa kasallik va jarohatning tashqi belgilari yoki ma'lum uslubiy yondashuv orqali aniqlanadigan (masalan, pulsni (tomir urishini) o'lchash, nafas olish va chiqarishning miqdori, reflekslar singari.) belgilar kiradi. Ob'ektiv va sub'ektiv belgilar umumiy va shu holat uchun xos bo'lishi mumkin. Shu sababli, bu belgilarni aniqlash va taxminlash yo'li bilan dastlabki tashxisni qo'yish, shu asosida zarur yordamni ko'rsatish mumkin.

Birinchi yordam vositalari, jarohatlanganlarni transport yordamida tashish. Tez tibbiy yordam ko'rsatishda birinchi yordam vositalari tabel va qo'l ostidagi vositalarga bo'linadi. Tabel vositalariga bog'lov materiallari, bintlar, tibbiy bog'lov paketi, steril bog'lov materiallari, salftkalar, paxta va boshqalar kiradi. Masalan, qon ketishini to'xtatishda jgut, immobilizatsiya uchun fanerli, narvonsimon, to'rsimon shinalar kabi tabel vositalari qo'llaniladi.

Birinchi tibbiy yordam ko'rsatishda ba'zi dori-darmonlar ham qo'llaniladi: yodning 5 foizli spirtli eritmasi, brilliant ko'ki (zelyonka)ning 1–2 foizli spirtli eritmasi, validol tabletkasi, valeriana tindirmasi, novshadil spirti, natriy gidrokarbonat tabletkasi yoki poroshogi, vazelin va boshqalar.

Shuningdek, birinchi yordam ko'rsatishda qo'l ostidagi vositalardan, masalan, toza choyshab, ko'ylak, mato (oq mato), karton, faner, taxta, yog'och va boshqalardan foydalaniladi. Odatda, birinchi tibbiy yordam tabel vositalari jamoat yoki shaxsiy transportlardagi aptechkalarda ham bo'ladi.

Jarohatlanganlar turli transport vositalari, jumladan, avtomobil, poezd, samolyot, vertolyot, kemalar, sanitar va moslashtirilgan transport vositalarida tashiladi. Shikastlanganlar bir yoki bir necha kishi yordamida tashilishi mumkin. Zambil yordamida tashish eng samarali va xavfsizroq usul sanaladi. Oyoqlar va bosh suyak shikastlanishida bemorni chalqancha yotqizish, umurtqa pog'onasi suyaklari singanda esa qorni bilan yotqizish lozim. Agar umurtqa pog'onasi suyaklari jarohatlangan kishi chalqancha yotqizilsa, unda zambilga yog'och shit yoki keng taxta qo'yish kerak. Qorin va tos suyaklari shikastlanganda jarohatlangan kishi chalqancha yotqizilib, oyoqlar bir oz tashqariga kengaytiriladi, tizza va son bo'g'imlari bukiladi. Tizza bo'g'imlari tagiga kiyimdan yostiqcha qo'yiladi. Shikastlanganlarni tashishi paytida (zambilda yoki transportda) ularning umumiy holatini, bog'lam yoki immobilizatsiya shinasining to'g'ri qo'yilganligini ko'zdan kechirish lozim. Gorizontal tekis yerda transportirovka qilishda bemorning oyoq sohasi old tomonda bo'ladi. Agar jarohatlangan es-hushini yo'qotgan bo'lsa, uning bosh tomoni oldinda bo'ladi. Chunki, bu holatda uning holatini kuzatib borish mumkin. Yuqoridan pastga tushirilayotganda shikastlanganning oyoq sohasi oldinda, ko'tarilayotganda esa, aksincha, bosh sohasi oldinda bo'ladi.

Transport vositasida tashish paytida bosh suyagi, umurtqa pog'onasi shikastlanganlar, og'ir yaralanganlar pastki qatorlarga (chayqalishni kamaytirish uchun) joylashtiriladi.

Baxtsiz hodisalar, tabiiy ofat va turli falokatlar vaqtida voqea sodir bo'lgan joyda jarohatlanganlar soni ko'p bo'lishi tabiiy. Shu bois, voqea joyidagi tibbiyot xodimi yoki birinchi tibbiy yordam ko'rsatish ko'nikmalariga ega bo'lgan shaxs hodisa oqibatlarini bartaraf qilish uchun qo'llaniladigan chora-tadbirlarni o'tkazish bo'yicha javobgar bo'ladi. U quyidagi vazifalarni amalga oshirishi kerak:

shikastlanish turi bo'yicha jarohatlanganlar guruhlarini tashkil qilish; hayotiy ko'rsatmalar bo'yicha tez tibbiy yordam ko'rsatish; jarohatlanganlarni ularning holati va jarohati darajasidan kelib chiqib, zudlik bilan davolash muassasasiga evakuatsiya qilish.

Kriminal hodisa ro'y berganda tibbiyot xodimlari huquq tartibot organlari kelgunga qadar quyidagi vazifalarni bajaradilar:

- hodisa sodir bo'lgan joydan begona kishilarni chiqarish;
- hodisa ro'y bergan joydagi jihozlar (mebellar, jinoyat qurollari va har xil anjomlar)ni o'z holicha saqlab turish;
- jarohatlanganlarga zarur tez tibbiy yordam ko'rsatish.
- voqea sodir bo'lgan joyda o'lim belgilari (murda dog'lari, murda qotishi) aniqlanganda, murda qay holatda va ko'rinishda topilgan bo'lsa, shundayligicha saqlash.

Zaharlanish holatlarida voqeaga aloqador barcha predmetlar ehtiyotkorlik bilan saqlanishi kerak. Oziq-ovqatdan zaharlangan yoki intoksikatsiya belgilari mavjud bemor so'roq qilinganda, qaysi mahsulotlar zaharlanishga sabab bo'lganligini va uning qayerdan keltirilganligini aniqlash lozim. O'lim sodir bo'lgan holatlarda qon dog'lari va ifloslangan sohalarni yuvib tashlash mutlaqo man qilinadi va tibbiyot xodimi zudlik bilan bu haqda ichki ishlar organlariga xabar berishi kerak. Murda faqat ichki ishlar yoki prokuratura organlari ruxsatidan keyingina voqea sodir bo'lgan joydan olib ketiladi.

Kriminal holat haqidagi barcha ma'lumotlar operativ yoki voqea sodir bo'lgan joyga yetib kelgan xodim tomonidan faqat tergov organlari vakillariga hamda tez yordam xizmati ma'muriyatiga xabar qilinadi. Agar sodir bo'lgan voqeaning kriminal xarakterda ekanligi aniqlansa, u holda bu haqda stansiya katta navbatchi shifokori xabardor qilinishi kerak. Jarohatlanganlar hospitalizatsiya qilinganda, tibbiyot xodimi u qaysi kasalxonaga yotqizilganligini "Tez yordam stansiyasi"ga xabar beradi.



### Savol va topshiriq:

1. Birinchi tibbiy yordamning asosiy maqsadlari nimalardan iborat va reanimatsiya (jonlantirish) choralari qaysi holatlarda qo'llaniladi?
2. Jarohatlanganlarni tashishda (transportirovka qilishda) shikastlanish turiga qarab qanday qoidalarga amal qilish lozim (masalan, umurtqa pog'onasi yoki bosh suyagi shikastlanganda)?
3. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatishda ishlatiladigan vositalar necha turga bo'linadi va ularga nimalar kiradi?
4. Kriminal (jinoiy) xususiyatga ega bo'lgan hodisa joyida tibbiyot xodimi yoki yordam ko'rsatuvchi shaxs huquq-tartibot organlari kelguniga qadar qanday vazifalarni bajarishi shart?

### 3-§. Qon ketishi. Qon ketganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish

Qon aylanish doirasi tomirlaridan to'qimalarga, tashqi muhitga yoki biror bo'shliqqa qonning chiqishiga *qon ketishi* deyiladi. Og'ir shikastlanishlarda ko'p qon yo'qotilishi tufayli o'lim yuz berishi mumkin. Bemorlar hayotiga katta xavf tug'diruvchi holatlar, asosan, ko'p miqdorda qon yo'qotilganda paydo bo'ladi, ya'ni bu hol qon aylanish doirasida umumiy qon hajmining keskin kamayib ketishi va to'qimalarning kislorod bilan ta'minlanishi buzilishi tufayli kelib chiqadi. Arterial qon tomirlarida sistolik bosim 70 mm. simob ustunidan pastga tushganda hayot uchun xavfli holat yuzaga keladi.

Kattalarda tana vazniga qarab 4–5 litrga yaqin qon bo'ladi. Shundan 60 % ga yaqini qon tomirlarida va 40 % esa depo a'zolarida (jigar, taloq, suyak iligi sohasida) bo'ladi.

Ba'zan katta bosimda va yuqori tezlikda qon ketganda (400–600 ml), yo'qotilgan qon hajmi unchalik ko'p bo'lmasa-da, o'lim holati yuz berishi mumkin. Chunki bunday qon ketishi vaqtida yurakka borayotgan qon hajmining keskin kamayib ketishi sababli tomirlarda aylanayotgan qon hajmi, shu qon aylanish doirasi hajmiga to'g'ri kelmaydi. Qon ketishining hajmi va tezligi jarohatlangan tomirning katta-kichikligiga, jarohatning yuza yoki chuqur kesilganligiga hamda ezilib ketganligiga ham bog'liq bo'ladi. Chunki kesilgan jarohlardan ezilgan jarohlarga nisbatan ko'proq qon ketishi mumkin.

Qon yo'qotishda erkaklar ayollarga nisbatan bir oz chidamsiz bo'ladi, bu esa ayollarda hayz ko'rish bilan bog'liq. Qariyalarda qon ketishi ko'pincha, ularda uchrab turadigan hamroh kasalliklar – xafaqonlik, ba'zi tizimli kasalliklar, sindromlar va yuqumli kasalliklar (sepsis, ko'kyo'tal, vitaminlar yetishmovchiligi, nur kasalligi, xolemiya – qonning o't suyuqligi bilan zaharlanganligi) natijasida qon tomir devorlarining zaiflanishi tufayli ro'y beradi. Inson hayoti uchun o'ta xavfli bo'lgan qon ketishlar qon kasalliklari (gemofiliya, leykemiya, trombositopeniya) bor bemorlarda uchraydi. Qon ketishining yuz berishida ba'zi bir dori-darmonlarning ham o'z o'rni bor (antikoagulyantlar, aspirin). Bu o'rinda ba'zi tabiiy omillarning, ya'ni atrof-muhit haroratining yuqoriligi, atmosfera bosimining pasayib ketganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Qon ketishi yoki qonning biror yerda to'planib qolishiga nisbatan turli xil atamalar qo'llaniladi. Teri ostida to'planib qolgan kam hajmdagi qon to'plamasi "*petexiya*", shilliq parda ostidagisi esa "*purpura*" deb ataladi. Teri yoki shilliq parda ostiga to'plangan katta maydondagi qonning to'planishiga "*ekximoz*" deyiladi.

Katta hajmda, ammo chegaralangan maydondagi to'qimalar orasidagi bo'shliqqa to'plangan qonga "*gematoma*", burundan qon ketishiga "*epistaxis*", oshqozondan qon ketishiga "*gastroragiya*", qon aralash hayz kelganda "*gematomezis*", siydikning qon aralash chiqishiga "*gematuriya*", bachadondan qon ketishiga "*metroragiya*" deyiladi. Bulardan tashqari, biror bir a'zo bo'shlig'iga qon to'planishiga qarab ham o'zgacha atamalar ishlatiladi: "*gemoperikardium*" – yurak xaltasida qon yig'ilishi, "*gematoraks*" – o'pka plevra

bo'shlig'ida qon yig'ilishi, "*gemoperitonium*" – qorin bo'shlig'iga qon yig'ilishi kabi atamalar ishlatiladi .

Qon ketishining bir nechta amaliy ahamiyatga molik turlari farqlanadi.

Anatomik, ya'ni a'zo turlariga qarab arterial, venoz, kapillyar va aralash qon ketishlarga bo'linadi. Arterial qon ketishda qon och qizil rangda bo'lib, katta bosim ostida, favvora ko'rinishida otilib chiqadi. Arterial tomirlar jarohatlanganda, ularning o'lchamiga bog'liq bo'lmagan holda, qisqa vaqt ichida organizmda kamqonlik yuz berib, o'limga sabab bo'lishi mumkin. Vena tomirlaridan ketayotgan qon to'q qizil rangda bo'lib, bir maromda va sekin, "buloq" ko'rinishida oqish xususiyatiga ega. Katta venalar jarohati tufayli qon ketishi yuz bersa, inson hayoti uchun katta xavf tug'ilishi mumkin. Kapillyarlardan qon ketganda jarohatning butun yuzasi bo'ylab kam miqdorda, bir maromda, tomchi ko'rinishida qon sizib chiqadi. Ko'pincha, kapillyarlardan ketayotgan qon o'z-o'zidan to'xtaydi. Parenximatoz (g'ovak) a'zolar (jigar, taloq, o'pka) jarohatlanganda qon ketishi juda xavfli kechadi, ular tomirlarining o'z holicha yopilmasligi sababli, qon ketishi to'xtamaydi va tez kamqonlik holatlari kelib chiqadi.

Qon ketishining tashqi, ichki va yashirin klinik turlari farqlanadi. Qon ketishining tashqi turida qon tomir devorining jarohati tufayli ketayotgan qon tashqariga oqadi. Bunday hollarda jarohatlanganning o'zi yoki yordam beruvchilar hech qanday qiyinchiliksiz uni aniqlashlari mumkin. Ichki qon ketish jarayoni nisbatan murakkab kechib, ketayotgan qon biror-bir a'zo qobiqlarida to'plangan tarzda yoki qorin va ko'krak qafasi bo'shliqlariga ketishi mumkin. Ichki qon ketayotganligini, faqat o'tkir kamqonlik ko'rsatkichlari va ikkilamchi asoratlar boshlangandagina aniqlash mumkin. Ichi bo'sh a'zolaridan qon ketishida mahalliy va umumiy o'zgarishlar, ya'ni ketayotgan qon ma'lum vaqt mobaynida tashqariga chiqishi va rangi o'zgarib ketishi kuzatiladi. Masalan, oshqozonidan qon ketayotgan bemorlarda qayt qilish kuzatiladi, chiqayotgan qon esa qahva qoldiqlari rangida bo'ladi.

Ichki qon ketish surunkali ravishda kechib, asosan, a'zolarida o'tkir kamqonlikni chaqiradi va maxsus qon tahlillari ko'rsatkichsiz tashxis qo'yish juda qiyin bo'ladi.

O'tkir yoki surunkali qon ketish turlari haqidagi tushunchalar faqat qon ketish tezligi va yo'qotilgan hajmiga nisbatan aytiladi. Inson hayotida eng xavfli qon ketish turi bu o'tkir qon ketishidir. Qisqa vaqt ichida yo'qotilgan katta miqdordagi qon yetishmovchiligiga inson organizmi tez moslasha olmaydi, natijada o'lim hollari nisbatan ko'p uchraydi. Surunkali qon ketishda esa kamqonlik sekinlik bilan rivojlanadi, natijada inson organizmi bu yangi holatga asta-sekin moslashib oladi.

Sekinlik bilan kechadigan katta hajmdagi qon ketishdan qisqa fursat oralig'ida kechadigan o'tkir, kam miqdordagi qon ketish xavfliroqdir. O'tkir qon ketishda gemoglobin miqdorining 30 % gacha kamayishi katta xavf uyg'otadi. Shunga qaramasdan surunkali ravishda gemoglobin miqdorining 75–80%ni yo'qotgan bemorlarning umumiy ahvoli nisbatan qoniqarli bo'lishi mumkin.

**Qon ketishining klinik ko‘rinishlari.** Qon ketishida mahalliy va umumiy simptomatik o‘zgarishlar yuz beradi. Qon ketishining umumiy belgilari qon ketishi turlaridan qat’i nazar bir xil kechadi. Qon ketishining xususiy (sub’ektiv) alomatlari sovuq ter, kamquvvatlik, bosh aylanishi, nafas yetishmovchiligi, og‘iz qurishi ko‘rinishida kechadi. Yana quloqlarda shang‘illash, ko‘z oldi tinishi va badanda “chumolilar o‘rmalashi” kabi alomatlar kuzatilishi mumkin. Yuqoridagi alomatlar va bemor shikoyatlarining ko‘payib borishi qon ketishining qanday tezlik va hajmda o‘sib borishiga bevosita bog‘liqdir. Katta miqdorda qon ketishi, o‘tkir kamqonlik, ya’ni gemmoragik shok klinikasining har xil og‘irliklarida kechishi mumkin. Masalan, butun qon aylanish doirasida aylanayotgan qon hajmining 20-25% (1000-1200 ml) miqdorida qon yo‘qotilganda, bemorlarda sovuq ter, keskin kamquvvatlik, og‘iz qurishi va tomir urishining bir minutda 100 tadan oshib ketishi kuzatiladi. Bunday hollarda arterial qon bosimi me’yorida yoki bir oz pastroq bo‘lishi ham mumkin.

Umumiy qon aylanish doirasidagi qonning 30-35% (1500–1750 ml)ga yaqini yo‘qotilganda, bemorlarda o‘ziga bo‘ysunmagan holdagi harakatlar, notinchlik, teri va shilliq pardalarining oqarib ketishi, lablarning ko‘karishi, tananing uvishishi va tomir urishining 120 tadan oshib, arterial bosimning 70-90 mm. simob ustunigacha tushib ketishi hamda siydik ajratishning kamayishi (oliguriya) kuzatiladi.

Umumiy qon aylanish doirasidagi qon hajmining 35-40% (1750-2000 ml)ni yo‘qotgan bemor ahvoli ancha og‘ir, yuz ifodalari mungli, tanasi sovuq ter bilan qoplangan, terisi oqimtir-ko‘kish rangda, tanasining ochiq joylarida haroratning tushib ketganligi va tomirning ipsimon va tez-tez urishi aniqlanadi.

Umumiy qon aylanish doirasidagi qon hajmining 50% (2500 ml)ni yo‘qotgan bemorning ahvoli keskin og‘irlashadi, arterial bosim aniqlanmaydi, tomir urishi minutiga 160 tadan ortib ketadi, yurak asistoliyasi (yurakning to‘xtab qolishi) sababli qisqa vaqt ichida o‘lim holatiga olib kelishi mumkin.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, o‘tkir qon ketishining dastlabki vaqtlaridayoq inson organizmining qon aylanish doirasining markazlashishi arteriya bosimini nisbatan bir me’yorda ushlab turadi. Shuning uchun ham bu yerda boshlanayotgan taxikardiya (yurak urishining tezlashishi)ga ahamiyat berib, uni katta qon yo‘qotishning asosiy va birinchi belgisi sifatida qarashimiz kerak.

Qon ketishining mahalliy belgilari (simptomlari) uning qayerdan ketayotganligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. Tashqi qon ketishida qon tashqi muhitga chiqadi. Bunday hollarda bemor ko‘zdan kechirilganda qon chiqayotgan jarohat holatiga, yo‘nalishiga va katta-kichikligiga ahamiyat berish lozim.

Shu bilan birgalikda, jarohatdan ketayotgan qon qanday tomirdan, arteriyadanmi, venadanmi yoki aralash ko‘rinishdaligiga ham e’tibor berish kerak. Jarohatning pastki qismidan barmoqlar bilan paypaslab arteriya tomirining urishini aniqlash arteriya qon tomirining butunligi haqida dalolat beradi. Tomir urishining sezilmasligi uning batamom uzilganligidan dalolat berib, jarohatning pastki qismidagi a’zolar muzlashi va rangining oqarib ketishi kuzatiladi. Bunday hollarda a’zolar (to‘qimalarga kislorod va oziq moddalar yetishmasligi tufayli) gangrenasi (to‘qimalar o‘limi) kelib chiqadi.

Jarohatdagi arteriyaning bir devori shikastlangan bo'lsa, bunday hollarda jarohat atrofida tomir urishi ko'rinishidagi gematomalar (qon to'plangan bo'shliq) hosil bo'ladi. Yumshoq to'qimalar va muskullar oralig'iga qon yig'ilsa, og'riq, shish va a'zolar harakatining chegaralanishi kuzatiladi. Hosil bo'lgan gematoma yuzasi barmoq bilan bosib ko'rilganda, yuzaga yumshoq kirib, barmoqni qaytarib olgan zahoti uning tiklanish simptomi kuzatiladi. Qon bo'g'im bo'shlig'iga to'plansa, gemartroz, ya'ni bo'g'im yuzasi tekislanib, shishishi kuzatiladi. Og'riq va harakatning chegaralanganligiga qaramasdan, uni harakatga keltirish mumkin.

Tizza bo'g'imiga qon yig'ilganda tizza yuzasi oshig'ining erkin harakati kuzatiladi. Bunday hollarda tizza bo'g'imi rentgenografiya qilinganda ikki suyak oralig'idagi masofaning uzaygani kuzatiladi. Gematoma va gemartroz tashxislari mazkur bo'g'implar punksiyasi, ya'ni qon yig'ilgan bo'g'implardan igna orqali qonni so'rib ko'rish usullari asosida qo'yiladi. Gemartroz tashxisi aniqlangandan so'ng bo'g'implardagi harakatlarni chegaralab, oldin punksiya, keyin immobilizatsiya qilinadi.

Ko'krak qafasining plevra bo'shlig'iga yig'ilgan qon (gemotoraks) ko'p hollarda qovurg'alar orasidagi yoki ko'krak qafasi arteriyalarining jarohatlanishi tufayli kelib chiqadi. Plevra bo'shlig'ida yig'ilgan qon oqib, burchak sinuslariga yig'iladi. Bunday hollarda bemorni kasallik belgilari bezovta qilmasligi ham mumkin. Plevra bo'shlig'ida yig'ilgan o'rta miqdordagi qon bemorda og'irlik va ko'krak qafasida og'riq, nafas yetishmasligi belgilarini chaqirishi mumkin. Plevra bo'shlig'ini qon butunlay, ya'ni total egallagan holatlarda o'pkalar butunlay siqilgan, yurak va oraliq a'zolari qarama-qarshi tomonlarga surilgan, qon harakati va nafas olishda katta o'zgarishlar kuzatiladi. Klinik belgilardan nafas yetishmasligi, ko'karish, tomir urishining tez va yuza bo'lishi, arteriya bosimining pasayishi kuzatiladi.

Ko'krak qafasi barmoqlar bilan urib ko'rilganda o'tmas tovush, auskultativ (fonendoskop orqali eshitib ko'rilganda) ko'krak qafasi orqa tomonlarida juda sustlashgan nafas eshitiladi. Ko'krak qafasi rentgenoskopik tekshirilganda butunlay bir xil ko'rinishda torayishi, yurak va oraliq a'zolarining u yoki bu yonga qiyshayganligi kuzatiladi. Ko'p hollarda tashxis plevra bo'shlig'i punksiyasi yo'li bilan tasdiqlanadi. Kam miqdorda qon yig'ilgan hollarda plevra bo'shlig'i qayta punksiya yoki tarokotsentez yo'li bilan drenajlash, agar ko'p miqdorda qon yig'ilgan bo'lsa, shoshilinch reviziya qilib, qon tomiri butunligini tiklash maqsadida torakotomiya operatsiyasi bajariladi. Plevra bo'shlig'iga katta miqdorda qon ketishi o'tkir kamqonlik belgilari bilan kechadi.

Qorin bo'shlig'iga qon ketishi ko'p hollarda g'ovak (parenximatoz) a'zolar (jigar va taloq) jarohatlanganda va bachadondan tashqari homiladorlikda, bachadon naylarining yorilib ketish hollarida yuzaga keladi. Bunday hollarda, ko'pincha, umumiy qon ketish belgilaridan tashqari, mahalliy belgilar ham ahamiyatga egadir. Qon ketish davrida qorin nafas olishda cheklangan, ko'krak qafasi bilan bir xil tekislikda bo'ladi. Qorin bo'shlig'i paypaslanganda uning devori mushaklari taranglashgan, barmoqlar bilan bosib qo'yib yuborilganda kuchli og'riq kuzatiladi (shetkin - blyumberg belgisi). Qorin bo'shlig'i perkussiya (barmoq uchi bilan urib ko'rilganda uning pastki qismlarida o'tmas, yuqori qismlarida esa jarangdor

(timpanit) - havo to'ldirilgan shar tovushini beradi. Qon ketish klinikasida qayt qilish va ko'ngil aynishlar ham kuzatiladi. Yuqoridagi belgilar bilan birgalikda bemor organizmida o'tkir kamqonlik belgilari ham rivojlanib boradi. Qorin bo'shlig'i g'ovak a'zolari jarohatlaridan ketayotgan qon hech qachon o'z-o'zidan to'xtamaydi, shu tufayli bunday hollarda shoshilinch operatsiya qilish tavsiya qilinadi.

**Qon ketishining asoratlari va oqibatlari.** Qon ketishi to'xtatilmasa, bemorni gipoksiya (to'qimalarda kislorod taqchilligi), qon aylanish doirasida qon hajmining yetishmasligi va gemmoragik shok yuz berishi sababli o'limga olib kelishi mumkin.

O'ta nozik a'zolariga, masalan, bosh miyaga kam miqdorda qon quyilganda ular faoliyatining to'xtatishi va o'lim yuz berishi mumkin. Bosh miyaning asosiy sohasida to'rtinchi qorincha joylashgan, unda inson hayot faoliyatini boshqaruvchi markazlar joylashgan. Shuning uchun bu sohaga qon quyilganda hayot uchun xavfli bo'lgan holatlar yuz beradi.

Yurak pardasi (perikard) ichiga diastola vaqtida yig'ilayotgan qon yurak parda ichida katta manfiy bosim paydo qilib, yurak bo'lmachalari kengayishiga yo'l qo'ymaydi va yurak tamponadasi tufayli o'lim holati ro'y beradi.

Ba'zi katta qon tomirlar jarohatida (bo'yin katta venalari) havo emboliyasi holati yuzaga keladi.

**Qon ketishi davrida organizmning tashqi va ichki o'zgarishlarga moslashishi.** Qon ketishi vaqtida inson organizmi sodir bo'layotgan xavfli o'zgarishlarni bartaraf etish maqsadida bor ichki imkoniyatlarini ishga soladi. Bunday hollarda qon ketishiga o'ta sezgir a'zo va to'qimalarni saqlab qolish maqsadida boshqa a'zolar hisobiga ham ish tutishga majbur bo'ladi.

Asosan, bunday moslashish harakatlari surunkali qon ketish hollarida yengil kechadi, ammo o'ta xavfli o'tkir qon ketishi vaqtida esa bunday moslashishga ulgurmasligi ham mumkin. Natijada a'zo va to'qimalarda sodir bo'ladigan o'zgarishlar sababli o'lim holatlari yuz berishi mumkin. Qon ketish davrida organizmning moslashish o'rnini qoplash (kompensator) mexanizmlari, asosan, quyidagilardan iborat:

- 1) qon ketayotgan tomirning ichki qavatida tromblar hosil bo'lishi;
- 2) yurak va nafas olish faoliyatining to'qimalarda kislorod yetishmovchiligini bartaraf qilish maqsadida tezlashishi;
- 3) butun tanada harakatlanayotgan qon hajmining, depo a'zolaridagi qon va to'qimalar oralig'idagi suyuqliklarning qon tomiriga jalb etilishi evaziga ortishi;
- 4) yurak va bosh miya faoliyatlarini ushlab turish maqsadida tananing pastki va qorin bo'shlig'i a'zolari tomirlarining qisqarishi evaziga tananing qon bilan ta'minlanishining markazlashishi;
- 5) turli neyro-endokrin va gumoral omillarning arterial qon bosimini bir maromda tutib turish maqsadida qo'zg'alishi, bosh miya faoliyatining kislorodsiz (anaerob) sharoitlarga chidamliligini oshirish maqsadida simpatiko-adrenal va glyukokortikoid tizimlarning yordamga chorlanishi;

6) qon hujayralari ishlab chiqarilishi (gemopoez) va qon ivishining tezlashishi.


**Qon ketganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.** Qadim zamonlarda ham insonlar tan jarohatlari olganlarida qon ketishining oldini olish maqsadida jarohat yuzasini bosib yoki qattiq bog'lab qo'yganliklari haqida ma'lumotlar bor.

Qon ketishini to'xtatish usullarini vaqtincha va butkul to'xtatishga ajratish mumkin. Qon ketishini vaqtinchalik to'xtatish usullarini, ko'p hollarda, tibbiyotga daxldor bo'lmagan insonlar bajaradi. Shu tufayli bunday usullarni barcha bilishi shart. Qon ketishini vaqtincha to'xtatish usullari kutilmaganda sodir bo'ladigan holatlarda qo'l keladi. Ayrim hollarda qonni to'xtatishga qilingan urinishlar qon tomirida tromb hosil bo'lishi sababli qon ketishining butkul to'xtashga olib kelishi mumkin. Qon ketishini to'xtatish usullari bir nechta, ammo bu usullarni qo'llash jarohatlangan tomir qay ahvolda va jarohat o'rniga ham bog'liqdir. Ayrim hollarda qon ketishni to'xtatish usullarining bir nechtasini qo'llash mumkin.

Yuza vena va kichik arteriyalardan qon ketishi holatlarini bosib turuvchi bog'lamlar yordamida to'xtatish mumkin. Jarohat yuzasiga sterillangan yumaloq shar ko'rinishidagi paxta qo'yilib, bir necha qavat doka bilan yaxshilab bog'lanadi. Bunday hollarda bosib bog'langan tomirlar o'tkazuvchanligi yo'qolib, tromb hosil qiladi. Bundan tashqari, bu usul boshqa, ya'ni oyoq va qo'llarni ko'tarib qo'yish usullari bilan birgalikda ham bajarilishi mumkin.

Agar qon ketayotgan jarohat oyoqlar uchida joylashgan bo'lsa, bunday hollarda oyoqni bo'g'imidan maksimal bukib qo'yish usullaridan foydalanish mumkin. Bukilayotgan bo'g'im oralig'iga yostiqcha qo'yilib, bo'g'im bukib bog'lanadi. Agar qon ketishi barmoqlar, panja sohalarida bo'lsa, bilak bo'g'imidan, oyoq barmog'i va panjalarida bo'lsa, tizza bo'g'imidan, son sohasida bo'lsa, tizza va tos-son bo'g'imlari birgalikda bukib bog'lanadi.


Agar qon ketishi arterial qon tomiridan kuzatilganda jarohatdan yuqori sohadan bosib to'xtatiladi va keyingi muolajalar sharoitga qarab bajariladi (2 - rasm).



2 - rasm

Chakka yumshoq to'qimalari jarohati tufayli bo'layotgan qon ketishi holatlarida, qon ketishini to'xtatish arteriyani suyakkabosish harakatlari bilan amalga oshiriladi. Bunday hollarda arteriyani topish uncha qiyin ish emas. Quloqni tashqi kirish sohasi yuqorisidan bitta barmoq bilan bosish orqali ham maqsadga erishish mumkin. Yuz sohasida esa arteriyaning pastki jag'ning gorizontal chiziq bilan kesib o'tgan joyidan bosib, qon oqishini to'xtatish mumkin.

Umumiy uyqu arteriyasidan qon ketishi vaqtida arteriya VI bo'yin umurtqasining ko'ndalang o'simtalariga bosiladi. Bunday muolajalar, asosan, bosh barmoqni bo'yinning orqa qismiga, qolgan barmoqlarni esa oldingi qismiga qo'yib amalga oshiriladi yoki buning aksi ham bo'lishi mumkin (3 - rasm).




3 - rasm

O'mrov osti arteriyasini birinchi qovurg'aga bosish bilan ham qon ketishi to'xtatiladi. Bunday muolajalar III-IV barmoqlar bilan to'sh-o'mrov so'rg'ichsimon muskulning orqa-tashqi qirg'og'ini I qovurg'aga bosish yo'li bilan bajariladi.

Qo'ltiq osti arteriyasini yelka suyagi boshcha qismiga bosish bilan qon ketishining oldi olinadi. Bemor qo'li tashqariga ochilgan holda yotqizilib, bosh barmoq qo'ltiq osti yuqori qismiga bosilib, qolgan barmoqlar esa yelkaning tashqi tomonidan o'rab turadi.

Yelka arteriyasini yelka suyagiga, ya'ni ikki boshli mushakning bosh qismi birikkan joyga, bilak va tirsak arteriyalarini esa suyaklarga bosish yo'li bilan qon ketishining oldi olinadi (4 - rasm).



4-rasm

Son arteriyasidan qon ketganda qonni to'xtatish uchun chov boylami uchidan ichkarigi qismini bosh barmoqlar bilan bosish orqali amalga oshiriladi.

Bunday hollarda boshqa nuqtalardan bunday urinishlar son arteriyasining chuqur va qalin mushaklar ostida yotganligi sababli, samara bermaydi (5- rasm).



5 - rasm

Tizza osti arteriyasidan qon ketishini to'xtatish son suyagi pastki qismi orqasidan oldinga bosish bilan amalga oshiriladi, bunda tizza bo'g'imining bir oz bukilgan holda bo'lishi muolaja samaradorligini oshiradi. Zarur bo'lganda tashqi yonbosh arteriya va qorin aortasini ham bosish mumkin. Bunday hollarda bemorni orqasiga yotqizib, son-chanoq bo'g'imidan bir oz bukib, qorin mushaklarini erkin holga keltirish zarur. Shundan keyingina kaft musht holiga keltirilib, qorin aortasi umurtqaga, tashqi yonbosh arteriyasi esa suyaklarga bosiladi.


Venalardan qon ketgan vaqtda, arteriyalardan qon ketishidan farqli, qon to'xtatish jarohatning pastki (distal) qismining yumshoq to'qimalariga bosish orqali ham amalga oshiriladi.

Qon ketishida har xil bog'lovchi (jgut) matolar yordamida qon to'xtatish eng qulay usullardan biri bo'lib, o'ziga xos kamchiliklarga ham ega. Bog'lovchi matolar yordamida qon to'xtatish usullari, asosan, arteriya qon ketishlarida, jarohatdan yuqori sohalarga qo'yish orqali amalga oshiriladi. Ularni, asosan, qon to'xtatishning boshqa choralari bo'lmagan hollarda, 1,5-2 soatgacha qo'yish mumkin. Aks holda, to'qimalarda qon aylanishning keskin buzilishi sababli to'qimalar nekrozi (o'limi) va gangrenasiga, bu esa a'zolarining ma'lum qismini amputatsiya qilinishiga olib keladi. Ba'zida qattiq siqib bog'langan sohalarda yumshoq to'qimalari oralig'ida gematoma, nekroz va nerv tolalarining jarohatlanish hollari kuzatiladi. Nerv to'qimalarining jarohatlanishi parezlar, gohida esa a'zolar falajiga sabab bo'ladi.

Keng tarqalgan bog'lovchi matolar rezinalardan tayyorlanadi.

Rezina naydan iborat Esmarx bog'lamining bir qismida ilgak, ikkinchi qismida esa halqa bo'lib, bu maxsus moslama bog'lovchi matoni biriktirishni qulay va oson qiladi. Boshqa bog'lovchi vosita sifatida kengligi 2 sm. kamarsimon rezina ishlatish mumkin. Uning bir qismida tugma, ikkinchi qismida esa teshiklar shaklidagi moslama bo'lib, mahkamlash uchun juda qulaydir. Jarohatlangan a'zoning pastki qismini qon to'xtatuvchi bog'lam qo'yishdan oldin yuqoriga ko'tarib, vena qoni chiqarib yuboriladi. Bog'lovchi matolar vaziyat talabiga qarab har xil bo'lishi mumkin.

Masalan, bog'lovchi qayishqoq bo'lmagan mato (belbog', kamar) oddiy ip yoki ro'molchalardan iborat bo'lsa, qon to'xtatuvchi bog'lam qo'yilayotganda uncha qattiq tortmasdan, uning tagiga biror-bir mato o'rab, so'ngra 10-15 sm. uzunlikdagi sterjen (cho'p, ruchka, qalam) yordamida burash kerak. Bunday hollarda sterjenni burash bilan bog'lamni keragicha tortish mumkin (6-rasm).



6-rasm


Bog'lam qo'yilgandan so'ng qo'yilgan vaqti yorliqqa yozib ko'rsatiladi. Bog'lam qo'yish muddati yozda 2 soat, qishda esa 1,5 soatdan oshmasligi kerak. Agar jarohatlangan odamni shu muddat ichida shifoxonaga yetkazib borishning iloji bo'lmasa, bog'lam yechilib, 10–15 minut davomida qon ketayotgan tomir barmoq bilan bosib turiladi, keyin bog'lam yuqorida ko'rsatilgan talab bo'yicha qaytadan boshqa joyga qo'yiladi. Faqat davomiyligi birinchi marta qo'yilgandagi vaqtning teng yarmiga qisqaradi.

Jgutning to'g'ri qo'yilganligini tekshirish ko'pincha, jgut yelka va son sohasiga qo'yiladi. Agar haqiqiy tibbiy jgut bo'lmasa, u holda qo'lga ilingan istalgan matoni "burama – jgut" shaklida qo'llash mumkin. Ammo arqon va simni ishlatish man qilinadi, chunki ular to'qimalarni shikastlaydi. Tibbiy jgut egiluvchan rezina tasma bo'lib, oxirgi uchida qo'l va oyoqqa mahkamlanadigan moslamasi bor.

*Jgut qo'yish texnikasi.* Jgutni ikki qo'llab ushlab, yengil tarang qilib, har bir aylanmani oldingisi bilan yonma-yon qo'yib, so'ng jgut mahkamlanadi. Burama jgut qo'yish uchun mato (ro'molcha, bint)ni arqonsimon holatda o'rab, qo'l yoki oyoqqa tugun shaklida bog'lanadi, so'ng kichik tayoqcha yordamida qon oqishi to'xtaguncha buraladi (6 - rasm).

Tayoqcha buralib bo'shab ketmasligi uchun uni alohida bog'lab qo'yiladi. Qon ketishi to'xtagach, jarohatga bog'lam qo'yiladi.

Jgut qo'yishda quyidagi qoidalarni esda tutish kerak (7-rasm):



7-rasm.

1) jgut, asosan, songa yoki yelkaga qo'yilishi lozim, chunki u yerda bitta suyak bor;

2) jgut tanaga to'g'ridan-to'g'ri qo'yilmaydi, albatta, uning ostiga biror nima qo'yish kerak;

3) jgutni yozda 2 soatdan, qishda 1,5 soatdan oshmagan muddatga qo'yish mumkin;

4) jgut qo'yilgan vaqtni aniq qilib yozib, yopishtirib qo'yish kerak.

Jgut qo'yilgandan so'ng uning to'g'ri yoki noto'g'ri qo'yilganligini aniqlash katta ahamiyatga ega. Buning uchun qo'l va oyoqlardagi puls aniqlanadi. Agar puls yo'q bo'lsa, jgut to'g'ri qo'yilgan bo'ladi. Biron sababga ko'ra, 1,5-2 soat davomida bemorni kasalxonaga olib borishning iloji bo'lmasa, u holda 10-15 minutga jgut bo'shatiladi va bir vaqtning o'zida barmoq bilan jarohatdan yuqorisi bosib turiladi. Qish vaqtida oyoq va qo'lni o'rab, issiq saqlash tavsiya qilinadi.

Kichik o'lchamli arteriya yoki vena shikastlanganda siqib turuvchi bog'lam qo'yish kifoya. Qon ketishini vaqtinchalik to'xtatishda jarohatga steril doka yoki bint hamda paxta qo'yib bog'lanadi. Uncha katta va chuqur bo'lmagan jarohatlarga yuqoridagi usulni qo'llash qon ketishini batamom to'xtatish chorasi hisoblanadi. Qolgan hollarda batamom qon to'xtatish uchun jarrohlik klinikalarida tikish, bog'lash yoki shikastlangan tomirlarni kuydirish kabi usullar ishlatiladi.



### Savol va topshiriq:

1. Qon ketishining anatomik turlari (arterial, venoz va kapillyar) bir-biridan qanday belgilari bilan farq qiladi?
2. Ichki qon ketishi (masalan, qorin yoki ko'krak qafasi bo'shlig'iga) qanday klinik alomatlar va mahalliy belgilar orqali aniqlanadi?
3. Odam organizmidagi umumiy qon hajmini uchdan bir qismidan ko'prog'i (35-40%) yo'qotilganda bemorning ahvolidagi qanday og'ir o'zgarishlar kuzatiladi?
4. Qon ketishini vaqtincha to'xtatish uchun arteriyalarni suyakka bosish nuqtalari qaysilar va nima uchun son arteriyasini faqat chov boylami sohasida bosish tavsiya etiladi?
5. Jgut (bog'lovchi mato) qo'yishning asosiy qoidalari nimalardan iborat va nima uchun uning qo'yilgan vaqtini yozib qo'yish hayotiy muhim hisoblanadi?

## 4-§. Ekstremal holatlar (klinik o'lim)da birinchi tibbiy yordam ko'rsatish

*Tanglik (terminal) holat* – bu inson hayotidagi, sog'lig'iga xavf soluvchi, butun bir a'zolar majmuasidagi, nafas olish, qon aylanish doiralaridagi keskin o'zgarish va moddalar almashinuvining buzilishidir. Qon aylanish doirasining, nafas olish va yurak urishining to'xtashi klinik o'lim nomi bilan tavsiflanadi.

Tanglik holatining turlari:

- 1) agoniya oldi;
- 2) agoniya;
- 3) klinik o'lim.

*Agoniya oldi holati* umumiy karaxtlik, hushni yo‘qotish, qon bosimining tushib ketishi, tomir urishining uyqu va son arteriyalaridan tashqari boshqa tomirlarda aniqlanmasligi, nafas buzilishlari yuzaki nafas bilan cheklanib, teri va shilliq pardalarining ko‘karib oqarishi kabilar bilan ifodalanadi.

*Agoniya holatidagi* bemorlar hushida bo‘lmay, periferik tomirlarda tomir urishi aniqlanmaydi, uyqu va son arteriyalarida puls juda qiyinchilik bilan aniqlanadi, ko‘z qorachig‘i yorug‘likka javob bermaydi. Auskultatsiya vaqtida yurak tonlari keskin bo‘g‘iq eshitiladi.

*Klinik o‘lim* bosh miya, qon aylanish doirasi va nafas a‘zolari faoliyatining butkul to‘xtashi bilan ifodalanadi. Yurak urishi va nafas olishning to‘xtashi bilan umumiy moddalar almashinuvi susayib, ular butkul o‘z faoliyatini tamomlamaydi. Shu sababli, klinik o‘lim tiklanuvchi holat hisoblanib, bosh miyaning tiklanishishiga hali fursat borligidan dalolat beradi (8-rasm).



8-rasm.

*Biologik o‘lim* – yuqoridagi najot beruvchi holatning butkul to‘xtaganligidan dalolat beradi. Biologik o‘limni tavsiflovchi asosiy belgilaridan bo‘lgan murda dog‘lari va muskullarning taxtasimon zichlashishini kuzatish mumkin.

O‘limning oxirgi bosqichida uchlamchi belgilar paydo bo‘ladi. Bular yurak urishining to‘xtashi, nafas va hushning butkul yo‘qolishidir. Bu holatlarning qay darajada rivojlanishiga qaramasdan, tiklovchi-reanimatsion muolajalar davomiyligini to‘xtatish qonunga mutlaq zid holatdir.

Yurakning to‘xtash holatlarini ikkita sababga bog‘lash mumkin:

- kardiogen (yurakka bog‘liq) sabablar;
- yurakka bog‘liq bo‘lmagan sabablar.

Kardiogen (yurakka bog‘lik bo‘lgan) – miokard infarkti, yurak ritmining buzilishi, yurakning tashqaridan qisilishi, yurak tomirlarining emboliyasi. Ikkinchi guruh sabablariga yurakdan tashqari bo‘lgan a‘zoldagi o‘zgarishlar, ya’ni nafas olishning buzilishi, umumiy moddalar almashinuvi va neyro-endokrin tizimidagi buzilishlari kiradi.

Kutilmaganda sodir bo'ladigan o'lim holatlarida hayotga qayta tiklanuvchi holatlarning davomiyligini 3–5 daqiqaga teng deb bilishadi. Bundan keyingina hayot tiklanmas hisoblanadi.

Nafas olishning butkul to'xtaganligi tashxisi vizual (ko'z bilan) kuzatishlar natijasida qo'yiladi. Nafas yo'llarining butkul yopilganligi (obturatsiya) asosida qisman obturatsiya natijasida miyada sodir bo'ladigan kislorod yetishmovchiligi bilan ifodalanadi.


Nafas yetishmovchiligini tiklash chora-tadbirlari quyidagilardan iborat: avval bemorga maxsus holat berilib, bosh qismini ensasiga qo'yib, og'iz va burun yoki og'iz va og'iz usulida sun'iy nafas berish orqali bajariladi, agarda bu tadbirlar yordam bermasa, u holda o'pkaning sun'iy ventilyatsiyasi choralari qo'llaniladi.

Bu hollarda bemorni chalqancha yotqizish tavsiya etiladi va shu bilan til asosini nafas olish yo'llaridan chetlatishga erishiladi, chunki bunday hollarda nafas yo'llarining shilliq moddalar bilan bulg'anishi kuzatiladi. Nafas yo'llarini tozalash pastki jag'ni yuqoriga tortish evaziga erishiladi. Nafas yo'llarining bu tariqa tozalanishi va ochilishi zaruratning keskinligidan kelib chiqadi. Bunga esa nafas yo'lini steril matolar orqali tozalash evaziga erishiladi. Bu muolajalar havo-vakuimli nasoslar orqali ham bajarilishi mumkin.

Oxirgi vaqtlarda qayd etilgan og'iz-burun va og'iz-og'iz nafas oldirish muolajalarini yuqorida qayd etilgan holatlarda qanchalik zarur, foydali ekanligini ta'kidlash lozim. Bu muolajalarning asosida esa vaqti bilan bir me'yorda yuborilayotgan tashqi havo muolajalari ko'zda tutiladi. Bunday hollarda yordam beruvchi shaxs juda ham kam talafot olgan bemorni mustahkam qamrab olib havo yuboradi. Bu vaqtda havoning burun orqali tashqariga chiqib ketmasligi uchun bemor burnini qisib, og'zidan havo yuboriladi. Yuborilayotgan nafas o'rtasidagi vaqt 5 sekundni tashkil etadi, ya'ni 1 minutda 12 martani tashkil etadi.

Yuqorida qayd etilgan qoidaga rioya qilinishi shart, chunki qilinayotgan muolajalar tabiiy nafas ko'nikmasini hosil qilishdan iboratdir. Nafas oldirish vaqtidagi yuzaga keladigan oshqozon usti sohasidagi shishning paydo bo'lishi yuborilayotgan havoning oshqozonga ketayotganligidan dalolat beradi.

Yurak urishining to'xtaganligini ifodalovchi asosiy belgi tomir urishining markaziy uyqu arteriyasida ham aniqlanmasligidadir. Asosan, tomir urishini aniqlash tadbirlari 3 marta o'tkazilgan sun'iy nafasdan keyingina bajariladi, ya'ni aniqlanmagan tomir urishi to'g'ridan-to'g'ri yurakning yopiq massajiga ko'rsatma bo'ladi. Ko'krak qafasi va umurtqa pog'onasi oralig'idagi yurak-muskul to'qimalarining zichlashishi asosida yurakning chap qorinchasidan katta va o'ng qorinchasidan kichik qon aylanish doirasiga yurak bo'shliqlarida qolib ketgan qonlarni quvib berishga sabab bo'ladi. Yuqorida qayd etilgan tashqi yurak massaji o'z-o'zidan yordam bera olmaydi, agarda qilinayotgan muolajalar sun'iy nafas muolajalari bilan birgalikda olib borilmasa, befoyda hisoblanadi (9-rasm).



9 - rasm.

Yurak massajini bajarishdan oldin, bemorni istalgan tomonidan ko'krak to'sh suyagining 5-qovurg'a birikadigan joyidan kaftlarini bir-biriga qo'yib, bosim orqali massaj bajariladi.

Bosim vaqtidagi ko'krak qafasi egilishi 4–5 sm.ni tashkil qilishi kerak, ammo bosim ta'siri 0,5 sek., bosimlar oralig'idagi vaqt esa 0,5–1 sek.ni tashkil qiladi (10-rasm).



10- rasm.

Qilinayotgan muolajalarning to'g'ri bajarilayotganligi uyqu arteriyasida to'liqsimon pulsning paydo bo'lishi bilan ifodalanadi.

Tiriltirishni bir kishi bajarayotgan vaqtda 2 ta nafasdan so'ng 15 marotabagacha bosim muolajalarini qilishi kerak. Agar tiriltirish muolajalarini ikki kishi bajarayotgan bo'lsa, o'pka ventilyatsiyasi va massaj muolajalarining bir-biriga nisbati 1:5, traxeya intubatsiyasidan keyin esa 2:15 ko'rinishida bajarilishi kerak.

Uyqu arteriyasida aniq tomir urishi tiklangandan so'ng yurak massaji to'xtatilib, nafas olish to'liq tiklanguncha sun'iy nafas oldirish davom ettirilishi shart.

Tiriltirish muolajalarini noto'g'ri bajarish natijasida kelib chiqadigan asoratlar: traxeya intubatsiya muolajalari uzoq cho'zilishi natijasida yurak to'xtashi va nafasning butkul to'xtashiga olib keladi. Bunday asoratlarning eng xavflisi, ko'p hollarda o'pkani apparat orqali nafas oldirishda sodir bo'ladi, ya'ni kuchli bosim ostida yuborilgan havo o'pka to'qimalarini yirtib yuboradi. Bunday hollarda, zudlik bilan torokotsentez va plevra bo'shlig'ini drenajlash muolajalari bemor hayotini saqlab qolishga yordam beradi.

Yuksak saviya bilan qilinmagan yurakning bilvosita massaji natijasida qovurg'alar sinib ketishi holatlari sodir bo'ladi. Bunday xatolar vaqtida agarda bosim nuqtasi chapga siljisa, o'pkaning teshilishi, agarda pastga siljisa, jigar kapsulasining yirtilishi va jigar ezilishi, yuqoriga ko'tarilganda esa to'sh suyagining asosi sinib ketishi mumkin.

Tiriltirish muolajalarini muddatidan oldin to'xtatishga olib keladigan omillar favqulodda o'lim sodir bo'lsa, uzoq vaqt moboynda yurak va o'pka faoliyatlarini tiklanmasligi, qilinayotgan muolajalarni samarasizligi, a'zolar ish faoliyatining butkul tiklanmasligi va boshqalar.

Reanimatsion muolajalarning foydali yakunlanganligi, ko'z qorachilari reflekslarining to'liq tiklanganligi, nafas olish va yurak urishining tiklanib, teri rangining qizarganligi va hushining paydo bo'lishidek belgilar asosida tasdiqlanadi. Aksincha, yuqorida qayd etilgan belgilarning tiklanmasligi qilingan muolajalarning samarasizligidan dalolat beradi. Yuqoridagi ko'rsatkichlar paydo bo'lmagan bunday holatlar reanimatsion muolajalar to'xtatilishiga ko'rsatma bo'la oladi.



### Savol va topshiriq:

1. Tanglik (terminal) holatning qanday turlari mavjud va klinik o'limning biologik o'limdan asosiy farqi nimada?
2. Klinik o'lim holatida bo'lgan bemorni hayotga qaytarish uchun qancha vaqt (necha daqiqa) bor va nima uchun bu vaqt oralig'i juda muhim hisoblanadi?
3. Sun'iy nafas berishning "og'izdan og'izga" usuli qanday amalga oshiriladi va yuborilayotgan havoning me'daga (oshqozonga) ketib qolmayotganini qanday bilish mumkin?
4. Yurakning bilvosita (tashqi) massajini bajarish texnikasi qanday va bunda ko'krak qafasi necha santimetr gacha bosilishi kerak?
5. Reanimatsiya muolajalarini noto'g'ri bajarish qanday og'ir asoratlarga (masalan, qovurg'alar sinishi yoki jigar shikastlanishi) olib kelishi mumkin va buni oldini olish uchun nimalarga e'tibor berish lozim?

## 5-§. Kuyishlarda ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam

Yuqori harorat ta'sirida to'qimalarning shikastlanishi **kuyish** deb ataladi. Termik kuyishlar issiq suyuqliklar, bug', olov, qizdirilgan metallar ta'sirida kelib chiqishi mumkin. To'qimalar shikastlanishining og'irligi harorat darajasiga, ta'sirning davomiyligiga va shikastlanish maydonining katta-kichikligiga bog'liq bo'ladi.

Termik shikastlanishlar shartli ravishda yengil va og'ir kuyishlarga bo'linadi. Tana yuzasining 10% dan kam bo'lmagan qismini egallagan kuyishlar og'ir kuyishlarga kiradi. Yosh bolalar va qariyalarning kuyishi, ayniqsa, xavfli bo'ladi.

To'qimalarning qaysi qavati shikastlanishiga qarab kuyishlar 1, 2, 3 "a" va 3 "b", 4-darajalarga bo'linadi.

1-darajali kuyishda faqat terining tashqi-epitely qavati zararlanib, uni aniqlash qiyinchilik tug'dirmaydi. Bemorda qizarish, shish, kuygan joyda esa qavarish va mahalliy qizarish kuzatiladi.

2-darajali kuyish terining ancha intensiv qizarishi va epitelyning uncha katta bo'lmagan ichiga och sariq rangli suyuqlik to'lgan pufakchalar hosil bo'lishi bilan xarakterlanadi.

3“a”-darajadagi kuyishda terining eng chuqur – o'suvchi qavatidan tashqari, hamma qavatlari nekrozga chalinib o'ladi, tarang pufakchalar hosil bo'lib, ular to'q-sariq rangli shilimshiq bilan to'ladi. Ko'plab pufakchalar yorilgan bo'lib, ular asosida spirt va nina ta'siriga sezuvchanlik pasaygan bo'ladi.

3“b”-darajadagi kuyishda chuqur nekroz yuzaga kelib, bunda terining hamma qavatlari shikastlanadi. Pufakchalar qon aralash suyuqlik bilan to'lgan, yorilgan pufakchalarning asoslari xira, quruq, ko'pincha, marmar rangda bo'lib, spirt va nina ta'sirida og'riqni sezmaydi.

4-darajadagi kuyishda nafaqat teri, balki uning ostidagi to'qimalar – pay va mushaklarning ham shikastlanishi kuzatiladi. Kuygan yuzada jigarrang qattiq qobiq (qasmoqli, qoraqo'tirli) hosil bo'lib, har xil ta'sirlovchilarni sezmaydi. Shikastlanishning chuqurligini faqat bir necha kundan keyingina, bemor davolash muassasasida bo'lgan vaqtda aniqlash mumkin.

Kuygan yuzaning katta-kichikligi kuyishning birinchi soatlarida asosiy ahamiyat kasb etib, u bemorning umumiy holatini aniqlab beradi. Shuning uchun ham, taxminan bo'lsa-da, birinchi yordam ko'rsatish vaqtida uni aniqlash kerak. Odam tanasining umumiy maydoni uning bo'yi uzunligi bo'yicha hisoblanadi. Qaddiqomati va oriqlik hisobga olinmaydi.

Kuyish maydonini hisoblash uchun, avvalo, shikastlanuvchining tana maydoni aniqlanadi, ya'ni bo'yi uzunligiga (sm da) ikkita nol qo'shiladi. Masalan: 170 sm. bo'yga ega bo'lgan kishining tana yuzasi 17000 kv. sm., 182 sm. bo'yga ega kishining tana yuzasi 18200 kv. sm.

Kuygan yuzaning protsentlardagi miqdorini tezroq aniqlash uchun “kaft” qoidasidan foydalanish mumkin. Kuygan yuza proeksiyasiga nechta kaft joylashishiga qarab, bemorning shuncha foiz teri yuzasi kuygan hisoblanadi. Bunda bir “kaft” yuzasi tananing 1,2 % ni tashkil qilishidan kelib chiqiladi. Hisobning tez va oson bo'lishi uchun foizning o'ndan bir qismlarini e'tiborga olmasa ham bo'ladi. Masalan: kuygan joy o'nta kaft yuzasiga to'g'ri kelsa, demak tananing kuygan yuzasi 10–12% ni tashkil etadi.

Agar tananing ma'lum qismlarida to'liq kuyish kuzatilsa, “To'qqizlik qoidasi” yoki Tenison-Ruslak usulini qo'llash mumkin. Bunda bosh va bo'yin, har ikkala qo'l alohida tana yuzasining 9 % ni tashkil etadi, tananing oldingi, orqa yuzalari, har bir oyoq alohida – 18 %, chot orasi va uning organlari – 1% ni tashkil etishi ko'rsatilgan. Masalan: agar bir qo'l va tananing oldingi qismi to'liq kuygan bo'lsa, unda kuyish  $9\% + 18\% = 27\%$  bo'ladi. Agar kuyishning umumiy yuzasi 10 % dan ko'p bo'lsa, bemorda kuyish kasalligi rivojlanishi mumkin.

Kuyish kasalligi – bu klinik sindrom bo'lib, og'ir kuyish natijasida yuzaga keladi.

Kuyish kasalligining quyidagi davrlari farqlanadi:

1) kuyish shoki keng va chuqur kuyish natijasida (agar 2darajali kuyish bo'lsa, 20% va undan ko'p yuza, 3-darajali kuyishda 10% va undan ko'p yuza egallangan bo'ladi) yuzaga keladi. Kuyish shoki shikastlangan to'qimalardan organizmning juda kuchli ta'sirlovchiga javob reaksiyasi sifatida yuzaga keladi. Ko'p hollarda, u birinchi ikki sutka davomida kuzatiladi va fazalar bilan kechadi. Kuyishdagi shokning erektel va torpid fazalari kuzatiladi. Travmatik shok simptomlaridan tashqari quyidagilar ham xarakterlidir: plazma yo'qotish, gipoproteinemiya, qonning quyushuvi, qon aylanishidagi umumiy qon miqdorining kamayishi, ba'zan anuriya holatigacha olib boruvchi oliguriya;

2) kuyishning o'tkir toksemiya. Kuyish kasalligining uchinchi kundan boshlab uning klinikasida intoksikatsiya sindromlari ustunlik qila boshlaydi, bu kuyish toksemiya bo'lib, u kuygan to'qimalardagi toksik mahsulotlarning qonga so'rilishi natijasida yuzaga keladi. Uning o'ziga xos belgilari – tana haroratining keskin ravishda 38–41 darajagacha ko'tarilishi, taxikardiya – yurak urishi 1 min. 110–130 tagacha, polidipsiya, ishtahaning pasayishi, asabiylashish (talvasagacha tushish, bezovtalanish, uyquning buzilishi), ko'ngil aynishi va qusish kuzatiladi.

Kuyish kasalligining og'ir holatlarida 12–15 kundan boshlab uning 3 davri rivojlana boshlaydi;

3) septikotoksemiya. Kuygan jarohatlarda yiringlash rivojlana borishi natijasida bemorda bakteremiya va septitsemiya simptomlari paydo bo'la boshlaydi. Yuqori harorat, og'ir umumiy holat, har xil asoralar ko'pincha, zotiljam (pnevmoniya) rivojlanadi;

4) kuyishdan holsizlanish. Uzoq muddatli intoksikatsiya, bakteremiya va septitsemiya natijasida kuyishdan holsizlanish davri boshlanadi. Klinikasi: granulyatsiyalar rangsizlanib qoladi, keyinchalik ularda nekroz kelib chiqadi, jarohatlar chuqurlashib boradi, bitgan jarohatlar esa yana ochilib ketadi. Nekrozlangan to'qimalar chirib parchalana boshlaydi. Bemorning umumiy holati keskin yomonlashadi. Agar intensiv terapiya vositalari qo'llanilmasa, bemor o'lib qolishi ham mumkin.

Rekonvalessensiya davri – sog'ayish davri. Belgilari: kuyish jarohatlari nekrotik to'qimalardan to'liq tozalanadi, chandiqlanadi, bemor o'zini ancha yaxshi seza boshlaydi. Kasallikning bu davri 3 oydan 5 oygacha davom etishi mumkin.

**Kuyishlarda ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam.** Kuyishda ko'rsatiladigan yordam juda tez amalga oshirilishi kerak. Hammadan avval, tezlik bilan olovni o'chirish, shikastlangan kishining yonayotgan kiyimlarini yirtib olib tashlash, uning ustiga nimanidir yopish, choyshab, jun ro'mol, plash yordamida havo kirmaydigan qilib olovni o'chirish, keyin tutayotgan narsalarni olib tashlash kerak. Shikastlangan odam zambilg'altakka yoki shitga yotqiziladi. Agar teriga kuygan kiyim qoldiqlari yopishib qolgan bo'lsa, ularni teridan ko'chirib olish aslo mumkin emas. Jarohatlarni steril bint bilan bog'lash (individual bog'lash paketchasi), agar u qo'l ostida bo'lmasa, qalinroq matoni dazmollab ishlatish mumkin. Tananing ko'p qismi kuyganda shikastlangan kishini steril choyshabga o'rab qo'yish qulayroq.

Agar yong'in binoda sodir bo'lgan bo'lsa, tezlik bilan hamma zarar ko'rgan kishilarni toza havoga olib chiqish kerak. Og'iz va burun bo'shliqlari kul va qurum bilan zararlangan bo'lsa, ularni tezlikda barmoqqa ho'l latta o'rab tozalash lozim. Agar bemor hushini yo'qotgan bo'lsa, tili bilan tiqilib qolmasligi chora-tadbirlari qo'llanilishi kerak. Buning uchun uning pastki jag'ini oldinga tortib, barmoqlar bilan tilini tortib chiqarish va uni ilgak tugma bilan iyak terisiga mahkamlab quyiladi. Bu manipulyatsiyadan qo'rqish kerak emas, chunki teri va tildagi jarohatlar tezda bitib ketadi, agar bemor o'z tili bilan tiqilib qolsa, uning asoratlari juda og'ir bo'lishi, hatto asfiksiya natijasida o'limga olib kelishi mumkin.

Agar kuygan kishida qorin bo'shlig'i organlarining jarohatlari bo'lmasa, u hushini yuqotmagan bo'lsa, ko'p suyuqliq ichish tavsiya qilinadi. Keyin uning vena tomiriga 1% li 2 ml promedol, 50% li 2 ml analgin, 2 ml droperidol, 1% li 1 ml dimedrol, agar bu dori-darmonlar bo'lmasa, bemorga 2 ta analgin yoki aspirin tabletkasidan, 1 ta dimedrol tabletkasidan, 20 tomchi korvalolni 20 ml suvga tomizib ichirish (yoki valokardin, kardiamin, valerianka, validol tabletkasini til ostiga qo'yish) kerak. Bu dori-darmonlar og'riqni susaytirib, yurak faoliyatini qo'llab-quvvatlab turadi.

Agar sharoit mavjud bo'lib, kuyish unchalik katta bo'lmasa, kuygan joyni suv o'tkazgichning sovuq suvida bosimli oqim ostida 15 minut davomida yuvib turish kerak. Bu og'riqni qoldiruvchi ta'sir ko'rsatadi va ayni vaqtda shokning oldini oladi. Keyin kuygan jarohatlar sterillangan salftokalar yordamida quritilgach, kuygan yuzaga quruq aseptik bog'lam qo'yiladi. Birinchi yordam ko'rsatishda malham dorilar bilan bog'lash qo'llanilmaydi.

Shundan keyin bemorni tezlikda kuyganlar bo'limiga yoki tez jarrohlik yordami bo'limiga olib borish kerak.

Kimyoviy kuyishlar, ko'pincha, kislota va ishqorlarning to'yingan eritmalari ta'sirida kelib chiqadi. Kimyoviy kuyishlarda ham xuddi termik kuyishlardagi kabi kuyishning og'irligi uning chuqurligiga va qancha yuzani egallashiga qarab, shuningdek, ta'sir etuvchi kislota yoki ishqorning konsentratsiyasiga qarab baholanadi. Ba'zi kislotalarning teriga ta'sir etishida, teri yuzasida o'ziga xos rangdagi jarohat yoki qasmoq (qoraqo'tir) hosil bo'ladi: sulfat kislotasidan hosil bo'lgan kimyoviy kuyishda ular to'q jigarrangda, xlorid kislotasi ta'sirida kulrang-oqish, nitrat kislotasi ta'sirida esa och jigarrangda bo'ladi. Kislotalarning to'yingan eritmalari koagulyatsion nekroz (qattiq, quruq qasmoq) chaqiradi, to'yingan ishqor eritmalari esa kollikvatsion nekroz (yumshoq, namlangan, chuqur qasmoq) chaqiradi. Ba'zan jarohatlardan kimyoviy birikmaning hidi anqib turadi.

Bunday kuyishlarda kechiktirib bo'lmaydigan yordam kuyishni chaqirgan agentni neytrallashtirish iboratdir. Buning uchun kislotalar bilan kuyganda kuchsiz ishqor eritmalari (natriyli bikarbonatning 2% eritmasi, sut), ishqorlar bilan kuyganda esa kuchsiz kislota eritmalari (1% sirka yoki 2%li bor kislotasi) dan foydalaniladi. Bunday vositalar bo'lmagan taqdirda, kimyoviy agentni zararlangan maydondan suvning oqimi bilan yuvib ketkazish mumkin. Shundan keyin aseptik bog'lam qo'yilib, og'riqsizlantiruvchi vositalar qo'llanilgach, bemor navbatchi jarrohlik statsionariga olib boriladi.

Singuvchi radiatsiyadan kuyish kombinatsiyalangan (birgalikdagi) shikastlanishlar sirasiga kirib, ommaviy xarakterga ega bo‘ladi va atom qurolining qo‘llanilishi (atom bombasining portlashi natijasi)da ro‘y beradi. Singuvchi radiatsiya bilan shikastlanishda kuyishning kechishi va oqibati keskin yomonlashadi.

Atom portlashi vaqtidagi issiqdan shikastlanishlar ham birlamchi kuchli nur tarqalishidan, shuningdek, ikkilamchi ta‘siridan – ro‘y beradigan yong‘inlardan kelib chiqishi mumkin. Birinchi holatda infraqizil nurlar muhim rol o‘ynaydi. Bu nurlar olovli sharda yuzaga kelib, tananing himoyalangan va portlash tomonga qarab turgan qismlarida (yuzning bir tomoni, bo‘yinning bir tomoni, qo‘lning kiyim bilan himoyalangan qismlarida) kuyish chaqiradi. Shuni yodda tutish kerakki, oq kiyim bunday kuyishlardan yaxshi himoya qiladi, chunki oq kiyim portlash vaqtidagi o‘zidan nur tarqalishini yaxshi qaytaradi. Birlamchi nur tarqalishining davomiyligi sekundning qismlarini tashkil etadi. Shuning uchun ham, ko‘pincha, bu kuyishlar chuqur bo‘lmaydi.

Nurlanish kasalligidagi kuyish jarayonining kechishi amalda oddiy termik kuyishlardan farq qilmaydi. Lekin nurdan kuyishda asoratlar (yiringlash, sepsis, saramasli yallig‘lanishlar) ko‘proq kuzatilib, shikastlanish joyi keyinchalik rangsiz, po‘st tashlaydigan, atroflari kuchli bo‘yalgan (pigmentlangan) bo‘ladi, kandiloma paydo bo‘lishi, giperkeratoz, xavfli o‘smalar kelib chiqishi mumkin.

Birinchi yordam ko‘rsatish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirilishi kerak:

- 1) yonayotgan kiyimlarni o‘chirish;
- 2) qon oqishini vaqtincha to‘xtatish;
- 3) kuygan joyga birlamchi steril bog‘lam qo‘yish;
- 4) shpris-tyubik yordamida maxsus antidot vositalarini yuborish;
- 5) sinishlar bo‘lsa, singan qo‘l yoki oyoq immobilizatsiyalanadi;
- 6) shikastlangan kishiga protivogaz kiydiriladi;
- 7) agar qorin a‘zolari jarohatlanmagan bo‘lsa, 50 ml suv ichiriladi;
- 8) shikastlangan kishini davolash muassasasiga olib boriladi.



### Savol va topshiriq:

1. Kuyishlarning darajalari qanday belgilar bilan tavsiflanadi? (Xususan, 2-darajali va 4-darajali kuyishlarning asosiy farqlarini tushuntiring).
2. Kuyish maydonini aniqlashda “kaft qoidasi” va “to‘qqizlik qoidasi” (Tenison-Ruslak usuli) qanday qo‘llaniladi?
3. Kuyish kasalligining rivojlanish bosqichlari (davrlari) qaysilar va ularning har biri qanday xususiyatlarga ega?
4. Termik kuyish sodir bo‘lganda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish tartibi qanday? (Kiyimlar yopishib qolganda nima qilish kerak va og‘riqni qoldirish uchun qanday choralar ko‘riladi?)
5. Kimyoviy kuyishlarda kislot va ishqorni neytrallash uchun qanday vositalardan foydalaniladi?

## 6-§. Sovuq olishi va muzlashda ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam

Umumiy sovqotish (muzlash) kam uchraydi. Bu narsa uzoq muddat sovuq suvda qolib ketish, qish vaqtida jarohat olib, harakat qobiliyatini yo'qotish, mast holda qorda uxlab qolish natijasida uchraydi. Umumiy sovqotish natijasida madorsizlanish, titrash, uyqu bosishi, bosh og'rishi, so'lak oqishi, terlash kuzatiladi. Tana haroratining – 24 va undan pasayishi o'limga olib keladi.

Tananing umumiy sovqotishida uchta bosqich bir-biridan farq qiladi.

1. Adinamik: tana harorati 33–32<sup>0</sup>S gacha pasaygan, puls va hushi saqlangan, uyqu bosishi kuzatiladi, bemor madori yo'qligi va boshi aylanishidan shikoyat qiladi, fikrlashi sekinlashgan va sust bo'ladi.

2. Stupor holati: tana harorati 30–27<sup>0</sup>S gacha pasaygan, puls va nafaslar soni kamayadi, hushi susayadi, nutq buziladi, asosiy hayot funksiyalari tobora pasayib boradi.

3. Akashaklik: tana harorati 27–25<sup>0</sup>S gacha pasayadi, teri qoplamasi rangsizlanadi, soviydi, ozroq ko'karadi, muskullar qisqaradi, oyoq-qo'llar bukiladi, tanaga yopishgan va kuchli tortilgan bo'ladi, puls kamaygan, nafas olish yuzaki, kuchsizlanadi, qorachiq torayadi, yorug'likka sezuvchanligi yomonlashadi.

Sovuq urishi o'tkir va surunkali, umumiy va mahalliy bo'lishi mumkin. Namli muhitda oyoq-qo'llarning o'tkir sovuq urishida (suvda) harorat 0<sup>0</sup>S dan +15<sup>0</sup>S gacha bo'lsa, teri rangsizlanib, biroz shishadi, suyuqliq bilan to'lgan pufakchalar paydo bo'ladi, teri qoplamlari tarangligini yo'qotadi, titroq kuzatiladi. Surunkali sovuq urishida, kuzatilayotgan bemorning qo'l va oyoqlari tez-tez va uzoq muddat davomida nam va sovuq muhitda bo'lsa, panja va tovonlarning sovuqni sezuvchanligining ortishi, ularning shishishi, terlashi, ularda og'riq paydo bo'lishi, uvishish, barmoqlarning qizib ketgandek tuyulishi va ularning to'lishishi, terining quruqlashishi, qattiqlashishi, bo'g'imlarning yo'g'onlashishi kuzatiladi.

### Muzlashda ko'rsatiladigan kechiktirib bo'lmaydigan yordamlar

Jabrlangan kishini tezlikda issiq, yopiq binoga olib kirish (masalan, avtomobil saloniga), uning muzlab qolgan kiyimlarini yechish, issiq odeyal bilan yopish; venasiga 45<sup>0</sup>S gacha isitilgan 5% li 500 ml glyukoza eritmasini 8 birlik insulin bilan yuborish lozim. Ho'llangan kislorod bilan nafas oldirish, 0,05% li 0,5 ml strofantin, kardiamin in'eksiya qilish kerak. Iloji boricha, tezroq bemorni jarrohlik stasionariga evakuatsiya qilish kerak.

Organizmning kuchli sovqotishidan, ba'zan qon aylanishining tiklanmaydigan buzilishlari (uzoq muddatli spazm va qon tomirlarining berkilib qolishi), modda almashinishlarining buzilishlari (to'qimalar oziqlanishining buzilishlari va natijada ularning jonsizlanishi) yuzaga keladi. To'qimalar jonsizlanishining chuqurligi va ko'lami sovuq ta'sirining davomiyligiga, darajasiga va boshqa noqulay omillarga bog'liq (shamol, namlik, yupun yurish, och qolish, alkogolli zaharlanish va boshqalar) bo'ladi.

Qaytmas jarayonlarning asosiy sababi keng tarqalgan va tobora zo'rayib boradigan qon tomirlar trombozi (tiqilib qolishi) hisoblanadi. Omillarning sovuq

oldirish ta'siriga to'qimalar reaksiyasining ikki: 1) yashirin va 2) reaktiv yoki ifodalangan jarayonlar davri kiradi.

Birinchi soatlarda to'qimalar shikastlanishining qanday darajada chuqur va qancha maydonga tarqalganligining haqiqiy holatini aniqlash imkoniyati yo'q. Ular faqat reaktiv davrda aniqlanadi. Shuning uchun ham sovuq urishining qanday darajada ekanligiga to'g'ri tashxis qo'yish qiyin.

Sovuq urishining 4 ta darajasi farqlanadi.

1-darajada sovuqning qisqa muddatli ta'siri natijasida rivojlanadi. Bemorning umumiy holati qoniqarli. Teri och-qizil rangda yoki ko'kargan, yuzasi to'rlanmagan, qo'l-oyoqlar muzdek, periferik qon tomirlardagi puls ancha susaygan, shikastlangan, to'qimalar shishgan bo'ladi.

2-daraja bilan shikastlangan teri yuzasida har xil kattalikdagi tiniq yoki qon aralash suyuqliq bilan to'lgan pufakchalar hosil bo'lib, bu sohalarda puls aniqlanmaydi, shikastlangan kishi kuchli og'riq sezadi.

3-darajada terining hamma qavatlari jonsizlanib, pufakchalar to'q qizil suyuqlik bilan to'lgan, periferik qon tomirlarda puls yo'q, kuchli og'riq, bemorning umumiy holati og'ir bo'ladi.

4-darajada teri, teri osti va suyak to'qimalari jonsizlangan, puls yo'q, bemorning umumiy holati juda og'ir kechadi.

Sovuq urishidagi kechiktirib bo'lmaydigan yordamlar. Issiq xonada tananing sovuq urgan qismlarini isitishga qaratilgan tezkor chora-tadbirlar o'tkazish – toza qo'l bilan tashqaridan markazga qarab uqalash, spirt, odekolon, vazelin yoki har qanday antiseptik moy (“Detskiy”, “Cheburashka”, “Jenshen” va boshqalar) bilan ishlov berish, keyin aseptik bog'lam qo'yish lozim. 3- va 4-darajali sovuq urishlarida shikastlangan qo'l va oyoqlar harakatsiz holatga keltirilishi kerak.

Uqalashda qor yoki muzdan foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bemorga issiq choy, kofe, sut, 20 tomchi karvolol ichiriladi.

Imkoniyat boricha, tezroq jarrohliq stasionariga olib boriladi.



### Savol va topshiriq:

1. Umumiy sovqotishning “Adinamik” va “Akashaklik” bosqichlari bir-biridan qaysi asosiy belgilariga ko'ra farq qiladi? (Tana harorati, puls va tana holatidagi o'zgarishlarni qiyoslang).

2. Nima uchun sovuq urishining dastlabki soatlarida jarohatning qaysi darajaga (1, 2, 3 yoki 4-daraja) mansubligini aniq aytib bo'lmaydi? Haqiqiy holat qaysi davrda ma'lum bo'ladi?

3. Sovuq urgan sohani isitish va birinchi yordam ko'rsatishda nima uchun qor yoki muzdan foydalanish qat'iy man etiladi? Uning o'rniga qanday vositalar bilan ishlov berish tavsiya etiladi?

4. Matnda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, og'ir muzlash holatida shifoxonagacha bo'lgan davrda qanday dorivor vositalar va eritmalar (masalan, glyukoza, insulin) qo'llanilishi lozim?

## 7-§. Suyaklar singanda va shikastlanganda birinchi tibbiy yordam

Bosh suyagi qoplamalarining yopiq va ochiq shikastlanishlari (lat yeyishi, qon quyilishi, jarohatlanishi). Bosh suyagining yopiq shikastlanishlarida yumshoq to'qimalarning anatomik butunligi buzilmaydi. Bunday yopiq shikastlanishlar bevosita tashqi ta'sir kuchining tez va qisqa muddatli ta'sir etishi natijasida yuzaga keladi.

Lat yeyishdagi shikastlanish darajasi shikastlovchi agentning o'lchamlari va massasiga, urilish kuchiga, ta'sirining davomiyligiga, shuningdek, ko'pincha, jabrlanuvchining holatiga bog'liq bo'ladi. Bunday hollarda, ko'pincha, mayda qon tomirlari shikastlanadi.

Yumshoq to'qimalar, shu jumladan, bosh suyagi qoplamalari lat yeganda ularning klinik ko'rinishlarida jarohatlovchi agent ta'sir etgan joyda og'riq, qontalashlik yoki qon to'planishi (gematoma) hosil bo'lishi kuzatiladi.

Bosh suyagi qoplamalarining ochiq shikastlanishlarida terining butunligi buziladi va jarohatlar paydo bo'ladi.

Bosh suyagining shikastlanishlari. Bosh suyagi kallaning asosiy skeleti bo'lib, uning miya va yuz qismlari farqlanadi. Bir-biri bilan choklar orqali birlashgan bir nechta alohida suyakdan tashkil topgan bosh suyagi bo'shlig'ida bosh miya joylashgan. Bosh suyagi bo'shlig'ini chegaralab turuvchi suyaklar – ensa, 2 ta tepa, peshona, asos, 2 ta chakka, g'alvirsimon suyaklardir.

Bosh va miya shikastlanishlarining quyidagi asosiy turlari tafovutlanadi:

1) bosh suyagi va bosh miyaning yopiq shikastlanishlari – bunda terining butunligi saqlanib (terida jarohatlar ham bo'lishi mumkin) suyaklarning shikastlanishi kuzatilmaydi;

2) ochiq shikastlanishlar ikki xil – miyaning qattiq pardasiga o'tmagan va miyaning qattiq pardasiga o'tib, uning butunligi buzilgan ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Bosh suyagining sinishi unga to'g'ridan-to'g'ri urish yoki pastdan yuqoriga qattiq turtki bo'lganda, bosh qattiq jismlarning qirralariga urilish, qattiq yuzalarga yiqilish oqibatida, turli transport halokatlarida kuzatilishi mumkin. Bosh suyagi qubbasi, asosi va chakka qismining sinishlari farqlanadi.

Bosh suyagi yuz qismining suyaklarida darz ketish va ezilish natijasidagi sinishlar kuzatiladi. Ezilish natijasidagi sinishlarda tashqi plastinka u yoki bu ko'lamda sinadi va ichkari tomonga qarab botiq hosil qiladi. Bosh suyagining darz ketishi bitta yoki bir nechta joyda bo'lishi mumkin.

Bosh suyagi gumbazi sinishi uning asosi sinishiga nisbatan ikki barobar ko'p kuzatiladi. Bosh suyagi asosining sinishi uning gumbazi sinishining davomi bo'lishi yoki bilvosita jarohatlanish ta'sirida (ko'pincha, balandliklardan yiqilishda) suyakning eng yupqa va nozik joylarida (teshik va yoriqlar atroflarida) yuzaga keladi. Bunday shikastlanishlar og'ir kechadi, chunki bunda doimo miya moddasi zararlanib qattiq miya pardasida defektlar yuzaga keladi, bosh miya nervlari jarohatlanadi.

Bosh miya qattiq pardasi butunligining buzilishi bilan kechadigan shikastlanishlarda qobiq osti muhiti va doimo patogen mikroflora bo'lgan boshqa

bo'shliqlarda bog'lanish yuzaga kelib, kasallikning kechishi yanada og'irlashadi. Masalan, bosh suyagining old chuqurchasi singanda g'alvirsimon suyak teshikchalari orqali burun bo'shlig'i bilan bog'lanish yuzaga keladi; o'rta chuqurchada sinish bo'lganda darz ketish quloq pardasi bo'shlig'iga yoki ponasimon suyak bo'shlig'iga kirib borishi mumkin. Miyaning qattiq pardasi ostidagi sohaning burun bo'shliqlari bilan bog'lanib qolishi u yerga mikroblar kirib borishiga va bosh miya ichida infeksiyaning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

Bosh miya asosi sinishlarida quloqdan, burun va og'izdan qon kelishi, orqa miya suyuqligi oqishini ko'rish mumkin. Qonning yumshoq to'qimalar ostiga quyilishi natijasida ko'z atrofiga ("ko'zoynak simptomi"), chakka osti chuqurligida, quloq orqalarida qontalashlar yuzaga kelishi bosh miya nervlari falaji va yarim falajlari kuzatilishi mumkin.

### **Bosh suyagi va bosh miyaning o'qotar qurollardan jarohatlanishi.**

Bosh suyagi va miyaning yaralanishi va shikastlanishining ikkita asosiy guruhi farqlanadi:

- a) alohida o'qotar quroldan yaralanish;
- b) birgalikdagi (kombinatsion) shikastlanish.

O'qotar qurollardan yaralanish jarohatlovchi qurolning turiga qarab o'qdan va parchalanib zarar yetkazadigan (snaryad, mina, aviabomba parchalari), yaralash xarakteriga qarab esa urinma, teshib o'tuvchi, ko'r va rikoshet (yo'nalishini o'zgartirib) tegadigan guruhlariga bo'linadi. Oxirgi holatda jarohatlovchi snaryad bosh suyagining chegaralangan qismida teshikli siniq hosil qilib, suyakdan sapchib, yara kanalidan kirgan teshikdan orqaga – yumshoq to'qimaga qaytadi yoki yana yangi hosil bo'lgan teshiqdan ketadi.

Metall parchasining urilish kuchi yetarli bo'lganda u o'qqa nisbatan ancha qo'pol gidrodinamik ta'sir ko'rsatadi. Jarohatlovchi metall parchasi bosh suyagiga kirib borganda, odatda, tezda kinetik energiyasini yo'qotib, ko'p hollarda, teshib o'tuvchi jarohat hosil qilmaydi. Metall parchasi bosh suyagining singan joyida suyak parchalari orasida to'xtab qoladi yoki miya to'qimasiga kirib boradi, ko'pincha, uncha chuqur ketmaydi. Ba'zan sapchib qaytib chiqib ketadi. Bunday hollarda, birinchi o'rinda miyaning jarohatlanishi turadi, ikkinchi o'rinda suyak parchalarining miya to'qimasiga metall parchasiga qaraganda ko'proq buzuvchi ta'siri kuzatiladi.

Maydalangan suyak parchalari, agar ularning oxirgi kinetik energiyasi katta bo'lmasa, ba'zan qattiq miya pardasida ushlanib qoladi, ba'zan miya to'qimasiga kirib borib, uning ezilgan qismida 2–4 sm. chuqurlikda to'planib qoladi. Ba'zan suyak parchalari ancha chuqur kirib borib, miya qorinchalarini zararlashi mumkin.

### **Bosh suyagi ochiq jarohatlanishining ikki turi bor:**

- 1) miya qattiq qobig'ini teshib o'tmagan – jarohat infeksiyasining miya suyuqligida va miya to'qimasida tarqalish imkoniyati juda kam;
- 2) miya qattiq qobig'ini teshib o'tadigan – qattiq parda defekti miya to'qimasida va orqa miya suyuqligida infeksiyaning tarqalishiga imkoniyat beradi.

Bosh suyagini teshib o'tmagan, qattiq miya pardasining butunligi saqlangan jarohatlanishlarda bosh miyaning jarohatga yaqin joylarida lat yeyish yuzaga keladi. Ba'zi hollarda lat yeyish jarohatdan uzoqroqda qarama-qarshi zarba

ko‘rinishida yuzaga keladi. Miya qobig‘ining qon tomirlari jarohatlanganda ba‘zan subdural (qobiq ostiga) va epidural (qobiq ustiga) qon quyilishi kuzatiladi.

Teshib o‘tuvchi jarohatlanishlarda, qattiq miya pardasi butunligi buzilishi bilan birga, deyarli doimo lat yeyish va miya to‘qimasining ezilishi kuzatiladi.

Bosh miyaning chayqalishi, lat yeyishi va ezilishi. Bosh miyaning chayqalishi diffuz shikastlanish simptomlari bilan xarakterlanadi. Bosh miya chayqalishini shartli ravishda 3 ta darajaga bo‘lamiz: yengil, o‘rtacha va og‘ir. Bosh miya chayqalishining klinikasida hushdan ketish, bosh og‘rig‘i, bosh aylanishi, ko‘ngil aynishi, shilliq qavatlar va terining rangsizlanishi, reflekslarning susayishi yoki umuman, bo‘lmasligi kuzatiladi. Ko‘pincha, xotira buzilib, jabrlanuvchi qanday holatda jarohat olganligini eslay olmaydi.

Miya chayqalishining yengil darajasida hushdan ketish bir necha sekunddan bir necha minutgacha davom etib, kuchsiz mushak gipotoniyasini aniqlash mumkin. Puls sekinlashishi yoki tezlashishi mumkin. Tez kunlar ichida bemorning holati normallashib, birinchi haftaning oxirida shikoyatlar asta-sekin yo‘qoladi.

Miya chayqalishining o‘rtacha darajasi klinikasi ancha aniq ifodalanadi. Hushdan ketish sanoqli sekundlardan bir necha minutgacha davom etsa-da, bir necha kungacha bemorning hushi noaniq holatda bo‘ladi. U o‘zi bilan nima hodisa yuz berganligini, jarohatdan oldingi hodisalarni ham, jarohat olgan holatini ham eslay olmaydi (retrograd amneziya). Ko‘rik vaqtida anizokoriya, nistagm, anizorefleksiya, yengil meningeal belgilar, terining rangsizlanishini aniqlash mumkin. Asta-sekin bemorning holati normallasha borib, 3–4 haftadan so‘ng yaxshilanadi. Nistagm jarohatdan keyin ham bir necha oylargacha qolib ketadi.

Bosh miyaning og‘ir darajada chayqalishi uzoq muddatli hushdan ketish bilan xarakterlanib, u bir necha soatdan bir necha kungacha davom etishi mumkin. Hayotiy zarur organlarning, jumladan, yuraktomir va nafas tizimi funksiyalari buziladi. Uzoq muddat – bir yil va undan ko‘p vaqt mobaynida tahlil qilish va xotira sustligi, vaqtni bilish doirasining yetarli bo‘lmasligi kuzatiladi. Vaqti-vaqti bilan psixomotor hayajonlanish, vazomotor buzilishlar, ko‘p terlash kuzatiladi.

Bosh miyaning lat yeyishi – bu miya chayqalishiga nisbatan ancha og‘irroq darajadagi travmatik jarohatlanish bo‘lib, u, ko‘pincha, bosh miyaga kuchli o‘tmas og‘ir predmetlarning zarbasidan kelib chiqadi va miya to‘qimasida qon quyilishining mikroskopik aniq ifodalangan shikastlanishlarning klinik belgilari bilan kechadi.

Nevrologik ahvoli asosida o‘choqning joylashishini hisobga olib, miya lat yeyishining uchta darajasi farqlanadi: yengil, o‘rtacha va og‘ir. Lat yeyish o‘chog‘i shikastlovchi kuch tushgan joyda, va aksincha, undan yiroqroq joylarda bo‘lishi mumkin. Miya o‘zagi va qorinchalariga yaqin joylashgan kontuzion va gemorragik o‘choqlar boshqalariga nisbatan ancha xavfli.

Miya lat yeyishining klinik ko‘rinishlari birdaniga kelib chiqadigan turli simptomlar bilan xarakterlanadi. Bunday o‘choqli simptomlar falajlik, yarim falajlik, ko‘rish kengligining o‘zgarishlari, patologik reflekslar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Miya lat yeyishining eng boshida qisqa muddatli hushdan ketish kuzatiladi.

Miya lat yeyishining yengil darajasida hushdan ketish bo'lmashligi yoki u 10–15 minut davom etishi mumkin. Bemor tezda hushiga qaytadi, lekin yengil parez, assimetriya kabi o'choqli belgilar qoladi.

Miya lat yeyishining o'rtacha darajasida uzoq muddatli hushni yo'qotish (7 dan 16 sutkagacha) – koma rivojlanishi, nafas olishning buzilishi, yurak-tomir faoliyatida buzilishlar va boshqa simptomlar rivojlanishi kuzatiladi. Bemorning hushiga kelishi sekin (soatlar, sutkalar) kechib, uzoq vaqtgacha xotirasi xiraligicha qoladi. Hushi o'ziga kelgach esa bemor uzoq vaqtgacha lanj, uyquchan bo'lib, ularda atrofdagilarga qiziqish susaygan bo'ladi. Retrograd amneziya ko'rinishidagi xotiradagi buzilishlar ham miyaning lat yeyishiga xos.

Miya lat yeyishining og'ir darajasi, ko'pincha, antegrad amneziya bilan xarakterlanib, jarohatdan keyingi hodisalarni ham xotirasida saqlay olmaydi, nafas organlari va yurak-tomir tizimida funksiyalarning buzilishi aniq ifodalangan bo'ladi. Miya shikastlanishi qanchalik ifodalangan bo'lsa, bu funksiyalar buzilishi ham shunga mos bo'ladi. Nafas olish soni keskin qisqarib, nafas olish harakatlari ko'krak qafasida va diafragmada arang seziladi, gipoksiya va sianoz rivojlangan bo'ladi. Uzoq vaqt davomida qusish saqlanib turadi. Tana harorati ko'tariladi. O'choqli simptomlar periferik belgilar ko'rinishida miyaning zararlanish o'chog'i joylashishiga qarab ifodalanadi.

Bosh miyaning ezilishi, ko'pincha, bosh suyagi ichida qon quyilishi natijasida, miya shishishi yoki miyada juda tez o'suvchi o'smalar paydo bo'lishidan yuzaga keladi.

Bosh suyagi ichiga qon to'planishi, ko'pincha, tezda o'zini namoyon qilmaydi, bunga sabab ba'zi bir kompensator mexanizmlarning mavjudligidir. *Masalan*, orqa miya suyuqligining bosh suyagi bo'shlig'idan subaraxnoidal bo'shliqqa o'tishi natijasida bemorning umumiy holati bir qadar yaxshilanadi va «porloq oraliq» deb nomlangan holat yuzaga keladi. Miya ezilishining tobora ortib borishining xarakterli belgilaridan biri – bosh og'rig'ining kuchayishi, qayta qusishlar, hayajonlanish, ba'zan mushaklarning g'ayriixtiyoriy qisqarishlari, hushni yo'qotishga o'tib ketadigan uyquga moyillik kuzatiladi.

### **Kasalxonaga yotqizilgunga qadar ko'rsatiladigan yordam.**

Bosh miyasi shikastlangan bemorning taqdiri ko'p jihatdan kasalxonaga yotqizilgunga qadar ko'rsatiladigan yordamning sifatiga va maxsus davolash kasalxonalariga tezda yetkazib borilishiga, yuqori malakali tibbiy yordamning o'z vaqtida ko'rsatilishiga bog'liq. Bunday shikastlanishlardagi davolashning achinarli natijalari, ayniqsa, uyg'unlashgan shikastlanishlarda, ko'pincha, jarohatning darajasi va og'irligiga emas, balki kasalxonaga kelgunga qadar birinchi tibbiy yordamning ko'rsatilganligi yoki uning yetarli darajada amalga oshirmaganlik natijasida bosh miyadagi qaytmas o'zgarishlar yoki uning og'ir asoratlari yuz berishiga sabab bo'ladi.

Yuqoridagi fikrning isboti sifatida kasalxonaga yotqizishdagi tezlik va bungacha ko'rsatilgan yordamning bemorlar o'limiga ta'sirini keltirish mumkin. Tahlil uchun shaharlararo yo'l-transport hodisalari va yirik shahar ichidagi shunday hodisalardagi o'lim statistikasi tanlab olinadi.

Shaharlararo yo'l-transport hodisalarida bosh miyasi shikastlanganlar orasidagi o'lim ko'rsatkichi 17% bo'lgan holda, bu ko'rsatkich yirik shaharda 8% ga teng bo'lgan. Shaharlararo yo'l-transport hodisalarida halok bo'lgan jabrlanuvchilarning 80% falokat joyida yoki kasalxonaga ketayotganda yo'lda o'lgan. Yirik shahar ichidagi bu ko'rsatkich 28% ga teng bo'lgan. Bu narsa shahar ichidagi falokatga uchragan kishilarning kasalxonaga tezroq yetkazilishi bilan izohlanadi. Shahar ichidagi yo'lga qo'yilgan telefon aloqasi, tez yordamning shahar bo'yicha bo'limlari mavjudligi, radioaloqa va shu kabilar tez yordamning nisbatan tezroq kelishiga va bemorga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatilishiga, shuningdek, uning zudlik bilan kasalxonaga yetkazilishiga omil bo'ladi. Aksincha, shahar tashqarisida yo'llarning tor va uzunligi, tez yordam bo'limlarining faqat yirik shaharlarda bo'lishi, tabiiyki, kasalni kasalxonaga yetkazishga ketadigan vaqtning uzayishiga sababchi bo'ladi.

Kasalxonaga yotqizilgunga qadar bo'ladigan o'lim ko'rsatkichlari chastotasi yana bir muhim omil – falokat sodir bo'lgan joyda malakali birinchi yordamning ko'rsatilishiga bog'liq. Sud tibbiyot ekspertizasi hay'atining ma'lumotlariga ko'ra, kasalxonaga yotqizilgunga qadar o'lganlarning 17% da o'limga sabab qon ketishi, shok yoki asfiksiya bo'lib, bu narsalar voqea sodir bo'lgan joyda tezlikda bartaraf etilishi kerak. O'z vaqtida va malakali ko'rsatilgan birinchi yordam kasalning hayotini saqlab qolishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu hal qiluvchi omil jarohat olingandan keyin o'tgan vaqt bo'lib, bu vaqt davomida organizmdagi o'zgarishlarni o'z o'rniga qaytarish imkoniyati mavjuddir.

Shuning uchun ham o'z vaqtida voqea sodir bo'lgan joyda o'tkazilgan chora-tadbirlar jabrlanuvchining hayot-mamotini hal qiladi, keyinchalik o'tkaziladigan davolash ishlarining muvaffaqiyatini ta'minlaydi, nogironlikning darajasi va muddatiga, ayniqsa, kasalning tuzalib ketish muddatiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Bosh miya jarohatlarida bir qator og'ir asoratlarning yuzaga kelishiga sababchi bo'ladigan asosiy patologik omil miya gipoksiyasidir. Miyaning qon bilan yetarli ta'minlanishi o'z-o'zini boshqaruvchi murakkab mexanizmlar yordamida ushlab turiladi. Lekin kompensatsiya mexanizmlarining imkoniyatlari yuqori bo'lsa ham, u chegaralangan. Arterial bosimning 60 va 70 mm. simob ust. pasayishi kritik chegara bo'lib hisoblanadi. Arteriya bosimining ko'rsatilgan darajadan pasayishi avval funksional o'zgarishlarga, so'ngra bosh miyada qaytmas morfologik o'zgarishlar kelib chiqishiga sababchi bo'ladi. Shundan miya ishemiyasi (miyaning qonsizlanishi) oldini olishga qaratilgan, ayniqsa, kasalxonaga yotqizishgacha bo'lgan davrda, chora-tadbirlarning qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligi ko'rinib turibdi. Demak, birinchi yordam ko'rsatayotgan kishilarga qo'yiladigan talablar: o'z vaqtida, to'g'ri va kerakli hajmda voqea sodir bo'lgan joyda birinchi yordam ko'rsatish, maxsus davolash muassasalariga, iloji boricha, tezroq yetkazishdan iborat.

Shikastlanishlardagi birinchi yordam – nafas yo'llaridan shilimshiqni, qusiq massalarini aspiratsiya yo'li bilan tozalash, bemorni yonboshiga yoki chalqancha yotqizib, boshini yon tomonga o'girib qo'yishdan iborat. Agar og'iz bo'shlig'ida shilimshiq moddalar va qusiq massalari sezilarli to'plangan bo'lsa, ularni tampon,

iloji bo'lsa, suruvchi moslama bilan tozalash kerak. Sun'iy nafas oldirish uchun ko'krak qafasini qo'l bilan bosish usuli yaxshi natija bermaydi, aksincha, bosh miyaning qo'shma jarohatlarida bunday chorani qo'llash hatto xavfli hamdir.

**Yuz-jag' jarohatlari.** Yuz-jag' jarohatlari ichida yuzning yumshoq to'qimalari va yuz skeleti shikastlanishlari hamda yumshoq to'qima va yuz skeletining birgalikdagi shikastlanishlari farqlanadi.

Yuz sohasidagi jarohatlarning o'ziga xosliklariga uning xunuklashishi, tashqi ko'rinish bilan olingan jarohatning ko'p hollarda bir-biriga mos kelmasliklari kiradi. Yuz yumshoq to'qimalarining ancha ko'p shikastlanishlarida, u juda xunuklashib, qon quyilishlari bo'lib, yuzning yuza qismida ivib qotgan qonlar bo'ladi, buning ustiga jabrlangan behush bo'lsa, ko'rgan kishida umidsizlik, hatto o'lib qolgan degan xulosa paydo bo'lishi mumkin. Shuni ham nazarda tutish kerakki, yuzi jarohatlangan har uch kishidan birida u yoki bu darajada ifodalangan miyaning lat yeyishi kuzatiladi.

Yuz jarohatining o'ziga xos namoyon bo'lishi uning katta-kichikligida emas, balki mimika muskullarining qisqarishi natijasida joyidan ancha-muncha siljishida hamdir. Yuz-jag' jarohati olgan kishilarda hiqildoq, og'iz bo'shlig'i organlari, burun, ayniqsa, pastki jag'ning shikastlanishlarida tashqi nafas olishning buzilishlari, hattoki asfiksiya kuzatilishi mumkin. Lab va unga yaqin joylar shikastlanganda har doim juda tez va katta shishlar paydo bo'ladi. Lab jarohatining yana bir o'ziga xos xususiyatlaridan biri, jarohat chekkalarining ochilib qolib, ba'zan to'qima kamchiligi bor, degan noto'g'ri taassurot berishi mumkin.

Yuzning yonbosh qismlari jarohatlanishi, ko'pincha, quloq oldi so'lak bezi jarohatiga va yuz nervi stvolining shikastlanishiga, bu esa o'z navbatida, og'ir klinik asoratlarga – yuzning xunukashishiga, yuzning imo-ishora muskullari falajiga, so'lak oqadigan jarohat teshiklarining paydo bo'lishiga va boshqalarga olib keladi.

Jag' osti atroflarining jarohatlari, ko'pincha, bu joyda joylashgan qon tomirlari, nerv tolalari, jag' osti so'lak bezi, shuningdek, kekirdak va tomoqning shikastlanishiga olib keladi. Natijada, mexanik jarohatdan tashqari, ko'pincha, yuqori va pastki jag', burun suyaklari va yonoq-ko'z sohasi shikastlanadi.

**Yuqori jag' shikastlanishlari.** Yuqori jag'ning sinishiga, ko'pincha, yuzga qattiq predmet bilan urish sabab bo'ladi. Ma'lumki, yuqori jag'ning boshqa yuz suyaklari bilan birlashgan joylari kuchsiz anatomik jag'lar hisoblanib, ayni ana shu joylarda sinishlar kuzatiladi. Mayoni uncha katta bo'lmagan predmet bilan yuzaga kelgan jarohatda yuqori jag'da teshib o'tuvchi shikastlanish kuzatilib, bu holda suyak siniqlari o'z o'rnida qoladi.

Yuqori jag' suyagi tana qismining bilvosita sinishi (masalan, pastki jag'ga tiralib yiqilishi)da suyak siniqlari bosh suyagining asos qismi tomonga siljiydi. Yuqori jag' suyagining bir tomoni singanda, singan tomondagi suyak siniqlari, ya'ni kaltak tekkan tomondan miya asosiga qarab siljiydi. Har ikkala tomondan kaltak tekkan, butun jag', odatda, past tomonga shunday tushadiki, u ochiq yoki yarim ochiq og'izning pastki jag' tishlariga tiralib, bir oz orqaga siljigan bo'ladi. Bunday hollarda yuqori jag'ning old qismi, uning orqa qismiga qaraganda pastga

kamroq siljiydi, hatto subnazal yoki kalla-yuz suyagi to'liq ajralib ketganda ham shu narsa kuzatiladi.

Bu narsa qanotsimon muskullarning medial va lateral tortish kuchi bilan tushuntiriladi. Bu muskullar bir tomondan yuqori jag' bo'rtiqlariga, ikkinchi tomondan asosiy suyakning qanotsimon o'simtalariga yopishgan bo'ladi. Shuningdek, yuqori jag'ning pastga siljishiga uning o'z massasi ham sabab bo'ladi.

Yuzning ikki qattiq jism orasida siqilishida, yuz bilan yuqoridan pastga yiqilganda va boshqa jarohatlarda yuqori jag' suyagining boshqa yuz suyaklari bilan birga siljishi yonoq va burun suyaklarining siljishi bilan birgalashib, yuzning yumshoq to'qimalari yirtilib suyaklari sinadi. Ba'zan yuqori jag'ning bir yoki ikkala tomoni ikki tomonga ketib, bu narsa yuqori jag' siniqlarining bosh suyagi asosi bilan aloqasi to'liq buzilganligidan, shuningdek, tanglay choki chizig'i bo'yicha shikastlanish bo'lganligidan dalolat beradi. Bunday hollarda yuqori jag'ning umuman ajrab ketishidan yumshoq to'qimalar saqlab qoladi, ular ushlab turadi. Ba'zan esa yuqori jag' suyagining boshqa qo'shni suyaklarga pona kabi qoqilib kirib qolishi kuzatiladi (ko'pincha bir tomondan). Bunday ikki xil haddan boshqa yuqori jag' suyaklarining siljishlaridan tashqari o'rtacha siljish ham kuzatilib, bunda suyak siniqlari yoki jag'ning o'zi oldi-orqasiga, yonboshga yoki vertikal yo'nalishda siljishi mumkin.

Pastki jag' suyagining shikastlanishi boshqa skelet suyaklariga nisbatan ko'proq uchraydi, bu narsa pastki jag'ning oldinga chiqib turishi va uning o'lchovlari nisbatan kattaligi bilan izohlanadi. Pastki jag' suyagining sinishlari, ko'pincha, o'rta chok, so'yoq tish va iyak sohasida kuzatiladi. 76% atrofidagi sinishlar tish qatorlari atrofida joylashib, ular ochiq sinishlarga kiradi. Pastki jag'ning sinishi tashxisida uning anatomik o'rnini aniq ko'rsatish kerak, ya'ni pastki jag' tanasi, markaziy, mental yoki lateral qismi, pastki jag' burchagi singan deb ko'rsatilishi lozim.

Umurtqalarning shikastlanishi. Umurtqalarning quyidagi shikastlanishlari tafovutlanadi: bog'lamlarning cho'zilishi va uzilishlari, umurtqalararo diskning shikastlanishi, chiqishi, umurtqa tanasi va o'simtalarining hamda umurtqa yoyining sinishi.

Umurtqalarning sinishida orqa miyaning shikastlanmaydigan, shikastlanadigan, orqa miyani ezadigan, qisman va to'liq uzib yuboradigan turlari farqlanadi. Orqa miyaning oq moddasi o'zgarishiga olib keladigan qisman shikastlanishlar natijasida uning o'tkazuvchanligi buziladi. Orqa ildizlar shikastlanganda sezuvchanlikning hamma turlari va reflekslar yo'qoladi.

Singan umurtqalar asoratlarining kechish og'irligi uning darajasi, xarakteri va orqa miyaning shikastlanish darajasiga bog'liq. Orqa miyaning to'liq uzilishi natijasida uzoq muddatli falajlik va orqa miya orqali innervatsiyalangan joylarning anesteziyasi (sezuvchanlikning yo'qolishi) yuz beradi. Orqa miya bo'yin umurtqalari bo'limi shikastlansa, oyoq va qo'llarning falajlanishi – tetraplegiya kuzatiladi. Bundan tashqari, ba'zi hollarda, diafragma va qovurg'a oralig'idagi mushaklar funksiyasi izdan chiqadi. Orqa miyaning ko'krak yoki bel qismlari uzilishi oyoqlarning falajlanishiga – pastki paraplegiyaga olib keladi. Orqa miyaning buzilishida qaysi bo'limda bo'lishidan qat'i nazar, tos organlari

funksiyalari buziladi (siydik ajralishi, defekatsiya) va oziqlanishning buzilishi natijasida juda tez orada yotoq jarohatlari yuzaga keladi.

**Birinchi yordam.** Umurtqalar sinishida birinchi yordamning to‘g‘ri amalga oshirilishi juda ahamiyatga ega.

Jarohatlangan kishini ehtiyotsizlik bilan bir joydan ikkinchi joyga olib yotqizishda suyak siniqlarining siljishi va qo‘shimcha shikastlanishlarga, shu jumladan, orqa miyaning uzilishiga olib kelishi mumkin. Jarohatlangan kishini ko‘tarib boshqa joyga yotqizishda juda ehtiyotkor bo‘lish va faqat bir necha kishi bir vaqtda bahamjihatlik bilan ko‘tarishi va yotqizishi lozim. Shikastlanganlar maxsus qattiq zambilda yoki oddiy zambilga taxta qo‘yib, unga yotqizilgan holatda tashiladi. Agar taxta topilmasa, bemorni tibbiy zambilga qorni bilan yotqizib tashiladi, bunday holatda umurtqa suyaklari siljishining oldi olinadi.

Tos suyagi sinishining quyidagi turlari tafovutlanadi:

- tos suyagi halqasining butunligi buzilmagan holda, alohida suyaklarning sinishi (oraliq, qov, quymich va boshqalar);
- tos suyagi halqasining butunligi buzilishi bilan bo‘ladigan sinishlar:
  - a) tos halqasi oldingi bo‘limining sinishi (bir tomonlama va ikki tomonlama);
  - b) chanoq kosachali chuqurchasining sinishi (ko‘pincha, chiqish bilan);
  - v) vertikal sinishlar;
  - g) simfiz chokining ajralib ketishi va boshqa turdagi sinishlar.

Tosning sinishida bemorning o‘ziga xos holatlari quyidagicha kuzatiladi:

– oyoqlari tizzasidan bukilgan va bir-biriga keltirilgan, bemor ularni ajratishga bermaydi. Bu narsa simfiz chokining ajralganligini ko‘rsatadi;

– “qurbaqa holati” – oyoqlar tizzadan bukilgan va ikki tomonga kerilgan bo‘ladi. Bu narsa har ikkala qov yoki quymich suyaklarining sinishiga xos belgidir. Shuningdek, bu vertikal sinishlarda (Malgen tipidagi) ham kuzatiladi;

– “yopishgan tovon” holati – kasal singan tomondagi oyog‘ini uzatilgan holatidan ko‘tara olmaydi (yerdan oyog‘ini uza olmaydi), agar uni ko‘tarib qo‘yilsa, kasal uni shu holatda qisqa muddatga ushlab qola oladi. Bu simptom qov suyagining gorizontal o‘simtasi sinishiga va markaziy chiqishga xos.

**Birinchi yordam.** Birinchi yordam ko‘rsatishda, eng avvalo, bemorni to‘g‘ri transportirovka qilish lozim, ya‘ni uni qattiq asosli joyga yoki ezilmaydigan zambilg‘altakka (taxta, faner va boshqalar) orqasi bilan tizzalari va tos-son bo‘g‘imlari bukilgan holatda yotqiziladi. Tizzasi ostiga qattiq yostiq qo‘yiladi, bunda bemorni zambilg‘altakka qorin va boldir-tovon bo‘g‘imi sohalaridan bog‘lab qo‘yish maqsadga muvofiq.

**Qo‘l-oyoqlarning shikastlanishlari.** Oyoq-qo‘llarning jarohatlari barcha shikastlanishlarning asosiy qismini tashkil etadi.

Oyoq-qo‘llarning yopiq shikastlanishlariga lat yeyish, et uzilishi, paylarning shikastlanishlari, gemartroz (bo‘g‘imlarga qon quyilishi), chiqishlar, yopiq sinishlar va boshqalar kirib, bunda teri qoplaminig va shilliq pardalarining butunligi buzilmaydi.

Ochiq shikastlanishlarga har xil jarohatlar (kesilgan, o'q tekkan va boshqalar) kirib, bunda teri va shilliq qavatlarining butunligi buzilgan bo'ladi.

Qo'l-oyoqlarning lat yeyishlari. Qo'l-oyoqlarning lat yeyishlari nisbatan katta bo'lmagan kuch ta'siri natijasida paydo bo'lib, ular qon to'planishi (gematoma) – shish, og'riq va paypaslaganda og'riqning kuchayishi bilan kechadi. Birinchi yordamga bosib turuvchi bog'lam va mahalliy sovuq qo'llash kiradi.

Paylarning cho'zilishi va uzilishlari bo'g'imlarda kutilmaganda va keskin harakat natijasida yuzaga keladi. Bunday shikastlanishlarga yumshoq to'qimalarga qon quyilishi xos bo'lib, buning oqibatida shish, bo'g'imda og'riq paydo bo'ladi, harakatning chegaralanishi yoki og'riqning kuchli bo'lishi sababli harakatlana olmaslik yuzaga keladi.

Birinchi yordam ko'rsatishda tarang qilib bintlanadi, immobilizatsiyalanadi va sovitish vositalari (muz, qor) qo'llaniladi. Muskul va paylarning uzilishlariga taxmin qilingan taqdirda bemorni travmatologiya bo'limlariga yotqiziladi.

Qo'l-oyoqlarning chiqishlari. Yiqilish yoki qattiq zarba natijasida bo'g'im yuzalarining siljishiga chiqish deyiladi. Sharsimon bo'g'imlarning chiqib ketishi oson kechadi, shuning uchun ham yelka bo'g'imining chiqishi ko'proq uchrab turadi.

Chiqishda periferiyada joylashgan suyakning nomi qo'llaniladi. Bundan chiqishlarning nomi kelib chiqadi. Masalan, yelka bo'g'imidagi chiqish – yelkaning chiqishi, tos-son bo'g'imidagi chiqish – sonning chiqishi va boshqalar.

To'liq chiqishlar (suyaklarning bo'g'im yuzalari bir-biriga tegmay qolganda) va chala chiqishlar (bo'g'im yuzalari qisman birbiriga tegib turganda) farqlanadi. Shuni ham nazarda tutish kerakki, chiqishlarda nafaqat bo'g'im yuzalarining siljishi, balki bo'g'im kapsulasining, paylar, ba'zan esa qon tomirlari va hatto nervlarning shikastlanishlari ham kuzatiladi.

Chiqishning simptomlari – qo'l yoki oyoqning majburiy holatdagi fiksatsiyasi, deformatsiya, faol va passiv harakatlarda og'riqning kuchayishi, oyoq yoki qo'l uzunligining o'zgarishi, prujinali fiksatsiya (harakatlantirishga intilganda jarohatlangan bo'g'imda holatni o'zgartirishga qarshilik seziladi va og'riq paydo bo'ladi).

Qo'llardagi chiqish oyoq chiqishiga nisbatan 2 barobar ko'p uchraydi va u hamma chiqishlarning 60% ni tashkil etadi. Oyoqlardagi chiqishlar, mos ravishda, 30% ni tashkil etadi.

Bunda yelka chiqishi 41%, tirsak chiqishi 16%, kaft va barmoqlar chiqishi 4% atrofida kuzatiladi. Oyoq bo'g'imlaridagi chiqishlardan son suyagining chiqishi ko'proq uchraydi (27%).

Tizza chiqishi 2% ni va tovon chiqishi bir foizdan ko'proqni tashkil etadi.

Birinchi yordam oyoqni shina bilan va qo'lni qattiq ro'mol bilan immobilizatsiyalash, analgetik dorilar berish va travmatologiya bo'limlariga yoki statsionarga olib borishdan iborat.

Har xil joylardagi chiqishlarda asosiy birinchi yordam, shikastlangan oyoq yoki qo'lni harakatsizlantirish va tezda bemorni travmatologiya bo'limiga jo'natishni o'z ichiga oladi.

Qo‘l bo‘g‘imlarining chiqishi. Yelkaning chiqishi kuchli og‘riq va uning funksiyasi buzilishi bilan kechadi. Bemorning chiqqan qo‘li tomondagi yelkasi pastga tushgan, boshi shu tomonga og‘gan, sog‘lom qo‘li bilan chiqqan qo‘lni ushlab turishga harakat qiladi. Shikastlangan qo‘l tanadan uzoqlashgan, tirsak bo‘g‘imi bukilgan va xuddi uzayibroq qolgandek ko‘rinadi. Yelka bo‘g‘imining normal yumaloqligi yo‘qolib, uning tashqi yuzasi, yelka suyagi boshining siljishi natijasida, tekislanib qoladi. Bu bo‘g‘imning faol harakati yo‘q, sekin harakatlantirilganda yelkaning «tarang fiksatsiyasi» kuzatilib, tirsak bo‘g‘imini tanaga yaqinlashtirib bo‘lmaydi.

Bilak suyagining chiqishida tirsak bo‘g‘imining hajmi kattalashib, deformatsiyalanadi, qo‘l yarim bukilgan holatda bo‘ladi. Agar bilak old tomondan chiqqan bo‘lsa, u uzaygandek, orqadan chiqsa, kaltalashib kolgandek tuyuladi.

Barmoqlar ichida, ko‘pincha, birinchi barmoqning chiqishi ko‘proq kuzatiladi. Bunda ko‘proq orqa tomonga va ozroq kaft tomonga siljish kuzatiladi. Barmoqlarning chiqishiga, ko‘pincha, ularni zo‘rlab egish sababchi bo‘ladi. Chiqqan barmoq majburiy “miltiq tepkisi” holatida bo‘lib, panjalarga nisbatan deyarli 90<sup>o</sup> li burchak ostida joylashadi.

Oyoq bo‘g‘imlarining chiqishlari. Son suyagining chiqishi bilvosita katta kuchning ta‘siri natijasida yuz berib, bu kuch kutilmaganda va keskin tarzda sonni ichkariga (orqaga chiqish) yoki oyoqning keskin kerilishi va uni tashqariga aylantirilishi (oldinga chiqish) natijasida kelib chiqadi.

Sonning orqaga chiqishida oyoq tos-son bo‘g‘imida bukilgan, tanaga yopishgan va ichkariga o‘girilgan, aylanib qolgandek tuyuladi.

Oyoq kaftidagi chiqishlar, ko‘pincha, to‘liq bo‘lmay (chala chiqishar deb atash mumkin), ularni rentgenologik tekshiruvsiz to‘g‘ri tashxislash juda qiyin.

Chiqishlarning har xil lokalizatsiyalaridagi asosiy birinchi yordam shikastlangan oyoq yoki qo‘lni tinch holatga keltirish va tezda bemorni travmatologik bo‘limga yoki travmopunktarga malakali tibbiy yordam ko‘rsatish va chiqqan bo‘g‘imni o‘rniga solib qo‘yish uchun jo‘natiladi. Bunday shikastlanishlarda voqea sodir bo‘lgan joyda biron-bir manipulyatsiya o‘tkazish mumkin emas, chunki mutaxassissiz qo‘yilgan tashxis noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin, bundan tashqari voqea joyida yetarli og‘riqsizlan-tirishning iloji ham yo‘q.

Voqea sodir bo‘lgan joyda chiqqan joyni solish, oyoq-qo‘llarni siltab tortish, bo‘g‘imlarni passiv harakatga keltirish – yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan holat.

Bunday bemorlarni shifoxonaga olib borishda chiqqan qo‘lni ro‘mol bilan bog‘lanadi va tirsak chuqurchasiga yumshoq yostiqcha qo‘yiladi, oyoq chiqqanda standart simli Kramer shinasi yordamida, u bo‘lmagan taqdirda qo‘l ostida bo‘lgan immobilizatsiyalovchi vositalar yordamida bintlanib yoki chiqqan oyoqni sog‘lom oyoqqa mahkamlab (bunda kiyimlar yechilmaydi), keyin jo‘natish tavsiya etiladi. Bemorga og‘riqsizlantiruvchi va tinchlantiruvchi dori vositalarini berish mumkin.

Qo‘li chiqqan bemor o‘tirgan holatda, oyoq bo‘g‘imlari chiqqan bemor faqat yotqizilgan holatda shifoxonaga olib boriladi.

Bemorni kasalxonaga yotqizishni paysalga solish mumkin emas. Chiqqan bo‘g‘imni joyiga solish qancha kechiksa, shuncha qiyinlashib boradi. Chunki asta-

sekin chiqqan bo'g'imning yumshoq to'qialarida ikkilamchi o'zgarishlar (shish, qisilish, uzilish) kelib chiqa boshlaydi.

### **Tayanch-harakat a'zolari suyaklarining sinishi.**

Suyak butunligining biron qismi buzilishiga sinish deyiladi. Ko'p hollarda suyaklarning sinishi unga tashqi kuchning bevosita yoki bilvosita ta'siri natijasida, shuningdek, o'qotar quroldan jarohatlanish oqibatida yuzaga keladi.

Teri qoplamasi butunligining buzilishi yoki aksinchaligiga qarab, sinishlarni ochiq va yopiq turlarga bo'lamiz.

Suyak sinishining qaysi tekislikda joylashishiga qarab, ular quyidagicha tafovutlanadi:

- *ko'ndalang;*
- *qiyshiq;*
- *spiralsimon;*
- *uzunasiga singan;*
- *parchalanib sinish;*
- *kompresion.*

Suyakning sinish darajasi undagi buzilishlarga qarab, to'liq sinish (butunligining to'liq buzilishi) va suyaklar pardasi ostidagi sinish (suyak singan, lekin suyak usti pardasi butun)larga bo'linadi. Suyak singan vaqtda uning bo'lakchalari sindiruvchi kuchning yo'nalishiga va muskullar qisqarishiga bog'liq holda u yoki bu tomonga siljishi mumkin. Suyak bo'lakchalarining siljishi uning o'qi bo'ylab burchak ostida, periferiyaga va uzunligi bo'yicha amalga oshadi. Suyak bo'lakchalarining siljishi, odatda, ikki va undan ko'p yo'nalishlarda kuzatiladi. Suyak parchalari orasiga muskullar, paylar, nerv tolalari va qon tomirlari kirib qolib zararlanishi mumkin. Bu narsa, bir tomondan, falajlikka, qon aylanishining buzilishlariga olib kelsa, ikkinchi tomondan, suyakning bitishiga to'sqinlik qiladi. Birinchi yordam ko'rsatishda shu narsani yodda tutish kerakki, bunday bemor juda tezlik bilan maxsus tibbiy yordam ko'rsatish uchun (ko'pincha, bunday bemorlar jarrohlik yordamiga muhtoj bo'lishadi) transportirovka qilinishi kerak.

Sinishing simptomlari: singan joyda keskin og'riq, funksiyaning buzilishi (bemor singan oyoq yoki qo'ldan foydalana olmaydi) va deformatsiya kuzatiladi. Bemor ko'zdan kechirilganda, oyoq yoki qo'l (singan a'zo) uzunligining qisqarganligi, uning notabiiy holati, ba'zan paypaslaganda singan joyda g'irchillash (krepitatsiya)ni kuzatish mumkin. Ochiq turdagi sinishlarda jarohat kuzatilib, undan suyak parchalari ba'zan ko'zga ko'rinib turadi.

Sinislardagi birinchi yordam. Yopiq turdagi sinishlarda shikastlangan a'zoni immobilizatsiya qilish maqsadida transport shinalaridan foydalaniladi, keyin shifoxonaga olib boriladi. Maxsus transport shinalari bo'lmagan taqdirda, qo'l ostida mavjud bo'lgan vositalardan: faner, karton, taxtacha va shu kabilardan foydalaniladi. Agar qo'l ostida yuqoridagilar bo'lmasa, qo'l singanda uni gavdaga, oyoq singanda – uni sog'lom oyoqqa bint bilan mahkam qilib bog'lanadi. Singan a'zo bilan ehtiyotsiz munosabatda bo'lganda, bemorni bir joydan ikkinchi joyga o'tkazish yoki yotqizishda, suyak parchalari terini ichki tomonidan jarohatlab,

yopiq sinishni ochiq sinishga aylantirib qo'yishi mumkin. Bu esa bemorning ahvolini nafaqat og'irlashtiradi, balki yaraga infeksiya tushish xavfini tug'diradi, keyin bu narsa yiringli shamollash jarayoniga va osteomielit (suyakning yiringli jarayoni) ga olib kelishi mumkin.

Ochiq sinishda birinchi navbatda qon oqishini to'xtatish, jarohat atrofidagi terini yodning spirtli eritmasi bilan artish va aseptik vositalar bilan bog'lab qo'yish kerak. Keyin singan a'zoga transport shinalari qo'yilib immobilizatsiyalanadi. Shundan keyin, ya'ni birinchi yordam ko'rsatilgach, keyingi bosqichga o'tiladi: zambilga joylashtirilib, transport vositasida shifoxonaga olib boriladi.


Qo'l va o'mrov suyaklarining sinishi. O'mrov suyagining sinishi to'g'ridan-to'g'ri tushgan zarba yoki bilvosita shikastlanish natijasida, masalan, qo'l ustiga yiqilganda kelib chiqishi mumkin. O'mrov suyagi o'rtasidagi uchdan bir qismida sinishlar ko'proq kuzatiladi, chunki ayni shu joy tashqariga ko'proq bo'rtib chiqqan va kamroq himoyalangan. Muskullarning tortish kuchi ta'sirida ichkaridagi suyak siniqlari yuqoriga va orqaga, tashqaridagi siniqlar pastga va oldinga siljiydi. Suyak pardasi ostidagi sinishlar va darz ketishlarda siniqlar siljishi bo'lmaydi.

O'mrov suyagi sinishidagi belgilar bu – og'riq, yelkaning asimmetriyasi, ko'pchilik hollarda singan o'mrov suyagi siljigan joyda shish ko'zga tashlanadi, ba'zan krepatatsiya aniqlanadi.

**Birinchi yordam ko'rsatishda** sakkizsimon yoki halqasimon qilib paxta-dokali bog'lam qo'yiladi. Sakkizsimon bog'lam qo'yilayotgan vaqtda bemor o'tirgan holatda, yordam ko'rsatuvchi esa uning orqasida joylashadi. Bog'lam qo'yishdan oldin bemorning qo'ltiqlari ostiga paxtadan yoki porolondan yostiqchalar joylashtiriladi. Bint (kengligi 10-15 sm.)ni yelka bo'g'imi oldidan qo'ltiq ostiga o'tkaziladi va orqada kuraklar o'rtasida kesishadi. Tola-dokali halqa tayyorlash va halqasimon bog'lamni qo'yish texnikasi juda sodda. Halqani tayyorlash uchun ayollar paypoqlari (kapronli, trikotajli), ko'ylak yenglaridan foydalanish mumkin: ular tola bilan to'ldirilib, keyin halqa shakliga keltiriladi. Bu halqachalar bemorning qo'llariga bittadan kiydirilib, yelkaning yuqori uchdan bir qismigacha ko'tariladi, ularni orqasidan tortib kuraklar bir-biriga maksimal yaqinlashtiriladi, keyin bint bilan tortib bog'lanadi, lekin bunday tortish qon aylanishiga xalal bermasligi shart (qo'ltiq osti va yelka arteriyalarini siqib qo'yimaslik kerak).

**Yelka suyagining sinishlari.** Yelka suyagining qaysi joyi sinishidan qat'i nazar (yuqori, o'rta yoki pastki qismi) birinchi yordam Kramer transport shinalarini qo'yish bilan chegaralanadi.

Bilak va kaft suyaklarining sinishlarida, uni harakatsizlantirish uchun kalta simli shinalar yoki qo'l ostidagi vositalar ishlatiladi (11-rasm).



11-rasm.

Buning uchun bilak suyagini tirsak bo'g'imidan to'g'ri burchak ostida bukib, bemorning kaftiga ozroq bog'lov materiali solinadi va uni bemor barmoqlari bilan qisadi. Simli shinani (g'ilofli) to'g'ri burchak ostida buklab, qo'l shakliga moslanadi va u qo'lning orqa yuzasidan, yelkaning yuqori qismidan boshlab, barmoq-largacha olib boriladi. Keyin shinani qo'l bilan birgalikda qo'shib bint bilan o'rab chiqiladi. Qo'lni bint yoki ro'molcha bilan bo'yinga osib qo'yiladi. Qo'lni harakatsizlantirilgach, uni tanaga bint bilan mahkamlab o'rab qo'yish mumkin (12- rasm).



12 - rasm.

**Qovurg'alar va to'sh suyagining sinishlari.** Ko'krak qafasining shikastlanishlarida uning tinch holatini yaratish uchun spiral bog'lam qo'yish tavsiya etiladi. Bu bog'lam uchun keng bintlar qulay bo'lib, bu maqsadda sochiq va choyshablardan ham foydalanish mumkin. Sochiq yoki choyshab uch qavat qilib buklanadi va o'rama holiga keltiriladi. Bog'lam tushib ketmasligi uchun yelka usti kiyimiga tikib qo'yish mumkin. Ko'krak qafasining shikastlangan tomonini fiksatsiyalash uchun keng leykoplastirdan ham foydalanish mumkin, uni cherepitsa shaklida to'shdan umurtqalar tomonga yopishtirib chiqiladi. Bemorni o'tirgan, yarim o'tirgan yoki gavdaning yuqori qismi bir oz ko'tarilgan holatda shifoxonaga olib boriladi.

**Oyoq suyaklarining sinishi.** Son suyagi skeletning eng katta va eng mustahkam suyagi bo'lib, u vertikal holatda 1500 kg. dan ko'proq og'irlikni ko'taradi. Bundan yuqori bo'lgan kuch yoki og'irlik ta'sirida son suyagi sinishi mumkin. Son suyagining sinishi og'ir jarohatlar qatoriga kirib, bunda yumshoq to'qimalar, qon tomirlari qattiq shikastlanadi, ko'p qon yo'qotiladi, ko'pincha, travmatik shok holati kuzatiladi.

Son suyagining yuqori, o'rta va pastki qismlari sinishi tafovutlanadi. Son suyagining yuqori qismi sinishi (bo'yin va boshchasi) sinishning, taxminan, yarmini tashkil etadi va u tos-son bo'g'imi bilan yiqilishdan yuzaga keladi. Bunday sinishlar, ko'pincha, qariyalarda (70 yoshdan oshgan) kuzatiladi. Simptomlari: qov va tos-son bo'g'imi sohalarida og'riq, shish va bemor oyog'ini ko'tara olmaydi.

Son suyagining o'rta va pastki qismi sinishi bevosita og'ir predmetlar va harakatdagi transport vositalarining urilishidan, yuqori balandlikdan yiqilganda, shuningdek, yiqilish vaqtidagi bilvosita kuchli ta'sirdan (bu ta'sir suyakning buralishiga va haddan tashqari egilishiga olib keladi) yuzaga kelishi mumkin. Sinishlar ochiq va yopiq turda bo'lishi mumkin. Simptomlari: singan joydagi og'riq, oyoq bilan harakat qilishning ilojisizligi.


Tizza bo‘g‘imining sinishlari bevosita kaltak ta‘sirida, tizza bilan yiqilganda yoki balandlikdan yiqilib oyoq bilan tushganda yuzaga keladi. Ko‘pincha, tizzaning qopqoq suyagi sinishi kuzatiladi. Sinishning belgilari: og‘riq, konturlarning tekislanishi va bo‘g‘im aylanasining kattalashishi. Paypaslab ko‘rilganda, bo‘g‘im ichida suyuqlik borligi seziladi. Tizza kopqog‘ini surish ancha qiyin – “prujinasimon harakat belgisi”, harakat keskin qisqargan. Siniq bo‘lakchalari orasida tirqish aniqlanishi mumkin.

**Birinchi yordam** – shikastlangan kishiga qo‘l ostida bo‘lgan har qanday og‘riqsizlantiruvchi dori-darmonlarni, yurak preparatlarini berish; ochiq sinishlarda tezlik bilan qon oqishini to‘xtatish, jarohatga steril bog‘lam, singan suyakka shina qo‘yish-bunda uzunligi yetarli bo‘lgan har qanday qo‘l ostidagi ositalardan foydalanish mumkin (13- rasm).




13-rasm.

Bunda uchta bo‘g‘im harakatsizlantirilishi kerak (tos-son bo‘g‘imi, tizza va boldir tovon bo‘g‘imlari). Agar qo‘l ostida yaroqli vosita bo‘lmasa, shikastlangan oyoqni sog‘lom oyoqqa bint yordamida mahkam bog‘lab, undan keyin bemor yotqizilgan holatda shifoxonaga olib boriladi (14 - rasm).



14-rasm.

**Boldir va tovon suyaklarining shikastlanishlari.** Xarakteri bo‘yicha ular qiyshiq vintsimon, ko‘p parchalangan, ko‘ndalang (siljish bilan va siljishsiz) ko‘rinishda bo‘ladi. Bunday sinishlarda ichki yoki tashqi qon ketishlar bo‘lib, ba‘zan yo‘qotilgan qon miqdori ancha kattabo‘ladi. Ko‘proq chang‘ichilarda va piyodalarda vintsimon sinishlar kuzatiladi. Sinishning belgilari – kuchli og‘riq, oyoq funksiyasining buzilishi, deformatsiya va oyoq uzunligining qisqarishi, ochiq sinishlarda teri butunligining buzilishi va suyak siniqlarining chiqib qolishi, qon oqishi va boshqalar (15 - rasm).



15 - rasm.

Suyak siniqlarini voqea sodir bo'lgan joyda to'g'rilashga yo'l qo'yib bo'lmaydi va bu narsa juda qo'pol xato hisoblanadi!

Tizza-tovon bo'g'imi va tovonning yopiq shikastlanishlarida birinchi yordam unga transport shinalarini qo'yish va bemorni maxsus davolash muassasalariga olib borishdan iborat bo'ladi.



### Savol va topshiriqlar:

1. Bosh suyagi qoplamalarining yopiq va ochiq shikastlanishlari o'rtasidagi asosiy farq nimada?
2. Lat yeyish natijasida yumshoq to'qimalarda qanday klinik belgilar kuzatiladi?
3. Bosh suyagi sinishining asosiy sabablari nimalardan iborat?
4. Bosh miya chayqalishining yengil, o'rtacha va og'ir darajalari qanday farqlanadi?
5. Bosh miya lat yeyishining asosiy simptomlari nimalardan iborat?
6. Bosh suyagi asosining sinishida qanday belgilar (simptomlar) kuzatiladi?
7. Umurtqa sinishida noto'g'ri ko'chirish qanday asoratlarga olib kelishi mumkin?
8. Tos suyagi sinishida kuzatiladigan "qurbaqa holati" nimani anglatadi?
9. Chiqish (bo'g'im chiqishi) nima va uning asosiy simptomlari qanday?
10. Suyak sinishida birinchi tibbiy yordam ko'rsatishda qanday asosiy choralar ko'riladi?

## 8-§. Jarohatlarni bog'lash qoidalari

Desmurgiya (yunoncha *desmos* – bog'lam, bog'lanish, *ergon* – ish, faoliyat) – jarohatlarni bog'lashda qo'llaniladigan qoidalar to'g'risidagi ta'limotdir.

Gippokrat yashagan miloddan avvalgi IV–V asrlarda ham har xil tuzlar, vinolar va malhamlar bilan yaralarni bog'lash usullari qo'llanilgan. IX–XI asrlardagi arab manbalarida ham gipslash to'g'risidagi ko'rsatmalar bor. Ularda yozilishicha, oyoq-qo'llar singanda gips bo'tqasiga botirib gipslangan. Antiseptika tatbiq etilgungacha bo'lgan davrda yaraga lattadan titib olingan iplardan bog'lam qo'yilib, u ip-gazlama material yordamida bog'lab qo'yilgan. Dokali bintlarning paydo bo'lishi bilan desmurgiya sohasida katta o'lga siljish (progress) bo'lgan.

Jarohatga yoki tananing qaysidir qismiga uni davolash maqsadida qo'yiladigan narsalarning barchasi "bog'ich" termini hisoblanadi. Bog'ichni jarohatda ushlab turish va uni mahkamlash bog'lash deyiladi. Boshqacha aytganda, bog'lash bog'ichni mahkamlashdir.

### **Bog'lov materiallarining quyidagi turlari ishlab chiqariladi:**

Tibbiy doka (*tela medicinalis*) – oqartirilgan, yog'sizlantirilgan paxtadan qilingan gazmol. Dokadan bintlar, individual paketlar, sharchalar, tamponlar, salfetkalar va boshqalar tayyorlanadi. Bintlarning uzunligi 5 m. dan 7 m. gacha, kengligi 3 sm. dan 16 sm. gacha bo'ladi.

Aseptik bog'lovlarning yaralarga va kuygan yuzalarga ishlatiladigan turlari farqlanadi. Sanoatda bog'lovlarning quyidagi turlari ishlab chiqariladi:

1) katta aseptik bog‘lov. U 65–43 sm. li o‘lchamga ega bo‘lib, momiq-dokali yostiqcha. Unga mahkamlovchi tasmalar taqilgan bo‘ladi;

2) kichik aseptik bog‘lov. 56–29 sm.li o‘lchamga ega bo‘lgan momiq-dokali yostiqcha va 14 sm. –7 m. li doka bintdan iborat bo‘ladi;

3) momiq-dokali yostiqchalar. Ikki xilda ishlab chiqariladi: kattasi 32–29 sm. li paketchasida 5 donadan, kichigi 17,5–16 sm. paketchasida 10 donadan bo‘ladi. Bu yostiqchalarda bir qavat momiq ikki qavat doka orasiga solingan bo‘ladi. Bu yostiqchalar jarohatlarni va kuygan yuzalarni yopish uchun ishlatilishi mumkin;

4) steril dokali salfetkalar. Bevosita jarohat yuzasiga qo‘yish uchun ishlatiladi. Ikki xil o‘lchamda ishlab chiqariladi. Kattasi 70–68 sm. li paketda 10 tadan, kichkinasi 16–14 sm. li paketda 20 tadan bo‘ladi. Dokali salfetkalardan tashqari travmatik kuygan yuzalarni bog‘lashga mo‘ljallangan viskoza to‘qimali salfetkalar ham ishlab chiqariladi;

5) ro‘molli bog‘lov, to‘g‘ri burchakli teng yonli uchburchak, o‘lchami 140–150 sm.

**Bog‘lamlarning turlari.** Bog‘lamlarni mahkamlashning juda ko‘p usullari mavjud.

1. Qimirlamaydigan bog‘lam – shikastlangan sohaning harakatsizligi va tinchligini ta‘minlab berishi kerak.

2. Cho‘zuvchi bog‘lam – shikastlangan sohaning cho‘zilishini ta‘minlab berishi lozim.

3. Bosuvchi bog‘lam – tananing nosog‘lom qismini bir tekisda bosib turadigan bog‘lam.

4. Antiseptik bog‘lam – o‘zidagi moddalari bilan bakteriyalarga qarshi ta‘sir ko‘rsatishga mo‘ljallangan.

5. Himoya qiluvchi bog‘lam – jarohatning granulyatsiyalanish davrida qo‘llanilib, nozik granulyatsiya to‘qimasini qurib qolishdan va jarohatlanishdan saqlash maqsadida qo‘llaniladi.

6. Okkulyuzion bog‘lam – jarohatga havo kirishiga to‘sqinlik qiladigan bog‘lam. U ochiq pnevmotoraksda qo‘llaniladi.

**Yumshoq va qattiq bog‘lamlar.** Yumshoq bog‘lamlarga yelimli, ro‘molli, bintli bog‘lamlar kiradi. Qattiq bog‘lamlarga shinali va gipsli bog‘lamlar kiradi.

*Yelimli bog‘lamlar.* Bog‘lamlarni teriga yopishtirish uchun kleol, kalloidli, yopishqoq plastirdan foydalaniladi. Ustuvor tomonlariga quyidagilar kiradi: bog‘lam qo‘yishning oddiyligi, terini qitiqlamasligi sababli uni qayta-qayta ishlatish mumkin. Kamchilliklari: terining tukli joylarida ishlatib bo‘lmaydi, qo‘llansa, teridan ko‘chib ketadi.

*Ro‘molli bog‘lamlar* – qo‘llanilishi jihatidan eng oddiy bog‘lam turidir. Bu bog‘lam turi qo‘lning turli shikastlanishlarida (panja, bilak va yelka jarohatlarida) uni harakatsizlantirish maqsadida qo‘llaniladi. Ro‘mol paxtali matodan qilingan uch burchak material bo‘lib, uning uzunroq tomoni – asosi, uning qarshisidagi burchagi – cho‘qqi, 2 ta burchagi – oxiri bo‘lib hisoblanadi.

Ro‘molcha yordamida barmoqlarga, qo‘l va yelkalarga, sut beziga, yelka bo‘g‘imiga, tos-son bo‘g‘imiga, bosh va tovonlarga turli xil bog‘lamlarni qo‘yish mumkin.

Agar qo‘lga ro‘molli bog‘lam qo‘yilsa, tirsak bo‘g‘imi  $90^{\circ}$  ga bukiladi. Ro‘molni jarohatlangan qo‘lning orqasiga shunday joylashtirish kerakki, uning asosi gavdaning o‘rta chizig‘iga to‘g‘ri kelsin, cho‘qqisi esa jarohatlangan qo‘lning tirsagi tomon yo‘naltirilgan bo‘lsin (16-rasm).



16-rasm.

Bunda ro‘molning bir uchi jarohatlangan qo‘lning bilagida yotsa, ikkinchi uchi tana bo‘ylab pastga osilib turadi. Pastga osilib turgan ro‘molning uchini ko‘tarib sog‘lom yelka orqali bo‘yining orqa tomoniga o‘tkaziladi va boshqa uchi bilan tugib bog‘lab qo‘yiladi. Ro‘molning cho‘qqisi uning oldingi qismiga ilgak tugma bilan mahkamlanadi.

Ro‘molli bog‘lamning boshqa varianti ham bor: ro‘molni shikastlangan qo‘lning orqasidan emas, oldidan o‘tkaziladi. Ro‘molning bir uchi jarohatlangan qo‘lning oldidan o‘tib bilakni o‘raydi va bo‘yinga ko‘tariladi, ikkinchi uchi sog‘lom qo‘lning qo‘ltiq ostidan o‘tib, orqadagi birinchi uchi bilan tutashadi. Ikkala uchini shikastlangan qo‘lning yelka ustida tugib mahkamlanadi. Cho‘qqisi ilgak tugma bilan mahkamlanadi. Bunday bog‘lam qo‘llanganda ro‘mol qo‘lni tanaga mahkam va zich fiksatsiyalaydi, qo‘lning tinch holatiga yaxshiroq erishiladi.

Kichik jarohat bog‘lamlarida ro‘molni galstuk ko‘rinishida buklash kerak. Qo‘lni osiltirib, ro‘molning ikki uchi katta bog‘lam kabi tugib qo‘yiladi.

*Sopqonsimon bog‘lam* – bunday bog‘lamlar asosan burun, dahan, ensa va peshona sohasiga qo‘yiladi. Sopqonsimon bog‘lam deyilganda – o‘rtasi tutashgan va ikki tomoni uzunasiga kesilgan bint yoki boshqa matodan tayyorlangan bog‘lam tushuniladi. Ushbu bog‘lam qo‘yilganda, albatta, uning so‘ngi qismlari bir-biri bilan bog‘lanadi.

*T-shaklidagi bog‘lamlar* chot va orqa chiqarish teshigi sohasiga qo‘yiladi. U keng doka tasmadan tashkil topib, uning bir tomoniga gorizontel tasma (belbog‘) mahkamlanadi. Dokaning pastki uchi bir oz uzunlikda 2 ta tasmaga ajratib qirg‘iladi. Gorizontel tasma tana atrofida aylantirib bog‘lanadi, vertikal qismi orqa tomondan pastga tushirilib, chot qismidan o‘tib, qorinning oldingi tomonidan belbog‘ga bog‘lab qo‘yiladi.

**Bintli bog‘lamlar.** Bintlar ingichka (3–5–7 s), keng (15–16 sm) va o‘rtacha (10–12 s) bo‘ladi. Ingichka bintlar qo‘l va oyoq barmoqlarini; o‘rtacha bintlar boshni, panjalarni, bilakni, oyoq panjasini, boldirni; keng bintlar ko‘krak qafasini, ko‘krak bezlarini va sonni bog‘lashda ishlatiladi.

To'g'ri qo'yilgan bintli bog'lama desmurgiyaning quyidagi asosiy talablarini qondirishi kerak:

- tananing kasal qismini to'la yopishi;
- qon va limfa aylanishini buzmasligi;
- bemor uchun qulay bo'lishi;
- imkoniyat boricha, estetik chiroyli bo'lishi lozim.

**Bintli bog'lamlarni qo'llashning asosiy qoidalari.** Bintli bog'lamlarni qo'llashning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

1. Kasalni shunday o'tqazish yoki yotqizish kerakki, bintlanayotgan tana qismi harakatsiz va bintlashga qulay bo'lsin.

2. Bintlayotgan odam bemorning yuziga qarab turishi kerak va u bintlash vaqtida kasalni vizual kuzatish imkoniyatiga ega bo'lsin.

3. Bintlash doimo periferiyadan markazga qarab (quyidan yuqoriga) amalga oshiriladi.

4. Bintlash o'ng tomondan chap tomonga qarab, soat strelkasiga qarama-qarshi amalga oshiriladi.

5. Bintlash birinchi mustahkam aylana qo'yishdan boshlanadi.

6. Keyingi har bir aylanish avvalgi aylanishning yarmini yoki uchdan birini berkitishi kerak.

7. Bint o'ramini bintlanayotgan yuzada g'ildiratib, undan ko'tarmay aylantirish kerak.

8. Bintlash ikki qo'llab amalga oshiriladi: bir qo'l bilan bint o'ramini g'ildiratish, ikkinchi qo'l bilan o'ralgan bintni tekislab turish kerak.

9. Bintni bir xilda tortish kerak, chunki uning yo'llari chalkashib har xil burmalar hosil qilmasligi kerak.

10. Bintlash vaqtida tananing bintlanayotgan qismi shunday holatda joylashtirilishi kerakki, shu holat bintlab bo'lgandan keyin ham saqlansin.

11. Tananing konus shakliga ega bo'lgan qismlariga (son, boldir) bog'lama qo'yilayotgan vaqtda bintning tanaga jipsroq joylashishi uchun har 1–2 aylanishdan keyin bir marta o'qi atrofida burash kerak.

12. Bog'lamaning oxirida bint mahkamlab qo'yiladi (tugib qo'yiladi).

### **Bintli bog'lamlarning turlari**

*Sirkulyar yoki aylanma bog'lama* – bu shunday bog'lamki, bunda bintning hamma aylanalari bir-birining ustiga tushadi va avvalgi aylanani to'liq berkitadi. Bunday bog'lamlar oyoq-qo'llarga, peshona, bo'yin va qoriga qo'yiladi.


*Spiralsimon bog'lama* sirkulyar bog'lamaning bir ko'ri-nishidir. Spiralsimon bog'lamaning 2 turi tafovutlanadi: yuqoriga ko'tariluvchi, bunda bintlash pastdan yuqoriga va pastga tushadi va avvalgi aylanishning yarmini qoplab, yana yuqoridan pastga tushiriladi.

*O'rmalovchi bog'lama* ham spiralsimon bog'lamaning bir turi bo'lib, unda bint aylanalari bir-biriga tegmaydi. Bunday bog'lamlar jarohatga qo'yilgan materialni ushlab turish maqsadida bintlashning boshlang'ich davrida qo'llaniladi, keyin spiralsimon bog'lama o'tiladi.

*Sakkizsimon (butsimon) bog‘lam* degan nom uning shakli va bint yo‘llaridan olingan. U bo‘yinning orqa yuzasiga, ko‘krak qafasiga bog‘lam qo‘yilganda qo‘llaniladi.

*Boshoqsimon bog‘lam* – sakkizsimon bog‘lam ko‘rinishlaridan biri. Bintlar yo‘li boshoqni eslatgani uchun shunday ataladi. Bunday bog‘lamlarni yelka bo‘g‘imiga va o‘mrov usti sohalariga qo‘llash juda qulay. Yelka bo‘g‘imiga boshoqsimon bog‘lamni qo‘yishda, umum e‘tirof etilgan qoidalarga teskari, bintlashni shikastlangan tomonga yo‘naltirilgan holda amalga oshiriladi, ya‘ni quyidagi qoidani yodda saqlash kerak: o‘ng yelkani soat mili yo‘nalishida, chap yelkani esa unga teskari yo‘nalishida bintlash kerak.

*Toshbaqasimon bog‘lam* 2 xil bo‘ladi (17-rasm): qo‘shiluvchi va tarqaluvchi. Bu bog‘lamlar tirsak, tizza va boshqa bo‘g‘imlarni bog‘lash uchun tavsiya etiladi.



*Tarqaluvchi bog‘lamlar* quyidagi tarzda qo‘llaniladi:

Birinchi aylanishi sirkulyar tarzda bo‘g‘imning o‘rtasidan o‘tadi. Ikkinchi aylana birinchi aylananing pastki yarmi yoki uchdan birini berkitadi. Uchinchi aylana birinchi aylananing yuqorigi yarmini yoki uchdan ikki qismini berkitadi. To‘rtinchi aylana ikkinchini, beshinchi aylana uchinchini takrorlaydi va h. k. Shunday qilib, toq sonli aylanalar toq aylanalarni, juft sonli aylanalar juft aylanalarni takrorlaydi, lekin toqlari undan pastda, juftlari avvalgisidan tobora yuqoriroqda joylashadi. Qo‘shiluvchi bog‘lam ham xuddi shu tartibda qo‘yiladi, lekin hamma narsa teskari tarzda bajariladi.

*Orqaga qaytadigan bog‘lamlar* qo‘l yoki oyoq cho‘ltoqlari (amputatsiyadan keyingi qolgan joy)ga, boshga va boshqa joylarga qo‘yiladi.

#### **Bunday bog‘lamlarni qo‘yish texnikasi quyidagicha:**

- a) bir necha sirkulyar yo‘llar bilan bint mahkamlanadi;
- b) barmoq bilan ushlab turib, bint bukiladi va uni ko‘ndalang holda boshning qarama-qarshi tomoniga (cho‘ltoqning) olib boriladi, keyin sirkulyar aylanalar bilan bintning ko‘ndalang tasmasi mahkamlanadi;
- v) yana bint buklanib, u ko‘ndalang yo‘naltiriladi, bunda avvalgi aylananing yarmini yoki uchdan ikki qismini yopib o‘tishi kerak. Bu yo‘l ham sirkulyar aylana bilan mahkamlanadi.


#### **Tananing alohida joylariga qo‘yiladigan bog‘lamlar**

Boshning uncha katta bo‘lmagan jarohatlarida leykoplasterli, kollodiyli, kleolli bog‘lamlar qo‘yish mumkin, bunda bog‘lam qo‘yiladigan joydagi sochlar yaxshilab qirib tashlanishi kerak. Shuni qayd qilish kerakki, tananing tukli

qismlarida yelimli bog‘lamlar yaxshi ushlaymaydi. Shuning uchun ham bunday joylarda sopqonsimon va ro‘moli bog‘lamlarni ishlatish ma‘qulroq.

“Gippokrat qalpog‘i” quyidagicha qo‘yiladi: bir qo‘lga birinchi o‘ram, ikkinchi qo‘lga ikkinchi o‘ram bint olinadi. Har ikkala bintning bo‘sh uchlari ensa do‘ngligining pastrog‘iga joylashtiriladi. Har ikkala bint bir-biriga qarama-qarshi yo‘nalishda peshona do‘ngi o‘rtasiga olib boriladi. O‘ng qo‘ldagi bint o‘rami sirkulyar aylanishlar hosil qiladi, bunda har bir qaytib keladigan aylanish undan avvalgi aylanishning 1/2 yoki 2/3 qismini qoplab olishi kerak. Ayni bir paytda sirkulyar aylanish hosil qilayotgan bint qaytar aylanish qilayotgan chap qo‘ldagi bintni har doim mahkamlab boradi. Bu narsa boshning gumbazi to‘liq qoplangunga qadar davom ettiriladi.

*Boshning qalpoqchali bog‘lami* (18-rasm). Bu bog‘lam eng qulay va ishonchli hisoblanadi, chunki bunday bog‘lam qo‘llanilganda uning bo‘shashib, o‘rnidan qo‘zg‘alishiga hech qanday imkon bo‘lmaydi. Bundan tashqari, bu bog‘lamni qo‘yish texnikasi sodda bo‘lib, u quyidagicha amalga oshiriladi: uzunligi 80-90 sm. bo‘lgan bint olinadi (bint – bog‘ich).



18-rasm.

U tepa suyagining o‘rta qismiga shunday qo‘yiladiki, bunda uning uchlari quloqlarning old qismidan pastga vertikal tushib turadi. Bintning har ikkala bo‘sh uchini tarang holda ushlab turish kerak (bintni kasal yoki yordamchi tortib ushlab turadi). O‘ng qo‘l bilan bint o‘ramini olib bosh atrofidan birinchi sirkulyar yo‘l bilan aylantiriladi (bu mahkamlovchi yo‘l bo‘lib hisoblanadi). Uni 2–3 marta aylantirib ishonchliligi oshirish ham mumkin.

Mahkamlovchi sirkulyar yo‘ldan keyin, bog‘ichga borgach, bint uning atrofidan va pastidan aylantirilib, peshona yoki ensa tomonga o‘tiladi, keyin bintni qarama-qarshi tomonga boshqa bog‘ichga yo‘naltiriladi, undan aylantirilib yana qarama-qarshi tomonga yo‘naltiriladi, bunda har bir galdagi aylana avvalgi aylanishning bir qismini berkitib boradi, u bosh gumbazi berkilgunga qadar davom ettiriladi. Shundan keyin bir yoki ikkita sirkulyar yo‘l bilan bint mahkamlanadi,

bog'ichlarning biridan o'tkaziladi va bog'ichning ikkinchi uchi bilan iyak ostidan bog'lab qo'yiladi.

*Ko'zga qo'yiladigan bog'lamlar.* Bir ko'zga qo'yiladigan bog'lam monokulyar bog'lam deyiladi. Shuni yodda tutish kerakki, bintlash kasal ko'zdan boshlanadi. Bintni bosh atrofidan sirkulyar yo'l bilan o'tkazib (bunda peshona va ensa do'nglari qamrab olinadi) mahkamlovchi aylana hosil qilinadi. Keyin bintni orqa tomondan ensaga qarab yo'naltirib, uni shikastlangan ko'z tomondagi quloqning ostidan olib o'tib, chakka orqali yuqoriga ko'tariladi va u shikastlangan ko'zni berkitadi. Mana shu ikkinchi yo'l orqali sirkulyar mahkamlovchi yo'lga o'tadi, keyin yana ikkinchi yo'lga qaytiladi. Shu yo'sinda yo'llarni galma-gal almashtirib kasal ko'z berkitiladi.



19 - rasm.

*“Yugan” bog'lami* (19-rasm). Bu bog'lam yuz, iyak sohasi va ba'zan tananing tukli qismlarini bog'lashda tavsiya etiladi. “Yugan” bog'lami 4 ta navbatlashuvchi yo'llardan tashkil topadi. Birinchi va ikkinchi yo'llar – sirkulyar mahkamlovchi (ensa va peshona do'nglaridan o'tadi) yo'llardir. Uchinchi yo'lda bint ensa orqali iyakka o'tadi. Keyin bint vertikal holatda 4-, 5- va 6-yo'llar bilan iyak ostidan o'tadi. Keyin bint gorizontol holatga (aylana yo'l) o'tib, 7- va 8-yo'llarni hosil qiladi.

Keyin bog'lam qotiriladi. Mana shu yo'llarni navbati bilan almashtirib, butun boshni yoki ikkala chakkani bog'lam bilan yopish mumkin.

*Barmoqlar bog'lami.* Bitta barmoqni bintlashda birinchi (mahkamlovchi) sirkulyar yo'l bilan bo'g'imning yuqorirog'idan bir necha marta aylantirib qo'yiladi. Keyin bint panjalarning orqa tomonidan qiyshiq yo'naltirilgan holda shikastlangan barmoqning tirnoq jimjilog'iga olib boriladi. Uni berkitib orqaga qaytiladi, keyin spiral yo'llar bilan tirnoq jimjilog'idan barmoq asosigacha bintlanadi, panjaning orqa yuzasida bint kesishib o'tgach, sirkulyar yo'llar bilan birlamchi mahkamlovchi yo'llarga keltirib yana mahkamlanadi.

Barmoqlarning “qo'lqop” bog'lami xuddi shu tarzda amalga oshiriladi, bu yerda bitta barmoq emas, hamma barmoqlar bintlanadi. O'ng qo'lni bog'lashda bosh barmoqdan, chap qo'lni bog'lashda 5barmoq (jimjiloq)dan boshlash kerak. Bosh barmoqqa bog'lam boshhoqsimon ko'rinishda, qolgan barmoqlarga esa bog'lam qaytariladigan ko'rinishda qo'yilishi mumkin.

*Panjalar bog'lami.* Panjalarga bog'lam qaytariladigan ko'rinishda bog'lanadi. Avval to'rtta barmoq birgalikda, keyin bosh barmoqqa bog'lov alohida bajariladi.


*Bilaklar bog'lami.* Spiralsimon ko'rinishda bukishlar hosil qilib bog'lam qo'yiladi.

*Yelkaning boshhoqsimon bog'lami.* Bintlash shikastlangan tomonga yo'naltirilgan holatda amalga oshiriladi. Bintning birinchi yo'llari (sirkulyar) mahkamlovchi bo'lib hisoblanadi. Qo'ltiq osti chukurchasiga uning yiringli

yallig‘lanish jarayonlarida (gidradenit) bog‘lov qo‘yiladi. Desmurgiyaning ko‘plab qo‘llanmalarida berilgan bog‘lovlar o‘rnidan oson qo‘zg‘alib tushib ketadi. Bu kamchilliklardan xoli qulay va bo‘lgan usul – sopqonsimon usuldir. Uni qo‘yish uchun keng bint (kengligi – 16-20 sm., uzunligi – bir m.) olinib, ikki uchi to‘rtga ajratib kesiladi. Bintning kesilgan qismi qo‘ltiq osti chuqurchasiga shunday qo‘yiladiki, to‘rtta tasmasi ko‘krak qafasiga, to‘rtta tasmasi yelkaga chiqib turadi. Ko‘krakka ketadigan ikki uchi ko‘krak atrofida, qolgan ikkitasi yelka usti va bo‘yin o‘rtasida mahkamlanadi. Qarama-qarshi tomondagi ikkita tasma yelka atrofida va yelka usti sohasida mahkamlanadi. Mahkamlanishning yaxshi chiqishi uchun terining bog‘lam turadigan joylariga kleol surkab qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

Ko‘krak qafasini bintlashda butsimon, sakkiz ko‘rinishdagi bog‘lamlar qo‘llaniladi.

**Dezo bog‘lami.** Bog‘lam qo‘yishdan oldin qo‘ltiq osti chuqurchasiga yumshoq yostiqcha qo‘yiladi. Bilakni tirsak bo‘g‘imida to‘g‘ri burchak ostida bukib, qo‘lni ko‘krakka olib kelinadi. Dezo bog‘lami 4 ta yo‘ldan tashkil topadi. Birinchi sirkulyar yo‘l bilan yelka ko‘krak qafasiga bintlanadi. Ikkinchi yo‘l sog‘lom qo‘ltiq osti chuqurchasidan shikastlangan tomondagi yelka ustiga yo‘naltiriladi, undan orqa tomonga o‘tkazilib pastga tushiriladi. Uchinchi yo‘l tirsak bo‘g‘imini aylanib o‘tib, bilakni ko‘tarib turadi, qiyshiq holda yuqoriga sog‘lom tomondagi qo‘ltiq osti chuqurchasiga ko‘tariladi, keyin ko‘krak qafasining orqa tekisligiga o‘tadi. To‘rtinchi yo‘l shikastlangan yelka ustiga yo‘naltirilib, undan tirsak bo‘g‘imiga, uni bilakning yuqori uchdan bir qismida aylanib o‘tib, ko‘krak qafasining orqa yuzasiga va sog‘lom tomondagi qo‘ltiq osti chuqurchasiga yo‘naltiriladi (20-rasm). Hamma 4 ta yo‘l to‘liq fiksatsiyani ta‘minlangunga qadar bir necha bor takrorlanadi.



20-rasm.

**Torakobraxial bog‘lam.** Bog‘lamning bu turi, asosan, yelka suyagining sinishlarida tavsiya etiladi. Bajarilish texnikasi bo‘yicha bu juda oddiy bog‘lam. Torakobraxial bog‘lamning 2 xil varianti bor.

Birinchi variantda bintning ikki xil yo‘li bor. Birinchi yo‘l – yelkani ko‘krak qafasiga nisbatan ishonchli fiksatsiyalash uchun odatdagi bir necha aylanishli spiralsimon bog‘lash. Ikkinchi yo‘l birinchisining davomi bo‘lib, u kasal tomondagi qo‘ltiq osti chuqurchasidan orqaga o‘tib pastga tushadi, tirsakka uning orqasidan o‘tib, oldinga yo‘naltiriladi va bilaqdan bilak bo‘g‘imiga yaqin joydan o‘tib, sog‘lom tomondagi qo‘ltiq osti chuqurchasi orqali orqa tomonga o‘tadi. Birinchi va ikkinchi yo‘llar yelka va bilakning to‘liq immobilizatsiyasi ta‘minlangunga qadar bir necha bor takrorlanadi.

Ikkinchi variantdagi birinchi yo‘l yuqoridagidek, ikkinchi yo‘l bilakni ko‘tarib turib, tepaga qarab qiyshiq tarzda sog‘lom yelka ustiga yo‘naladi.

Bu bog‘lamlar o‘mrov, yelka, bilak suyaklarining sinishlarida, yelka va tirsak bo‘g‘imlarining shikastlanishlarida immobilizatsiya shinalari bo‘lmagan taqdirda qo‘llaniladi.

**Ko‘krak qafasining spiral bog‘lami.** Uzunligi 100–120 sm. ga teng bint olinib, o‘ng yoki chap yelka ustiga tashlanadi. Bintning bir uchi ko‘krakda, boshqa uchi orqada osilib turadi. Sirkulyar yo‘l bilan xanjarsimon o‘simtadan sal pastroqda bintni ikki aylantirib mahkamlanadi, keyin spiralsimon yo‘l bilan yuqoriga ko‘tarilib, oldingi yo‘lning yarmini yoki 2/3 qismini berkitadi boradi. Shunday qilib, butun ko‘krak qafasi qo‘ltiq osti chuqurchasiga qadar bint bilan berkitiladi. Bintning erkin osilib turgan uchlari qaramaqarshi yelka ustiga bog‘lab qo‘yiladi.

**Qorin sohasi va tos-son bo‘g‘imiga qo‘yiladigan bog‘lamlar.** Qorin sohasiga spiralsimon ko‘rinishdagi bog‘lamlar qo‘yiladi. U pastdan yuqoriga qarab harakatlanadi. Bog‘lam sirpanib tushib ketmasligi uchun, terining bir necha joyiga kleol surkab qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Tos-son bo‘g‘imiga boshhoqsimon tipdagi bog‘lam qo‘yiladi. Bu bog‘lam qorinning pastki qismini ham o‘z ichiga oladi. Bog‘lamning aynan qaysi joyga qo‘yilishiga qarab (yonbosh, oldinda, orqada) yonbosh, oldingi yoki orqa boshhoqsimon bog‘lamlardan iborat bo‘ladi.

Chot sohasidagi jarohatni bog‘lashda bintlash shikastlangan tomondan boshlanadi. Avval bint sirkulyar yo‘llar bilan qorin atrofida mahkamlanadi. Keyin qorinning oldingi tomonidan sonning oldingi tomoniga o‘tiladi – ichki yarim aylanasiga va ichki yuzasiga qaytadi. Keyin bint qiyshiq holatda tepaga va qovga yo‘nalib, oldingi yo‘lni berkitadi va tepaga qorin atrofiga ko‘tariladi. Bu yo‘llar qov sohasi to‘liq berkulgunga qadar davom ettiriladi.

**Oyoqlarga qo‘yiladigan bog‘lamlar.** Son va tizzaga qo‘yiladigan bog‘lamlar joyidan qo‘zg‘alib ketmasligi uchun spiralsimon tipda bintni o‘rash yo‘li bilan tizza bo‘g‘imi sohasiga toshbaqasimon qo‘shiluvchi yoki tarqaluvchi bog‘lamlar qo‘yiladi.

Boldir-tovon bo‘g‘imiga sakkizsimon bog‘lam qo‘yiladi. U boldirning pastki uchdan bir qismida sirkulyar yo‘l bilan boshlanib, keyin qiyshiq holda tovonning orqa tomoniga tushadi, uning atrofida aylantirilib tepaga ko‘tariladi, avvalgi yo‘l bilan kesishadi va boldirda mahkamlanadi.

**Qattiq bog‘lamlar. Maxsus shinalar.** Qattiq bog‘lamlar fiksatsiyalovchi va ekstensiyali turlariga bo‘linadi.

Fiksatsiyalovchi:

- 1) simli (narvonsimon);
- 2) diterixs shinasini;
- 3) to‘rsimon;
- 4) fanerli;
- 5) kartonli.

**Narvonsimon shina** (Kramer shinasini) – rux bilan qoplangan va toblangan po‘lat simlardan tayyorlangan bo‘lib, narvon shakliga ega, 12 ga 100 va 10 ga 60 sm. o‘lchamli turlari bor. Uni istalgan shaklga keltirish mumkin, qo‘yish

texnikasi ham juda sodda, shuning uchun ham uni qo'l va oyoq jarohatlarida qo'llash mumkin. To'rsimon shina (Filbri shinasi) – yumshoq va ingichka simdan tayyorlangan bo'lib, o'lchami 12 ga 100 sm, juda oson bukiladi va egiladi, istalgan shaklga keltirish mumkin, lekin u yetarli darajada qattiq emas va juda egiluvchan. Fanerli shinalar singan yoki chiqqan qo'l va oyoqlarni immobilizatsiya qilishda yengillik bilan moslashadigan vositalar hisoblanadi.

**Diterixs shinasi** – qo'l va oyoqlarni harakatsizlantirish bilan bir vaqtda ularni cho'zish (ekstenziya) imkonini beradi. Ushbu shinani son suyagi, tos-son va tizza bo'g'imlari singanda qo'llaniladi, to'piq, boldir – oyoq panjasi bo'g'imi va panja jarohatlanganda qo'llash man etiladi.

Shina 4 qismdan iborat:

- 1) panja osti qismi;
- 2) tashqi (katta o'lcham);
- 3) ichki;

4) chilvirli tayoqcha buragich. Shinaning asosiy kamchiligi son va boldir sohasining orqa tomonidan mahkamlaydigan detali yo'q, shuning uchun ham singan suyak bo'lakchalarining orqaga siljishi kuzatilishi mumkin.

**Shinalarni qo'yish qoidalari.** Shinalarni qo'yishda quyidagilarga rioya qilish kerak:

1. Jarohatlangan sohaga qo'shimcha ikki bo'g'imni (yuqorigi va pastki) qo'shib ishonchli immobilizatsiya qilish, son va yelka singanda esa uchta bo'g'im harakatsizlantiriladi.

2. Jarohatlangan sohaga to'g'ri fiziologik holat berish.

3. Yopiq sinishlarda ushbu sohani o'z o'qi bo'ylab biroz cho'zib harakatsizlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

4. Ochiq sinishlarda jarohatdan chiqib turgan suyak bo'lakchalarini olib tashlash yoki joyiga qaytarib to'g'rilash man etiladi.

5. Jarohatlangan shaxsning ustki va oyoq kiyimlarini yechishda unga qo'shimcha tan harohati yetkazilishiga sabab bo'lishi mumkin, shuning uchun yechintirish maqsadga muvofiq emas, ayniqsa, ochiq sinishlarda.

6. Ochiq sinishlarda immobilizatsiya qilishdan oldin jarohatga aseptik bog'lam qo'yiladi, ushbu soha jarohatdan oldin qanday holatda turgan bo'lsa, xuddi shunday holatda harakatsizlantiriladi, bunda yordamchi ko'maklashadi.

7. Zarurati bo'lmagan hollarda rezina jgut ishlatmaslik.

8. Shinalarni yalang'och tanaga qo'yish man etiladi. Shinaga oldindan mato o'raladi yoki kiyim ustidan qo'yiladi. Shina qirg'oqlari terini shikastlamasligi kerak.

9. Bo'g'imlar jarohatlanganda sohani cho'zib harakatsizlantirish maqsadga muvofiq emas;

10. Shifoxonaga olib borish vaqtida jarohatlanganni zambilga o'tkazishda shikastlangan sohani avaylab amalga oshirish kerak.

11. Shina jarohatlangan sohaga bint bilan mahkam o'ralgan bo'lishi kerak.

Kramer shinasi qo'l va oyoqlarga qo'yish uch bosqichdan iborat:

1-bosqich – tana qismining shakliga shinani moslashtirish.

2-bosqich – shinaning ichki tomonini paxta bilan yopib, bint yordamida mahkamlash.

3-bosqich – shinani joylashtirish va umumiy qabul qilingan bog‘lash usuli yordamida mahkamlash.

Diterixs shinasini qo‘yish 7 bosqichdan iborat:

1) shinaning panja ostki qismi oyoq panjasi ostiga «sakkizsimon» bog‘lam ko‘rinishida bintlar yordamida mahkamlanadi;

2) tashqi qismi (uzun qismi) qo‘ltiq ostidan panja ostki qismining metall quloqchasi orqali o‘tkazilib, undan 8–10 sm. ortiqcha uzunlikda qo‘yiladi;

3) ichki qismi chot sohasidan panja ostki qismining metall quloqchasi orqali o‘tkazilgan holatda qo‘yiladi;

4) boldir sohasining osilib qolmasligi uchun, qo‘shimcha ravishda Kramer shinasidan foydalanish tavsiya etiladi;

5) suyaklarga tegib turgan joylarga paxtadan yoki porolondan qistirgichlar qo‘yiladi.

6) sirkulyar yo‘nalishda bint yordamida shina boldir, son, qorin va ko‘krak qafasiga mahkamlanadi;

7) tayoqchali buragich yordamida cho‘zish amalga oshiriladi.

**Gipsli bog‘lamlar to‘g‘risida tushuncha.** Gipsdan birinchi marta arab hakimlari foydalanishgan. Rus jarrohi N.I.Pirogov gipsni birinchi marta harbiy dala sharoitlarida Qrim urushida ishlatgan. Kalsiyning oltingugurt tuzini 140<sup>0</sup>S da qizdirib, gips olinadi. Gips qattiq bog‘lovlar uchun ishlatiladi. Tashqi ko‘rinishidan gips oq rangli, mayda va kukunsimon unga o‘xshash modda, suv bilan aralashtirilganda bo‘tqasimon massa hosil bo‘ladi. U tez qurish va qotish xususiyatiga ega.

Gips bog‘lamining ustuvorligi:

– immoblizatsiyani ta‘minlaydi;

– jarohatlangan oyoq-qo‘lning maksimal tinch holatini ta‘minlab beradi;

– ikkilamchi infeksiya tushishidan va qo‘shimcha jarohatdan saqlaydi;

– jarohatdan ajralayotgan suyuqliklarni o‘ziga so‘rib oladi, chunki gips katta gigroskopik xususiyatga ega.

Gipsli bog‘lamlarning turlari:

- tuynuksiz;

- tuynukli;

- ko‘prikli;

- longetli;

- korsetli;

- krovatli.

Longetli bog‘lam bint bir necha qavat qilib, taxlab tayyorlangan tayoqcha ko‘rinishidagi gipsli bog‘lam.

Korsetli bog‘lam umurtqa pog‘onasi kasalliklarida va sinishlarida ishlatiladi. Uni tayyorlash uchun 12–14 ta gipsli bint va bir dona kengligi 16 sm. bo‘lgan bint kerak bo‘ladi.

Krovatli bog‘lam yechib yana qo‘yish mumkin bo‘lgan bog‘lam, asosan, tananing bir qismiga qo‘yiladi va bemorning uzoq muddatga yotishiga mo‘ljallangan.



### Savol va topshiriqlar:

1. Desmurgiya nima va u nimani o‘rganadi?
2. Qadimda jarohatlarni bog‘lash uchun qanday vositalardan foydalanilgan?
3. Tibbiy doka qanday materialdan tayyorlanadi va undan nimalar tayyorlanadi?
4. Aseptik bog‘lovlarning qanday turlari mavjud?
5. Bog‘lamlarning asosiy turlari (vazifasiga ko‘ra) qaysilar?
6. Yumshoq va qattiq bog‘lamlar o‘rtasidagi farq nimada?
7. Yelimli bog‘lamlarning afzallik va kamchiliklari nimalardan iborat?
8. Ro‘molli bog‘lam qanday hollarda qo‘llaniladi?
9. Bintlil bog‘lam qo‘yishda asosiy qoidalar nimalardan iborat?
10. Sirkulyar (aylanma) bog‘lam nima va qayerlarda qo‘llaniladi?
11. Spiralsimon va o‘rmalovchi bog‘lamlar o‘rtasidagi farq nimada?
12. Toshbaqasimon bog‘lam qaysi tana qismlariga qo‘llaniladi?
13. “Gippokrat qalpog‘i” bog‘lami qanday qo‘yiladi?
14. Dezo bog‘lami qaysi holatlarda qo‘llaniladi va uning asosiy maqsadi nima?
15. Shinalarni qo‘yishda qanday asosiy qoidalarga rioya qilish kerak?

## 9-§. Jarohatlanganlar immobilizatsiyasi va ularni shifoxonagacha tashish (transportirovka qilish)ni tashkil etish

Transport immobilizatsiyasi. Transport immobilizatsiyasi deganda, jarohatlangan sohani transportirovka qilish vaqtida to‘liq harakatsizlanishni ta’minlab beradigan vositalar tushuniladi.

Har qanday transport immobilizatsiyasi bog‘lamlari quyidagi uch qismdan tashkil topadi:

- 1) shinalar;
- 2) shina ostiga qo‘yiladigan qistirmalar;
- 3) mahkamlovchi bog‘lam.

Transport immobilizatsiyasini qo‘llash zaruriyati suyak va bo‘g‘imlar, magistral qon tomirlari va nervlar jarohatlarida, yumshoq to‘qimalarning keng ko‘lamdagi shikastlanishlarida (mexanik, kimyoviy, termik), shuningdek, yallig‘lanish kasalliklarida tug‘iladi.

Travmatik shok, ikkilamchi qon ketish va jarohat infeksiyasining profilaktikasida transport immobilizatsiyasining ahamiyati beqiyosdir. Inson tanasining jarohatlangan qismini fiksatsiyalash og‘riq sezgisini yo‘qotadi yoki uni sezilarli darajada kamaytiradi. Bu shikastlangan joyda hosil bo‘ladigan og‘riq impulslarining markaziy asab tizimiga uzatilishini kamaytiradi.

Demak, transport immobilizatsiyasini talablarga javob beradigan darajada bilimdonlik bilan qo'llash og'riqni qoldiradi yoki uni sezilarli pasaytiradi, ayni paytda, jarohatdan kelib chiqadigan shok xavfini kamaytiradi.

Suyaklar singanda qo'yiladigan transport shinalari suyak siniqlarining harakatini to'xtatadi va bu bilan qon tomirlarining suyakning o'tkir qirralari bilan jarohatlanishini va ikkilamchi qon oqishining oldini oladi.

Tananing jarohatlangan qismiga transport immobilizatsiyasi qo'yilishi muskullar qisqarishiga yo'l qo'ymaydi, limfa oqimini keskin kamaytiradi va bu bilan yaradagi mikrofloraning atrofdagi to'qimalarga tarqalishiga to'sqinlik qiladi, jarohat infeksiyasi rivojlanishining oldini oladi.

Qo'l ostidagi materiallar yordamida transport shinalari va mahkamlovchi bog'lamlarni qo'llashda quyidagi prinsiplarga qat'iy amal qilish kerak:

1) transport immobilizatsiyasi, iloji boricha, vaqtida amalga oshirilishi kerak;

2) shinalar kiyim va poyafzal ustidan qo'yiladi;

3) oyoq-qo'llarga o'rta fiziologik holat beriladi, masalan, qo'lga – yelka bo'g'imida  $30^{\circ}$  ga bukilgan va tanadan uzoqlashtirilgan, tirsak bo'g'imida  $90^{\circ}$ , barmoqlar hamma bo'g'imlari  $45^{\circ}$  li burchak ostida buklangan bo'lishi kerak;

4) oyoq-qo'llarning har qanday joyi shikastlanganda 2 ta qo'shni bo'g'imni, oyoq va son shikastlanishlarida yelka va tos-son bo'g'imlarini shinalash kerak bo'ladi. Transport shinasini qo'yishdan oldin ularning shakli oyoq-qo'lning asosiy segmentlari funksional holatiga mos ravishda modullashtiriladi. Ularning ostiga tola dokali qistirgichlar qo'yiladi.


Transport shinalari bo'lmagan taqdirda qo'l ostidagi vositalardan: belbog', ko'ylak etaklari, kostyumlar yordamida qo'lning o'rta fiziologik holatda tanaga bint bilan bog'lab qo'yiladi.

Oyoq shikastlanganda uni sog'lom oyoqqa bint bilan bog'lab mahkamlanadi, bint bo'lmagan taqdirda ro'molchalar bilan ham bog'lash mumkin.

Kuzatuvchi bir qo'li bilan bemorning shikastlangan tomonidan panjalarini, ikkinchi qo'li bilan shu tomondan ko'ltiq ostidan olib harakatlanishiga yordam beradi yoki shikastlangan kishining qo'lini o'z bo'ynidan o'tkazib, uning panjalarini qo'li bilan ushlab oladi, ikkinchi qo'li bilan shikastlangan kishining belidan ushlab oladi.

Agar ikki kishi bo'lsa, shikastlangan kishini ikki tomonidan ushlab yordam berishi mumkin.

Agar shikastlangan kishi mustaqil harakat qilolmasa, u holda uni qo'lda ko'tarib yoki zambilda, yoki taxtalarda, yoxud qo'lda tayyorlangan (improvizion) – chang'i, kursi, narvon, palto (yenglariga tayoqlar kiydirilib) va boshqa vositalardan foydalanish kerak (21- rasm).



21-rasm.

Shikastlangan kishini zambilga quyidagicha joylashtiriladi:

1) choyshab yozilgan zambil shikastlangan kishining jarohatlangan tomonidan yoniga qo'yiladi. Ikki kishi yordam beradi – birinchisi tizzalab turib bitta qo'lini bemorning boshi tagiga olib borib, ikkinchi qo'li bilan bo'yin va ko'krak qismidan, ikkinchi kishi dumg'aza va boldir ostidan ushlaydi;

2) shikastlangan kishi bir vaqtda, siltamasdan yerdan ko'tariladi;


3) uchinchi, yordamlashuvchi kishi zambilni bemorning tagiga suradi, bemor unga ehtiyotlik bilan tushiriladi va choyshab bilan o'raladi.

Shikastlangan kishini zambilda tashishda quyidagilarga e'tibor qilish kerak:

1) zambilni dastalaridan ushlab, bir vaqtda yerdan ko'tariladi va bosh tomoni oldinga qilib harakatlanadi. Yurishda kalta qadamlar bilan, tizzani salgina bukib, bir vaqtda tashlanmagan qadamlar bilan harakat qilinadi.


2) zinapoyadan ko'tarilishda yoki tepalikka chiqishda shikastlangan kishining boshi oldingi tomonda bo'lishi kerak.

Agar oyoq suyaklari singan bo'lsa, bundan mustasno, bu holda zambilni gorizontal holatda saqlash kerak (22 - rasm).



22- rasm.

3) zinapoyadan pastga tushish-da (tepalikdan tushishda) shikastlangan kishining oyoqlari oldinda (oyoqlar shikastlanganda bundan mustasno) bo'lishi kerak (23 - rasm).



23- rasm.

Shikastlangan kishini zambilga joylashtirishda olingan jarohat turiga mos kelishini ta'minlash, ya'ni turli xil jarohatlarda zambilga turlicha joylashtiriladi. Shuning uchun ham kuzatuvchi shikastlanganning zambildagi holatini doimo diqqat bilan kuzatib borishi kerak.

Umurtqa singan deb taxmin qilinsa va bemorning hushi o'zida bo'lsa, qattiq taxta ustiga yotqizilib, gorizontol holatda tashiladi.

Bosh va miya shikastlanganda (hushi o'zida, shok belgilari yo'q) zambillarda oyoq tomonini 10–15° pasaytirib ko'tarib boriladi. Bosh tagiga uni va bo'yinni mahkamlash uchun yostiqlar qo'yish mumkin.

Qon yo'qotish va shok bo'lsa yoki ularning xavfi bo'lsa, bosh tomon pastroq, oyoqlar 10–15° ga ko'taribroq qo'yiladi yoki oyoqlar qalamtarosh ko'rinishida bukilgan bo'lishi kerak.

Ko'krak qafasi va uning organlari shikastlanib, o'tkir nafas yetishmovchiligi kuzatilsa, tana va bosh tomon ko'taribroq tashiladi (24-rasm).



24 - rasm.

Qorin bo'shlig'i organlari va tosnig shikastlanishlarida gorizontol holatda yotqizilib, bosh va tizza ostiga yostiqlar qo'yiladi.

Yuz va jag' sohalarining shikastlanishlarida gorizontol vaziyatda yuzi bilan pastga qaratib yotqiziladi. Hushi o'zida bo'lmagan holatlarda (asfiksiyaning oldini olish maqsadida), bemor yonboshi bilan turg'un holatda yotqizilishi kerak.

Agar sharoit zambilni bemorga yaqin olib kelishga imkoniyat bermasa, unda bemorni qo'lda quyidagi usullarni qo'llab:


1) agar tashuvchi bir kishi bo'lsa, u quyidagi usullarni qo'llashi mumkin (25-rasm):

- a) yaradorning orqasidan ushlab yordam berishi;
- b) qo'lda ko'tarib olib borishi;
- v) yelkasida yoki orqalab olib borishi;
- g) choyshab, plash, palto, palatka, daraxt shoxlari ustiga bemorni joylashtirib chanaga o'xshab tortib borish mumkin;



25-rasm.

agar shikastlangan kishiga yordam beruvchilar ikki kishi bo'lsa, ular bemorning ikki tomonidan bir tizzasida yerga turib, bir qo'lini belidan, boshqa qo'lini chanoq ostidan o'tkazib ushlab ko'tarishadi va bir vaqtda tashlanmagan qadamlar bilan kasalni ko'tarib kerakli joyga olib borishadi. (26-rasm);



26-rasm.

agar bemorning holati yo'l qo'ysa, uni o'tirgan holatda "murakkab qulf" usulini qo'llab ko'tarib borish mumkin. Bunda bemor qo'llari bilan ko'tarib borayotgan kishilarning bo'ynidan quchoqlab oladi (27-rasm).



27-rasm.

Ko'krak va ko'krak qafasi suyaklari singan bemorlarni zambilda yarim o'tirgan holatda transportirovka qilish mumkin. O'mrov va ko'krak suyaklari singanda o'tirgan holatda transportirovka qilinadi.

Shikastlangan kishini davolash muassasasiga tezlikda yetkazish zarur bo'lgan holatlarda transportirovka qilish birinchi tibbiy yordamning eng muhim bosqichlaridan hisoblanadi.

Bunda imkoniyat boricha, quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

a) tez va ehtiyotkor tashishni ta'minlash (qo'pollik og'riq chaqiradi, suyak siniqlari siljishiga va shokka sababchi bo'lishi mumkin); b) ko'tarib borish va tashishni shikastlanishning xarakteri va og'irligiga mos ravishda bajarish;

v) transportirovka qilishdan oldin jarohatlarni bog'lash, shinalar qo'yish, og'riqsizlantirish, agar sharoit ko'tarsa, tomirga dori quyuvchi tizimni tayyorlab qo'yish va shu kabilarni, boshqacha aytganda, bemorni birinchi yordam ko'r satishning yakunlovchi bosqichiga tayyorlash kerak.

Shikastlangan kishiga nisbatan qo'llanilgan tiriltirish choralari natijasida nafas va yurak faoliyati tiklangach, qon bosimi me'yorga kelgach, u transportirovkaga tayyorlangan hisoblanadi. Agar shu vaqtgacha nafas olishi tiklanmasa, sun'iy nafas oldirishni transportirovka vaqtida ham davom ettirish lozim.

Agar tiriltirish chora-tadbirlari muvaffaqiyatsiz bo'lib, o'lim belgilari yuzaga chiqsa, vrach kelishini kutish kerak. Vrach shikastlangan kishining o'limini uzil-kesil aniqlab beradi;

- zambilning transport vositasining harakati vaqtida qo'zg'alib va harakatlanib ketmasligi uchun chora ko'riladi, ya'ni u mahkamlab qo'yiladi;

- qish vaqtida kasal ustiga issiq narsalar yopib qo'yish lozim;

- kuzatuvchi doimo bemorning yonida bo'lishi zarur (mashina kabinasiga – haydovchi yoniga o'tirib olmasligi kerak).

Shikastlangan kishilarni maxsus mashinalarda, shuningdek, yo'lovchi yengil mashinalarda, samolyotlarda, traktorlarda (tirkamalari bo'lgan), aravalarda transportirovka qilish mumkin.

Hal qiluvchi narsa transportning turi emas, balki kasalning qanchalik tez maxsus kasalxonaga olib borilishidir. Shikastlangan kishini, iloji boricha, tez maksimal qulayliklarga ega bo'lgan va barcha talablarga javob beradigan holatda eng yaqin davolash muassasasiga olib borish kerak.

Shikastlangan kishini zambildan krovatga o'tkazishda, zambilning oyoq tomoni krovatning bosh tomoniga qaratib qo'yiladi yoki aksincha. Og'ir shikastlanishlarda zambil krovat yoniga bir xil balandlikda qo'yiladi, keyin ehtiyotlik bilan bemor krovatga o'tqiziladi.

Xotima o'rnida yana bir muhim narsa – yordam beruvchi kishi bemorga va uning yaqinlariga xushmuomala bo'lishi kerak. Eng avvalo, ularni tinchlantirish va ruhan qo'llab-quvvatlash, shikastlangan kishining tuzalib ketishiga umid va ishonch tug'dirishi kerak (amalda bunday umid qolmagan bo'lsa ham). Bu narsa bemorda davolashning keyingi bosqichlarida vrach tomonidan kasalxonada qo'llaniladigan davolash chora-tadbirlariga ishonch tug'diradi. O'z navbatida, bu kasalning tezroq oyoqqa turishiga sabab bo'ladigan omillardan biridir.



### Savol va topshiriqlar:

1. Transport immobilizatsiyasi deganda nima tushuniladi?
2. Transport immobilizatsiyasi bog'lamlari nechta qismdan tashkil topadi va ular nimalar?
3. Qaysi jarohlarda transport immobilizatsiyasini qo'llash zarur?
4. Transport immobilizatsiyasining travmatik shok va qon ketishning oldini olishdagi ahamiyati nimada?
5. Suyak sinishida transport shinalari qanday foyda beradi?
6. Transport immobilizatsiyasi jarohat infeksiyasining oldini qanday oladi?
7. Shinalarni qo'yishda qanday asosiy prinsiplarga amal qilish kerak?
8. Transport shinalari bo'lmagan holatda qanday vositalardan foydalanish mumkin?
9. Shikastlangan kishini zambilga joylashtirish qanday amalga oshiriladi?
10. Shikastlangan kishini transportirovka qilishda qanday umumiy qoidalarga amal qilish kerak?

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T: O‘zbekiston, 2023.– 76 b;  
O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik asoslari to‘g‘risida”gi 1991-yil 31-avgust qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. – 1991. – № 11. – 246-m;

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T., 2023. – Lex.uz.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi.–T.,2023.– Lex.uz

O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. – T., 2023. – Lex.uz;

O‘zbekiston Respublikasi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni, 2016-yil 16-sentabr, 26-modda;

O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni. 2014-yil 14-may;

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili to‘g‘risida”gi 1989-yil 21-oktyabr qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy kengashining axborotnomasi. – 1989. – № 10–123-m;

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi 445-son qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi 2017-yil 3-yanvar qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – T., 2017. – № 1. – 2-m;

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-may kunidagi «Psixiatriya yordami to‘g‘risida»gi 690-son qonuni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-apreldagi “Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2883-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 07-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta‘minlashda ularning mas‘uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5005-son Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi “Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3216-son qarori;

O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. – 2016-y. – 7 dek;

Prezident Shavkat Mirziyoyevning ichki ishlar organlari xodimlari va faxriylariga bayram tabrigi // <http://m.xabar.uz/mahalliy/shavkat-mirziyoyev-ichki-ishlar-organlari-xodimlari-tabrikladi>;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2022-yil 20-dekabr;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PQ-3413-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi PQ-5076-son qarorlari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-10-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-iyuldagi PQ-4394-son "Davlat organlari xodimlarining formal kiyim-bosh kiyib yurishi tartibini maqbullashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi "Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5268-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-sonli Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-martda "Transport va turizm ob'ektlarida jamoat xavfsizligini ta'minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4229-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-son farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi "Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5647-son farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-sentabrdagi 569-sonli tahririda - Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.09.2024-y., 09/24/569/0714-son;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-apreldagi “Ichki ishlar organlari tomonidan tashkilotlar va fuqarolarning transport vositalaridan majburiy tarzda foydalanganlik natijasida qilingan xarajatlar yoki yetkazilgan zarar, shuningdek transport vositasining egasiga yetkazilgan mulkiy zararining o‘rni qoplash tartibi to‘g‘risida”gi 235-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi “Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi 341-son qarori;

Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 29-martdagi 140-sonli “O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkillashtirish haqida”gi qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-avgust kuni “Ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta‘minlash bo‘linmalari tomonidan shartnoma asosida pullik xizmatlar ko‘rsatish tartibini belgilash to‘g‘risida”gi 669-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2023-yil 20-fevralda “Ichki ishlar organlarida kadrlar bilan ta‘minlash faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 75-son buyrug‘i;

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2025-yil 10-oktabrdagi “Ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy va jangovar tayyorgarligini tashkil etish, malaka toifasini berish hamda reyting baholash tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi 600-son. buyrug‘i;

O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2019-yil 8-avgustdagi “Ichki ishlar organlarida formal kiyim-boshni kiyib yurish” tartibi to‘g‘risidagi 232-sonli buyrug‘i;

Ichki ishlar vazirining 2024-yil 24-apreldagi “Ichki ishlar organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 200-son buyrug‘i;

O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2005-yil 8-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi IIV tizimida ish yuritishni tashkillashtirish va olib borish haqida”gi 10-sonli buyrug‘i;

O‘zbekiston Respublikasi IIVning “Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2017- yil iyuldagi 151-son buyrug‘i;

O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2023-yil 20-fevraldagi 77-son “Ichki ishlar organlari patrul-post xizmati faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi buyrug‘i;

O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2018-yil 20-iyundagi 168-son “Yo‘l-patrul xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2022-yil 7-dekabrda "Ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta'minlash bo'linmalari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 535-son buyrug'i;

Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko'tarishdan iborat // Xalq so'zi. – 2015-y. – 7 dek;

Soatov M.Z. O'zbekiston Konstitutsiyasi – ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asosi. "Konstitutsiya – davlat va jamiyat qurilishi islohotlarining huquqiy asosi". Ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. 2-to'plam. – T.: TDYuI nashriyoti, 2006-y. B. 252-256;

Ichki ishlar organlari faoliyati: IIV akademik liseylari uchun darslik / M. Z. Ziyodullayev, J.S Muxtorov, J.X.Yuldashev. T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020-yil 17-bet;

Ichki ishlar organlari faoliyati: Darslik / M.Z. Ziyodullayev, A.A. Matchanov, D.X. Yuldoshev va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023-yil/ 15-bet;

Ichki ishlar idoralarida boshqaruvni tashkil etish: Ma'ruzalar kursi / D.S. Muxamadaliyev, J.S. Muxtorov, B.A. Saidov va boshq;

J.S.Muxtorov "Ichki ishlar organlarida ish yuritishni tashkillashtirish". O'quv qo'llanma 2021-yil;

Ichki ishlar organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash asoslari: O'quv-metodik qo'llanma / I. Ismailov, X.T. Odilqoriyev, M.Z. Ziyodullayev va boshq.; mas'ul muharrir Sh.T. Ikramov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 119 b;

Ichki ishlar organlarida murojaatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlarini qabul qilish, qayd etish va hal etish tartibi: O'quv-amaliy qo'llanma / Sh.T. Ikramov, M.Z. Ziyodullayev, I.A. Sottiyev. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 70 b;

Pulatov Yu.S., Ismailov I., Qurbonov A. Ichki ishlar organlarida boshqaruv asoslari: Darslik. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2005. – 400 b;

Muxamadaliyev D.S. Ichki ishlar idoralarining boshqaruv faoliyati. 1-qism: Darslik. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2011.–370 b.

Ichki ishlar idoralarida boshqaruvni tashkil etish: Ma'ruzalar kursi / D.S. Muxamadaliyev, J.S. Muxtorov, B.A. Saidov va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013. – 259 b;

Abbasxonova M.A., Imomova T.Z., Rustamov M.A. O'zbek tilida ish yuritish mashqlari. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1999.–63 b;

Ismoilov N. T. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishni ta'minlash choralari: O'quv qo'llanma. – T., 1996;

Ichki ishlar organlarida boshqaruv asoslari: Chizmalar albomi / Tuzuvchilar: I. Ismailov, V. A.Saidov, D. S. Muxamadaliyev, J.S. Muxtorov, M.Z.Ziyodullayev. — T., 2008. — 186 b;

Каримова В.М. Ижтимоий психология. — Т.: Ўқитувчи, 2019.

Касбий этика ва хизмат маданияти. — Т.: Akademnashr, 2020.

Ўзбекистон Миллий университети Психология ва педагогика муаммолари (илмий тўплам). — Т.: ЎзМУ нашриёти, 2018–2024.

В. Каримова Муомала психологияси. — Т.: Fan va texnologiya, 2010.

Б. Қодиров Педагогик конфликтология. — Т.: Tafakkur Bo‘stoni, 2015.

Ўзбекистон Миллий университети Конфликтология ва ижтимоий психология муаммолари (илмий тўплам). — Т.: ЎзМУ нашриёти, 2018–2024.

М. Давлетшин Умумий психология. — Т.: Ўзбекистон, 2010.

Б. Қодиров Педагогик конфликтология. — Т.: Tafakkur Bo‘stoni, 2015.

Андреева Г.М. Социальная психология. — М.: Аспект Пресс, 2018.

Леонтьев А.А. Психология общения. — М.: Смысл, 2017.

Романов В.В. Юридическая психология. — М.: Юрайт, 2021.

Mehrabian A. *Nonverbal Communication*. — Chicago: Aldine Publishing, 2017.

Goleman D. *Emotional Intelligence*. — New York: Bantam Books, 2019.

Douglas Noll *De-Escalate: How to Calm an Angry Person in 90 Seconds or Less*. — 2017.

Анатолий Анцупов, Александр Шипилов *Конфликтология*. — Москва: ЮНИТИ, 2013.

Виктор Шейнов *Управление конфликтами*. — Минск, 2010.

Николай Козлов *Психология общения*. — Москва, 2015.

А. Я. Анцупов, А. И. Шипилов *Конфликтология*. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2013.

В. П. Шейнов *Управление конфликтами*. — Минск: Харвест, 2010.

Н. И. Козлов *Психология общения*. — М.: Эксмо, 2015.

Дейл Карнеги *Как завоёвывать друзей и оказывать влияние на людей*. — Минск: Попурри, 2019.

Marshall Rosenberg *Nonviolent Communication: A Language of Life*. — Encinitas: PuddleDancer Press, 2003.

Daniel Goleman *Emotional Intelligence*. — New York: Bantam Books, 1995.

Hans Selye *The Stress of Life*. — New York: McGraw-Hill, 1956.

Hans Selye *Стресс без дистресса*. — М.: Прогресс, 1982.

Е. П. Ильин *Эмоции и чувства*. — СПб.: Питер, 2001.

Richard Lazarus, Susan Folkman *Stress, Appraisal, and Coping*. — New York: Springer Publishing Company, 1984.

- Richard Lazarus *Psychological Stress and the Coping Process*. — New York: McGraw-Hill, 1966
- Kelly McGonigal *The Upside of Stress: Why Stress Is Good for You, and How to Get Good at It*. — New York: Avery Publishing Group, 2015.
- Edward J. Calabrese *Hormesis: A Revolution in Biology, Toxicology and Medicine*. — New York: Springer, 2010.
- Mark P. Mattson *Hormesis Defined*. — Ageing Research Reviews, 2008.
- Sue Carter Oxytocin and human evolution. — *Current Topics in Behavioral Neurosciences*, 2018.
- Щербатых Ю. В. (2008). *Психология стресса и методы коррекции*. Питер.
- Paul J. Zak The neurobiology of trust. — *Scientific American*, 2011.
- Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. — М.: Питер, 2002.
- Robert Sapolsky *Why Zebras Don't Get Ulcers*. — New York: Henry Holt, 2004.
- James Gross *Handbook of Emotion Regulation*. — New York: Guilford Press, 2014.
- Анцупов А.Я., Шипилов А.И. *Конфликтология*. — Москва: Юрайт, 2023.
- Гришина Н.В. *Психология конфликта*. — Санкт-Петербург: Питер, 2022.
- А. Я. Анцупов, А. И. Шипилов *Конфликтология*. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2013.
- Herbert Kelman Conflict resolution and prevention theories. — *Journal of Social Issues*, 1990.
- Morton Deutsch *The Resolution of Conflict*. — New Haven: Yale University Press, 1973.
- В. П. Шейнов *Управление конфликтами*. — Минск: Харвест, 2010.
- Л. А. Петровская *Конфликтология: учебное пособие*. — М.: Питер, 2000.
- Chris Voss *Never Split the Difference*. — New York: Harper Business, 2016.
- Thomas Gordon *Parent Effectiveness Training*. — New York: Three Rivers Press, 2000.
- Фрейд З. *Психология масс и анализ человеческого «Я»*. — СПб.: Азбука, 2015.
- Robert Cialdini *Психология влияния*. — СПб.: Питер, 2018.
- Sigmund Freud *Психология масс и анализ Я*. — М.: АСТ, 2009.
- Stanley Milgram *Подчинение авторитету*. — М.: Альпина нон-фикшн, 2015.
- David G. Myers *Социальная психология*. — СПб.: Питер, 2016.

- Elliot Aronson *Общественное животное*. — М.: Прайм-Еврознак, 2006.
- Henri Tajfel *Социальная идентичность*. — М.: Питер, 2004.
- Еникеев М. И. *«Юридическая психология»*. — М.: Норма, 2016.
- Лебон Г. *«Психология народов и масс»*. — М.: Академический проект, 2011. — 240 с.
- Тард Г. *«Мнение и толпа»*. — М.: Институт психологии РАН, 1999. — 304 с.
- Бехтерев В. М. *«Внушение и его роль в общественной жизни»*. — СПб.: Питер, 2001. — 256 с.
- <https://gov.uz/uz/iiv/pages/vazirlik-tarixi>;
- <https://ru.wikipedia.org/wiki>;
- <https://senat.uz/oz/post/post-1363>;
- <https://drive.google.com/> (Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo‘llanma 2020-yil).

<b>SO‘Z BOSHI</b> .....	3
-------------------------	---

**I-qism**

**I BOB. “ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINI BOSHLANG‘ICH VA MAXSUS KASBIY TAYYORLASH” BLOK-MODULNING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI**

1-§. “Ichki ishlar organlari faoliyatida boshlang‘ich va maxsus kasbiy tayyorgarlik” blok-modulning predmeti va tuzilishi.....	5
2-§. “Ichki ishlar organlari faoliyatida boshlang‘ich va maxsus kasbiy tayyorgarlik” blok-modulning maqsad, funksiyasi va vazifalari.....	9

**II BOB. ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATINI TARTIBGA SOLUVCHI NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR**

1-§. Ichki ishlar organlari faoliyatini tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining mazmun-mohiyati.....	17
2-§. Ichki ishlar organlari faoliyatini tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlarining mazmuni va mohiyati.....	21
3-§. Ichki ishlar organlari faoliyatini belgilovchi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi IIVning me‘yoriy huquqiy hujjatlarining mazmuni va mohiyati.....	27

**III BOB. ICHKI ISHLAR ORGANLARINING ASOSIY VAZIFALARI, FAOLIYAT YO‘NALISHLARI VA PRINSIPLARI**

1-§. Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari.....	32
2-§. Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari.....	37
3-§. Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy prinsiplari.....	41

**IV BOB. ICHKI ISHLAR ORGANLARINING TIZIMI VA TASHKILY TUZILISHI**

1-§. Ichki ishlar organlarining tizimi.....	45
2-§. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining huquqiy maqomi.....	47
3-§. Hududiy ichki ishlar organlarining huquqiy maqomi.....	52
4-§. Shahar (tuman) ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmalari va ichki ishlar bo‘limlarining tizimi.....	54

**V BOB. ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA XIZMATNI O‘TASH TARTIBI VA SHARTLARI**

1-§. Ichki ishlar organlaridagi xizmatga qabul qilish.....	56
2-§. Ichki ishlar organlari xodimi va ularning maxsus unvonlari.....	58
3-§. Xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda attestatsiya o‘tkazishni tashkil etish tartibi.....	66

4-§. Ichki ishlar organlari xodimlariga ta'tillar va malaka toifasini berish tartibi.....	71
5-§. Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat kiyimini kiyish madaniyati.....	76
6-§. Ichki ishlar organlaridagi xizmat o'tash va undan bo'shatish.....	82

## **VI BOB. ICHKI ISHLAR ORGANLARI TOMONIDAN AYRIM MAJBURLOV CHORALARINI QO'LLASH TARTIBI VA SHARTLARI**

1-§. Ichki ishlar organlari tomonidan shaxslarni ushlab turish asoslari va tartibi.....	87
2-§. Hududdagi uchastkalarni, turar joylarni, inshootlarni va boshqa ob'ektlarni o'rab olish (to'sib qo'yish).....	96
3-§. Tashkilotlar va fuqarolarning transport vositalaridan foydalanish.....	103

## **VII BOB. ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI TOMONIDAN JISMONIY KUCH ISHLATISH, MAXSUS VOSITA VA O'QOTAR QUROLLARNI QO'LLASH TARTIBI VA SHARTLARI**

1-§. Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalar va o'qotar qurollarni qo'llashning huquqiy asoslari.....	108
2-§. Ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy kuch ishlatish shartlari.....	110
3-§. Ichki ishlar organlari xodimlarining tomonidan maxsus vositalarini qo'llash tartibi.....	113
4-§. Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan o'qotar qurolni qo'llash tartibi.....	116

## **VIII BOB. ICHKI ISHLAR ORGANLARINING JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUHOJATLARI BILAN ISHLASH FAOLIYATI**

1-§. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari tushunchasi, turlari va shakllari.....	121
2-§. Ichki ishlar organlarida jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslar vakillarini qabul qilish tartibi va shartlari.....	127
3-§. Ichki ishlar organlarida jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko'rib chiqish muddatlari va tugatish asoslari.....	132

## **IX BOB. ICHKI ISHLAR ORGANLARINING ISH YURITISH FAOLIYATI**

1-§. Ichki ishlar organlarida ish yuritish tushunchasi, turlari, vazifa va maqsadlari.....	139
2-§. Xizmat hujjatlarining tuzishga qo'yiladigan talablar.....	147
3-§. Xizmat hujjatlarini rasmiylashtirish tartibi.....	152

## **X BOB. KASBIY PSIXOLOGIYA**

1-§. Professional imij va muloqot etiketi.....	161
2-§. Deeskalatsiya san'ati: tajovuzkorlik va qarshilikni so'ndirish.....	164
3-§. Stress-menejment va affektiv holatlarni boshqarish.....	169
4-§. Konfliktologiya: nizoli holatlar prevensiyasi.....	173
5-§. Olomon psixologiyasi va ommaviy jarayonlarni boshqarish.....	179

## **XI BOB. ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA BIRINCHI TIBBIY TAYYORGARLIK**

1-§. Shaxsiy gigiyena .....	184
2-§. Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.....	191
3-§. Qon ketishi. Qon ketganda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.....	194
4-§. Ekstremal holatlar (klinik o‘lim)da birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.....	203
5-§. Kuyishlarda ko‘rsatiladigan birinchi tibbiy yordam.....	207
6-§. Sovuq olishi va muzlashda ko‘rsatiladigan birinchi tibbiy yordam.....	212
7-§. Suyaklar singanda va shikastlanganda birinchi tibbiy yordam.....	214
8-§. Jarohatlarni bog‘lash qoidalari.....	228
9-§. Jarohatlanganlar immobilizatsiyasi va ularni shifoxonagacha tashish (transportirovka qilish)ni tashkil etish.....	239
<b>Adabiyotlar ro‘yxati.....</b>	<b>246</b>

## **MUALLIFLAR JAMOASI:**

**N.B.Shoimov** yu.f.n., dotsent, **A.S.Vaxidov** dotsent – I- va II-boblar;  
**O‘.M.Otayev** dotsent, **A.M.Abjalov** s.f.b.f.d. (PhD), dotsent – III-bob;  
**B.B.Turgunboyev**, **Z.B.Xasanov** – IV-bob;  
**B.A.Ulugbekov** yu.f.b.f.d (PhD), dotsent, **N.L.Melikulov** – V-bob;  
**F.S.Axmedov**, **Z.N.Xojibekov**, **U.M.Otayev** – VI-bob;  
**K.S.Beysenov** dotsent, **N.Z.Tasimov** dotsent, **J.M.Boboyorov** – VII-bob;  
**A.S.Vaxidov** dotsent, **F.B.Matyakubova**, **Sh.K.Raximov** – VIII- va IX-boblar;  
**I.M.Xakimova** – X-bob;  
**To‘rayev I.E.** t.f.b.f.d (PhD), **Z.B.Bairov** – XI-bob.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINI  
BOSHLANG'ICH VA MAXSUS KASBIY  
TAYYORLASH

DARSLIK  
I-qism

*Muharrir: B.N. Normurodov*

---

Bosishga ruxsat etildi 22.05.2026-y. Nashriyot hisob tabag'i 16,2.  
Adadi \_\_\_\_\_. Buyurtma №\_\_\_\_. Kelishilgan narxda

---

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti,  
Toshkent shahar, Bektemir tumani, X.Bayqaro ko'chasi, 27 a-uy.